

Rus. dрамат. драмы

A.N. Ostrovskiy





София

Книга должна быть  
возвращена не позже  
указанного здесь срока

Количество предыдущих  
выдач

Т-4. Зак. № 2005






# ALEKSANDR NIKOLAYEVICH OSTROVSKIY



## Sebosiz qız

Pyesalar



TOSHKENT  
«O'ZBEKISTON»  
2020

UO'K 821.161.1-2

KBK 84(2Rus)

O-85

Ostrovskiy, Aleksandr Nikolayevich.

O-85      Sepsiz qiz [Matn]: pyesalar; Serdaromad joy; Kam-  
bag‘allik ayb emas; Momaqaldiroq/ A.N. Ostrovskiy. –  
Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2020. – 296 b.

ISBN 978-9943-25-933-1

Aleksandr Nikolayevich Ostrovskiyning rus adabiyotida «yangi dunyo»ni boshlab bergen dramaturgiyasining alohida jihat shunda ediki, undagi personajlarning obrazida jonlilik bor edi. Tomoshabin tiliga tushgan har bir sahna asarining tili xalqona va badiiy jihatdan mukammal hamda ishonarliligi bilan nom qozongandi. 1853-yildan boshlab deyarli har mavsumda Moskva va Sankt-Peterburg teatrларида Ostrovskiyning yangi pyesalari sahnalashtirilardi: «G‘alati ziyo-fatda», «Serdaromad joy», «Momaqaldiroq», «Aqldan ozgan pul» dramalari sahnaning eng jonli va sevimli asarlariga aylangandi.

Dramaturg umri davomida tomoshabinlar tomonidan olqish-langan va unga muvaffaqiyatlar keltirgan juda ko‘plab pyesalarni yaratdi.

Mazkur kitobga muallifning «Serdaromad joy», «Kambag‘allik ayb emas», «Sepsiz qiz» va «Momaqaldiroq» kabi eng sara pyesalari kiritilgan.

UO'K 821.161.1-2

KBK 84(2Rus)

ISBN 978-9943-25-933-1

© «O‘zbekiston» NMIU, 2020



## QATNASHUVCHILAR

Aristarx Vladimirovich Vishnevskiy, munkillab qolgan chol, bod kalsaliga yo'liqsanligi ko'riniib turibdi.

Anna Pavlovna, uning xotini, yosh juvon.

Vasiliy Nikolayevich Jadov, yosh yigit, Vishnevskiyning jiyani.

Mikin – Jadovning do'sti, o'qituvchi.

Akim Akimich Yusov, qari chinovnik Vishnevskiyning qo'l ostida ishlaydi.

Anisim Pamfilich Belogubov, yosh chinovnik, Yusovga qaram bo'lgan kishi.

Felisata Gerasimovna Kukushkina – marhum Kollejskiy asessorni xotini.

Yulinka! } – Kukushkinaning qizlari.  
Polina }

Dosujev

Birinchichinovnik.

Ikkinchichinovnik.

Stesha – oqsoch qiz.

Anton – Vishnevskiyning uyidagi xizmatkor.

Grigoriy I }

Vasiliy } – traktirdagi xizmatkorlar.

Dastyor bola.

Traktirdagi mehmonlar, xizmatkorlar.

## BIRINCHI PARDA

Vishnevskiy uyida boy jihozlangan katta bir xona; chapda Vishnevskiying kabinetiga kiradigan eshik, o'ngda Anna Pavlovna xonasiga kiradigan eshik; ikki yonidagi devorda bittadan oyna, tagida stolchalari; to'g'rida ko'cha eshigi.

## BIRINCHI SAHNA

Vishnevskayaning xonasidan baykadan tikilgan syurtuk kiygan, pariksiz

Vishnevskiy va Vishnevskaya chiqib keladi.

Vishnevskaya ertalabki kiyimda.

Vishnevskiy. Ko'rnamaklik! Kekini qarang-u! (*O'tiradi.*)  
Menga tekaningizga besh yil bo'pti-yu, nahotki besh yildan beri hech  
narsa bilan ko'nglingizni topolmasam. Tavba! Balki biror narsadan xa-  
fadirsiz?

Vishnevskaya. Xafa emasman.

Vishnevskiy. Shundoq deng-da. Bu uyni va undagi jihozlarni  
siz uchun olmadimmi? Bultur olingen bog' ham siz uchun emasmidi?  
Xo'sh, yana nimaga muhtojligingiz bor? Sizdagi brilliantlar hech qaysi  
savdogarning xotinida bo'lmasa kerak.

Vishnevskaya. Qulluq. Biroq men sizdan hech narsa talab  
qilgan emasman.

Vishnevskiy. Siz talab qilgan emassiz. Ammo men yoshimiz-  
dagi tafovut evaziga biror narsa mukofot berishim kerak edi-da. Men  
qilgan hadyalarim qadriga yetadigan xotin bo'larsiz deb umid qilgan  
edim. Axir, men bir ishora bilan marmar qasrlar paydo qiluvchi sehrgar  
emasman-ku. Siz boshdan-oyoq kiyingan baxmallarga, ipaklarga, suv-  
sarlar mo'ynasiga, taqqan oltinlarga pul kerak: pul esa osonlik bilan  
topilavermaydi.

Vishnevskaya. Menga hech narsa kerakmas. Buni sizga ko'p  
marta aytganman.

Vishnevskiy. Lekin men sizning ko'nglingizni topishim  
kerak! Sizning menga bo'lgan sovuq muomalangiz meni jinni qilib

qo'yayapti. Men juda ehtirosli kishiman. Muhabbat tufayli har qanday yo'lga kirishga tayyorman! Men bu yil sizga atab Moskva yonidan bog' sotib oldim. Bilasizmi, u pulni qayerdan olgan edim... Qanday desam bo'ladi?.. Xullas, aqlga sig'maydigan darajada tavakkal ish qildim. Buning uchun meni javobgarlikka tortishlari ham mumkin.

V i s h n e v s k a y a . Xudo xayringizni bersin, meni o'z kirdikorlaringizga sherik qilako'rmang. Ularni muhabbat ko'yida qildim deb ham oqlamang. Sizdan o'tinaman. Bunga men chidayolmayman. Shunisi ham borki, men sizga ishonmayman. Siz meni bilmagan vaqt-laringizda ham shunday yashab, shu xilda ish tutar edingiz. Men, hatto o'z vijdonim oldida ham sizning xulqingiz uchun javobgar bo'lishni istamayman.

V i s h n e v s k i y . Xulq! Xulq emish! Men sizning muhabbatizing yo'lida, hatto jinoyat qilishga ham tayyorman. Muhabbtizing tufayli o'z nomusimni sotishga ham hozirman. (*O'rnidan turadi. Vishnevskayaga yaqinlashadi.*)

V i s h n e v s k a y a . Aristarx Vladimirich, sizni sevaman deb al-dayolmayman.

V i s h n e v s k i y (*qo'lidan ushlab*). Aldang! Yolg'ondan bo'lsa ham seving.

V i s h n e v s k a y a (*yuz o'girib*). Hech qachon.

V i s h n e v s k i y . Axir, men sizni sevaman-ku!.. (*Qaltirab tiz cho'kadi.*) Men sizni sevaman!

V i s h n e v s k a y a . Aristarx Vladimirich, o'zingizni yerga urmang! Vaqt bo'ldi, kiyining. (*Qo'ng'iroq chaladi.*)

V i s h n e v s k i y o'midan turadi, kabinetdan Anton chiqadi.

Aristarx Vladimirichni kiyintiring.

A n t o n . Marhamat qilsinlar, tayyor. (*Kabinetga kiradi.*)

V i s h n e v s k i y uning orqasidan ketadi.

V i s h n e v s k i y (*eshikda*). Ilon! Ilon! (*Ketadi.*)

## IKKINCHI SAHNA

V i s h n e v s k a y a (*yolg'iz bir necha daqqa o'ylanib qoladi*).

Bir bola kirib, xat berib, chiqib ketadi.

Bu xat kimdan? (*Xatni ochib o'qiydi.*) Bu nimasi! Muhabbatnoma. Kimdan! Chiroyli xotini bor keksa odamdan. Razolat! Haqorat! Shun-

day vaziyatda xotin kishi nima qilishi lozim? Qanday jirkanch so‘zlar yozilgan! Qaytarib yuboramikan? Yo‘q, yaxshisi buni tanishlarimdan bir-ikkitasiga ko‘rsatib, kulishsak ancha ermak bo‘ladi... Qanday ifloslik! (*Ketadi.*)

Anton kabinetdan chiqib, eshik oldida to‘xtaydi, Yusov, so‘ng Belogubov kiradilar.

### UCHINCHI SAHNA Anton, Yusov va Belogubov.

Yusov (*qo‘lida portfel*). Antosha, kirib ayt.

Anton ketadi. Yusov oynaga qarab u yoq-bu yog‘ini to‘g‘rilaydi.

Anton (*eshikda*). Marhamat qilsinlar.

Yusov ketadi, Belogubov kiradi.

Belogubov (*cho‘ntagidan taroq olib, sochini taraydi*). Xo‘s, Akim Akimich shu yerdamilar?

Anton. Hozirgina kabinetga kirib ketdilar.

Belogubov. Bugun xo‘jayinning avzoyi qalay? Chehralari ochiqmi?

Anton. Bilmadim. (*Ketadi.*)

Belogubov oyna stolchasi yonida turadi.

Yusov (*kiraturib gerdayadi*). E, sen shu yerdamisan?

Belogubov. Shu yerdaman.

Yusov (*qog‘ozlarni ko‘zdan kechirib*). Belogubov!

Belogubov. Labbay?

Yusov. Mana, uka, uyingga olib ket, toza qilib ko‘chir. Buyruq shunday bo‘ldi.

Belogubov. Meni ko‘chirsin dedilarmi?

Yusov. Ha. Sening xatingni chiroyli dedilar.

Belogubov. Bu gapni eshitishdan nihoyatda xursandman.

Yusov. Qulq sol, uka, shoshilmay ko‘chir. Juda toza bo‘lsin. Qayerga yuborilishini ko‘rayapsanmi?..

Belogubov. Tushunaman, Akim Akimich, husnixat qilib yozman, kechasi bilan uxlamayman.

Yusov. Oxo-xo-xo! Oxo-xo-xo!

Belogubov. Akim Akimich, menga faqat e’tibor bersangiz bo‘lgani.

Yusov (*keskin*). Buni hazil fahmlaysan deyman-a?

B e l o g u b o v . Yo'g'-e!..

Y u s o v . E'tibor bering emish!.. Aytishga oson! Chinovnikka bundan bo'lak yana nima kerak o'zi? Bundan boshqa narsani orzu qiloladimi?

B e l o g u b o v . Shunday albatta...

Y u s o v . Mana, senga e'tibor berishdimi, durust, odam bo'lasan, nafas olasan: basharti e'tibor berishmasa-chi, unda nima degan odam bo'lasan?

B e l o g u b o v . Ha, albatta, odam bo'larmidim.

Y u s o v . Odam emas chuvalchang bo'lasan, chuvalchang!

B e l o g u b o v . Akim Akimich, axir, jonim boricha tirisha-yapman-u.

Y u s o v . Senmi? (*Tikiladi.*) Ha, senga e'tibor berib, nazarga olib qo'yganman.

B e l o g u b o v . Men, Akim Akimich, yaxshi kiyinay deb, hatto ovqatdan ham o'zimni tortib qo'yganman. Ozoda kiyining chinovnik boshliqlarning ko'ziga chalinib turadi, shunday emasmi?.. Mana qarang-a, belimni qarang... (*Aylanadi.*)

Y u s o v . To'xta-chi. (*Uni ko'zdan kechiradi, tamaki hidlay-di.*) Beling joyida... Ha, aytgancha, Belogubov, yaxshilab yoz, xatosi bo'lmasin.

B e l o g u b o v . Akim Akimich, shu, imlodan picha no'noq-roqmanda... Ishonasizmi, turib-turib o'zim ham xafa bo'lib ketaman.

Y u s o v . Imlo ham gap bo'ptimi! Hamma narsani birdan o'rghanmaydi-da, kishi. Avval xomaki qilib yozib ol-da, biror kishiga bersang, tuzatib beradi, keyin o'shandan oqqa ko'chir. Tushundingmi gapimga?

B e l o g u b o v . Birorta odamga tuzattirib olaman, bo'lmasa Jadov mazax qilaverib o'ldiradi.

Y u s o v . Kim deding?

B e l o g u b o v . Jadov.

Y u s o v . Uning o'zi kim bo'pti! Shunaqa katta odam ekanmi, boshqalardan kuladigan!

B e l o g u b o v . Axir, o'zining olimligini ko'rsatmasa bo'ladimi?

Y u s o v . Tfу! Mana u nima!

**B e l o g u b o v .** Men uni, Akim Akimich, qanday odamligiga sira tushunolmayman.

**Y u s o v .** Sariq chaqaga qimmat odam!

Jimlik

Men hozir o'sha yerda edim. (*Kabinetni ko 'rsatadi.*) Ular (*sekin*) jiyanimni nima qilishni bilolmay qoldim, dedilar! Buyog'ini o'zing tu-shunib olaver.

**B e l o g u b o v .** Jiyan bo'lsa osmonda yuribdi.

**Y u s o v .** Osmonda bo'lgani bilan, bir kun emas, bir kun yerga tushadi-da. Nima kamchiligi bor edi: yegani oldida, yemagani ketida edi. Minnatdor bo'ldi deysanmi? Yoki bular undan izzat-hurmat ko'radilarmi? Qayoqda deysan! To'nglik, erkin fikrlikdan boshqa hech narsa... Qarindosh bo'lgani bilan, ming qilganda ham zoti bo'lak... Jonlariga tegmaydi deysanmi? Unga, do'stimizga: oyiga o'n so'lkavoyni olib, o'z aqling bilan yashab ko'r-chi, balki aqling kirib qolar, debdilar.

**B e l o g u b o v .** Ana, tentaklikning oqibati, Akim Akimich! Bo'lmasa, uni qarang... Ey xudo... Shunday baxt-a! Xudoga ming mar-ta shukur qilmaydimi. To'g'rimi, Akim Akimich, shukur qilishi kerak edi-a?

**Y u s o v .** Bo'lmasa-chi!

**B e l o g u b o v .** O'z baxtidan o'zi qochib yuribdi. Unga tag'in nima kerak? Martabaga ega bo'lsa, shunday odamga qarindosh, hamma narsa tayyor bo'lsa, istasa serdaromad o'ringa ham o'tirishi mumkin edi. Axir, Aristarx Vladimirich so'zini qaytarmas edilar-ku.

**Y u s o v .** Qanaqaligini shundan bilaver-da!

**B e l o g u b o v .** Mening fikrimcha, Akim Akimich, uning o'rnida boshqa farosatliroq odam bo'lsa Aristarx Vladimirichning etigini tozalar edi, u bo'lsa shunday odamning dilini og'ritib yuribdi.

**Y u s o v .** Kibr bilan erkin fikr qilishning oqibati shu-da!

**B e l o g u b o v .** Fikr qlishni kim qo'yibdi! Biz nima ham fikr qiloldik! Men bo'lsam, Akim Akimich, hech qachon...

**Y u s o v .** Senga kim qo'yibdi!

**B e l o g u b o v .** Men hech qachon... Chunki bu yaxshilikka olib bormaydi, qaytaga boshingni baloga qo'yadi.

Y u s o v . Axir, u nima qilsin! Universitetda o‘qiganini ko‘rsatishi kerak-da.

B e l o g u b o v . Kishi degan boshliqlardan qo‘rqmasa... Ular oldida titramasa, ilmdan nima foyda?

Y u s o v . Nima qilmassa?

B e l o g u b o v . Titramasa deyman.

Y u s o v . Ha, albatta.

B e l o g u b o v . Akim Akimich, meni ish boshqaruvchi qilib qo‘y-sangiz-chi.

Y u s o v . O‘ho‘, ishtahang joyida-ku.

B e l o g u b o v . Buni aytishimdan maqsad, qaylig‘im bor. Juda ilmli qiz. Tuzukroq amalim bo‘lmasa, kim menga qizini beradi deysiz.

Y u s o v . Qizni nega menga ko‘rsatmaysan?

B e l o g u b o v . Jonim bilan... Hozir desangiz, hozir... Sizni otam o‘rnida...

Y u s o v . Tuzukroq o‘rinni aytib ko‘raman. O‘ylab ko‘ramiz.

B e l o g u b o v . Tuzukroq o‘rin bo‘lsa o‘la-o‘lgunimcha bo‘lar edi. Hatto tilxat ham beraman, chunki yuqorirog‘iga kuchim yetmaydi. Qobiliyatim ham uncha katta emas.

J a d o v kiradi.

## TO‘RTINCHI SAHNA

Burungilar va J a d o v .

J a d o v . Tog‘am bandmilar?

Y u s o v . Bandlar.

J a d o v . E, afsus! Juda zarur ishim bor edi-da.

Y u s o v . Kutsangiz ham bo‘ladi, ularning ishi siznikidan zarurroq.

J a d o v . Siz mening ishimni qayoqdan bilasiz?

Y u s o v (*unga qarab kuladi*). Qanaqa ish bo‘lar edi! Birorta bo‘limg‘ur gapdir-da.

J a d o v . Siz bilan gaplashgandan ko‘ra gaplashmaganim ham ma’qul, Akim Akimich; siz doim o‘zingizga dag‘al javob sotib olasiz. (*Sahna oldiga kelib o‘tiradi*.)

Y u s o v (*Belogubovga*). Eshitdingmi?

B e l o g u b o v . So‘zlashishga ham arzimaydi. Qarigan chog‘ingizda o‘zingizni koyitib nima qilasiz. Xayr. (*Ketadi*.)

## BESHINCHI SAHNA

Jadov bilan Yusov.

**Yusov (o'zicha).** Xa-xa-xa! O'limgan qul har nimani ko'raverar ekanda. Yosh bolalarning tumshug'i ko'tarilib ketganini qarang.

**Jadov (o'girilib).** Nima deb to'ng'illayapsiz?

**Yusov (davom etib).** Buyurgan ishni bajarishni yoqtirmaymiz-u, mahmadonalikka ustamiz. Nega biz idorada o'tirishimiz kerak ekan! Hammamizni ministr qilsalar-u qo'ysalar! Xayr, nima ham dedik, uzr-uzr, talantinglarni bilmagan ekanmiz. Ministr qilib qo'yamiz, albatta, qilamiz... Birozgina sabr qilinglar... Ertagayoq.

**Jadov (o'zicha).** Bezar bo'ldim-da!

**Yusov.** Ey Xudo! Ey Xudo! Na uyatni, na or-nomusni biladi! Ona suti hali og'zidan ketmagan-u, oliftagarchiligi olamni buzadi. Men undog'man, men mundog'man, menga tegmang deydi!

Anton kiradi.

**Anton (Yusovga).** Barinning huzuriga marhamat qilsinlar.

**Yusov** kabinetga kirib ketadi.

**Jadov.** Anna Pavlovnaga ayt, men u kishini ko'rmoqchiman.

**Anton.** Xo'p bo'ladi. (*Ketadi.*)

## OLTINCHI SAHNA

**Jadov (yolg'iz).** Bu sassiq chol rosa to'ng'illadimi! Men unga nima yomonlik qildim! Universitetdan chiqqanlarni ko'rgani ko'zim yo'q deydi. Mening gunohim nima? Qani endi shunday boshliqlar qo'lida ishlab ko'r-chi. Biroq men yaxshi yursam, u nima ham qilolardi? Tuzukroq o'rin bo'shab qolguday bo'lsa, meni chetga surib qo'yishsa kerak. Bulardan har baloni kutish mumkin.

Vishnevskaya kiradi.

## YETTINCHI SAHNA

Jadov bilan Vishnevskaya.

**Vishnevskaya.** Salom, Vasiliy Nikolaich!

**Jadov.** Yangajon, salomatmisiz? (*Qo'lini o'padi.*) Yangi gaplar topib keldim.

V i s h n e v s k a y a . O'tiring.

O'tiradilar.

Qanday yangilik?

J a d o v . Men uylanmoqchiman.

V i s h n e v s k a y a . Hali erta emasmi?

J a d o v . Sevib qoldim, yangajon, sevib qoldim. Qanday qizligini aytmaysizmi? Kamolatning o'zginasi!

V i s h n e v s k a y a . Qiz boymi?

J a d o v . Yo'q, yangajon, hech narsasi yo'q.

V i s h n e v s k a y a . Qanday yashaysizlar bo'lmasa?

J a d o v . Bu bosh, bu qo'llar nima uchun? Nahotki o'la-o'lgunimcha birovga qaram bo'lib yashasam? Mendan boshqa odam bo'lsa, albatta, xursand ham bo'lardi, lekin menga bu yoqmaydi. Tog'amga yoqaman deb o'z e'tiqodlarimga qarshi turmog'im ustida so'z ham bo'lishi mumkin emas. Biz ishlamasak, kim ishlaydi? Bizni nima uchun o'qitishdi? Tog'amga qolsa, ular avval qanday yo'l bilan bo'lmasin pul top, uy-joy qil, ot-ulov ol, keyin xotin olasan, deb maslahat beradilar. Men ularning fikriga qo'shila olamanmi? Men u qizni sevaman. Yosh yigitlarga xos sevgi bilan sevaman. Nahotki men uning davlati yo'q ekan deb, o'z baxtimdan voz kechishim kerak?

V i s h n e v s k a y a . Kishilar yolg'iz kambag'allikdan emas, boylikdan ham aziyat chekadilar.

J a d o v . Tog'am bilan gaplashgan gaplarimiz esingizdam? Poraxo'rlik yoki adolatsizlikka qarshi biror so'z deguday bo'lsang, uning javobi tayyor: bor, yashab ko'r, boshqacha sayrab qolasan der edi. Mana men yashab ko'rmoqchiman, yana yolg'iz o'zim emas, yosh xotinim bilan birga.

V i s h n e v s k a y a (*xo'rsinib*). Ha, sizdek odamlar sevgan xotinlarga kishining havasi keladi.

J a d o v (*qo'lini o'pib*). Tinmay ishlayman, yangajon! Undan ko'proq ishlashimni xotinimning o'zi ham talab qilmasa kerak. Bashi sharti bir qancha vaqt muhtojlikda yashashga to'g'ri kelib qolsa ham, Polina menga bo'lgan muhabbat tufayli o'z noroziligini bildirmas deb o'ylayman. Har qalay, turmush qanchalik achchiq bo'lmasin, tahsil topgan e'tiqodlarimning milliondan bir qismidan ham qaytmayman.

V i s h n e v s k a y a . Bunga imonim komil, ammo xotiningiz... yosh! Muhtojlikka bardosh berolmay qiyalsala kerak. Bizda qizlarga

yomon tarbiya beradilar. Siz, yoshlар, bizni farishta deb bilasizlar, ishoning, Vasiliy Nikolaich, biz erkaklardan ham battarraqmiz. Biz tamagir, maylga berilgan odamlarmiz. Nachora! Tan berish kerak; biz xotinlarda nomus va adolat tuyg'usi kamroq. Yana shunimiz yomonki, bizlarda nazokat kam. Xotin kishi bo'lar-bo'lmasga ta'na qilaveradi, vaholanki buni o'qimishli erkak kishi ham o'ziga ep ko'rmaydi. Eng yaqin dugonalar bir-biriga achchiq so'zlar aytishadi. Ba'zan xotin ki-shining ahmoqona ta'nasi ranjishdan ham og'irroq bo'ladi.

J a d o v . Bu to'g'ri. Ammo men o'zim uni tarbiyalayman. U hali bola, yo'lga salsa bo'ladi. Bemaza tarbiya bilan buzib ulgurmaslaridan burun uni tezroq o'z oilasidan sitib olish lozim. Erga berishga tayyorlab qo'yanlaridan keyin foydasi yo'q – kech bo'ladi.

V i s h n e v s k a y a . Shubha qilishga haddim sig'maydi, ixlosingizni qoldirmoqchi ham emasman. Sizni birinchi qadamingizdayoq sovitib qo'yish oliyjanoblik bo'lmaydi. Ko'nglingiz yumshoqligida qalbingizni o'z mayliga qo'yib bering. Qashshoqlikdan qo'rwmang. Xudoning o'zi qo'llasin. Ishoning, hech kim sizga menchalik baxt tilamaydi.

J a d o v . Men hamisha bunga amin edim.

V i s h n e v s k a y a . Meni yolg'iz bir narsagina tashvishga soladi: u ham bo'lsa, besabrligingiz. Shuning orqasidan siz doim o'zingizga dushman orttirib yurasiz.

J a d o v . Ha, hamma menga besabrsan, shu tufayli ko'p narsani yutqazasan, deydi. Besabrlik nuqsonmi? Yusovlarga, Belogubovlarga va atrofdagi barcha iflosliklarga beparvo bo'lib qarash undan ko'ra yaxshiroqmi? Beparvolik bilan yomonlikning orasi uzoq emas. Yomonlikdan irganmagan odam asta-sekin unga qo'shilib qolganini bilmay qoladi.

V i s h n e v s k a y a . Men besabrlikni nuqson demayman, biroq, uning turmushda kishiga xalaqit berishini tajribadan bilaman. Men buni turmushda ko'p uchratganman... vaqtি kelsa siz ham bilib qolarsiz...

J a d o v . Sizningcha tog'am iltimosimni rad qilarmikin, yo'qmi? Men maoshimni oshiring deb iltimos qilmoqchiman. Bu hozir men uchun juda zarur edi...

V i s h n e v s k a y a . Qaydam, so'rab ko'ring.

Frak va parik kiygan V i s h n e v s k i y ichkaridan chiqadi,  
orqasidan Y u s o v .

## S A K K I Z I N C H I S A H N A

Burungilar, V i s h n e v s k i y v a Y u s o v .

V i s h n e v s k i y (Jadovga). Salom! (*O'tiradi.*) O'tir! O'tir, Akim Akimich! Dangasaliging tutyapti shekilli, ishga kam kelasan.

J a d o v . Qiladigan ishim yo'q. Ish berishmaydi.

Y u s o v . Ish boshdan oshib yotibdi!

J a d o v . Xat ko'chirishmi? Yo'q, qulluq! Bunaqa ishga mendan ko'ra tuzukroq chinovniklar bor.

V i s h n e v s k i y . Sen hali otdan tushsang ham uzangidan tushmaganga o'xshaysan, azizim! Hamon nasihatgo'ylik bilan ovorasan. (*Xotiniga.*) O'ylab ko'ring-a! Idorada mirzalarga xulq-odobdan dars berarmish, ular bo'lsa, hech nimaga tushunmay og'izlarini ochib, ko'zlarini baqraytirib o'tirar emishlar. Yaxshi-a, jonginam.

J a d o v . Har qadamda yomonlikni ko'raturib, qanday jim turayin? Men hali odamlarga bo'lgan ishonchimni yo'qotganimcha yo'q, o'ylaymanki, so'zlarim ularga ta'sir qiladi.

V i s h n e v s k i y . Ta'sir qilganidan: butun idoraga mazax bo'p qopsan-da. Maqsadingga yetibsan, eshikdan kirishing bilan ko'z qarashlar, shivir-shivir so'zlar boshlanadi, ketishing bilan orqangdan yop-pasiga kulgi ko'tariladi.

Y u s o v . Shunday, taqsir.

J a d o v . So'zlarimni nimasi kulgili ekan?

V i s h n e v s k i y . Turgan bitgani, do'stim. Odobdan tashqari orzu-havaslaringdan boshlab, bolalarcha shoshma-shoshar xulosalaringgacha. Ishon, oddiy bir mirza turmushni sendan ko'ra yaxshiroq biladi. Och filosof bo'lishdan ko'ra to'q turmush qilishning durustroq ekanini o'z tajribasidan biladi, shuning uchun, tabiiy, sening so'zlarining ularga tuturuqsiz bo'lib tuyuladi.

J a d o v . Menimcha, ular poraxo'r bo'lish nomusli odam bo'lishdan ko'ra foydaliroq ekanini biladilar, xolos.

Y u s o v . Hm... hm...

V i s h n e v s k i y . Azizim, bu ahmoqlik! Ahmoqlik va odobsizlik!

J a d o v . Ruxsat eting, tog'a! Shunday ekan bizni nega o'qitishdi, nima uchun bizni ochiqdan ochiq ayтиб bo'lmaydigan, agar aytilsa siz ularni bu ahmoqlik yoki dag'allik deb ataydigan tushunchalarga o'rgatishdi?

V i s h n e v s k i y . Sizlarni kim va nimaga o'qitganini bilmayman. Menimcha, tuturuqsiz valdirashdan ko'ra, ish qilishga, kattalarni izzat qilishga o'rgatishsa yaxshiroq bo'lardi.

Y u s o v . Shunday, bu yaxshiroq bo'lar edi, albatta.

J a d o v . Mayli, men og'iz ochmaganim bo'lzin, lekin e'tiqodlarimdan ham voz kechmayman. Chunki hayotimda menga faqat e'tiqodimgina tasalli beradi, xolos.

V i s h n e v s k i y . Ha, cherdakda qora non yeb, o'z e'tiqodlaring bilan o'tiraver. Yaxshi tasalli ekan! Ochlikdan o'z yaxshilgingni maqtash, o'z hayotini yaxshilab olgan, oilasi bilan to'q va baxtiyor yashayotgan o'rtoqlaringni va boshqalarni koyish juda soz-da! Unday hollarda hasad ham ko'maklashadi.

J a d o v . Tavba!

V i s h n e v s k a y a . Bu berahmlik!

V i s h n e v s k i y . Bironta yangi gap gapiRAYAPMAN deb o'ylama. Bu gaplar azaldan bor va bundan keyin ham bo'ladi. Mol-dunyo ortirolmagan odam hamisha badavlat odamga hasad qiladi. Bu kishilarga odat bo'lib qolgan. Hasadni oqlash ham qiyin emas. Odatda, hasadkor kishilar men boylik istamayman, kambag'al bo'lsam ham odamgarchilikni yo'qotgan emasman deydi.

Y u s o v . Og'zingizga shakar!

V i s h n e v s k i y . Olijanob kambag'allik faqat teatrdragina yara-shadi.

Qani, turmushda ham o'z boshingdan kechirib ko'r-chi. Bu sen o'ylagandek yoqimli va oson ish emas. Do'stim, sen maslahatsiz, o'zboshimchalik bilan ish qilishga o'rgangansan, hali ehtimol, uylanib ham olarsan. Unda nima bo'ladi? Toza ham qiziq bo'ladi-da!

J a d o v . Ha, men uylanmoqchiman, tog'a, shu to'g'rida siz bilan gaplashmoqchi edim.

V i s h n e v s k i y . Hoynahoy sevib qolib, kambag'al qizga uylanmoqchidirsan, buning ustiga, ahmoqdir ham, senga o'xshash tur-mushning ma'nosini tushunmasa kerak. Lekin o'zi o'qimishli, sozi bu-zuq pianino chalib «yor bilan chayla ham jannat» deb qo'shiq aytsa kerak.

J a d o v . Ha, u kambag'al qiz.

V i s h n e v s k i y . Juda soz!

Y u s o v . Gadoylar urug'ini ko'paytirishga soz deng...

J a d o v . Akim Akimich, haqorat qilmang. Bunday qilishga hech qanday haqqingiz yo‘q. Tog‘a, uylanish ulug‘ ish, bu ishda har bir odam o‘z e‘tiqodiga qarab amal qilmog‘i kerak deb o‘ylayman.

V i s h n e v s k i y . Xudo xayringni bersin, senga hech kim to‘s-qinlik qilmaydi. Faqat sen shuni o‘ylab ko‘rdingmi? Sen, albatta, o‘z qaylig‘ingni sevsang kerak?

J a d o v . Shubhasiz, sevaman.

V i s h n e v s k i y . Xotining uchun sen nimalar hozirlading, hayotning qanday lazzatlarini unga tortiq qilmoqchisan? Qashshoqlik va yetishmovchiliklarnimi? Mening fikrimcha, xotin kishini sevgan kishi, uning yo‘liga turmush lazzatlaridan poyandoz solmog‘i kerak.


Y u s o v . Shunday.

V i s h n e v s k i y . Xotinlar ko‘ngliga yoqadigan rango-rang shlapalar, yangi modalar o‘rniga, sen o‘z xotiningga xayr-saxovat to‘g‘risida leksiya o‘qiysan. U, turgan gap, senga bo‘lgan sevgisi tufayli indamay qulq soladi, lekin bu bilan u shlapali ham, kamzulli ham bo‘lib qolmaydi.

V i s h n e v s k a y a . Buning yoshida sevgini sotib olmaydilar.

J a d o v . Yangamning so‘zlari haq.

V i s h n e v s k i y . To‘g‘ri. Sevgini sotib olish senga darkor emas. Lekin har bir odam sevgini taqdirlamog‘i va sevgi uchun haq to‘lamog‘i kerak, bo‘lmasa, har qanday toza sevgi ham sovib qoladi. Ta’nalar, taqdirdan nolishlar boshlanadi. Xotining ochiqdan ochiq o‘z hayotini tajribasizligi tufayli qashshoq bir odam bilan qanday bog‘langanini gapirib achinaversa, bilmadim sen bunga chiday olarmikansan? Gapping qisqasi, sevgan kishingni baxtli qilish gardaningdagi qarz. Mol-u dunyosiz, yoki juda bo‘limganda to‘q turmush kechirolmay yashagan xotin o‘zini baxtli deb hisoblamaydi. Sen, balki odatdagidek e’tiroz bildirarsan; mana men so‘zlarimning haq ekanini isbot qilay. Atrofingga bir nazar tashlab ko‘r: qaysi aqlli qiz badavlat cholga yoki xunuk bo‘lsa ham boy erga tegmayman deydi? Qaysi ona o‘z qizining xohishiga qarshi, uning ko‘z yoshlarini ahmoq ik, bolalik hisoblab, o‘zining Mashenkasigami, Annushkasigami ke‘gan bu baxt uchun xudoga shukur qilmaydi. Har bir ona vaqt kelganda qizi unga rahmat deyishini ilgaridan biladi... Xotirjam bo‘lay degan odam o‘z xotinini



moddiy jihatdan to‘la ta’minlamog ikerak. Bu, albatta, hazil gap emas. Shunday qilganda garchi xotini baxtli bo‘lmasa ham polischen hech qanday haqi qolmaydi... Nolimaydi ham. (*Qizishib.*) Kamibag‘al qiz erga tekkanidan keyin zeb-u ziynatga ko‘milib ketgan bo‘lsa, bunday xotinning baxtsiz ekanligiga kim ishonadi? Xotinimdan so‘rab ko‘r, so‘zlarim haqmikan?

Vishnevskaya. So‘zlarizingiz shu qadar dono, shu qadar ishontirarlik, mening e’tirof etishimning keragi yo‘q. (*Ketadi.*)

### TO ‘QQIZINCHI SAHNA

Avvalgi sahnadagilar, Vishnevskaya siz.

Jadov. Hamma xotinlar siz aytgandek emas.

Vishnevskiy. Deyarli hammasi. Bitta-yarimta mustasnosi bo‘lishi ham mumkin, lekin sening peshonangga shunaqasidan bitgan bo‘lishi mahol gap. Bunaqasini topish uchun, senga o‘xshash duch kelganni sevish emas, ko‘rish, bilish, izlash kerak. Menga qara, senga achinaman, kel, sen bilan qarindosh sifatida gaplashay. Rostingni ayt, o‘zingni kim deb o‘ylaysan? Xotining bilan pulsiz qanday umr qilasan?

Jadov. Mehnatim bilan kun ko‘raman. Aminman, vijdonimning sofligi, men uchun dunyo lazzati o‘rmini bosoladi.

Vishnevskiy. Mehnating bilan topgan pulga oilangni bo‘qolmaysan. Sen yaxshiroq joyga, baribir, ega bo‘lolmaysan, chunki bu ahmoqona xulqing bilan har qanday xo‘jayinni o‘zingga qarshi qilib qo‘ysang qo‘yasanki, ko‘nglini o‘zingga moyil qilolmaysan. Sof vijdonli bo‘lish ham seni ochlikdan qutqarib qololmaydi. Do‘stim, ko‘ryapsanki, jamoat orasida borgan sari zeb-ziynat rasm bo‘lmoqda, sizlarning sparta saxovatingiz zeb-u ziynat bilan birga yasholmaydi. Senga g‘amxo‘rlik qilishni onang menga topshirib ketgan, men qo‘limdan kelgancha senga yordam bermog‘im kerak. Eng so‘nggi nasihatimni qulog‘ingga quyib ol: xarakteringni biroz tuzat, bo‘limgur fikrlarni miyangdan chiqarib tashla, bu tentaklikni qo‘y, boshqa tuzuk-quruq odamlar qanday yasha, sen ham shunday yasha, turmushga ham, o‘z vazifangga ham manfaat ko‘zi bilan qara. Ana unda senga

nasihat bilan ham, pul bilan ham, mansab bilan ham yordam berishim mumkin. Endi sen yosh bola emassan – uylanmoqchisan.

J a d o v . Hech qachon!

V i s h n e v s k i y . Baralla «Hech qachon!» deyishingni qara! Bu ahmoqlik! Esingni yig‘ib olarsan degan umiddaman. Sendaqalarning ko‘pini ko‘rganman, fursatni boy bermagin, vaqt borida aqlingni to‘pla. Hozircha sen uchun imkoniyat ham bor, yordamching ham, kech qolsang hammasidan mahrum bo‘lasan, istiqboling ham rasvo bo‘ladi, o‘rtoqlaring sendan o‘zib ketadi, senga esa, ishni boshqatdan boshlash qiyin bo‘ladi. Men senga bir chinovnik sifatida aytayapman.

J a d o v . Hech qachon, hech qachon!

V i s h n e v s k i y . U holda o‘z bilganingcha, birovning yordamisiz yashayver. Mendan umidingni uz. Sen bilan gaplashish ham jonimga tegdi.

J a d o v . Mayli! Jamoat fikri menga yordam beradi.

V i s h n e v s k i y . Kutib o‘tiraver! Bizda sen tushungan ma’noda jamoat fikri yo‘q, azizim, bo‘lishi ham mumkin emas. Ushlanmagan kishi o‘g‘ri emas, mana jamoat fikri, bilmoqchi bo‘lsang. Sen qanday daromadga yashayotganing bilan jamoatning nima ishi bor. Yaxshi yashab, tartibli odamlar singari o‘zingni yaxshi tutabilsang bo‘ldi-da! Biroq o‘zing yalangoyoq bo‘lsang-u, boshqalarga xulqodobdan nasihat qilganing bilan seni birorta obro‘li uyga kiritmalar va senga puch odam deb baho bersalar, unda xafa bo‘lmasang ham bo‘ladi. Men guberniya shaharlarda xizmat qilgan odamman. U yerlarda kishilar bir-birlarini poytaxtga qaraganda yaqinroq biladilar, kim nimaga ega, nima bilan yashaydi, hammaga ayon, binobarin, jamoat fikri ham darrov tug‘ilaqoladi. Lekin odam qayerda bo‘lmasin, odamligicha qoladi. Men o‘sha yerda ishlaganimda hamma faqat maosh bilan katta oilani boquvchi bir chinovnik ustidan kulardi, o‘zining kiyimini o‘zi tikar emish, degan duv-duv gap shaharda tarqalgan edi, lekin ana o‘sha yerning o‘zidayoq, uchchiga chiqqan poraxo‘rni, ochiq qo‘lligi va haftasiga ikki marta ziyofat bergani uchun hamma hurmat qilardi.

J a d o v . Nahotki shu rost bo‘lsa?

V i s h n e v s k i y . Yashab ko‘r, bilasan. Yur, Akim Akimich!  
(O‘rnidan turadi.)

J a d o v . Tog‘a!

V i s h n e v s k i y . Nima deysan?

J a d o v . Maoshim juda oz, yetmayapti. Bo'sh o'rin bor ekan, shuni egallahsga ruxsat etsangiz, uylanyapman...

V i s h n e v s k i y . Hm... bu o'ringa men uylangan odamni emas, qobiliyatli odamni o'tqazaman... Rostini aytsam, men maoshingni ko'paytirolmayman, birinchidan, sen unga arzimaysan, ikkinchidan, sen qarindoshimsan, odamlar qarindoshligini qildi deb gap-so'z qiladi.

J a d o v . Mayli, ixtiyorningiz. Olayotgan maoshimga yashayveraman.

V i s h n e v s k i y . Aytgancha, azizim, shu gap o'la-o'lguningcha qulog'ingda bo'lsin: sening gaplaring menga yoqmaydi, iboralaring qo'pol, to'ng, seni deb ko'nglimni ranjitishni ham istamayman. Tag'in seni mulohazalaring meni haqorat qiladi deb o'ylama, agar xafa bo'lsam, senga ortiqcha baho berib yuborgan bo'lardim, gaplaringni ahmoqliq deb bilaman, xolos. Shuning uchun bundan keyin senga xo'jayinlikdan bo'lak butun munosabatimni tugadi deb bilaver.

J a d o v . Yaxshisi, men boshqa joyga o'taqlay.

V i s h n e v s k i y . Ixtiyor. (Ketadi.)

## O 'NINCHI SAHNA

J a d o v bilan Y u s o v .

Y u s o v (*baqrayib*). Xa-xa-xa-xa!..

J a d o v . Nega kulasiz?

Y u s o v . Xa-xa-xa!.. Kulmay bo'ladimi? Kim bilan bahslashayotganingizni bilasizmi? Xa-xa-xa! Nima qilyapsiz, o'zingiz?

J a d o v . Kuladigan nimasi bor ekan?

Y u s o v . Xo'sh, tog'angizni sizningcha aqli yo'q deb o'ylaysizmi? Shundaymi, sizningcha aqli yo'qmi? Yoki hayotni sizdan ko'ra kamroq biladilarmi? Qilgan ishingiz kimni kuldirmaydi deysiz. Bu qiliqlaringiz bilan hali bitta-yarimtani kulgidan ichagini uzib yuborasiz-ku. Xudo xayringizni bersin, menga rahm qiling, xotinim, bola-chaqam bor.

J a d o v . Siz, Akim Akimich, bu gaplarni tushunmaysiz.

Y u s o v . Tushunadigan nimasi bor ekan? Istan sangiz, ming kishini olib keling, hammasi ham kulgidan ichagi uzilib o'ladi. Siz bu odamning

gaplarini yaxshilab eshitishingiz, qulog‘ingizga quyib olishingiz kerak edi, siz bo‘lsangiz, bahslashib o‘tiribsiz! Axir, bu komediya-ku, xudo haqqi, komediya, xa-xa-xa... Mana endi tog‘angiz rosa adabingizni berdilar, xe-xe-xe, hali bu ham oz. Boshqacha bo‘lishi lozim edi... Agar tog‘angizning o‘rnida men bo‘lsam bormi... (*Basharasini jiddiy qilib, xonaga kiradi.*)

## O‘N BIRINCHI SAHNA

Jadov (yolg‘iz, o ylab). Gapiringlar-a, gapiringlar! Sizlarga ishonmayman. O‘qimishli odam o‘zining halol mehnati bilan kun ko‘rolmasligiga ishonmayman. Jamiyatning siz aytganchalik buzuq ekaniga ham ishonmayman! Yoshlarning ko‘nglini sovitish, ularning shaxtini qaytarish chollarning odati. Ular yoshlarga dunyoni qorong‘u va ma’niziz bir narsa qilib ko‘rsatishadi. Eski zamon odamlari kelajakka umid bilan kulib qarashimizga hasad qiladilar. Tog‘am-chi! Kimligingizga tushundim! Boylik qolmadni, dovrug‘-u pul qolmadni – hammasiga erishdingiz, endi hasad qiladigan narsangiz qolmadni. Siz endi biz singari sof vijdonli, ko‘ngli toza kishilarga hasad qilasiz, xolos. Bularni siz hech qanaqangi oltinga sotib ololmaysiz-da. Nima desangiz deng, men, baribir, uylanaman va baxtiyor yashayman. (*Ketadi.*)

Vishnevskiy bilan Yusov xonadan chiqadilar.

## O‘N IKKINCHI SAHNA

Yusov bilan Vishnevskiy.

Vishnevskiy. Kimga uylanyapti u?

Yusov. Kukushkinaga. Kollejskiy asessorning beva qolgan xotini bor, ana o‘shaning qiziga.

Vishnevskiy. Sen u bilan tanishmisan?

Yusov. Eri bilan tanish edim. Belogubov uning opasiga uylanmoqchi.

Vishnevskiy. Belogubovning yo‘rig‘i boshqa. Bir ish qilib, sen u xotinning uyiga bor. Unga tushuntir, o‘z qizini nobud qilmasin, tag‘in bu ahmoqqa qizini berib o‘tirmasin. (*Boshini chayqab, chiqib ketadi.*)

## O'N UCHINCHI SAHNA

Yusov (*yolg'iz*). Qanday zamonlarga qoldik-a? Dunyoda nimalar bo'layapti o'zi, o'z ko'zingga ishonging kelmaydi kishi! Qanday yashamoq kerak endi! Yosh bolalarning tili uzun bo'lib qolibdi! Kim u o'zi! Bahslashayotgan kim, qanday odam? Sariq chaqaga arzimaydig'an odam! Tuf, deb bir tuflasang, (*tuflaydi*) yo'q bo'lib ketadi. Tag'in kim bilan bahslashayapti deng! Dohiy bilan... Aristarx Vladimirovich dohiy... dohiy, Napoleon. Aqlini, ishidagi jasoratini, qat'iyligini aytmay-sizmi! Bittagina kamchiligi bor, xolos: qonunni mahkam ushlamaydi. Sag'al g'alatiroq, agar Aristarx Vladimirovich shu aqliga yana qonun-qoidalarni o'zidan burungi odam singari yaxshi bilsa bormi... tamom... Gapirib o'tirishning hojati yo'q. Uning ketidan temir yo'ldan ketganday ketaversang bo'ladi. Etagini mahkam ushlab ol-u, ketaver. Mansab deysanmi, orden deysanmi, uy-joy, katta-katta qishloqlar o'zidan o'zi qo'lingga kiraveradi... O'y lab, entikib ketasan kishi! (*Ketadi.*)





## IKKINCHI PARDA

Kukushkinaning uyi. Oddiygina bir mehmonxona, to‘g‘rida va chapda eshik.

### BIRINCHI SAHNA

Yulinka bilan Polina oyna oldida turishibdi. Steshan ing qo‘lida cho‘tka bilan yelpig‘ich.

Stesh a. Mana, oyimchalarim ham kiyinib, taranib, tap-tayyor bo‘lishdi. Kuyovlar kelaversa ham bo‘ladi, xuddi ko‘rgazmaga qo‘yandek, birinchi sort. Ko‘rgan kishining ko‘zi yonadi. Generalga ham ko‘rsatsang uyalmaysan!

Polina. Qani, Yulinka, aqli qizlardek joy-joyimizga o‘tiraylik. Hozir oyimiz chiqib ko‘rik o‘tkazadi, molini bozorga soladi.

Stesh a (*changni artib*). Ming ko‘rik qilmasin, baribir, hammasi joyida.

Yulinka. Oyimiz shunday tergovchiki, biror ayb topmay qo‘ymaydi. (*O‘tiradilar*)

Stesh a (*uy o‘rtasida to ‘xtaydi*). Aytganlaringcha bor, oyimqizlar, oyingiz sizlarga kun bermaydi. Xuddi soldatlardek mashq qildirgani qildirgan. Chizgan chizig‘imdan yur, g‘iring dema, jim o‘tir. Meni ham urishgani urishgan, hammayoq ozoda ekanini ko‘rganidan keyin biroz nafasi o‘chadi. (*Changni artadi*.)

Yulinka. Kuyoving Vasiliy Nikolaich yoqadimi senga?

Polina. Juda ham! Sening Beloguboving-chi?

Yulinka. Yo‘q, tirmog‘imga ham arzimaydi!

Polina. Nega oyimga aytmaysan, bo‘lmasa?

Yulinka. Baloga qolaymi! Xudo saqlasin! Shu uydan qutulish uchun o‘shanga bo‘lsa ham jon-jon deb tegaman.

Polina. Gaping rost! Vasiliy Nikolaich uchramaganda, men ham duch kelganning bo‘yniga osilib olar edim. Yomon odam bo‘lsa

ham mayli, ishqilib, meni shu uydan, shu balodan qutqarsa bas. (*Kuladi.*)

**S t e s h a** (*divan tagiga engashib*). Bundan ortiq azob bo‘lmaydi. To‘g‘ri aytdingiz, oyimqiz.

**P o l i n a**. Boshqa qizlar erga tegayotganida uydan ajralgisi kelmay yig‘laydi! Har bir burchakni ko‘zi qiymaydi tashlab ketgani. Sen bilan biz bo‘lsak dunyoning narigi chekkasiga ketishga ham tayyormiz, bu yerdan bizni ajdar olib ketishiga ham rozimiz. (*Kuladi.*)

**S t e s h a**. Agar mana shu yerni artmasam boshimda yong‘oq chiqadi. Bo‘lmasa bu yerni kim ko‘rib o‘tiribdi, kimga keragi bor deysiz! (*Oyna ostini artadi.*)

**Y u l i n k a**. Sen baxtlisan, Polina, shuning uchun kulasan. Menchi, men juda hayronman. Erga tegish qiyin emas – bu ma‘lum narsa. Erga tekkandan keyin, turmushing qanday bo‘ladi, mana buni o‘ylab ko‘rish kerak.

**P o l i n a**. Nimasini o‘ylaysan? Uyimizdagidan yomonroq bo‘lmasku, axir.

**Y u l i n k a**. Yomonroq bo‘lmasligi oz-da. Yaxshiroq bo‘lishi kerak. Erga tekkaningga yarasha, rosmana badavlat xonim bo‘lgin-da.

**P o l i n a**. Koshki edi, lekin bunga erishishni ayt-da? Sening aqling raso, menga ham o‘rgatib qo‘y!

**Y u l i n k a**. Yigitlar bilan gaplashganingda kimning nimasi bor, nimaga umid bog‘lab yurganini bilib olishga harakat qil. Hech narsasi bo‘lmasa ham, balki ko‘zlagani bordir. Odamning kimligini so‘zidan bilib olsang bo‘ladi. Sening Jadoving yolg‘iz qolganlaringda senga nimalar deydi?

**P o l i n a**. Yulinka, o‘layin agar, nima deganiga sira tushunmayman. Qo‘limni qattiq qisib olib, biram gapirib ketadi... Meni allanimalarga o‘rgatmoqchi bo‘ladi.

**Y u l i n k a**. Nimaga?

**P o l i n a**. O‘lay agar, Yulinka, bilmayman. Qandaydir aqlga sig‘maydigan gaplar. Shoshma, hozir eslab ko‘raman, kulib yubormasam bo‘lgani, gaplari juda kulgili! Shoshma, shoshma, esladim! (*Masxara qilib.*) «Xotinlar jamiyatda qanday o‘rin tutadilar?» Yana allaqanday grajdanimlik xislati to‘g‘risida gapirdi. Nima deganini o‘zim ham bilmayman. Bizlarni bunaqa gaplarga o‘rgatmagan edilar shekilli?

Yulinka. Yo'q, o'rgatmaganlar.

Polina. Esingdami, bizga pansionda berishmagan kitoblardan o'qib olgan bo'lsa kerak. Undoq desam, baribir, hech qanaqasini ham o'qimas edik.

Yulinka. Achinadigan narsa ekanmi shu, qurib ketsin! Usiz ham o'lgundek zerikasan kishi! Sayilgami yoki teatrga borishni aystsang, boshqa gap.

Polina. Rost, opajon, rost.

Yulinka. Rostini aytsam, Polina, sening kuyovingdan umid yo'q. Mening Belogubovim boshqa.

Polina. Seniki qanaqa ekan?

Yulinka. Mening Belogubovim biroz yoqimsizroq bo'lsa ham, undan umidim zo'r. «Siz meni seavering, uylanishimga hali picha vaqt bor, avval ish boshqaruvchi bo'lib olay, innaykeyin uylanaman», deydi. Ish boshqaruvchi qanaqa bo'ladi deb so'rasam: «Birinchi sort bo'ladi», deydi. Yaxshi narsa bo'lsa kerak-da. «Ma'lumotim mukammal bo'lmasa ham, savdogarlar bilan ish qilaman, sizga shahardan turli-tuman shohi gazmollar olib kelib turaman, oziq-ovqatdan xotirjam bo'lasiz», deydi. Yomonmi? Juda yaxshi-da, Polina, olib kelaversin, bunday odamga tegaverish kerak, o'ylab o'tirishning ham hojati yo'q.

Polina. Menikining savdogarlardan oshnasi yo'q bo'lsa kerak, chunki bu haqda hech narsa demaydi. Tag'in menga hech narsa olib kelmasa-ya?

Yulinka. Yo'q, sening kuyovingda ham bor bo'lsa kerak. Xizmatchi-ku, axir, xizmatchilarga hamma hadya beradi. Uylangan odamga har xil gazmollar, bo'ydoq bo'lsa – sukno, triko, oti bor odamga arpa yoki beda yoxud naqd pul berishadi. O'tgan safar Belogubov chipor nimcha kiyib kelgan edi, esingdami, ana o'shani bitta savdogar hadya qilgan ekan. Menga o'zi aytdi.

Polina. Har qalay, Jadovdan tanish savdogarlarining bormi deb so'rab ko'rishim kerak ekan.

Kukushkina kiradi.

## IKKINCHI SAHNA

Burungilar va Kukushkina.

Kukushkina. O'zimni maqtamay ilojim yo'q! Hammayoq yog' tushsa yalagudek, hamma narsa joyida. (*O'tiradi.*) Mana bu nimas? (*Steshaga divanning tagini ko'rsatadi.*)

**S t e s h a .** Rahm qiling, axir, kuchim yetmadi, belimda bel qolmadi.

**K u k u s h k i n a .** Ovozingni o'chir, isqirt! Nimaga oylik olayapsan? Mening uyimda hammayoq ozoda, saranjom bo'lishi kerak, chizgan chizig'imdan chiqmasliklarинг zarur.

**S t e s h a** divanning tagini supurib, chiqib ketadi.

**Yulinka!**

**Y u l i n k a** o'midan turadi.

Meni sizga aytadigan so'zim bor.

**Y u l i n k a .** Nima demoqchisiz, oyijon?

**K u k u s h k i n a .** Bilasizki, jonim, meni hozir ham, o'lganimdan keyin ham orqamda qoladigan davlatim yo'q.

**Y u l i n k a .** Bilaman, oyijon.

**K u k u s h k i n a .** Bilishingiz kerak, albatta! Pensiyamdan bo'lak daromadim yo'q. Bir amallab kunimni zo'rg'a o'tkazyapman. Orzu-havas qilayotganim yo'q, qumursqadek sira tinimim yo'q, hali qari-gancha yo'qman, o'z tengimni topib hali erga tegishim ham mumkin. Shuni tushunasizmi?

**Y u l i n k a .** Tushunaman.

**K u k u s h k i n a .** Men sizlarga modaga muvofiq kiyim tikib beryapman, har xil taqinchoqlar olib beryapman, o'zimga esa eskituskini bo'yab, so'kib-chatib kelyapman. Balki sizlar buni ko'nglimiz uchun yoki oliftagarchilik uchun qilib berayapti deb o'ylarsizlar? Xato qilasizlar. Bularning hammasidan muddao sizlarni tezroq erga uza-tish, tezroq egalaringga topshirish. Agar holimga qarab ish qiladigan bo'lsam, chit ko'yakka yoki eski-tuski kiyimlarga kiyintirgan bo'lar edim. Agar o'zlaringga er topolmasalaring yoki topishni istamasalaring kunlaring shunga qoladi. Men sizlarni deb o'zimni behudaga yulib-yul-qishni istamayman.

**P o l i n a .** Oyijon, bu gaplaringizni ko'p eshitganmiz. Maqsad-ingizni aytib qo'yaqoling!

**K u k u s h k i n a .** Sen jim o'tir! Sen bilan gaplashayotganim yo'q. Xudo ahmoqligingga yarasha baxtingni ham bergen, sen jim o'tiraver. Agar anavi ahmoq Jadov bo'limganida, yengiltakliging uchun qizli-gingcha o'tirarding, boshing g'amdan chiqmas edi. Qaysi aqli bor odam seni olsin? Kimga keraksan? Maqtanmay qo'yaqol, zig'ircha ham ish ko'rsatganing yo'q, sen uni o'z jozibangga tortolmading, hech kim chaqirmsa ham o'z oyog'i bilan kelib tuzoqqa ilinib o'tiribdi. Yulin-

ka bo'lsa aqlli qiz, o'z baxtini o'zi topishi kerak. Menga ayting-chi, Belogubovingizdan ma'ni chiqadimi, yo'qmi?

Yulinka. Oyijon, men qayoqdan bilay.

Kukushkina. Kim biladi bo'lmasa? Begona yigitlarni uyimga kiritmasligim sizga ma'lum-a, jonim? Men uyg'a faqat kuyovlarimni yoki kuyov bo'lishi mumkin bo'lganlarni kiritaman, xolos. Ozgina bo'lsa ham kuyovlikning hidi kelsa, bosh ustiga, eshigim ochiq, qadamlariga hasanot, lekin picha dumini likillatdimi, tamom, darvozadan kirmay turib tuyog'ini shiqillataversin. Bizga unaqalari kerakmas. Men o'z sha'nimga ham, sizlarning sha'ningizga ham dog' tushirishni xohlamayman.

Yulinka. Nima qilgin deysiz bo'lmasa, oyijon?

Kukushkina. Buyurilganni qiling. Qizligingizcha o'tirave-rishingiz mumkin emasligi esingizda bo'lsin. Bo'lmasa, oshxonada yashashingizga to'g'ri keladi.

Yulinka. Aytganlarining hammasini qilyapman-ku, oyijon.

Kukushkina. Nima qildingiz? Qani, gapiring, qulog'im sizda.

Yulinka. U uyimizga ikkinchi marta kelganda, esingizdam, o'zingiz zo'r lab olib kelgan edingiz-ku, o'sha kuni men unga ko'zimni qisdim.

Kukushkina. Xo'sh, u-chi?

Yulinka. U bo'lsa labini g'alati yumib, yalay boshladi. Menimcha, u o'lgudek ovsar bo'lsa kerak, hech baloni fahmlamadi. Hozirgi gimnazistlar ham undan ko'ra epchilroq.

Kukushkina. Men sizni qanday hunar ko'rsatganingizdan bexabarman, lekin izzat-ikromni o'miga qo'yishi, boshliqlarga ma'qul keladigan allaqanday bir xislat borligi ko'rinish turibdi. Demak, uzoqqa boradi. Men buni darrov payqadim.

Yulinka. Uyimizga uchinchi marta kelganda, esingizdam, juma kuni, men unga ishqiy she'rlar o'qib berdim. Unda ham hech baloni fahmlamadi shekilli. To'rtinchchi martasida men unga xat yozdim.

Kukushkina. Xo'sh, u-chi?

Yulinka. Keldi-da, «Ko'nglim sizdan hech qachon jirkangan emas, sizga doim ko'nglim bo'lgan, bor va bundan buyoq ham bo'ladi», dedi.

Polina kuladi.

K u k u s h k i n a (*Polinaga barmog'i bilan po'pisa qilib*). Keyin nima bo'ldi?

Y u l i n k a . «Ish boshqaruvchi bo'lib olay, o'sha kuniyoq kelib oyingizdan qizingizni menga bering, deb yig'lab so'rayman», dedi.

K u k u s h k i n a . Yaqin o'rtada bo'lar ekanmi?

Y u l i n k a . Tez kunda, deydi.

K u k u s h k i n a . Kel, Yulinka, meni o'p. (*O'padi*) Erga tegish, azizim, qizlar uchun katta baxt. Sizlar buni keyin tushunasizlar. Men onalaringman, ona bo'lganda ham qattiqqa'l onaman. Kuyoving bilan bilganingni qil, men ko'rsam ham ko'rmaganga solaman, indamayman, azizim, begona bilan-chi, sho'xlik qilishga yo'l qo'ymayman! Bor, Yulinka, joyingga o'tir.

Y u l i n k a o'tiradi.

Erga tekkanlaringdan keyin, bolalarim, sizlarga maslahatim shu: erlaringni o'z holiga qo'y manglar, pul top deb turib olinglar, bo'lmasa dangasa bo'lib qoladi, keyin o'zlaringga qiyin bo'ladi. Sizlarga anchagina nasihat qilishim mumkin edi, lekin hali erga tekkanlaringcha yo'q, aytib bo'lmaydi. Biror hodisa yuz bergudek bo'lsa, to'g'ri oldimga kelaveringlar, siz uchun hamisha quchog'im ochiq, qaytarmayman. Bilmaydigan ishim yo'q, maslahat berish qo'limdan keladi, hatto doktorlik xususida ham yo'l-yo'riq ko'rsatolaman.

P o l i n a . Oyijon, birov kelganga o'xshaydi.

Y u l i n k a (*derazadan qarab*). Belogubov qandaydir bir chol bilan kelyapti.

K u k u s h k i n a . Joy-joylaringga o'tiringlar. Yulinka, sen o'ng yelkangni picha ochib qo'y.

Y u s o v bilan B e l o g u b o v kiradi.

## UCHINCHI SAHNA

Burungilar, Y u s o v va Belogubov.

B e l o g u b o v . Salom, Felisata Gerasimovna! (*Qizlarga*) Salom. (*Yusovni ko'rsatib*) O'zлari kelmoqchi bo'ldilar... Bu kishi mening boshlig'im va otaxonim Akim Akimich Yusov bo'ladilar... Felisata Gerasimovna, har holda, xo'jayinning o'zlarini kelishlari yaxshi-da.

K u k u s h k i n a . Qadamlariga hasanot, xush kelibsiz! Marhamat, o'tiring.

Yusov bilan Belogubov o'tiradi.

Tanishing, mana ikkala qizim: Yulinka bilan Polina. Ikkovi ham mutlaqo go'dak, hech narsaga aqlari yetmaydi. Bularning erga tegish emas, hali qo'g'irchoq o'ynaydigan vaqt. Bulardan sira ajralgim kelmaydi, lekin ilojim qancha. Bunday noyob matoni asrab o'tirish qiyin.

Yusov. Shunday, bu taqdiri azal, turmush girdobi! Bandasi peshonaga yozilganini o'zgartirishga qodir emas...

Kukushkina. Sizga rostini aytsam, Akim Akimich, men qizlarimni qattiqqo'lilik bilan tarbiyaladim, hamma narsadan chetlatgaman. Men bularning sepiga ko'p pul berolmayman, ammo erlari axloq vajidan minnatdor bo'lishadi. Men bolalarimni yaxshi ko'raman, Akim Akimich, lekin qattiqqo'lman, juda qattiqqo'lman. (*Jiddiy.*) Polina, borib aytning, choy berishsin!

Polina (*turib*). Hozir, oyijon! (*Ketadi*.)

Yusov. Men o'zim ham qattiqqo'lman. (*Jiddiy.*) Belogubov!

Belogubov. Labbay, xizmat?

Yusov. Men qattiqqo'lman-a?

Belogubov. Qattiqqo'llar. (*Yulinkaga*.) Yana yangi jilet kiyib keldim. Mana qarang-a.

Yulinka. Muncha yaxshi. O'sha aytgan savdogaringiz hadya qildimi?

Belogubov. Yo'q, boshqasi. Bunisining fabrikasi yaxshiroq.

Yulinka. Yuring mehmonxonaga, men sizga o'z ishlarimni ko'rsataman. (*Ketadilar*.)

## TO'R TINCHI SAHNA

Yusov va Kukushkina.

Kukushkina. Bir-birini shunday yaxshi ko'rishadiki, kishining havasi keladi. Yigitga bir narsa yetishmay turgan emish, yaxshiroq o'rni yo'q emish. Xotinimni to'la-to'kis ta'min qilolmayman, deydi. Ish boshqarnvchi qilib qo'yganlarida edi, xotinimni ta'min qilishim mumkin edi, deydi. Kishi achinar ekan, Akim Akimich! Shunday yaxshi yigit, shunday sevadi deng...

Yusov (*tamaki hidlaydi*). Asta-sekin bo'ladi, Felisata Gerasimovna, asta-sekin.

K u k u s h k i n a . O'sha o'ringa qachon ega bo'lishini, har qalay, siz bilsangiz kerak. Balki bu sizning qo'lingizadir. Uning uchun men ham iltimos qilar edim sizdan. (*Ta'zim qiladi.*) Mening iltimosimni e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi: chunki men onaman, mehribon onaman, men o'z bolalarim, o'z qushchalarim baxti uchun so'rayman.

Y u s o v (*jiddiy tusga kirib*). Yaqinda, tez fursatda egallab qoladi. Men uning haqida generalimizga doklad qilganman. General bo'lsa mening qo'limda: nima desam aytganim bo'ladi. Biz uni ish boshqaruvchi qilib tayinlaymiz. Men xohlamasam ish boshqaruvchi bo'lmaydi... Xe, xe, bo'ladi, bo'ladi. (*Qo'lini ko'rsatib.*) General mening mana qayerimda turadi.

K u k u s h k i n a . Rostini aytsam, men bo'ydoqlarni yoqtirmayman. Ulardan nima foyda? Faqat yerga og'irliklari tushadi, xolos.

Y u s o v (*takabburlik bilan*). Ha, ular yer yuziga tushgan tashvish... bekorchi odamlar.

K u k u s h k i n a . Rost aytasiz. Bo'ydoqlarni uyga kiritishga ham qo'rqadi kishi, ayniqsa, yosh qizi yoki yosh xotini bo'lsa. Nima xayol bilan kelganini kim biladi, deysiz. Menimcha, yosh yigitlarni tezroq uylantirish kerak, keyinchalik o'zlarini minnatdor bo'lishadi, o'z foydasini bilishmaydi, tentaklar.

Y u s o v . To'g'ri. Xayoli parishon odamlar-da, ular. Axir, hayot bamisol bir dengiz... girdobiga tortib ketadi.

K u k u s h k i n a . Bo'ydoq odam uy-joy, ro'zg'or qilmaydi, uyiga qaramaydi, traktirdan beri kelmaydi.

Y u s o v . Ha, biz ham boramiz u yerga... Ishdan charchab, dam olgani...

K u k u s h k i n a . E, Akim Akimich, siz bilan ularning o'rtasida osmon bilan yercha farq bor, siz birorta kishi hurmat qilib chaqirganda, mehmon qilmoqchi bo'lganda borasiz, hech qachon o'z pulingizga borib ichmaysiz-da.

Y u s o v . Albatta, o'z pulimga aslo bormayman.

K u k u s h k i n a . Endi bo'ydoq yigitni oling: birorta ishi tushgan odam uni traktirga taklif qilib, mehmon qiladi. Qanchadan qancha pulning boshiga suv quyadi-yu, ammo foydasi bo'lmaydi. Xotini bor kishi bo'lsa-chi, Akim Akimich, haligi odamga ovqatingni hojati yo'q, ovqat bo'lsa xotinim, bola-chaqam bilan uyimda tinchgina yerman, sen

menga pulini berib qo'yaqol deydi. Pulni oladi-yu, uyiga olib keladi. Ikkiyoqlama foyda: ham pulga ega, ham uyiga hushyor qaytadi. Uylan-ganiningizga necha yil bo'lgan?

Y u s o v . Qirq uch yil bo'lди...

K u k u s h k i n a . Ӯni qarang-a! Hali yosh ko'rinasiz-ku!

Y u s o v . Turmush rejasini bilaman... Kuni kecha banka qo'y-dirdim.

K u k u s h k i n a . Sog'lom odamning ishi ham sog'lom, ko'ngli tinch bo'lsa inchunin.

Y u s o v . Men sizga aystsam... Taqdirning ishi qiziq bo'lar ekan... Kambag'alni boy qilib yuborish ham hech gap emas ekan. Meni, xonim, bunga ko'p yil bo'lди, eski kiyimda idoraga olib kelishgan, o'shanda men faqat o'qish-yozishnigina bilardim, xolos... Qarasam, yoshi o'tgan, salobatli, qovoqlari soliq, soqollari o'sgan kishilar ishlab o'tirishibdi... U vaqtarda savlatliroq ko'rinyay deb soqolni kam oldirishardi... Salobat bosib gapirolmay qoldim. Ikki yilgacha yugurdaklik qildim, har xil ishlarni bajardim, birovga araq, birovga somsa, birovga kvas keltirardim, stolda emas, deraza yonida, bir to'p qog'oz ustida o'tirardim, hatto siyohdon ham yo'q, bir qutichaga siyoh quyib olgan edim. Bir vaqt qarabsizki, odam bo'lib chiqdim. Albatta, bularning bari xudoning xohishi bilan bo'lди. Odam bo'lish, yaxshi o'rinni egallash peshonamda bor ekan-da. Ba'zan xotinim bilan: xudo bizga nechuk bunchalik marhamat ko'rsatdi ekan, deb o'ylaymiz. Taqdiri azal, albatta... Yaxshilik qilmoq lozim... Beva-bechoralarga yordam bermoq kerak. Ana endi hozir uchta hovlim bor, uzoqroqda bo'lsa ham o'zimga bilinmaydi, to'rt nafar otim bor, bir hisobdan uyimning uzoqda bo'lgani ham yaxshi, yer ham keng, innaykeyin tinch, gap-so'z, mish-mishlardan uzoqroq.

K u k u s h k i n a . Ha, albatta. Uylaringizning yonida bog'-rog'la-ringiz ham bordir bo'lmasa?

Y u s o v . Bog'siz bo'lar ekanmi! Yozning issiq kunlarida a'zoyi badaning rohat qiladi. Menda kibrlik yo'q. Kibrlik kishini ko'r qilib qo'yadi... Men ho mujik bo'lsin, ho boshqasi... aka-ukaday bo'lib ketaman... Ko'nglimga yaqin tutaman... Lekin ishda bo'lsa, iloji yo'q. Ayniqa, dimog'i shishgan o'qimishli odamlarni yomon ko'raman. Ularga nisbatan qattiqqo'l va talabchanman. Ular juda haddan oshib ketishayapti. O'qimishli odamlar osmondag'i yulduzni benarvon uradi, degan afsonalarga ishonmayman. Ko'rganman, ularning bizdan ortiq

yeri yo‘q, ishga ham jon-jahdlari bilan yopishmaydilar. Odatim, ularni ishda siqaman, bundan foydali ish yo‘q, chunki zarardan boshqa narsa ko‘rmaysan ulardan. Men, Felisata Gerasimovna, ko‘proq o‘zimni oddiy odamlarga yaqin tutaman. Bu zamondagi qoidalar tufayli kishining boshiga baxtsizlik tushib qolishi mumkin, masalan, birov uyezd mакtabidan yaxshi o‘qiyolmagani uchun haydaladi yoki seminariyaning past sinfidan chiqarib yuboriladi. Shunday odamga yuraging achimaydimi? O‘zi-ku, peshonasi sho‘r, yana uni o‘lganning ustiga tepgan qilib, xafa qilishadi. Mana, shunday odamlar, ko‘pincha, gapga tushunadigan, ko‘ngli ochiq, yo‘l-yo‘riqqa tushadigan bo‘ladi. Xristianlik burchini ado etib mana shunaqa odamni qo‘llab-quvvatlaysan, odam qilasan, u esa o‘la-o‘lguncha sendan minnatdor. Seni otam deydi, qarindoshdan ham a‘lo ko‘radi, qadringga yetadi. U dunyoda ham rohatini ko‘rasan... Mana, Belogubov, Felisata Gerasimovna, aytarlik savodi ham yo‘q, lekin uni men o‘g‘limdan ham ortiq ko‘raman, chunki uquvli bola. Rostini aytsam, ikkinchi kuyovingiz... U ham mening qo‘limda ishlaydi... Menimcha... u...

Kukushkina. Nima bo‘pti?

Yusov (*jiddiy tus olib*). Ishonchli odam emas.

Kukushkina. Nega unday deysiz? Axir u ichmasa, sayoq yurmasa, ishda ham dangasalik qilmasa...

Yusov. Shunda-yu, ammo... (*Tamaki hidlaydi*.) Ishonchli odam emas.

Kukushkina. Qanday, tushuntiring menga, Akim Akimich, axir men onaman-a.

Yusov. Mana bunga nima deysiz? Aristarx Vladimirich Vishnevskiydek odamga qarindosh bo‘ladi...

Kukushkina. Bilaman.

Yusov. Qarindoshim bor deyishga arziydigan odam.

Kukushkina. Bilaman.

Yusov. Shunday bir zotni hurmat qilmaydi.

Kukushkina. Bilaman, bilaman.

Yusov. Boshliqlarga qo‘pol muomala qiladi... Haddan tashqari mag‘rur... Hatto shunday fikrlar tarqatadiki... Yoshlarni buzadi... ayniqsa, erkin fikrlari bilan... Boshliq degan qattiq nazorat qilmasa bo‘lmaydi.

Kukushkina. Bilaman.

Y u s o v . Bilsangiz, o'zingiz xulosa chiqaravering. Qanday zamonga qoldik-a, Felisata Gerasimovna! Tinchlik yo'q-a, tinchlik! Kimning dastidan deng? Yaramas, yosh bolalarning dastidan. Ular yetishib kelayapti, hammayoqni o'shalar bosib ketayapti.

K u k u s h k i n a . E, Akim Akimich, uylansin, o'zgarib qoladi. Bu gaplardan meni xabarsiz deb o'ylaysizmi, men unaqa onalardan emasman, bir ishni orqa-o'ngimga qaramasdan qilmayman. Mening odatim shu: biron ta yosh yigit uyimizga qatnaydigan bo'ldimi, darrov bitta-yarimtani yuborib, yo bo'lmasa o'zim, odamlardan surishtirib uning kimligini ipidan-ignasigacha bilib olaman. Menimcha, uning bu ahmoqliklari bo'ydoq hayot kechirishidan bo'lsa kerak. Uylanishi bilan biz uning yelkasiga chiqib olamiz, keyin tog'asi bilan ham yarashib oladi, ishga ham yaxshi qaraydigan bo'lib qoladi.

Y u s o v . U o'zgarsa, boshliqlar ham muomalani o'zgartiradi. (*Jim qolib.*) Ilgarigi chinovniklar yo'q, Felisata Gerasimovna! Chinovniklar ham pastlashib ketdi. U vaqtagi dabdabalardan asorat ham qolmadi. Qanday zamonlar ekan-a, Felisata Gerasimovna, jannat-a, jannat! O'lgisi ham kelmas edi, kishini, Felisata Gerasimovna, rohat edi, rohat! Ilgarigi chinovniklar xo'roz edi, xo'roz, endigi yoshlar bo'lsa puch yong'oq.

J a d o v kiradi.

## B E S H I N C H I   S A H N A

Burungilar va J a d o v .

K u k u s h k i n a . Keling, keling, Vasiliy Nikolaich, xush kelibsiz. Polina sizni sog'inib o'lib bo'ldi-ku. U deraza bilan bu derazaga tikilaverib ko'zlari to'rt bo'ldi. U sizni shunday sevadiki, asti qo'ying!.. Rostimni aytsam, Vasiliy Nikolaich, sizdek baxtli odamni endi ko'rishim. Ayting-chi, nima uchun sizni bunchalik yaxshi ko'rishar ekan-a?

J a d o v . Biroz kechikdim, kechirasiz, Felisata Gerasimovna. Iye, Akim Akimich! (*Ta'zim qiladi.*) Siz nechuk?

K u k u s h k i n a . Akim Akimich shunday mehribonlarki, o'z chinovniklari haqida shunday qayg'uradilarki... Qanday qilib minnat-dorchilik bildirishni ham bilmay qoldim... Tanishish uchun o'zlari azyat chekib kelibdilar.

Jadov (*Yusovga*). Minnatdorman. Lekin chakki ovora bo'libsiz.  
Yusov. Men, Felisata Gerasimovna, Belogubovni deb keldim.  
Uning ota-onasi yo'q, men otasi o'rnida...

Kukushkina. Qo'ysangiz-chi, Akim Akimich, gapirmang,  
siz bola-chaqali odamsiz, yoshlarni uylanishga rag'batlantirayot-  
ganizingni ko'rib turibman. Men ham shu fikrdaman, Akim Aki-  
mich. (*Jadovga*) Ikki sevishgan yurak o'rtasida g'ov borligini ko'r-  
sam, yuragim qanday ezilishini siz tasavvur ham qilolmaysiz, Vasi-  
liy Nikolaich. Roman o'qib o'tirib ikki sevishganni bir-biri bilan  
topisholmaganini, bunga ota-onasi yo'l qo'ymayotganini yoki iqtisodiy  
imkoniyati yo'qligini o'qigan vaqtlarimda yuragim ezilib, ko'nglim  
to'lib yig'lab yuboraman! O'z bolalarining muhabbatiga yo'l  
qo'ymaydigan ota-onalarning berahmligiga ajablanaman. Ba'zi yoshlар  
bu alamlarga chiday olmay halok ham bo'ladilar. Ammo hamma g'ovlar  
yakson bo'layotganini, (*zavq bilan*) muhabbat g'olib chiqib, yoshlар  
qonuniy nikoh asosida qo'shilayotganini ko'rganda dilim quvonchga  
to'lib ketadi. A'zoyi badanimga allaqanday lazzat yoyilayotgandek his  
qilaman.

Polina kiradi.

Polina. Marhamat, choy tayyor. (*Jadovga ko'zi tuishb.*) Vasi-  
liy Nikolaich! Meni shuncha azob chektirgani uyalmaysizmi? Sizni  
kutaverib ko'zim to'rt bo'ldi!

Jadov (*qo'lini o'pib*). Uzr, gunohkorman.

Kukushkina. Kel, qizim, meni o'p.

Polina (*Jadovga*). Yuring.

Kukushkina. Yuring, Akim Akimich!

Ketadilar. Belogubov bilan Yulinka qo'llarida chashka, kiradilar.

## OLTINCHI SAHNA

Belogubov va Yulinka.

Yulinka. Bildim, siz meni aldab yurgan ekansiz!

Belogubov. Nega aldar ekanman sizni? Nega bunday deysiz?

O'tiradilar.

Yulinka. Erkaklarga ishonib bo'lmaydi, tirmog'cha ham ishonib  
bo'lmaydi.

Belogubov. Nega endi erkak bechoralarni munchalik tanqid  
ostiga oldingiz?

**Y u l i n k a .** Tanqid deganingiz nimasi, bu haqiqat-ku?

**B e l o g u b o v .** Bo‘lman gap. Bu odad bo‘lib qolgan: erkaklar xushomad qiladilar-u, qizlar ularga ishonmay, aldoqchi deydilar.

**Y u l i n k a .** Ha, sizning bilmaydigan narsangiz yo‘q. Hayotingizda xotinlarga juda ko‘p xushomad qilgan bo‘lsangiz kerak.

**B e l o g u b o v .** Xushomad qiladigan kishim bo‘lgan emas, uning ustiga, qo‘limdan ham kelmaydi. O‘zingizga ma‘lum, shu kunlarda uyingizga keladigan bo‘ldim, ungacha hech qanday tanishim bo‘lgan emas.

**Y u l i n k a .** Hech kimni aldagani ham emasmisiz?

**B e l o g u b o v .** Nima haqda so‘rayapsiz o‘zingiz?

**Y u l i n k a .** Qo‘ying, gapirmang. Sizning bir og‘iz ham gapingizga ishonmayman. (*teskari buriladi.*)

**B e l o g u b o v .** Bu nima qilganingiz? Ranjitmang odamni.

**Y u l i n k a .** Tushunib oling-da.

**B e l o g u b o v .** Tushunolmayapman.

**Y u l i n k a .** Istamaysiz! (*Ko‘zini ro‘molcha bilan berkitadi.*)

**B e l o g u b o v .** Xohlagan narsangiz bilan ishontirishim mumkin, sizni avval qanday sevsam, hozir ham shunday sevaman... Men buni sizga aytgan edim...

**Y u l i n k a .** Sevasiz-u, galga solasiz.

**B e l o g u b o v .** Ha... Endi tushundim... Bu unaqa ish emas-da... Tez bo‘lmaydi.

**Y u l i n k a .** Jadov boshlab yuboryapti-ku?

**B e l o g u b o v .** Uning yo‘rig‘i boshqa. Uning boy tog‘asi bor, o‘zi ham o‘qimishli odam, har qayerdan ish topoladi. O‘qituvchilik qilsa ham nonini topib ketadi. Men-chi? To ish boshqaruvchi o‘rnini egallamagunimcha ilojim yo‘q... O‘ylab ko‘ring, hadeb karam sho‘rva bilan shavla yeaverishga rozi bo‘lasizmi? Bu faqat bizga to‘g‘ri keladi, sizga to‘g‘ri kelmaydi. Ish boshqaruvchi bo‘lib olay, ana undan keyin ish boshqacha bo‘ladi.

**Y u l i n k a .** Axir qachon boshqacha bo‘lar ekan-a?

**B e l o g u b o v .** Oz qoldi... Va’da berishdi. O‘sha o‘rinni egallagan zahotim... faqat yangi kiyim tiktiraman, xolos... Oyingizga ham ayt-dim. Xafa bo‘lmang, Yuliya Ivanovna, bu ishlar menga bog‘liq emas. Qo‘lingizni bering.

**Y u l i n k a** uning yuziga qaramay qo‘lini cho‘zadi. **B e l o g u b o v** o‘padi.

O'zim ham kutaverib o'lib bo'ldim.

Jadov bilan Polina kiradi.

Yulinka. Yuring, bularni yolg'iz qo'yaylik.

Ketadilar.

## YETTINCHI SAHNA

Jadov va Polina. (*O'tiradilar.*)

Polina. Bilasizmi nima?

Jadov. Yo'q, bilmayman.

Polina. Lekin siz oyimga ayta ko'rmang.

Jadov. Xotirjam bo'ling, aytmayman.

Polina (*o'ylab*). Aytardim-u, meni sevmay qo'yasiz deb qo'r-qaman-da.

Jadov. Sizni sevmay qo'yaman? Buning iloji bor ekanmi?

Polina. So'zingiz rostmi?

Jadov (*Polinaning qo'lini ushlab*). Ha, ishoning, sizni sevaman.

Polina. Xo'p mayli, birovga ayta ko'rmang. Men soddaligimdan aytayapman. (*Sekin.*) Uyimizda tirnoqchalik ham rostgo'ylik yo'q, turgan-bitgani yolg'on. Bu yerda eshitadigan gaplaringizni birontasiga ham ishonmang. Bizlar qoq quruqmiz. Oyim bizlarni yaxshi ko'raman deydi-yu, aslida o'zi yomon ko'radi, bizni tezroq uzatib yuboray deb joni halak. Kuyovlarni oldida maqtaydi-yu, orqasidan yomonlaydi. Bizi ni mug'ambir bo'linglar deb zo'rlaydi.

Jadov. Shular sizni nafratlantiradimi? Nafratlantiradimi?

Polina. Lekin men mug'ambirlik qilayotganim yo'q, sizni chindan ham yaxshi ko'raman.

Jadov. Siz meni jinni qilib qo'yasiz! (*Qo'lini o'padi.*)

Polina. Yana shuni ham aytib qo'yay, bizlar ilmsiz odamlarmiz. Yulianing-ku, uncha-muncha narsaga aqli yetadi, men bo'lsam qip-qizil nodonman.

Jadov. Nodonman deganiningiz nimasi?

Polina. Nodonning o'zginasiman. Hech baloni bilmayman, hech narsa o'qimaganman... Ba'zida siz aytgan so'zlariningizga ham tushunmayman, sira tushunmayman.

Jadov. Siz farishtasiz! (*Qo'llarini o'padi.*)

**P o l i n a .** Yulinkaga qaraganda men ko'ngilchanroqman, ammo nodonlikka-nodonman.

**J a d o v .** Sizni hali yomonlikka o'rgatib, buzib ulgurmaganliklari uchun ham sevaman. Sizni bu yerdan tezroq olib ketishim kerak. Siz bilan biz yangi hayot boshlaymiz. Men jon-dilim bilan sizni tarbiya qilaman. Qanday lazzat kutmoqda meni!

**P o l i n a .** Koshki edi tezroq bo'lsa.

**J a d o v .** Cho'zishning nima hojati bor? Men qaror qildim. (*Zavq bilan Polinaga tikiladi.*)

Jimlik.

**P o l i n a .** Sizni tanish savdogarlaringiz bormi?

**J a d o v .** Bu qanaqa savol bo'ldi? Nima edi?

**P o l i n a .** O'zim. Bilgim keldi-da.

**J a d o v .** Tushunmadim, bilib nima qilasiz?

**P o l i n a .** Belogubovning savdogarlardan tanishlari bor emish, ular unga jiletlar hadya qilar emish, uylangandan keyin xotiniga ham gazmollar, kiyimliklar berisharmish. Shuning uchun bilmoxchi edim.

**J a d o v .** Shunday deng! Yo'q, bizga hech kim hech narsa hadya qilmaydi. Biz o'zimiz ishlab topamiz. Shunday emasmi, Polina?

**P o l i n a (parishon).** Shunday.

**J a d o v .** Yo'q, Polina, o'z mehnati bilan yashash lazzatini siz hali bilmaysiz. Siz hozir bekami ko'st yashaysiz. Xudo xohlasa, hali ko'rasiz. Peshona terimiz bilan nimani topsak hammasi o'zimizni bo'ladi, hech kimga qulluq qilmaymiz. Siz shunga tushunasizmi? Buning ikkiyoqlama lazzati bor: birinchisi – mehnat lazzati, ikkinchisi – topganiningi hech kimga hisob bermay, betashvish sarflash lazzati. Bu har qanday hadyadan a'lo! Shunday emasmi, Polina, yaxshi-a?

**P o l i n a .** Ha, yaxshi.

Jimlik.

**Topishmoq aytsam topasizmi?**

**J a d o v .** Ayting.

**P o l i n a .** Nima oyoqsiz yuradi?

**J a d o v .** Juda qiyin topishmoq ekan-ku! Bulut.

**P o l i n a .** Hamma narsani bilasiz-a! Tavba. Men topolmadim, keyin Yulinka aytib berdi.

J a d o v . Jonginam! Koshki bundan keyin ham yosh bolaligingizcha qolsangiz.

P o l i n a . Osmondag'i yulduzlarni sanab bo'ladimi?

J a d o v . Bo'ladi.

P o l i n a . Yo'q, bo'lmaydi. Men sizga ishonmayman.

J a d o v . Qiynalib sanab o'tirishning hojati yo'q, ular sanalgan.

P o l i n a . Mendan kulayapsiz-a. (*Teskari qaraydi.*)

J a d o v (*muloyim*). Men sizdan kulamanmi, Polina! Men o'z hayotimni sizga bag'ishlamoqchiman. Menga yaxshilab bir qarang-chi, sizdan kulayotganmikinman.

P o l i n a (*unga qarab*). Yo'q, yo'q.

J a d o v . Yana men nodonman deysiz, yo'q, siz emas, men nodonman. Mening ustimdan kulsangiz arziydi! Ha, meni kalaka qiladiganlar hali ham oz emas. Pulsiz, davlatsiz, yolg'iz kelajakka ishonib sizga uylanyapsan deyishadi menga. Nega bo'lar edi? Chunki sizni sevaman, odamlarga ishonaman. Rost, balki o'ylamay ish qilayotgandirman. O'ylashga vaqtim bormi. Sizni shunday sevamanki, o'ylashga ham vaqt yo'q.

K u k u s h k i n a bilan Y u s o v kiradi.

P o l i n a (*biroz tuyg'u bilan*). Men ham sizni sevaman.

J a d o v P o l i n a n i n g qo'lini o'padi.

K u k u s h k i n a (*Yusovga*). Qarang-a, xuddi beozor qushchalarining o'zginasi. Xalaqit bermang, ko'rib ko'zing to'ymaydi, kishi!

B e l o g u b o v va Y u l i n k a kiradi.

## SAKKIZINCHI SAHNA

J a d o v , P o l i n a , K u k u s h k i n a , Y u s o v ,  
B e l o g u b o v va Y u l i n k a .

J a d o v (*qayrilib qaraydi va Polinaning qo'lidan ushlab Kukushkina qarshisiga keladi*). Felisata Gerasimovna, shu nurididangizni menga bering.

K u k u s h k i n a . Rostimni aytsam, qizim bilan ajralish menga juda og'ir. Mening eng yaxshi ko'rghan qizim... Qarigan chog'imda ovunchog'im bo'lar degan edim... Mayli oling, qizimning baxti men uchun qimmatliroq. (*Yuzini ro'molcha bilan berkitadi.*)

Jadov bilan Polina uning qo‘lini o‘padilar, Belogubov stul beradi,  
Kukushkina o‘tiradi.

Yusov. Asil ona ekansiz, Felisata Gerasimovna.

Kukushkina. Ha, bu bilan maqtansam arziydi. (*Qizishib.*)  
Yo‘q, qiz o‘stirish oqibatsiz ish ekan! Bag‘ringda o‘stirasan, bir kuni  
kelib egasiga berib yuborasan... Yolg‘iz o‘zing so‘ppayib qolasan...  
Azob-uqubat bu! (*Yuzini ro‘molcha bilan berkitadi.*)

Belogubov. Oyijon, biz sizni yolg‘iz tashlab qo‘ymaymiz.

Polina va Yulinka (*bir og‘izdan*). Oyijon, biz sizni yolg‘iz  
tashlab qo‘ymaymiz.





## UCHINCHI PARDA<sup>1</sup>

Traktir. Orqa tomonga parda tutilgan, o‘rtaga mashina o‘matilgan, o‘ng tomonda ochib qo‘yilgan eshik. Eshikdan uyning ichi ko‘rinadi.

Chapda kiyim iladigan veshalka, sahnaning oldingi qismida  
har ikki tomonga stol va divanlar qo‘yilgan.

### BIRINCHI SAHNA

Vasiliy mashina oldida turib gazeta o‘qimoqda. Grigoriy eshikka suyanib  
uyga termilib turibdi. Jadow bilan Mokin kiradi. Grigoriy ularni kutib  
oladi, stol ustini tozalab, dasturxon yozadi.

Mokin. Xo‘sish, og‘ayni, ahvoling qalay?

Jadow. Maza yo‘q, uka. (*Grigoriyga*) Choydan olib kel.

Grigoriy chiqib ketadi.

O‘zing qalaysan!

Mokin. Durust. Bir navi kunim o‘tayapti, o‘qituvchilik qila-  
yapman.

O‘tiradilar.

Jadow. Moyana qalay, tuzukmi?

Mokin. Ikki yuz rubl olaman.

Jadow. Yetadimi?

Mokin. Ko‘rpamga qarab oyoq uzatib yuribman. O‘zingizdan  
o‘tar gap yo‘q, orzu-havas qilayotganim yo‘q.

Jadow. Ha, bo‘ydoq odam bu pulga yashasa bo‘ladi.

Mokin. Asli sen ham uylanmasang bo‘lar edi! Sen bilan bizga  
bo‘ydoqlik durust. Bizdek yalang‘ochlarga uylanishni kim qo‘yibdi!  
To‘q bo‘lsak, ustimizda yopinchig‘imiz bo‘lsa bas-da. Maqol bor-  
ku: «So‘qqabosh odam kambag‘al bo‘lmaydi, kambag‘al bo‘lsa ham  
yolg‘iz boshi bo‘ladi».

<sup>1</sup> Ikkinci va uchinchi pardalardagi voqealar o‘rtasida bir yilga yaqin vaqt o‘tadi.

J a d o v . Bo‘lar ish bo‘ldi.

M i k i n . Rangi ro‘yingga qara, ilgari sen shunaqamiding. Olaxurjun og‘irlik qilganga o‘xshaydi-a? Yo‘q, sen bilan menga uylanish sira to‘g‘ri kelmaydi. Biz mehnatkash odamlarmiz. (*Grigoriy choy olib keladi. Mikin quya boshlaydi.*) Ishlagandan keyin astoydil ishlash kerak, bu dunyoning rohatini vaqtি kelsa ko‘rarmiz.

J a d o v . Ilojim yo‘q edi-da! Juda yaxshi ko‘rib qolgan edim.

M i k i n . Yaxshi ko‘rsang nima bo‘pti! Boshqalar yaxshi ko‘rmaydi deb o‘ylaysanmi? E, uka, men ham oshiq bo‘lganman, lekin uylanmadim. Sen ham asli uylanmasang bo‘lar edi.

J a d o v . Ha, nega endi?

M i k i n . Nega bo‘lar edi. Bo‘ydoq odamning fikri-zikri ishda bo‘ladi, uylangan odamniki bo‘lsa – xotinda. Uylangan odamga ishonch yo‘q.

J a d o v . Bo‘lмаган gap.

M i k i n . Bo‘lмаган gap emas. Yaxshi ko‘рган qizimga uylanganimda undan hech narsani ayamas edim. Undan ko‘ra, bunday lazzat-dan quruq qola qolay dedim. Menimcha xotinni deb yomon yo‘lga kiringdan ko‘ra, o‘sha tuyg‘ularni o‘ldirib, xotirjam bo‘lgan ma’qulroq.

J a d o v . Bu xiyla mahol gap.

M i k i n . Albatta-da! Yaxshi narsadan voz kechishning o‘zi og‘ir narsa, lekin kambag‘allik tufayli sevganingdan voz kechish – o‘limdan ham qiyin. Xotiningni yaxshi ko‘rasanmi?

J a d o v . Juda ham.

M i k i n . Ishing pachava ekan, bo‘lmasa! Eslik-hushlikkinami o‘zi?

J a d o v . Bilmadim. Ammo uning benihoya dilbarligi muqarrar. Biror arzimagan narsadan ranjib qolsa, shu qadar astoydil yig‘laydiki, unga qo‘shilib o‘zing ham yig‘lab yuborasan, kishi.

M i k i n . Qani, turish-turmushingni yashirmay hikoya qilib berchi menga. Axir seni ko‘rmaganimga ham bir yarim yil bo‘ldi.

J a d o v . Marhamat. Mening tarixim juda qisqa. Men yaxshi ko‘рган qizimga uylandim, buni o‘zing bilasan, saviyasiz, deyarli hozirgi qiz-larning hammasiga o‘xhash urf-odat sharoitida tarbiyalangan bir qizni oldim, uni o‘z maslagimiz ruhida tarbiyalashni orzu qilgan edim, mana uylanganimga bir yil bo‘ldi...

M i k i n . Xo‘sh, nima bo‘ldi?

J a d o v . Nima bo‘lar edi. Uni tarbiya qilishga qo‘lim ham tegmadi, bu ishni qanday boshlashni ham bilmadim, shunday qilib, u ilgarigi

tushunchasida qolaverdi; bahslashib qolgudek bo'lsak, men albatta, yon beraman. Ahvol mana shunday, chatoq, lekin uni tuzatishning iloji ham yo'q. Xotinim meni mensimaydi, meni aqli odamlar qatoriga qo'shmaydi. Ularning tushunchasiga ko'ra aqli odam, albatta, badavlat bo'lishi kerak.

M i k i n . Shunday degin! Topish-tutishing qalay?

J a d o v . Ertadan kechgacha ishlayman.

M i k i n . Shunday ishlasang ham yetkazolmayapsanmi?

J a d o v . Bir navi, tiriklik o'tib turibdi.

M i k i n . Xotining nima deydi endi?

J a d o v . Tajang, unda-munda yig'lab ham qo'yadi. Nachora!

M i k i n . Achinaman senga. Yo'q, uka, sen bilan menga uylanish to'g'ri kelmaydi. Mana men, bir yil ishsiz qoldim, nuqul qora non bilan tirikchilik qildim. O'shanda uylangan bo'lsam nima qillardim?

D o s u j e v kiradi.

## I K K I N C H I S A H N A

Burungilar va Dosujev.

Dosujev (*to'garak stol yoniga o'tirib*). Garson, olib kel!

V a s i l i y . Qanaqasidan olib kelay?

Dosujev. Ryabinoviydan. Zотимизга munosib ovqati ham bo'lsin.

V a s i l i y . Xo'p bo'ladi. (*Eshik tomon yuradi*.)

Dosujev. Fransuz gorchitsasi ham esingdan chiqmasin! Eshitdingmi? Traktiringni yopib qo'yaman! Grigoriy, chal nag'mangni.

G r i g o r i y . Hozir. (*Mashinani ishga soladi*.)

M i k i n . Bu odam ham bo'ydoq bo'lsa kerak.

Dosujev. Menga nega baqrayib qoldilaring. Men hozir oltin baliq yeypman.

J a d o v . Oltin balig'ingiz nimasi!

Dosujev. Qarab tur, soqolini selkillatib keladi. Men uni yeya boshlayman, shunda bilasan.

V a s i l i y araq olib keladi.

Vasiliy, sen ko'z-quloq bo'lib tur. Keldi deguncha menga xabar berasan.

Mashina chalaboshlaydi.

Janoblar, mast nemislarning yig‘lashini ko‘rganmisizlar?

Yolg‘ondan yig‘laydi.

Jadov bilan Mikin kuladilar. Mashina jim bo‘ladi.

M i k i n (*Jadovga*). Xayr endi, bo‘lmasa. Yo‘lim tushganda bir kি-rib o‘tarmas.

J a d o v . Xayr.

M i k i n ketadi.

V a s i l i y (*Dosujevga*). Marhamat qiling, keldi.

D o s u j e v . Chaqir buyoqqa.

V a s i l i y . Kelmayapti. Ichkari uyda o‘tiribdi.

D o s u j e v (*Jadovga*). Kechirasiz. Birpas o‘tirib turing, men hozir qaytib kelaman, ikkalamiz gaplashamiz, siz menga yoqib qoldingiz. (*Ketadi*.)

J a d o v (*Vasiliyga*). O‘qiydigan biror narsang yo‘qmi.

V a s i l i y (*kitob uzatib*). Mana bu maqolani o‘qib ko‘ring. Juda maqtashayapti.

J a d o v o‘qiydi. Y u s o v , B e l o g u b o v ,  
1- va 2-chinovniklar kiradilar.

## UCHINCHI SAHNA

J a d o v , Y u s o v , B e l o g u b o v , 1- va 2-chinovniklar.

B e l o g u b o v . Akim Akimich, ovqatlanish bo‘lsa, u yerda ovqat-landik, endi ruxsat eting, bu yerda sizni vino bilan ziyofat qilay, muzi-kani ham chaldiramiz.

Y u s o v . Chaqiraver, chaqir!

B e l o g u b o v . Qanaqasidan ichamiz? Shampanskiymi?

Y u s o v . E, qo‘ysang-chi...

B e l o g u b o v . Reynveynmi? O‘tiring janoblar.

B e l o g u b o v d a n boshqa hamma o‘tiradi.

Vasiliy, chet el reynveynidan olib kel!

V a s i l i y ketadi.

E, salomat bormisiz! Qani buyoqqa, birga o‘tirsak-chi? (*Jadovga yaqin keladi*.)

J a d o v . Qulluq. Men ichmayman.

B e l o g u b o v . Bu nima deganingiz, oshna. Men uchun-a!.. Bir ryumka-ya... qarindosh bo‘lganmiz-a! (*Vasiliy vino olib keladi. Belogubov o‘z stoli yoniga keladi*.) Quy!

Vasiliy quyadi.

Yusov. Qani, og‘ayni, sening sog‘lig‘ingga. (*Ryumkani qo‘liga olib, o‘rnidan turadi.*)

1- va 2-chinovnik. Sog‘lig‘ingiz uchun. (*Ryumkalarni olib o‘rinlaridan turadilar.*)

Yusov (*Belogubovning boshiga barmog‘i bilan ishora qilib*). Bu peshona-yu, bu miyaning chakana emasligini ilgaridan bilar edim.

Qadah urishtiradilar.

O‘pishamiz.

O‘pishadilar.

Belogubov. Yo‘q-yo‘q, qo‘lingizni bering, qo‘lingizni.

Yusov (*qo‘lini yashirib*). Qo‘y, keragi yo‘q. (*O‘tiradi.*)

Belogubov. Siz tufayli odam qatoriga kirdim.

1- va 2-chinovnik. Ruxsat eting. (*Belogubov bilan qadah urishtirib ichishadi va o‘tirishadi.*)

Belogubov (*ryumkaga vino quyib, patnisda Jadovga uzatadi*). Birodar, qo‘limni qaytarmang.

Jadov. Men sizga aytdim-ku, ichmayman.

Belogubov. Keling endi, odamni ranjitmang.

Jadov. Yelim bo‘lmang, foydasi yo‘q.

Belogubov. Vino ichmasangiz, boshqa narsa icharsiz? Xohlaganingizni buyuring, birodar, jonim bilan.

Jadov. Hech narsa kerak emas. Meni tinch qo‘ysangiz bas! (*O‘qiydi.*)

Belogubov. Maylingiz. Nega meni ranjitayapsiz, bilmadim. Men-ku, astoydil, chin ko‘ngildan taklif etayapman... (*O‘z stoli yoniga boradi.*)

Yusov (*asta*). Qo‘yaver uni.

Belogubov (*o‘tiradi*). Janoblar, yana bir ryumkadan. (*Quyadi.*) Pirojniyga qalaysizlar? Vasiliy, pirojniy olib kel, ko‘proq olib kelaver!

Vasiliy chiqib ketadi.

Yusov. Nechuk bugun juda ham qo‘ling ochilib ketdi! Biror ishni do‘ndirdingmi deyman?

Belogubov (*cho‘ntagini ko‘rsatib*). Qoyil qildim! Kim tufayli deng? Albatta siz tufayli-da.

**Y u s o v .** Ulgurjimi deyman-a?

**B e l o g u b o v** (*cho'ntagidan bir pachka pul olib*). Mana bularni ko'ring.

**Y u s o v .** Ha, seni bilaman, xiyla epchil yigitsan.

**B e l o g u b o v** (*pullarini cho'ntagiga solaturib*). Yo'q, menga qarang! Men kimga tashakkur aytishim kerak? Siz bo'lmasangiz men o'z aqlim bilan nima ham qilolardim? Meni odam qilgan, yo'l-yo'riq ko'rsatgan siz emasmisiz? Meni o'z qanotingizda tarbiyaladingiz. Men ishning ko'zini to'rt yilda bilib oldim, boshqa odam bo'lsa, o'n yilda ham bilolmas edi. Sizdan o'rnak olganim uchun odam bo'ldim, bo'lmasa, o'z aqlim bilan uzoqqa borolmasligim turgan gap edi. Siz menga ota farzandiga qiladigan yaxshilikdan ham ziyoda yaxshilik qildingiz. (*Ko'z yoshini artadi.*)

**Y u s o v .** Ko'ngling ochiq, sof yuraklisan, bu hammada ham bo'lavermaydi.

**V a s i l i y** pirojniy keltiradi.

**B e l o g u b o v .** Kim degan odam bo'lardim deng? Qip-qizil ahmoq! Endi esa jamiyat a'zosiman, hurmat-izzatdaman, ko'chadan o'tib qolgudek bo'lsam savdogarlar salom berishadi, mehmonga taklif etishadi, qayerga o'tqazishni bilmay shoshilib qolishadi, uning ustiga, xotinim ham yaxshi ko'radi. Bo'lmasa, men ahmoqning nimamni yaxshi ko'rsin! Vasiliy! Qimmatbaho konfetlaring yo'qmi?

**V a s i l i y .** Topilib qolar.

**B e l o g u b o v .** Xotinimga. (*Vasiliyga.*) Qani ko'proq qilib qo'ozga o'rab bergen. Mayli, savdolashib o'tirmay to'layveraman.

**V a s i l i y** keta boshlaydi.

To'xta! Pirojnihlardan ham qo'shib o'ra.

**Y u s o v .** Bo'ldi-da, xotinni taltaytirib yuborasan.

**B e l o g u b o v .** Yo'q, yo'q. (*Vasiliyga.*) O'rayver, tuzukmi?

**V a s i l i y .** Xo'p bo'ladi. (*Ketadi.*)

**B e l o g u b o v .** Xotinimni haddan tashqari yaxshi ko'raman. Xotin deganni qancha siylasang shuncha muhabbat qo'yadi, Akim Akimich. Xotinimga qaraganda men bir paqir ham turmayman. U ma'lumotli xotin... Bugun yangi ko'ylak sotib olib berdim... Yo'g'-e sotib olganim yo'q, olib berdim. Puli bo'lsa bir gap bo'lar, kuyib ketmas.

**Y u s o v .** Ajab qilibsan. Har narsaga ham pul to‘layveradimi, kishi? Ishi-pishi tushib qolsa, ora ochiq bo‘lib ketarsizlar. Tog‘ bilan tog‘ uchrashmaydi, lekin odam bilan odam uchrashadi deydilar.

Vasiliy qog‘ozga o‘ralgan konfetni olib keladi.

**B e l o g u b o v .** Shlapamga solib qo‘y. Yana bittadan ichaylik. (*Quyadi.*) Vasiliy, yana bir butilka!

**Y u s o v .** Bo‘ldi endi.

**B e l o g u b o v .** Yo‘q, nega endi. Axir, ziyofat qilayotgan siz emas, men-ku!

Vasiliy ketadi.

**I -c h i n o v n i k .** Qiziq bir voqeа bo‘ldi deng! Ko‘rimsizgina bir mirzamiz bor edi, o‘sha nima qilibdi deng! Hukmdan qalbaki nusxa ko‘chiribdi, (xayoliga kelganini yozaveribdi!) innaykeyin hamma ishtirok etganlar uchun o‘zi qo‘l qo‘yibdi-da, da‘vogarga olib borib beribdi. Pulga daxlli ish ekan. Lekin u hukm nusxasini da‘vogarning qo‘liga topshirmabdi, esi joyida ekan-da, ko‘rsatibdi, xolos. Xullas ancha-muncha pulni qo‘lga kiritibdi. Da‘vogar keyin sudga kelsa, hukm mutlaqo teskari bo‘lib chiqibdi.

**B e l o g u b o v .** Bu pastkashlik. Bunaqangi odamni ishdan haydash kerak.

**Y u s o v .** Ha, haydash kerak. Chinovniklarga isnod keltirmasin. Ish qilgandan keyin uni qoyil qil, firibgarlik ishlatma. Ishni shunday bajarginki, iltimos qiluvchi ham minnatdor bo‘lsin, sen ham quruq qolma. Qonundan tashqari chiqma, six ham kuymasin, kabob ham. Besh panjani og‘izga tiqish bema‘nilik. Toma-toma ko‘l bo‘lur deganlar! Shu ham odam bo‘ldimi! Bunaqa qilaversa bir kunmas bir kun surobi to‘g‘ri bo‘lib qoladi.

**B e l o g u b o v** (*ryumkaga vino quyadi*). Marhamat qilsinlar, Akim Akimich!.. Bir narsa so‘rayman, yo‘q demaysizmi? Tiz cho‘kib iltimos qilaman.

**Y u s o v .** So‘rayqol.

**B e l o g u b o v .** Yodingizdami, o‘tgan safar mashina «Toshko‘cha bo‘ylab»ni chalganida o‘ynab bergan edingiz?

**Y u s o v .** Obbo seney, nimalarni o‘ylab topmaysan!

**B e l o g u b o v .** Bir xursand qiling, Akim Akimich! Umrbod esdan chiqmaydigan bo‘lsin.

**Y u s o v.** Mayli, mayli. Sen uchun o'ynab beraman-da! Ayt, «Toshko'cha bo'y lab»ni qo'ysin.

**B e l o g u b o v.** Hoy, Vasiliy! «Toshko'cha bo'y lab»ni qo'yib yubor, o'zing eshik tagida qarab tur, tag'in birov kirib qolmasin.

**V a s i l i y .** Xo'p bo'ladi. (*Mashinani ishga soladi.*)

**Y u s o v** (*Jadovni ko'rsatib*). Anavi! Yoqtirmayman men uni. O'zicha nima deb o'ylar ekan hali.

**B e l o g u b o v** (*Jadov yoniga o'tirib*). Og'ayni, axir, bizga el bo'la qolsangiz bo'lmaydimi. Mana endi Akim Akimich sizdan xijolat bo'layaptilar.

**J a d o v .** Nimadan xijolat bo'lar ekan?

**B e l o g u b o v .** O'yinga tushmoqchi edilar. Ishdan keyin, axir uncha-muncha o'yin-kulgi qilish ham kerak-da, og'ayni. Hadeb ishlayveradimi. Nima qilibdi? O'ynash gunoh emas, istirohat, hech kimni xafa qilmaganimizdan keyin...

**J a d o v .** O'ynayvering. Istaganingizcha, men sizlarga xalaqt bermayman.

**B e l o g u b o v** (*Yusovga*). O'ynayvering, Akim Akimich, bundan xavotir bo'lmanq.

**V a s i l i y .** Qo'yaymi, ijozatmi?

**Y u s o v .** Qo'y.

Mashina «Toshko'cha bo'y lab»ni ijro etadi. **Y u s o v** o'ynaydi. Tamom bo'lgach  
J a d o v d a n bo'lak barcha qarsak chaladi.

**B e l o g u b o v .** Yo'q endi, shampanskiy ichmasak bo'lmaydi! Vasiliy bir butilka shampanskiy olib kel! Hisobla, hammasi necha pul bo'ladi?

**V a s i l i y** (*cho'tda hisoblab*). O'n besh so'm.

**B e l o g u b o v .** Mana. (*Beradi.*) Mana bu yarim so'm o'zingga, choy puli.

**V a s i l i y .** Rahmat. (*Ketadi.*)

**Y u s o v** (*baland ovoz bilan*). Ona suti og'zingizdan ketmagan-u, hali meni kalaka qilayapsizlarmi!

**1-c h i n o v n i k .** Qo'ying-e, Akim Akimich, sizga minnatdorligimizni bildirolmay halakmiz-ku!

**2-c h i n o v n i k .** Shunday.

**Y u s o v .** Men o'ynasam yarashadi. Umrinda odam bolasi qo'-lidan keladigan ishlarning hammasini bajardim. Ko'nglim tinch,

yelkamni ezadigan og‘ir yukim yo‘q, oilamni ta’min qilib qo‘yibman, o‘ynayveraman. Endi mening ishim dunyoning lazzatidan bahramand bo‘lish! Qush ko‘rsam ham xursand bo‘laman, gul ko‘rsam ham, bula larda lazzat bor.

Y u s o v so‘zida davom etar ekan, V a s i l i y butilka keltiradi,  
ochadi va quyib beradi.

O‘zimning kambag‘allik vaqtlarim ko‘zimdan nari ketmaydi, shuning uchun bechoralarni unutmayman. Bir turli yosh olimlarga o‘xshab o‘zgalarni tahqir qilmayman! Kimni yomonlashimiz mumkin! Hali o‘zimizning nima bo‘lishimizni bilmaymiz-ku! Bugun piyonistani masxara qilasan, balki ertaga o‘zing ham piyonista bo‘lib qolarsan; bugun o‘g‘rini yomon deysan, balki ertaga o‘zing o‘g‘ri bo‘lib qolarsan. O‘z taqdirimizni o‘zimiz bilmaymiz, demak, nima bo‘lishimiz ham noma‘lum. Biz faqat o‘limning muqarrarligini bilamiz, xolos. Mana sen (*ko‘zi bilan Jadovga imo qilib*), bugun mening o‘yinimdan kulding; balki ertaga o‘zing ham mendan battar o‘yinga tushib qolarsan. Balki (*Jadovni ishora qilib*) qo‘lingni cho‘zib, sadaqa so‘rab qolarsan. Manmanlikning oqibati shunaqa bo‘ladi! Mag‘rurlik, manmanlik! Men ko‘nglim tozaligidan o‘ynadim. Hadiksiraydigan ishim yo‘q, xursandman! Hech kimdan qo‘rqadigan joyim yo‘q. Xohlasam maydon o‘rtasiga chiqib, xalq oldida o‘ynab beraman. O‘tgan-ketgan «Yuragida kiri yo‘q odam ekanki, o‘ynayapti», deydi-yu, ketaveradi.

B e l o g u b o v (*qadah ko‘tarib*). Janoblar! Akim Akimich salomatligiga! Ura!

1- va 2-chinovnik. Ura!

B e l o g u b o v . Akim Akimich biz taraflarga ham bir o‘tsangiz-chi, boshimiz osmonga yetar edi. Er-xotin hali yoshmiz, nasihat qildingiz, qonundan chekkaga chiqmay, kishilik burchin bajarib hayot kechirishni o‘rgatar edingiz. Sizning so‘zingizga qulq solganda, har qanday toshyurak ham erib ketadi.

Y u s o v . Yo‘lim tushsa bir kirib o‘tarman. (*Gazetani oladi*.)

B e l o g u b o v (*qadahni to‘ldirib Jadov yoniga olib keladi*). Endi ham olmasangiz xafa bo‘laman, birodar.

J a d o v . O‘qigani qo‘yasizmi, yo‘qmi... Qiziq maqola ekan, biroq siz xalaqit berayapsiz.

B e l o g u b o v (*Jadov yoniga o'tirib*). Og‘ayni, mendan chakki xafa bo‘layapsiz. Keling, xusumatni tashlaylik. O‘tgan ishga salavot. Endi el bo‘lib yashaylik.

J a d o v . Bu mumkin emas.

B e l o g u b o v . Nega, axir?

J a d o v . Biz tereng emasmiz.

B e l o g u b o v . Har kimning taqdiri har xil. Men hozir baxtli hayot kechirayapman, siz esa nochorlikdasiz. Men bu bilan faxrlanmayman. Bu peshonaga bog‘liq, nima ham qilolamiz. Men hozir butun bir oilani, hatto qaynanamni ham boqayapman. Sizning muhtojligingizni ham yaxshi bilaman, balki sizga pul kerakdir, agar xafa bo‘lmasangiz, qo‘limdan kelganicha qarashib turishim mumkin! Hatto buni qarz deb ham hisoblamayman. Qarindosh bo‘lganimizdan keyin, o‘rtamizda seniki-meniki nima qilib yuribdi!

J a d o v . Menga nima qilib pul taklif qilib yuribsiz!

B e l o g u b o v . Og‘ayni, axir, hozir imkoniyatim bor, yordamla-shish mening burchim-ku. Nochorligingizni ko‘rib turibman, axir.

J a d o v . Men sizning og‘ayningiz emasman. Qo‘ying meni o‘z holimga.

B e l o g u b o v . Ixtiyorungiz! Men chin ko‘ngildan taklif qildim. Men sizga o‘xshagan kek saqlaydigan odamlardan emasman, faqat siz bilan xotiningizga rahmim keladi, xolos. (*Yusov tomon keladi*.)

Y u s o v (*gazetani tashlab*). Nimalarни yozishmaydi-ya! Bironta ham tuturuqli gap yo‘q! (*Belogubovga vino quyib beradi*.) Mana buni ich. Ketamiz!

B e l o g u b o v (*ichadi*). Ketamiz!

Vasiliy bilan Grigoriy shinellarni kiygizishadi.

Vasiliy (*Belogubovga ikki o‘ram narsani uzatib*). Mana bu esingiz-dan chiqmasin.

B e l o g u b o v (*xushvaqt*). Xotinchaga. Ha o‘rgilib ketay.

Ketadilar. D o s u j e v kiradi.

## TO 'RTINCHI SAHNA

Jadov va Dosujev.

Dosujev. Jo'nab qolishipti-ku, qarg'alar!

Jadov. To'g'ri aytasiz.

Dosujev. Yuring Marina Roshchaga boramiz.

Jadov. Men borolmayman.

Dosujev. Nega endi? Jo'jabirdek jonmisiz? Bola boqasizmi?

Jadov. Bola-ku, boqmayman-a, lekin uyda xotinim kutib o'tiribdi.

Dosujev. Xotiningiz bilan ko'rishmaganingizga ko'p vaqt bo'l-dimi?

Jadov. Ko'p emas. Bugun ertalabdan beri.

Dosujev. Hali ko'p bo'lmaabdi-ku, bo'lmasa. Men ko'rishmaganlaringga uch-to'rt kun bo'libdimi debman.

Jadov unga tikilib qaraydi.

Nega menga tikilib qoldingiz? Mening to'g'rimda nima mulohaza qilayotganingizni bilib turibman. Siz meni hozir chiqib ketgan oliftalardan bo'lsa kerak deb o'ylayapsiz, yanglishasiz. Arslon terisidagi eshaklar-ku, ular! Ularning terisi dahshatli, xolos. O'sha terisi bilan ular odamlarni qo'rqtib yurishibdi.

Jadov. Rostini aytsam, sizning qanaqa odam ekaningizni tu-shunolmayapman.

Dosujev. Mana ko'rib turibsiz, avvalo, xushchaqchaq kishiman, qolaversa, ajoyib yuristman. Siz o'qigan odamga o'xshaysiz, ko'rib turibman, men ham o'qiganman. Maoshni oz olaman, pora olmayman — vijdonom yo'l qo'ymarydi, lekin hayot kechirish zarur. O'ylab-o'ylab yo'lini topdim, advokatlik qila boshladim, savdogarlarga ariza yozib bera boshladim. Keling, bormaydigan bo'lsak ichaylik. Vasiliy, araq olib kel!

Vasiliy ketadi.

Jadov. Men ichmayman.

Dosujev. Qayerda tug'ilgansiz o'zingiz? Bo'lman gap. Men bilan ichsangiz bo'laveradi. Shunday qilib ariza yozib berishga kiriшidim. Siz savdogar xalqini bilmaysiz. Hozir sizga hikoya qilib beraman.

Vasiliy kiradi.

Ikkala qadahga quy! Bir grafinga pul ol! (*Pul beradi.*)

Jadov. Menden ham choyingiz haqini oling. (*Pul beradi.*)

Vasiliy ketadi.

Dosujev. Ichamiz!

Jadov. Mayli, siz uchun ichaman, bo'lmasa o'zim ichmaydigan odamman.

Urishtirib ichishadi. Dosujev yana quyadi.

Dosujev. Savdogarlarga ariza yozib berib, picha qalam haqi so'radingmi, bo'ldi, yelkangga minib olishadi. Darrov taltayib ketib: «Hoy mirza! Ma, araq olib ich», deb qolishadi. Shunday tabiatimni tirriq qilishadiki, qo'yaverasiz! Ichamiz! «Ichgan ham o'ladi, ichmagan ham, undan ko'ra ichib o'lgan yaxshi».

Ichadilar.

Keyin arizani ularning didiga to'g'ri keladigan qilib yoza boshladim. Masalan veksel evaziga pul berishni iltimos qilish kerak. Yozsang o'n satr ham bo'lmaydi, lekin uni uch-to'rt varaqqa cho'zib yozaman. Bunday boshlayman: «Bola-chaqam ko'p bo'lgani tufayli va shuning natijasida aziyat chekayotganimni nazarda tutib». Keyin shu tartibda naqsh urib ketaveraman. Shunday boplab yozamanki, o'qib ko'rib o'zi ham yig'laydi, bola-chaqasi ham. Kula-kula ichaging uzilgudek bo'ladi, qo'lidan ancha-muncha pulini olasan, yana seni hurmat qiladi, ikki bukchayib qulluq qiladi. Arqon qilib eshib yuborsang ham churq etmaydi. Semiz-semiz qaynanalari, kampirlari badavlat qizlarini bermoqchi bo'ladi. Yaxshi odamman-da, har qanday odamga ham yoqib tushaman. Ichamiz!

Jadov. Bo'ldi-ye.

Dosujev. Mening sog'lig'imga.

Jadov. Sizning sog'lig'ingizga bo'lsa mayli.

Ichadilar.

Dosujev. Ulardan pora olmaslik uchun iroda kuchli bo'lmasa bo'lmaydi. Ular sofdir, vijdondi amaldorlarni masxara qilishadi, ha, yerga urib yuborishadi, bu ish qo'llaridan ham keladi. Qattiq bo'lmasang bo'lmaydi! Asli botirlik qilishning ham keragi yo'qku-ya. Ustidagi po'stinini shilib olsang ham bo'ladi-ku, biroq men bu ish-

ni qilolmayman. Men faqat ularning nodonligi uchun qo‘lidan pulini olaman, xolos, keyin hammasini ichib bitiraman. E... chakki uylangan ekansiz-da! Ichamiz. Ismingiz nima?

Jadov. Vasiliy.

Dosujev. Adash ekanmiz. Ichdik, Vasya!

Ichadilar.

Yaxshi odamga o‘xshaysan.

Jadov. Men ham odam bo‘ldimmi! Men hali go‘dakman, hayotning nima ekanini yaxshi bilmayman. Sizdan eshitganlarimning hammasi men uchun yangilik. Ahvolim og‘ir meni! Bilmadim bardosh berolarmikinman! Atrofimiz buzuqlikdan iborat, tuzatishga kuching yetmaydi! Bizni nega ilm-u ma’rifatga o‘rgatishdi ekan-a!

Dosujev. Ich, yengil tortasan.

Jadov. Yo‘q, yo‘q! (*Boshini qo‘llari ustiga qo‘yadi.*)

Dosujev. Men bilan bormaysanmi, endi?

Jadov. Bormayman. Nega menga ichirdingiz? Nima qilib qo‘ydingiz!

Dosujev. Xayr bo‘lmasa. Mana endi tanishib oldik! Kayfing picha oshib qoldi, deyman, uka! (*Jadovning qo‘lini siqadi.*) Vasiliy, to‘nimni ber! (*Shinelini kiyadi.*) Mendan xafa bo‘lib yurma tag‘in! Men adoyi tamom bo‘lgan odamman. Ilojini topsang, mendan ko‘ra durustroq odam bo‘lishga harakat qil. (*Eshik tomon borib, yana qaytadi.*) Ha! Senga aytadigan nasihatim bor. Agar bugundan boshlab men tufayli ichkilikka o‘rganib ketsang, esingda bo‘lsin, vino ichma, araq ich. Vinoni hamyon ko‘tarmaydi, hammasidan ham araq yaxshi, uka, ham dardinga darmon bo‘ladi, ham arzon. Xayr! (*Ketadi.*)

Jadov. Yo‘q! Ichish yaxshi emas! Xursand emas, battar xafa qiladi. (*Xayolga cho‘madi. Vasiliy boshqa zaldagilarning buyrug‘i bilan mashinani ishga soladi. Mashina «Luchinushka» ashulasini chaladi. Jadov ashula aytadi.*) «Luchina, Luchina, oqqayinzorim!...»

Vasiliy. Ana xolos! Yaxshi emas! Bema‘nilik bu!

Jadov tezda shinelini kiyib, chiqib ketadi.

## TO‘RTINCHI PARDA

Sahna kambag‘al jihozlangan xonadan iborat. O‘ng tarafda deraza,  
deraza tagida stol, chap tomonda oyna.

### BIRINCHI SAHNA

Polina (*yolg‘iz, derazaga qarab*). Yuraklarim tors yorilib ketay deyapti! (*Ashula aytadi*) «Onajon, jonginam! Farzandingga rahming kelsin, mehribonim». (*Kuladi*) Xayolimga kelgan ashulani qarang-a! (*Yana xayolga cho‘madi*) Zerikkanimdan tors yorilayozdim. Kartada pol ochib ko‘rsammikin? Nima, birov mening qo‘limni ushlarvardi? Ochaman, ochaman. Hech narsa topilmasa ham karta topiladi. (*Stol tortmasidan kartani oladi*) Gaplashay desam hech kim yo‘q. Bittayarimta odam kelib qolsa juda yaxshi bo‘lardi-da, xursand bo‘lib ketar edim. Axir, shu ham ish bo‘ldimi, yolg‘iz o‘tirganim-o‘tirgan... Gaplashishni o‘lgudek yaxshi ko‘raman. Yoshligimizda sahargacha gaplashib o‘tirardik, vaqtning o‘tganini ham bilmay qolar edik. Mana endi gapashadigan odam ham yo‘q. Opamning oldiga borib kelsammikin-a? Yo‘q, kech bo‘lib qoldi. Attang, ilgariroq esimga kelganda-ku. (*Ashula aytadi*) «Onajon, jonginam!...» Voy esim qursin, pol ochmoqchi edim-ku. Nimani ochsam ekan? Qani, ochib ko‘ray-chi, yangi shlapa kelarmikin menga? (*Kartalarni yozadi*) Keladi, keladi... (*Chapak chaladi, xayolga cho‘madi, keyin ashula ayta boshlaydi*) «Onajon, jonginam! Farzandingga rahming kelsin, mehribonim».

Yulinka kiradi.

## IKKINCHI SAHNA

Polina bilan Yulinka.

Polina. Eson-omonmisan!

O'pishadilar.

Ajab qilib kelibsan, shlapangni yech!

Yulinka. Yo'q, o'tirmayman, birrov kirib chiqay deb kelgandim.

Polina. Voybo'y, yasanib ketibsan-ku, opa!

Yulinka. Ha, shu kecha-kunduz chet eldan nima yangi narsa kelsa qo'y may sotib olyapman.

Polina. Baxtli ekansan, Yulinka.

Yulinka. Ha, men ham o'zimni baxtli hisoblayman. Sen-chi, Polina, turish-turmushingni qara? Rasvo-ku. Hozir shunaqangi zamon ekanmi. Bu zamonda orzu-havas bilan yashash kerak.

Polina. Axir, nima qilay? Menmi gunohkor?

Yulinka. Kecha biz parkka bordik. Biram maza qildikki, asti qo'yaver! Allaqanday bir savdogar bizni ovqat, shampanskiy, turli-tuman mevalar bilan ziyo fat qildi.

Polina. Men bo'lsa yolg'izman. Uyda o'tir ganim-o'tir gan. Zerikib o'lar holatga yetdim.

Yulinka. Ko'rdingmi, Polina, men hozir judayam boshqacha bo'lib ketdim. Pul va yaxshi hayot kishini naqadar olivjanob qilib yuborishini sen tasavvur ham qilolmaysan. Ro'zg'or ishlariga sira aralashmayman, ish qilishni pastkashlik deb bilaman. Pardoz qilishdan bo'lak hech narsani nazarim ilmaydi. Sen-chi, sen! Shu ham tirikchilikmi! Qani, menga ayt-chi, ering nima ish qiladi, o'zi?

Polina. U, hatto sizlarnikiga borishga ham ruxsat etmaydi, uyda o'tir, ishla deydi, xolos.

Yulinka. Qanday razolat! O'zini aqlli odam deb hisoblaydi-yu, zamonaning talabidan bexabar. Kishi jamiyat uchun yaratiladi, buni ering bilishi kerak edi.

Polina. Nima deding?

Yulinka. Kishi jamiyat uchun yaratilgan. Buni kim bilmas ekan! Hammaga ma'lum.

Polina. Yaxshi aytding, men buni erimning yuziga solaman.

Yulinka. Sen u bilan g'ijillashib ko'rsang qalay bo'lar ekan!

**P o l i n a .** G'ijillashib ham ko'rdim, foydasi bo'ljadi. Hamisha u haq bo'lib chiqadi-yu, men gunohkor bo'lib qolaman.

**Y u l i n k a .** Yaxshi ko'radimi seni?

**P o l i n a .** Judayam.

**Y u l i n k a .** Sen-chi?

**P o l i n a .** Men ham.

**Y u l i n k a .** Ayb o'zingda ekan-da, jonginam. Erni erkalash bilan maqsadga erishib bo'larmidi. Sen uni erkalaganingdan keyin, albat-ta, qo'lini qovushdirib o'tirib oladi-da, taltayib ketib hammani unutib qo'yadi.

**P o l i n a .** Kecha-yu kunduz ishlaydi-yu, bechora.

**Y u l i n k a .** Marg uning ishlashiga. Mana mening erim, unaqa ko'p ishlamaydi, lekin turmushimizni qara, qanday yaxshi. Rostini aytsam, Onisim Panfilich topilmaydigan odam, ajoyib xo'jayin; borib ko'rsang bilar eding, uyimizda hamma narsa muhayyo. Axir bo'lmasa hali hechvaqt o'tgani yo'q-a! Qayerdan topib keladi, aqling yetmaydi, kishi! Sening ering-chi? Shu ham er bo'ldimi? Turish-turmushlaringni ko'rgan kishi irganadi.

**P o l i n a .** U nuqul o'tir, ishla, o'zgalarga havasing kelmasin, bizning ham turmushimiz yaxshi bo'lib ketadi, deydi, xolos.

**Y u l i n k a .** Qachon yaxshi bo'lar ekan? Kutaverib qarib ketasan. U vaqtda orzu-havasni boshingga urasanmi! Chidashning ham chegarasi bo'ladi-da.

**P o l i n a .** Nima qilay endi, bo'lmasa?

**Y u l i n k a .** Ering er emas, zolim ekan. Mashmasha qilib o'tirasunmi, u bilan! Men seni sevmayman degin, tamom! Yo'q, yaxshisi, bunday hayot jonimga tegdi, endi ortiq sen bilan yashay olmayman, onamnikiga ko'chib ketaman, yana ketimga tushib ovora bo'lib yurma, degin. Men oyimni ogohlantirib qo'yaman.

**P o l i n a .** Bo'pti, juda soz! Men bu ishni boplayman.

**Y u l i n k a .** Qo'lingdan kelarmikan?

**P o l i n a .** Bo'lmasa-chi! Bunaqangi nayrangbozlikni bajarish bo'lsa har qanday artistkadan ham o'tkazib yuboraman. Birinchidan, yoshlik-dan shu yo'sinda tarbiyalanganmiz, endilikda esa, yolg'iz qolaverib, ishdan zerikib ketganimdan o'zim bilan o'zim so'zlashishga o'rganib qoldim. Biram o'rgandimki, asti so'rama. Biroq bechora erimga rah-mim keladi-da.

Yulinka. Rahming kelmay qo'yaqolsin! Ha, aytgancha, men senga shlapa olib kelgandim-a. (*Karton qutidan oladi.*)

Polina. Muncha yaxshi, muncha chiroylig! Rahmat, opajon, katta rahmat! (*Opasini o'padi.*)

Yulinka. Eski shlapang juda puturdan ketgan ekan.

Polina. Ha, judayam ko'nglimga tegib ketgan edi! Ko'chaga kiyib chiqqani ham uyalar edim. Mana endi men ham bir erimni g'ashiga tegib qo'yay-chi. Sening xayolinga ham kelmaydi-yu, mana begonalar sotib olib berdi, jonginam deyman.

Yulinka. Bo'lar ish bo'ldi. Polinka, biz ham endi qarab turmaymiz, qo'ldan kelgancha yordamlashamiz. Faqat sen eringni so'ziga kirmasang bo'lgani. Sen unga tushuntirib qo'y, yaxshi ko'rish quruqdan quruq bo'lavermaydi degin. Axir, o'zing o'ylab ko'r-chi, esi past erlarni bekordan bekorga yaxshi ko'rishdan nima foyda? Aqlga ham to'g'ri kelmaydi o'zi! Avval meni yasantirib, ko'pchilik ichida zebziynatga yarqiratib qo'y, keyin men seni yaxshi ko'ray! U seni baxtli bo'lishingni xohlamaydi-yu, sen indamay yuraverasanmi? Tog'asidan bir og'iz iltimos qilsa-ku, olam guliston, mening erimga o'xshash serdaromad joyga o'mashtirib qo'yadi.

Polina. Mana endi men uni qo'yarda-qo'ymay qistaganim bo'lsin.

Yulinka. Axir, o'zing o'ylab ko'rigin: binoyi, bir chirolyi qiz bo'lsang, agar seni yaxshilab yasantirib, teatrga oborib o'tqazib qo'ysa-chi... chiroq yonganda... durbinini senga tikmagan erkak qolmaydi-ya.

Polina. Qo'ying, unaqa demang, opa, yig'lab yuboraman.

Yulinka. Mana bu pulni ol (*karmonidan chiqarib beradi*), biror narsaga muhtoj bo'lib qolsang, eringga yalinib yurmaysan. Hozircha pulimiz bor ekan, boshqalarga yordamlashib turishga qaror qildik.

Polina. Rahmat, opajon! Lekin erimning jahli chiqmasmikin deb qo'rqaman.

Yulinka. Chiqsa chiqar, xudo o'lim bersin! Jahli chiqar ekan deb yuraverasanmi! Begonadan emas, tug'ishganiningi qo'lidan olayapsan-ku. Endi uni deb och o'tirasamni! Xayr, Polina, yaxshi qol.

Polina. Yaxshi boring, opa. (*Kuzatib qo'yadi.*)

Yulinka ketadi.

## UCHINCHI SAHNA

Polina. Yulinkaning juda ham aqli raso-da! Men bo'lsam o'lgudek go'lman! (*Karton qutiga ko'zi tushib.*) Yangi shlapa! (*Chapak chaladi.*) Erim ranjitib qo'ymasa, mana shu xursandligim bir haftaga yetadi. (*Ashula aytadi.*) «Onajon, jonginam...»

Kukushkina kiradi.

## TO'RTINCHI SAHNA

Polina bilan Kukushkina.

Kukushkina. Hali ham ashula aytishing qolmagan ekan-da.

Polina. Salom, oyijon! Zerikkanimdan aytyapman.

Kukushkina. Uyingga sirayam qadam bosmayman degan-dim-u...

Polina. Nega endi, oyijon?

Kukushkina. Irganaman senikiga kelgani, irganaman. Shu yerdan o'tib ketayotgandim, kirib chiqa qolay dedim. Bunaqangi qashshoqlik, gadoylikni ko'rishga toqatim yo'q. Mening uyim ozoda, saranjom, bu yerda-chi, bu nima! Qishloqining uyidan ham battar! Jir-kanch!

Polina. Menda nima ayb?

Kukushkina. Shunday ham past odam bo'ladimi?! Rostini aytsam, hamma gunoh o'zingda. Undan umidim ham yo'q edi. Senchi, sen nega indamaysan? Senga tayinlab uqtirmaganmidim: eringga bo'sh kelma, kechasi-yu kunduzi tinmay egovla, pul so'ra, qayerdan bo'lmasin topib olib kelgin. Menga pul kerak, uni olaman, buni olaman. Mening onam ko'ngli nozik ayol, uni yaxshilab kutmasak bo'lmaydi, demaysanmi. Pulim yo'q desa, mening nima ishim bor? O'g'irlab topasanmi, to'g'rilikchami. Bo'lmasa meni nega olding? Uylanish qo'lingdan kelar ekan, xotinning kam-ko'stini butashning ham uddasidan chiq-da. Agar mana shunday deb uni erta-yu kech qiy Nayversang, ajab emas, aqli ham kirib qolarmidi. Sening o'rningda bo'lsam, bundan boshqa narsa to'g'risida gaplashmasdim ham.

Polina. Axir menda qattiqqo'llik xususiyati bo'lmasa nima qilay, onajon?

Kukushkina. Yo'q, yaxshisi sen, xususiyatim ahmoqlik va suyuqlikdan iborat deb iqror bo'laqol. Sen suyuqlik erkak kishini buzishi-

ni bilasanmi, o'zing? Fikri-zikring noz-u karashma qilishda, iloji bo'lsa kecha-yu kunduz eringni bo'yniga osilib olsang. Erga yetishdim deb, o'zingda yo'q xursandsan shekilli. Tiriklik esa esingga ham kelmaydi. Uyatsiz! Kimga o'xshading o'zing! Urug'imizda erparasi yo'q edi-ku. Hammasi ham orzu-havas, yaxshi kiyinish, odamlar ko'ziga yaxshi ko'rinishni o'ylaydigan ayollar. Ha, erni erkalab turish kerak, albatta, lekin u nima uchun erkalayotganiningni sezsin-da. Mana, Yulinka, eri ko'chadan biror narsa ko'tarib kelgudek bo'lsa bo'yniga shunday osilib oladiki, zo'rg'a ajratib olishadi. Shuning uchun eri har kuni unga turli hadyalar ko'tarib keladi. Quruq kirib kelsa-chi, qosh-u qovog'ini solib, ikki kungacha gaplashmay qo'yadi. Bo'yniga osilaverishning ham maromi bor, bo'lmasa erlarga bu yoqmaydi deb o'ylaysanmi, ularga shu bo'lsa bas. Uyalgin-e!

**P o l i n a .** Laqma ekanimni o'zim ham sezaman, menga yaxshi gapirib, erkalatsa bas, darrov erib keta qolaman.

**K u k u s h k i n a .** Qani, qarab tur, ikkalamiz bir bo'lib bosib ko'raylik-chi, balki bo'sh kelib qolar. Eng muhimi, uni erkalatmaslik va bema'ni so'zlariga qulq solmaslik, u dard desa sen marg degin, hushingdan ketguncha olish, lekin bo'sh kelma. Yon berdingmi, bo'ldi, ering yelkangga chiqib oladi. Ha, mag'rurligiga zarba berish kerak, mag'rurligiga! Eringni maqsadini bilasanmi o'zing?

**P o l i n a .** Qayoqdan bilay.

**K u k u s h k i n a .** Shunaqangi bir ahmoqona filosofiya paydo bo'libdi, uni yaqinda birovning uyida eshitdim, hozir juda rasm bo'lgan emish. Bu filosofiya tarafdarlarining fikricha dunyoda ulardan aqli odam yo'q emish, qolgan hamma ahmog'-u poraxo'r emish. Ana bema'nilig-u, ana ahmoqlik! Biz pora olishni istamaymiz, oyligimiz bilan hayot kechiraveramiz emish. Bunday tirikchilik qilib bo'lar ekanmi? Bunaqangi bo'lsa qizlarni ham erga berib bo'lmaydi. Axir bunga yo'l qo'yib berilsa, odamzodning ham borib-borib tuxumi qurib ketadi-ku. Pora-ya! Shu ham gap bo'ldimi? Bu so'zni yaxshi odamlarni haqorat qilish uchun o'ylab chiqarishibdi. Pora emas, buni minnatdorlik deyish kerak. Minnatdorlikdan qaytish gunoh, kishini ranjitib qo'yish mumkin. Shu ham gapmi! Bo'yoqlikning esa yo'rig'i bo'lak. Bo'yoq bo'lsang hech kimni senda da'vosi yo'q, bilgанинcha kuningni kechiraver. Lekin uylandingmi, xotin bilan hayot kechirishning uddasidan chiq, ota-onasini aldama. Ular nima yomonlik qildi senlarga. Esi past yigit-

lar, tarbiya ko'rgan, yoshligidan hayotning nimaligini tushungan, ota-onasi bor-yo'g'ini ayamay odob berib, bema'ni so'zlardan uzoqda saqlab tarbiya qilgan bir qizni oladi-da, mana bunga o'xshagan bir kulbaga qamab qo'yadi. Shunday oliyjanob bir qizni kir yuvadigan xizmatkor qilib qo'ymoqchi bo'ladimi? Bunaqa ekan, boshi berk ko'chaga kirib qolgan, erga tekkach beka bo'lish nima-yu xizmatkor bo'lish nima – farqiga bormaydigan qizlarga uylanishmaydimi. Bunaqangi xotinlar erini yaxshi ko'rganidan yubkasini o'zi yuvishga ham, bozorma-bozor sanqib yurishga ham rozi bo'laveradi. Mana shunaqangi tushunmagan xotinlar yo'q deb o'ylaysanmi.

P o l i n a . Erim meni shu ko'yga solmoqchi-da.

K u k u s h k i n a . Tushungan, hayotning nima ekanini besh panjasidek biladigan xotinlarga nima kerak? Ular buni bilishmaydi. Xotin kishi yaxshi kiyinishi kerak, uning oqsochi bo'lishi kerak, hammadan ham osoyishta bo'lishi, hech narsa bilan ishi bo'lmasligi, oliyjanoblikdan chiqib qolmaslik uchun hech qanday xo'jalik ishlariiga qotishmasligi zarur. Mana, Yulinka, xuddi shunaqa hayot kechiradi, o'ziga zeb berishdan bo'lak narsa bilan ishi yo'q. O'rnidan kech turadi; eri ertalab turib hamma ishlarni saranjom qiladi, keyin xizmatchi tayyorlagan choyni ichib, ishiga jo'nab ketadi. Nihoyat opang ham o'rnidan turadi, choy deysanmi, kofe deysanmi – hammasi tayyor, yeb-ichadi, keyin yasanib, qo'lida kitobi, deraza oldiga o'tirib oladi-da, erining kelishini kutadi. Kechqurun eng yaxshi kiyimlarini kiyib yo teatrga jo'naydi yoki mehmonga boradi. Mana bu hayot! Mana bu tartib! Xotin degan mana shunaqa bo'lsa! Bundan ham ortiq oliyjanob, bundan ham dilrabo hayot bo'ladimi?.. Qandini ursin.

P o l i n a . Rohat-a, rohat! Men ham bir haftagina shunday hayot kechirsam edim.

K u k u s h k i n a . Ha, shu ering bo'ladigan bo'lsa, yetishasan, kutaver!

P o l i n a . Yaxshilab urishib qo'ying uni, oyijon. Meni judayam havasim keladi. Yulinka har safar kelganida yangi-yangi ko'ylak kiyib, yasanib keladi, meni bo'lsa bitta ko'ylagim haligacha ikkita bo'lmaydi. Ana o'zi ham kelayapti. (*Eshikka yaqinlashadi.*)

J a d o v keladi, qo'lida portfel. O'pib ko'rishadi.

## B E S H I N C H I S A H N A

Burungilar va J a d o v .

J a d o v . Salom, Felisata Gerasimovna! (*O'tiradi.*) Uh, juda char-chadim!

P o l i n a onasi yoniga borib o'tiradi.

Ishga berilib ketib, dam olishni ham unutib yubordim. Ertalab mahkamada, kunduzi darsda, kechasi uyda o'tirib ish qilaman; xat ko'chiraman. Xizmat haqi ham yomon emas. Sen bo'lsang, Polina, ish qilish o'tniga qo'lingni qovushtirib o'tirganing-o'tirgan! Ish ustida o'tirganining sira ko'rmayman.

K u k u s h k i n a . Men qizlarimga unaqa tarbiya bergen emasman, ular cho'rilikka o'rganmagan.

J a d o v . Yaxshi qilmagan ekansiz. Yoshligidan mehnatga o'r-ganmagan odamning keyin o'rganishi qiyin bo'ladi. Lekin, baribir, o'rganmay iloji yo'q.

K u k u s h k i n a . O'rganib nima qiladi? Men ularni oqsoch qilib emas, olivjanob yigitlarga munosib xotin qilib yetishtirganman.

J a d o v . Ikkimizning fikrimiz ikki xil ekan, Felisata Gerasimovna. Men Polinaning menga quloq solishini istayman.

K u k u s h k i n a . Uni xizmatkorlikka o'rgatmoqchiman, deng, bunaqa ekan, o'zingizga munosibini topib uylansangiz bo'lmasmidi. Kechirasiz, biz hayotga boshqacha qaraydigan odamlarmiz, biz tag-tugli, olivjanob kishilarmiz.

J a d o v . Bu olivjanoblik emas, quruq maqtanchoqlik! Maqtanchoqlik bizga yarashmaydi.

K u k u s h k i n a . Gaplaringiz kishining ensasini qotiradi. Rostini aysam, agar qizimning baxtsiz bo'lishini, mana shunaqa qashshoq hayot kechirishini bilganimda, uni sizga sira ham bermagan bo'lar edim.

J a d o v . Baxtsiz ekansan deb, qizingizning miyasini aynitmasli-gingizni iltimos qilar edim. Tag'in rostdan ham baxtsiz ekanman deb ishonishi mumkin.

K u k u s h k i n a . Baxtli ekanmi, bo'lmasa? Chor-nochor hayot kechirayotgani ko'rinish turibdi-ku. Uning o'rnida boshqa odam bo'lsa bilmadim nima qilgan bo'lar edi.

Polina yig'laydi.

Jadov. Polina, esingni yig'ib ol, menga rahming kelmaydimi?

Polina. Senga qolsa hammani ham esi pastga chiqarib qo'yasan. Haqiqatni yoqtirmaysan, achchiq haqiqatni eshitishga toqating yo'q!

Jadov. Qanday haqiqatni?

Polina. Rost-da, oyim yolg'on gapirarmidilar!

Jadov. Bu to'g'rida sen bilan keyin gaplashamiz.

Polina. Gaplashib ham nima qildik. (*Undan yuz o'giradi.*)

Kukushkina. Ha, to'g'rida.

Jadov (*xo'rsinib*). Bu qanday baxtsizlik!

Kukushkina bilan Polina unga e'tibor bermay  
o'zaro shivirlashishadi.

Jadov portfelidagi qog'ozlarni olib stol ustiga yoyadi va quyidagi suhbat mobaynida ularga ko'z tashlab turadi.

Kukushkina (*baland ovoz bilan*). Bilasanmi, Polina, Belogubovlarnikiga kirgan edim, opangga yangi duxoba ko'ylak olib beribdi.

Polina (*yig'i aralash*). Duxoba! Rangi qanaqa ekan?

Kukushkina. Jigarrang.

Polina. E... Xudoyim! Judayam yarashgandir o'ziga.

Kukushkina. Nimasini aytasan! Yana Belogubovning shaytonligini qara! Kuldiraverib o'ldirdi. Oyi, qizingizdan shikoyatim bor, duxoba ko'ylak olib bersam meni biram qattiq o'pib oldiki, og'ritib yubordi, deydi. Ana hayot-u ana muhabbat! Boshqalarga yo'l bo'lsin.

Jadov. Yo'q, ortiq chidab bo'lmaydi! (*Turadi.*)

Kukushkina (*turadi*). Bir savolim bor, hurmatli janob, qani ayting-chi, qizim nima sababdan azob chekishi kerak?

Jadov. Qizingiz sizning ixtiyoriningizdan chiqib, mening ixtiyorimga o'tgan, shunday ekan, qo'yavering, uning hayotiga men rahbarlik qilaman. Ishoning, vaqt kelsa yaxshi ham bo'lib ketar.

Kukushkina. Axir, men uning onasiman, hurmatli janob.

Jadov. Men eriman, axir.

Kukushkina. Qanaqa er ekaningizni ko'rib turibman! Hech qachon arning mehri ota-ona mehri bilan teng bo'lolmaydi.

Jadov. Ota-onaning ham har xili bor!

K u k u s h k i n a . Har qanday bo‘lganida ham sizning tengingiz emas. Biz mana shunaqa odamlarmiz, hurmatli janob! Qizlarimizni tarbiyasiga, ularni pansionga berish uchun erim bilan ikkalamiz bir mridan yig‘ib pul to‘plaganmiz... Ayting-chi, nima uchun shunday qilganmiz? Yaxshi xulq-odatlarga o‘rgansin uchun, qashshoqlikka, tuban hayotga uchramasin uchun, yoshligidan qiyalmasin, aksincha, yoshligidan yaxshi hayotga, so‘zida ham, xatti-harakatida ham olivjanoblikka o‘rgansin uchun.

J a d o v . Tashakkur. Mana bir yildan beri siz bergen tarbiyadan uni xalos qilishga urinib, uddasidan chiqolmayapman. Unutib yuborsa hayotimning yarmini bag‘ishlashga rozi bo‘lar edim.

K u k u s h k i n a . Men uni mana shunaqa hayot kechirsin deb tarbiyalaganmidim! Qizimni bunaqangi kambag‘al, nochor va azob-u uqubat bilan to‘la hayotga uzatguncha qo‘limni shartta kesib tashlashga rozi bo‘lar edim.

J a d o v . Iltimos qilaman, ginaxonligingizni boshqa yerda qiling.

K u k u s h k i n a . Qizlarim mening uyimda shunaqa turisharmidi? Uyim hamisha saranjom, ozoda. Pulim ko‘p bo‘lmasa ham ular xonzodalardek turishar edi; oshxonaning yo‘lini ham bilishmasdi, karram sho‘rvani qanday qilib pishirishni ham, bo‘y yetgan qizlarga xos ishlar bilan shug‘ullanishar, olivjanob hislar va anjomlar to‘g‘risida so‘zlashishar edi, xolös.

J a d o v (*xotiniga ishora qilib*). Ha, sizning uyingizda uchratgan buzuqlikni hech qayerda ko‘rganim yo‘q.

K u k u s h k i n a . Sizdaqangilar yaxshi tarbiyaning farqiga bo‘rarmidi!.. Ayb menda, shoshib qoldim-da! Agar qizimni tarbiyali, ma‘lumotli odamga bergenimda, qizimga bergen tarbiyam uchun ta-shakkurlarga ko‘milib ketgan bo‘lar edim. Qizim ham baxtli bo‘lgan bo‘lar edi, chunki yaxshi odam xotinini ishla deb majbur qilmaydi, buning uchun xizmatchi saqlaydi, xotin esa faqat...

J a d o v (*tezda*). Nimaga kerak bo‘ladi?

K u k u s h k i n a . Nimaga bo‘lar edi? Buni kim bilmas ekan? Hamma ham biladi... Yasantirishga, unga qarab maroqlanishga, ko‘pchilikka qo‘shilishga, dunyoning lazzatlaridan bahramand bo‘lishga, xotinning ko‘ngliga kelganini so‘zsiz... bajo keltirishga, uni boshida ko‘tarib yurishganda.

J a d o v . Uyat-e! Keksa ayolsiz, qarib qolibsiz, qiz o‘stirib katta qilibsiz-u, shu vaqtgacha kishiga xotin nima uchun kerakligini bil-

maysiz. Uyalmaysizmi! Xotin – qo‘g‘irchoq emas, ernen yordamchisi bo‘ladi. Ona bo‘lsangiz ham esingiz past ekan!

K u k u s h k i n a . Bilaman, sizning niyattingiz xotiningizni xizmatkor qilib qo‘yish. Berahm odam ekansiz!

J a d o v . Qo‘ying bema’ni fikrlaringizni!

P o l i n a . Oyijon, qo‘yaqoling, olishmang u bilan.

K u k u s h k i n a . Nega qo‘yar ekanman. Hali men buni o‘z holiga qo‘yib bo‘pman.

J a d o v . Bo‘ldi, bas! So‘zingizga o‘zim ham qulq solmayman, xotinimga ham ruxsat etmayman. Qariganingizda miyangiz aynib qolibdi.

K u k u s h k i n a . Uni qaranglar-a! Shu ham muomala bo‘ldimi?

J a d o v . Siz bilan bizning o‘rtamizda boshqacha muomala bo‘lishi mumkin emas. Iltimos qilaman, bizni o‘z holimizga qo‘ying. Men Polinani sevaman, uni o‘zim ehtiyyot qilaman. Sizning so‘zlarizingiz Polina uchun zararli va odobga zid so‘zlar.

K u k u s h k i n a . Judayam qizishmang, hurmatli janob!

J a d o v . Siz, baribir, tushunmaysiz.

K u k u s h k i n a (*g‘azablanib*). Tushunmayman? Yo‘q, juda yaxshi tushunaman. Xotinlarning qashshoqlik natijasida halok bo‘lganini o‘z ko‘zim bilan ko‘rganman. Kambag‘allik nimalarga olib bormaydi. Urinib-urinib, axiri yo‘ldan ozib ketadiganlari ham bo‘ladi. Ularning ustiga ayb ham qo‘yolmay qolasiz.

J a d o v . Nima deyapsiz! Qizingiz oldida shunday gaplarni aytishga qanday vijdoningiz yo‘l qo‘yadi! Marhamat qiling, uyni bo‘shatib qo‘ying... Ha, tezroq, tez!

K u k u s h k i n a . Uyingda och-yalang‘och o‘tirsang, uning ustiga ering ham yalqov bo‘lsa, nima qilasan, noiloj daromad qilish yo‘lini axtarasan-da...

J a d o v . Chiqib keting, yaxshilikcha so‘rayman. G‘azabim qo‘zg‘ab ketgandan keyin, bo‘lmaydi.

K u k u s h k i n a . Ketaman, bundan keyin uyingni yelkamning chuquri ko‘rsin. (*Polinaga*.) Ana eringning ahvoli! Sho‘ring qursin! Qanday baxtsizlik!

P o l i n a . Yaxshi boring, onajon. (*Yig‘laydi*.)

K u k u s h k i n a . Yig‘la, yig‘la, sho‘rpeshona, taqdiringga yig‘la! O‘lguningcha yig‘la! Mening yuragimni ezganiningdan ko‘ra o‘lganining ham tuzuk edi. Tashvishingdan qutular edim. (*Jadovga*.) Tantana qilavering endi! Ishingiz bitdi, aldab yo‘ldan urdingiz, o‘zingizni oshiq

qilib tanitdingiz, yaxshi so‘z bilan eritdingiz, natijada qizimni halok qildingiz. Maqsadingiz shu ekan, endi bildim. (*Ketadi.*)

Polina uni kuzatib qo‘yadi.

J a d o v . Polina bilan jiddiyroq so‘zlashib olmasam bo‘lmaydiganga o‘xshaydi. Bo‘lmasa uni yo‘ldan urib qo‘yishadi.

Polina qaytadi.

## OLTINCHI SAHNA

J a d o v , P o l i n a qovog‘i soliq, deraza tagiga kelib o‘tiradi.

J a d o v (*qog‘ozlarini yoyib, stol yoniga o‘tiradi*). Endi bundan keyin Felisata Gerasimovna biznikiga kelmasa kerak, juda soz bo‘ldi. Mening so‘zimga kirsang, sen ham, Polina, borma. Belogubovlarnikiga ham borma.

P o l i n a . Meni deb hamma qavm-u qarindoshlaringdan kech dersiz hali?

J a d o v . Men uchun emas, o‘zing uchun. Ularning hammasi ham yaramas tushunchali odamlar! Men seni yaxshilikka o‘rgatyapman, ular esa seni yo‘ldan urib, buzishyapti.

P o l i n a . O‘rganadigan vaqtim o‘tib ketdi, allaqachon bilimdon bo‘lib olganman.

J a d o v . Agar bu gaplaringni haq ekaniga iqror bo‘lsam, jinni bo‘lib qolishim mumkin. Yo‘q, senga gap uqtirolarman deb o‘ylayman. Hozir ishim ko‘p, biroz kamaysin, shunda ikkimiz shug‘ullanamiz. Ertalab ishingni qilasan-u, kechqurunlari o‘qiymiz. Hali ko‘p kitob o‘qishing kerak, axir, sen deyarli hech narsa o‘qimagansan.

P o l i n a . Ha, sening og‘zingga qarab o‘tiradigan ahmoq yo‘q! Kishi jamiyat uchun yaratiladi.

J a d o v . Nima?

P o l i n a . Kishi jamiyat uchun yaratiladi.

J a d o v . Bu gapni kimdan o‘rganding?

P o l i n a . Meni judayam ahmoq deb o‘ylaysan shekilli. Buni kim bilmas ekan! Hamma biladi. Nima balo, sen meni ko‘chadan yetaklab olib kelganmiding?

J a d o v . Jamiyatga aralashish uchun kishi o‘zini tayyorlashi, o‘qishi kerak.

P o l i n a . Hech narsaning keragi yo‘q, bularning hammasi bo‘lma-gan gaplar; faqat modaga muvofiq kiyinib, yasansa bas.

J a d o v . Ha, mana shuning o‘zi ham qo‘limizdan kelmaydi-ku, demak gapirib o‘tirishning ham hojati yo‘q. Undan ko‘ra qo‘lingga biror ish ol, men ham ishimni boshlay. (*Qo‘liga pero oladi.*)

P o l i n a . Qo‘lingga ish ol emish! Bu gap qayoqdan chiqdi? Yetar, mening ustimdan shuncha hukmronlik qilganing, qiyab-qiyab, keyin kulganing!

J a d o v (*qayrilib qaraydi*). Bu nimasi, Polina.

P o l i n a . Nima bo‘lar edi, men ham gadoydek emas, odamlar singari hayot kechirishni istayman. Jonga tegib ketdi. Seni deb yoshlik chog‘imni g‘urbatda o‘tkazdim.

J a d o v . Yangilik-ku! Bunaqasini haligacha eshitmagan edim.

P o l i n a . Eshitmagan bo‘lsang, eshitib ol. Bir yildan beri indamay kelayapti, endi bundan keyin ham indamay kelaveradi deb o‘ylarsan? Yo‘q, kechirasan! Gapni cho‘zib o‘tirishning ham hojati yo‘q! Men ham Yulinka singari, boshqa barcha oliyjanob xotinlar singari hayot kechirishni istayman. Aytadigan gapiim shu!

J a d o v . Shunday degin! Juda soz, lekin menga ayt-chi, sen bilan biz qaysi davlatimizga tayanib shunday yashar ekannmiz?

P o l i n a . Mening nima ishim bor! Xotinini yaxshi ko‘rgan odam pulini ham topadi-da.

J a d o v . Rahming kelmaydimi menga, axir, kecha-yu kunduz timay, moldek ishlayotganimni ko‘rib turibsan-ku.

P o l i n a . Ishlaysanmi yoki ishlamaysanmi – men uchun baribir. Men senga qiynalish uchun, azob-u uqubat chekish uchun tekkan emasman.

J a d o v . Onang bilan birgalashib qynaganing ham yetar. Bo‘ldi endi, xudo xayringni bersin.

P o l i n a . Ajammi, jim bo‘lib bo‘pman! Seni deb hammaga kulgi bo‘lib yuribman. Yer yorilmaydi, yerga kirmayman! Opamning ham rahmi kela boshladi endi. Bugun kelib: «Sen bizni, urug‘-aymog‘imizni nomusga o‘ldirding! Kiyib yurgan kiyimingni qara!» dedi. Ko‘rdingmi, uyalmaysanmi, axir? Yana sevaman deysan. Mana, opam o‘z puliga yangi shlapa sotib olib kelib berdi.

J a d o v (*o‘rnidan turib*). Shlapa?

Polina. Ha, mana. Ko'rgin-chi, ma. Qalay, yaxshimi?

Jadov (*jiddiy*). Darrov olib borib ber!

Polina. Oborib beray?

Jadov. Ha, issig'ida qaytarib ber, darrov! Bundan keyin ulardan hech narsa olako'rma.

Polina. Bekorlarni aytibsiz.

Jadov. Baribir derazadan uloqtirib yuboraman.

Polina. Ho! Hali shunaqa bo'lib qolganman deng! Yaxshi, jonom, olib borib beraman.

Jadov. Shunday qil.

Polina (*ko'z yoshi qilib*). Olib borib beraman, qutuldimmi? (*Shlapasini, kamzulini kiyib, zontigini qo'liga oladi*.) Yaxshi qoling!

Jadov. Xayr!

Polina. Yaxshilab xayrlashib olaylik, qaytib kelmayman.

Jadov. Bu qanday bema'ni gap yana?

Polina. Men oyimnikiga ketaman, o'sha yerda turaman, ketimdan borib yurma tag'in.

Jadov. Bo'lмаган gapni qo'y, Polina!

Polina. Yo'q, bo'lmaydi, har taraflama o'ylab ko'rdim! (*Zontigining uchi bilan yer chizadi*.) Shu ham tiriklik bo'ldimi? G'urbatdan boshqa narsa yo'q.

Jadov. Bunday deyish gunoh emasmi, axir? Menga tekkaningdan beri hali hech xursand bo'lganing yo'qmi?

Polina. Xursandlik qayoqda! Badavlat bo'lganingda ham bir navi edi, bu qashshoqlikda o'lib bo'ldim! Shumi xursandlik! Tunov kuni ichib kelding, hademay tutib olib uradigan ham bo'larsan.

Jadov. Yo rabbiy! Nima deyapsan o'zing? Bir marta jindak kayf bilan kelganimmi... Yoshlar orasida ichmaydigani bo'ladimi o'zi?

Polina. Kambag'allikning oqibati nima bo'lishini bilamiz. Oyim aytib bergenlar... Hali ichkilikka o'rganib ham ketasan, keyin, mening boshimga yetasan.

Jadov. Qayoqdagi bo'lmag'ur gaplarni o'ylab chiqarayapsan o'zing!

Polina. Turmushimizning yaxshilanishiga ishonch qolmadı. Taqdirimni bilay deb karta ochib ko'rdim, folbinlardan ham so'radim – hammasi ham baxtsizsan deydi, xolos.

J a d o v (*boshini ushlab*). Karta ochdim! Folbinga ham bordim!

P o l i n a . Ha, karta ochish ahmoqliq deb o'ylaysanmi! Bekorlarni ay-tibsan, sirayam ishonmayman-da! Karta hecham aldamaydi. Bo'ladigan gapni ochib beradi. Hatto kishi nimani o'ylab turgan bo'lsa, o'shani ham kartadan bilib olish mumkin. Sen hech narsaga ishonmaysan, nima bo'lmasin, bema'nilik deb turib olasan, shuning uchun ham baxtimiz ochilmaydi-da.

J a d o v (*erkalab*). Polina! (*Unga yaqinlashadi*.)

P o l i n a (*uzoqlashib*). Nari turing, xudo xayringizni bersin.

J a d o v . Ha, sen meni sevmaysan, bilaman.

P o l i n a . Nimangni ham sevay? Quruqdan quruq sevaverarkan-da!

J a d o v (*hayajonlanib*). Quruqdan quruq deganining nimasi? U nima deganining? Muhabbatningga muhabbatim bilan javob berayapman-ku. Axir, sen mening xotinimsan! Yoki buni unutib qo'ydingmi? Men gadoy bo'lib qolgan taqdirimda ham o'lsam o'lishing, tirilsam tirili-shing kerak...

P o l i n a (*stulga o'tirib oladi-da, boshini orqaga tashlab kuladi*).

Xa-xa-xa-xa!

J a d o v . Bu chidab bo'lmaydigan qabihlik! Beadablik!

P o l i n a (*dik etib o'rnidan turadi*). Hayronman, mendaqa beadab xotin bilan turib nima qilasiz. Yaxshi qoling.

J a d o v . Mayli, bilganiningni qil, yaxshi bor! Eringga yuraging achi-may, shundayin tashlab ketadigan bo'lsang, ketaver, xayr! (*Stol yoniga o'tirib, peshonasini ushlaydi*.)

P o l i n a . Ha, nima qilibdi! Baliq chuqur joyni, odam yaxshi joyni istaydi-da.

J a d o v . Yaxshi, yaxshi, xayr!

P o l i n a (*oyna oldida*). Mana buni shlapa desa bo'ladi, men kiyib yurganim ham shlapa edi-da. (*Ashula aytadi*.) «Onajonim, jonginam...» Kiroyi ko'chaga chiqqanga yarasha, shunaqasini kiyib chiqsang ekan, ko'rganlar ham zap chiroylik oyimchaxon ekanmi, deydi. Xayr endi. (*Ta'zim qilib chiqib ketadi*.)

## YETTINCHI SAHNA

Jadov (*yolg'iz*). Fe'lim qursin! Yaramas fe'lim bor-da. O'z xotinim bilan ham kelisholmayman! Endi nima qilsam ekan? Yo rabbiyl! Jinni bo'lib qolaman. Usiz yashashning nima keragi bor menga. O'zi nima hodisa bo'ldi, bilolmay ham qoldim. Xotinni nega qo'lidan chiqarib yubordim endi-a? Onasinikida nima ish qiladi endi! U yerda butunlay xarob bo'ladi-ku. Marya! Marya!

Marya sahna orqasidan: «Nnma deysiz?»

Yugur, bekangni to'xtat, aytadigan so'zlari bor ekan degin. Tez bor, tez!.. E... o'lgudek lapashangsan-da, Marya! Yursangchi tezroq!

Marya sahna orqasidan: «Hozir!»

Hali qaytmayman desa-ya! Ajab qiladi-da, lekin! Shunday qilishga haqi ham bor. Men yaxshi qaray olmasam, u aybdormi? Endi o'n sak-kizga kirdi, yashashni istaydi, orzu-havas ko'rgisi keladi. Men bo'lsam uni uyga qamab ketamanda, kuni bilan oldiga ham kelmayman. Shu ham muhabbat bo'ldimi? Ana endi jazzasiga yolg'iz qoldim! Juda soz! Ajab bo'ldi! Ana yetim bo'lib qoldim! Bundan yaxshi gap bormi. Er-talab mahkamaga boraman, ishdan chiqib uyga kelishning ham hojati yo'q, kechgacha traktirda o'tiraman-da, kechqurun uyga kelib yolg'iz o'zim, qon-qon yig'lab, muzdek sovuq o'ringa kirib yotaman! Har kuni shu ahvol. Juda soz! (*Yig'laydi.*) Mayli, xotining bilan murosa qilomadingmi, endi yolg'iz yashayver. Yo'q, biror chorasini topmasam bo'lmaydi. Yo undan mutlaqo ajrash kerak, yoki... yashash, odamlar singari yashash kerak. Buni yaxshilab o'ylab ko'rishim zarur. (*Xayolga cho'madi.*) Ajralaymi? Ayriliqqa chiday olarmikinman? Bu qanday azob bo'ldi-a! Qanday azob! Undan ko'ra... tegirmon toshiga bas kelaman deb yuramanmi! E... nima deyapman o'zim? Xayolimga kelgan fikrlarni qarang-u!

Polina kiradi.

## SAKKIZINCHI SAHNA

Polina bilan Jadov.

Polina (*ust kiyimini yechmay o'tiradi*). Nima deysiz?

Jadov (*yugurib kelib*). Keldingmi, keldingmi! Qaytib keldingmi!.. Uyalmaysanmi! Sen meni shunday ranjitdingki, shunday xafa qilding-

ki, mana endi esimni ham yo'qotib qo'ydim. Men juda gangib qoldim.  
(*Qo'llarini o'padi.*) Polina, jonom!

Polina. Muloyimlik bilan meni aldamay qo'yaqol.

Jadov. Axir, sen hazillashding-a, Polina? Meni tashlab ketmaysan-a?

Polina. Bo'lmasa-chi, sen bilan g'urbatda yashashdan ham yaxshi narsa bor ekanmi dunyoda!

Jadov. Meni xarob qilyapsan, Polina! Yaxshi ko'rmaganingga yarasha, rahm qilsang bo'lmaydimi. Seni qanday yaxshi ko'rishimni bilasan-ku.

Polina. Ha, ko'rinish turibdi! Yaxshi ko'rish bunaqa bo'lar ekan-u.

Jadov. Bo'lmasa qanaqa bo'ladi, yaxshi ko'rish? Ayt, nima desang aytganiningi bajoo keltiray axir.

Polina. Tog'angni oldiga bor, u bilan yarash, Belogubovnikidaqa o'rin so'ra o'zingga, picha pul ham so'ra, boyib ketsak, keyin qaytarib berarmiz.

Jadov. O'lsam ham bormayman, u dunyo-yu bu dunyo! Gapirib ovora bo'lib ham o'tirma.

Polina. Bo'lmasa, nega meni yo'ldan qaytarding? Yoki meni kalaka qilmoqchimisan? Kalaka qilib bo'psan, esimni yig'ib oldim endi men. Yaxshi qol! (*O'rnidan turadi.*)

Jadov. To'xta! Shoshma, Polina! Axir, gaplashib bo'laylik.

Polina (*oyna oldida*). Nimani ham gaplashar edik. Gaplashmagan gapimiz qoldimi.

Jadov (*yalinib-yolvorib*). Yo'q, Polina, gap ko'p hali. Hali senga aytadigan gaplarim juda ko'p. Sen ko'p narsani bilmaysan hali. Qani endi yuragimdag'i orzularimni, o'ylaganlarimni senga bir lahzada tu-shuntirib berolsam. Qanday baxtli bo'lar edim! Kel, gaplashaylik, Polina, gaplashaylik. Sen faqat qulq sol, o'tinib so'rayman.

Polina. Gapir.

Jadov (*hayajon bilan*). Qulq sol, tingla! (*Qo'lidan ushlab oladi.*) Hammavaqt, hamma zamonlarda ham, eskirib qolgan ijtimoiy odatlar va sharoitlarga qarshi harakat qiladigan odamlar bo'lgan, shunday odamlar hozir ham bor. Bu ularning injiqligidan yoki shuni xohlagandan emas. Yo'q, ularning biladigan qoidalari jamiyat qo'llayotgan qoidalardan yaxshiroq va haqqoniyroq bo'lganidan. Bu qoidalarni ularning o'zi o'ylab chiqargan emas, ular bu qoidalalar haqida

professorlarning leksiyalarida eshitgan, o‘z adabiyotimiz va chet el adabiyotining eng yaxshi asarlaridan o‘qib bilganlar. Ular mana shu asarlar ruhida tarbiyalanganlar va shu orzularni ro‘yobga chiqarmoqdalar. Bu ishning og‘irligi muqarrar. Ijtimoiy nuqsonlar mustahkam, gumroh avom ko‘pchilikni tashkil qiladi. Kurash og‘ir va aksari halokatga olib boradi, lekin shunga qaramay u sharafti, unda kelajak avlodlarning umidi bor, bunday odamlar bo‘lmasa, firibgarlik, yovuzlik, zulmat shu qadar ko‘payib ketar ediki, hatto odamlardan quyosh yuzini ham to‘sib qo‘ygan bo‘lar edi...

Polina (*unga ajablanib qaraydi*). Esingni yeb qo‘yibsan, jinni bo‘lib qolibsan! Yana so‘zimga qulq sol deysan, o‘zi zehnim past odamman, sening gaplaringni eshitaversam butunlay aqldan ozib qolaman shekilli.

Jadov. Axir qulq sol menga, Polina!

Polina. Yo‘q, sendan ko‘ra aqlli roq odamlarning so‘ziga qulq solganim yaxshi emasmi.

Jadov. Kimga qulq solmoqchisan? O‘sha aqlli odam deganlaring kim o‘zi?

Polina. Kim bo‘lar edi? Opam, Belogubov.

Jadov. Meni o‘sha Belogubovga teng qildingmi?

Polina. Obbo! Juda kim eding o‘zing? Belogubov, albatta, sendan tuzukroq-da. Xo‘jayinlari hurmat qilsa, xotinini yaxshi ko‘rsa, binoyi uy egasi bo‘lsa, o‘zining otlari ham bor yana... Sen-chi? Senga maqtanish bo‘lsa bo‘ldi... (*Masxara qilib*) «Men aqlli, men olivjanob, hamma ahmoq, hamma poraxo‘r!»

Jadov. Bu nima qiliq! Turqingni qara! Qanday jirkanch!

Polina. Yana haqorat qilyapsanmi! Xayr, ketdim bo‘lmasa. (*Ketmoqchi bo‘ladi*.)

Jadov (*uni ushlab qolib*). Shoshma, ketmaytur.

Polina. Qo‘yib yubor.

Jadov. Yo‘q, to‘xta, shoshmagin! Polinochka, jonginam, to‘xtab tur! (*Ko‘ylagiga yopishadi*.)

Polina (*kuladi*). Bu nima qilganing, tentak! Ketaman desam ushlab qololarmidинг.

Jadov. Endi nima qildim? Nima desam bo‘lar ekan senga, jonim Polina?

Polina. Tog‘angni oldiga bor, yarash u bilan.

J a d o v . Shoshma, shoshma, o'ylab ko'ray.

P o l i n a . O'yla.

J a d o v . Seni sevaman, seni deb o'tga ham, suvgaga ham tushishiga tayyorman... Lekin sening talabing dahshat!.. Yo'q, o'ylab ko'rish kerak. Ha, ha, o'ylash kerak... O'ylash... Xo'sh, agar tog'amning oldiga bormasam nima qilasan, ketib qolasanmi?

P o l i n a . Ketaman.

J a d o v . Butunlay ketasanmi?

P o l i n a . Butunlay. Hadeb takrorlayveramanmi, senga aytdimmi, bo'ldi-da. Yaxshi qol!

J a d o v . To'xta, to'xta! (*Stol yoniga o'tirib, boshini ushlaydi, o'ylaydi.*)

P o l i n a . Uzoq kutamanmi seni!

J a d o v (*o'pkasi to 'lib*). Bilasanmi, Polina? Chiroyli xotinni yasan-tirib qo'ysang, qanday yaxshi bo'ladi-a?

P o l i n a (*xo 'rsinib*). Albatta, yaxshi bo'ladi-da!

J a d o v . Ha, albatta (*baqirib*), albatta, albatta! (*Yer tepinib.*) U bilan yaxshi izvoshga tushib ko'chaga chiqsang yaxshi bo'ladi-a?

P o l i n a . Juda maza bo'ladi-da!

J a d o v . Yosh, bejirim xotinni sevish kerak, uni ardoqlash kerak... (*Baqiradi.*) Ha, ha, uni yasantirish kerak... (*Tinchlanib.*) Xo'sh, nima bo'pti... hech gap emas... Bunga erishish oson! (*Umidsizlanib.*) Xayr endi, mening orzu-umidlarim! Xayr, mo'tabar ta'limotim! Xayr endi, kelajakdag'i haqqoniy hayotim! Axir, men ham qariyman, sochlarim oqaradi, bola-chaqa ko'raman...

P o l i n a . Nima bo'ldi senga? Nima deb aljirayapsan?

J a d o v . Yo'q, yo'q, bolalarga yaxshi tarbiya berishga harakat qilamiz. Ular ota bolasi emas, odam bolasi bo'ladi.

P o l i n a . Bo'ldi endi!

J a d o v . Qo'yaver! Yig'lab olay, axir, bu mening oxirgi yig'lashim. (*Ho'ngrab yig'laydi.*)

P o l i n a . Nima jin urdi o'zi seni?

J a d o v . Hech qanday jin urgani yo'q... Juda soz... Maza... Hayot qanday yaxshi... Esimga tushib qolmasa bas! Buni qilish oson! Buning uddasidan chiqaman... O'rtoqlarimdan uzoqroq yuraman, berkinaman... Haqqoniylit, muqaddas burch to'g'risida so'z bo'layotgan yerdan nariroqda yura qolaman... Bir hafta ishlab, jumadan shanbag'a o'tar

kechasi Belogubovga o‘xshaganlarni yig‘ib, bosmachilar singari o‘g‘irlab topgan pullarga mayxo‘rlik qilaman... Ha, xuddi shunday qilaman. Keyin-keyin o‘rganib ham ketaman.

P o l i n a (*yig‘lamoqdan beri bo‘lib*). Yomon xayollarni o‘ylaysan!

J a d o v . Ashulalar aytamiz... Anavi ashula esingdami? (*Ashula aytadi.*)

*Olaver, aql kerakmas  
Olaver eplaganingcha.  
Qo‘lni nega chiqargan?  
Olishga-da, olishga!*

Qalay, yaxshi qo‘shiqmi?

P o l i n a . Senga bir balo bo‘ldi, bilolmay qoldim.

J a d o v . Yur, tog‘amning oldiga boramiz, serdaromad joy so‘-  
raymiz! (*Shlapasini boshiga ilib, xotinining qo‘lidan ushlaydi.*)

Ketadilar.





## BESHINCHI PARDА

Birinchi pardadagi xona.

### BIRINCHI SAHНА

Vishnevskaya va Anton. (Anton patnisda xat keltirib,  
qaytib chiqib ketadi.)

Vishnevskaya (o'qiydi). «Hurmatli Anna Pavlovna! Mak-tubim ma'qul bo'lmasa, kechirgaysiz; menga qilgan muomalangizga yarasha javob. Eshitishimga qaraganda mening ustimidan kulkansiz, sevgi tuyg'ulari to 'lib-toshgan chog'larda sizga yozgan xatlarimni har kimlarga ko'rsatkansiz. Siz mening jamiyatda tutgan o'rniymi va bu xatti-harakatlaringiz mening sha'nimga naqadar putur yetkazishini yaxshi bilasiz. Men yosh bola emasman. Menga bunday muomala qiliшга qanday xaqqingiz bor? Ko'nglingizga yo'l axtarishimga o'zingiz sabab bo'ldingiz, chunki e'tirof etishingiz kerak, dastavval menga qilgan muomalangiz bekami ko'st emas edi. Erkak bo'lganim tufayli mening sizga erkin munosabatda bo'lishim kechirarli, lekin men mas-xara bo'lishni istamayman. Siz esa meni butun bir shaharda gap-so'z bo'lishimga sababchi bo'ldingiz. Mening Lyubimovga bo'lgan aloqamni yaxshi bilasiz, undan qolgan xatlar ichida sizning ham bir necha xatlariningizni topib olganimni sizga aytgan edim. Ularni o'zingizga topshirmoqchi edim. Siz o'z mag'rurligingizdan voz kechsangiz, mening eng chiroyli yigitlardan biri ekanim, shuning uchun xotinlar o'rtasida obro'yim baland ekani haqidagi umumiy fikrga qo'shilsangiz olam guliston edi. Buning o'rniga siz mendan hazar qildingiz, mana endi, meni kechiring, men o'sha xatlariningizni eringiz qo'liga topshirishga qaror qildim». Ana oliyjanoblik! Razolat! Mayli, baribir, bir kun emas, bir kun bunga barham berishim kerak edi. Men bir mahallar havas qilgan edim, lekin bu ishning oldini olish uchun buzuqlik yo'liga kiradigan xotinlardan emasman. Erkaklarimiz ham ajoyib! O'zi qirqqa kirgan, chiroyli xotini bor-u, yana ahmoqlik qilib mening ketimga tu-

shib yuribdi. Bunday qilishiga qanday asos bor? Tuyg‘ularimi? Qanday tuyg‘ular? O‘n sakkiz yoshdayoq u sevish qobiliyatidan mahrum bo‘lgan bo‘lsa kerak. Yo‘q, masala ravshan, u mening to‘g‘rimda turli-tuman mish-mishlarni eshitgan-da, meni yengiltak ayollardan degan xulosaga kelgan. Ana shundan keyin, hech narsadan istihola qilmay, menga yo‘q sevgisini ifoda etadigan, tuban tuyg‘ular bilan xatlar yoza boshlagan. U avval uyma-uy yurib mening to‘g‘rimda eng yaramas g‘iybatlarni tarqatadi-da, keyin kelib mening ko‘nglimni olmoqchi bo‘ladi. Ay-tishlariga qaraganda, u ko‘pchilikning fikri bilan kelishmas, faqat o‘z tuyg‘ulariga qarab ish qilar emish. Sevaman deb ont ichadi, tuturuqsiz so‘zlarni so‘zlaydi, basharasida oshiqlikni izhor etmoqchi bo‘lib qayodagi kelishmagan jilmayishlarni qiladi. Hech bo‘lmasa, o‘zini oshiq odamga o‘xshatib ko‘rsatishga ham harakat qilmaydi. Tartib buzilmasa bas deb o‘ylaydi, shekilli. Shunaqangi odam ustidan kulsang yoki qilmishiga qarab undan hazar qilsang, baloga qolasan, o‘zini sendan qasos olishga haqli deb hisoblaydi. Nazarida har qanday razolat yoki yovuzlikdan ham ko‘ra uning ustidan kulish yomonroq. Xotinlar bilan bo‘lgan aloqasi to‘g‘risida o‘zi maqtanib gapiradi, buni u sharaf deb biladi, lekin xatlarini birovga ko‘rsatgan kishi baloga qoladi, bu uning sha’niga to‘g‘ri kelmas emish. U o‘zini esi past va kulgili odam ekanini juda yaxshi biladi. Bas shunday ekan, xat yozadigan xotinlarini kim deb o‘ylar ekan? Vijdonsiz! Mana endi oliyanob hislari haqoratlanganiga chiday olmay, menga yovuzlik qilmoqchi, yana o‘zini haqli ham deb hisoblaydi. Yolg‘iz ugina emas, erkaklarning hammasi ham shunaqa! Yaxshi bo‘ldi, endi erim bilan ham ochiq gaplashib olaman. O‘zim ham gaplashmoqchi bo‘lib yurgan edim. Men erim oldida aybdor bo‘lsam, erim mening oldimda ko‘proq aybdor, bunga o‘zi ham iqror bo‘ladi. U mening hayotimga zomin bo‘ldi. O‘zining xudbinligi bilan ko‘ksimni quirtdi, baxtli oila egasi bo‘lishdan meni mahrum qildi, endi qaytarib bo‘lmaydigan yoshligim haqida yig‘lashga meni majbur qildi. Qalbimning yashashga, sevgiga intilishiga qaramay, men yoshligimni zavq-siz, razolatda o‘tkazdim. U meni o‘zining tuturuqsiz, pastkash ulfatlari orasiga olib kirishi bilan mendagi eng yaxshi insoniy hislarni o‘ldirdi, oliyanob orzularimni so‘ndirdi. Uning ustiga, oldini olish qo‘limdan kelmagan aybim uchun vijdon azobida qoldim.

Yusov ranjigansimon kirib keladi.

## IKKINCHI SAHNA

Vishnevskaya va Yusov.

Yusov (*ta'zim qilib*). Hali kelganlari yo'qmi?

Vishnevskaya. Yo'q. O'tiring.

Yusov o'tiradi.

Ma'yus ko'rinasiz?

Yusov. So'zingiz haq... Tilim tanglayimga yopishib qoldi.

Vishnevskaya. Nima gap o'zi?

Yusov (*boshini chayqatib*). Odamning hayoti bamisol dengizdag'i kema, deng... Kema g'arq bo'lsa qutqarib bo'lmaydi...

Vishnevskaya. Gapingizga tushunolmadim.

Yusov. Foni dunyoning ishlarini aytaman-da... Bu dunyoga ishonch bormi? Xudoning oldiga nima deb boramiz? Nima bilan hozir bo'lamiz?.. Orqalab olgan gunohlarimiz bilan, xolos... Ularning hammasi oshkora... Hatto xayolga keltirilgan gunohlar ham... (*Qo'lini silkiydi*.) Yozib qo'yilgan...

Vishnevskaya. Biror kishi vafot etdimi?

Yusov. Yo'q, hayotda o'zgarish ro'y berdi. (*Tamaki hidlaydi*.) Badavlatligimizda ko'zimizni yog' bosib qoladi, mehr-shafqatni unutamiz... beva-bechoralarni tanimay qolamiz, manmanlik, mai-shatga berilib ketamiz... Ana undan keyin qilmishimizning jazzasini tortamiz.

Vishnevskaya. Men buni azaldan bilaman, biroq mening oldimga kelib gapingizni yo'qotib, g'udurlab o'tirishingizning sababiga tushunolmayapman.

Yusov. Yuragim ezilib ketyapti... Garchi mening bo'ynimga katta mas'uliyat tushmasa ham... baribir, shunday ulug' zotni! Mangu narsa bormi o'zi bu dunyoda... Martaba ham saqlay olmas ekan kishini.

Vishnevskaya. Qaysi zotni aytayapsiz?

Yusov. Boshimizga tashvish tushdi.

Vishnevskaya. Tezroq ayta qolsangiz-chi!

Yusov. Allaqanday chatoqliklar, yetishmovchilik va boshqa jinoyatlar ochilgan emish.

Vishnevskaya. Endi nima bo'ladi?

Y u s o v . Bizni sudga berishar emish... Ya'ni, meni-ku, unaqa katta mas'uliyatga tortisholmaydi-ya, lekin Aristarx Vladimirich majbur bo'ladi-da...

V i s h n e v s k a y a . Nimaga majbur bo'ladi?

Y u s o v . Mol-mulki bilan javob berishga, g'ayriqonuniy xattiharakatlari uchun sudga tushishga.

V i s h n e v s k a y a (*osmonga tikilib*). Qasos qayta boshlab-di-da!

Y u s o v . Albatta, banda-da, banda... Tirnoq ostidan kir izlagan odam biror narsa topadi-da, hozirgi vaziyatga qaraganda qamab qo'ysalar ham ajab emas deb o'ylayman... Bir burda nonga zor bo'lib o'lib ketaman shekilli.

V i s h n e v s k a y a . Hali ungacha ko'p gap bor.

Y u s o v . Bola-chaqamning holi nima kechadi.

Jimlik.

Kela-kelguncha o'ylab keldim, tashvishni o'yladim, bilasizmi nima uchun bu balolar boshimizga yopirildi? Mag'rurligimiz uchun... Manmanlik kishini ko'r qilib qo'yadi.

V i s h n e v s k a y a . Bo'limgan gap, mag'rurlik nima qilib yuribdi, poraxo'rlikning jazosi bu!

Y u s o v . Poraxo'rlik? Poraxo'rlik gunoh ekanmi?.. Hamma ham qiladi bu ishni. Mo'minlik yo'q, mo'minlik, masala shunda... Taqdir suratda tasvir etilgan baxtdek... G'ildirak, uning ustiga odamlar chiqib olgan... Bir tepaga chiqadi, bir pastga tushadi, kishi bir ko'tariladi, keyin mo'min bo'lib qoladi, bir paydo bo'ladi-yu, yana yo'q bo'lib ketadi... Taqdir ana shunaqa aylangani aylangan. Yaxshi turishga intilasan, mehnat qilasan, mol-u dunyoga ega bo'lasan... Xayolingda ko'klarga ko'tarilasan-da... ko'rib sinki, bir kun qipyalang'och bo'lib qolibsan!.. O'sha suratning tagiga yozib ham qo'yilgan... (*Hayajon bilan.*)

*Tentak bo'ladi inson!*

*Uringani uringan.*

*Baxt topgusi keladi.*

*O'ylamaydi, har zamон*

*Taqdir unga hukmron.*

Mana buning mag'zini chaqish kerak! Kishi degan mana shuni unutmashligi zarur! Tug'ilamiz, dunyoga kelib, hech narsani ko'rmay o'lib ketamiz. Mehnat qilib, qiynalib ham nima qildik? Mana filosofiya! Aq-limiz qayerga yetar edi? Nimaga erisholar edi?

V i s h n e v s k i y kiradi va indamay o'z kabinetiga o'tib ketadi.  
Y u s o v o'tmidan turadi.

V i s h n e v s k a y a . Avzoyi o'zgarib ketibdi!

Y u s o v . Doktorni daraklash kerak. Hali mahkamada ham ko'ngli behuzur bo'lgan edi. Kichkina gapmi... Oliyjanob bir odam... bunga chiday oladimi?!

V i s h n e v s k a y a (*qo'ng'iroq chaladi, xizmatkor bola kiradi*). Bor, doktorni aytib kel, tez kelsin.

V i s h n e v s k i y chiqib kresloga o'tiradi.

## UCHINCHI SAHNA

Burungilar va V i s h n e v s k i y .

V i s h n e v s k a y a (*Vishnevskiyga yaqin kelib*). Akim Akimich-dan eshitdim, baxtsizlik ro'y beribdi. Xafa bo'l mang.

Jimlik.

Juda o'zgarib ketibsiz. O'zingizni yomon his qilayapsizmi? Men doktorga odam yubordim.

V i s h n e v s k i y . Qanday munofiqlik! Qanday tuhmat! Qanday razillik!

V i s h n e v s k a y a (*mag'rur*). Tuhmat nima qilib yuribdi! Sizga rahmim kelayapti. Baxtsizlikka uchragan har qanday kishiga ham rahmim keladi. (*Qaytib borib o'tiradi*.)

V i s h n e v s k i y . Achinmay qo'yaqoling. Rahmingiz kelmay qo'yaqolsin! Nomusim poymol bo'ldi, xarob bo'ldim! Nima sababdan?

V i s h n e v s k a y a . O'z vijdondingizdan so'rang.

V i s h n e v s k i y . Vijdondan gapirmang! Vijdon to'g'risida gapi-rishga haqingiz yo'q... Yusov! Men nega halok bo'ldim-a?

Y u s o v . Bevafo dunyo... Taqdir-da!

V i s h n e v s k i y . Bo'lman gap, taqdir emish! Dushman kuchli – mana sababi! Meni halok qilgan ana shu! La'natilar! Davlatimni ko'risholmadi. Hasad qilmay qanday qilsinlar! Kishi bir necha yildayoq ko'tarilib, boyib ketayotgan bo'lsa, dadil baxt-u saodatga erishayotgan bo'lsa, uy-joy qurib, bog'lar olib obod qilayotgan bo'lsa, bir qishloq ketidan ikkinchisini sotib olayotgan bo'lsa, boshqalardan odam bo'yi oshib ketayotgan bo'lsa-yu, unga hasad qilmasinlarmi?! Axir, u baxt pog'onasidan asta-sekin ko'tarilayotgan bo'lsa. Undan o'zib ketish yoki loaqal yetib olish uchun aql-idrok kerak. Aqlni esa sotib olib bo'lmaydi, demak oyog'idan chalib yiqitish qoladi, xolos. G'azabimga chidayolmayman shekilli...

Y u s o v . Ko'rolmaslik yomon, kishini har ko'chaga boshlaydi...

V i s h n e v s k i y . Yiqilganim g'azablantirmaydi meni, yo'q, yiqilishimdan ularning tantana qilishiga chiday olmayman. Ham-mayoqda shov-shuv gap! Qaybirlari xursand! Yo'q, bunga bardosh berolmaydiganga o'xshayman! (*Qo'ng'iroq chaladi.*)

A n t o n kiradi.

Suv...

A n t o n suv berib, chiqib ketadi.

Endi siz bilan ham gaplashib qo'yay.

V i s h n e v s k a y a . Nima demoqchisiz?

V i s h n e v s k i y . Buzuq xotin ekansiz demoqchiman.

V i s h n e v s k a y a . Begona odamlar bor bu yerda, Aristarx Vladimirich.

Y u s o v . Chiqib ketaymi?

V i s h n e v s k i y . Ketma! Aytadigan gapimni, baribir, xonadonimiz o'rtasida ham aytaman, hali.

V i s h n e v s k a y a . Nima uchun meni haqorat qilyapsiz? Zaharingizni sochishga odam topolmay turgan ekansiz-da. Gunoh emasmi!

V i s h n e v s k i y . Mana so'zlarimning isboti. (*Xatlarni oldiga tashlaydi.*)

Y u s o v yig'ib olib, V i s h n e v s k a y a g a uzatadi...

V i s h n e v s k a y a . Rahmat. (*Titraganicha konvertni u yoq-buyo-g'ini ko'rib, cho'ntagiga yashiradi.*)

V i s h n e v s k i y . Yusov, erining qilgan yaxshiliklariga qaramay o'z burchini unutib qo'ygan xotinni nima qilmoq kerak?

Y u s o v . Hm... hm...

V i s h n e v s k i y . O'zim aytaqolay, sharmanda qilib haydash kerak! Ha, Yusov, baxtsiz ekanman, peshonam sho'r ekan, mana yolg'iz qoldim. Endi sen ham meni tashlab ketma. Kishi qanchalik martabali bo'lmasin, baxtsizlikka uchragan chog'ida o'z oilasida ovunishga urinadi. (*Jahl bilan.*) Men bo'lsam, o'z oilamda...

V i s h n e v s k a y a . Oila deb gapirmay qo'yaqoling! Sizda oila bo'lganmi o'zi?! Siz oila nima ekanini ham bilmaysiz! Xonasi keldi, endi, siz bilan birga umr ko'rib tortgan azoblarimni men ham aytib olay, Aristarx Vladimirich.

V i s h n e v s k i y . O'zingizni oqlashga urinmay qo'yaqoling.

V i s h n e v s k a y a . Men o'zimni oqlamayman, oqlab ham nima qildim, bunga ehtiyoj yo'q. Bu orzu-havasni deb, qancha xo'rlandim, azob chekdim, lekin ishoning, churq etmadim, siz singari taqdirimdan nolimadim. Men shuni aytmochimanki, agar gunohim bo'lsa, sizning oldingizda emas, o'z vijdonim oldida gunohkorman, xolos. Menga ta'na qilishga haqqingiz yo'q sizni. Agar sizda qalb bo'lsa, meni halok qilganingizni sezgan bo'lar edingiz.

V i s h n e v s k i y . Ha, ha! O'z xulqingiz uchun meni emas, boshqalarni ayblang.

V i s h n e v s k a y a . Yo'q, sizni ayblayman. Siz o'zingiz uchun uylanganmidingiz? Menga uylanmoqchi bo'lib yurgan vaqtsharingizni eslang! Uylanaman deb yurgan chog'ingizda oila haqida sizdan bir og'iz ham so'z eshitgan emasman, siz yosh qizlarni hadyalar bilan qiziqtiradigan qari takasaltanglarga o'xshash muomala qilar edingiz, menga shahvoni hirs nuqtayi nazaridan qarardingiz, xolos. Mening sizdan nafratlanganimni ko'rib turib, Turkiyadagi qul savdogarlari singari ota-onamdan meni sotib oldingiz. Endi nima istaysiz mendan?

V i s h n e v s k i y . Mening xotinim bo'lasiz, buni unutmang! O'z burchingizni bajarishingizni talab qilishga haqqim bor.

V i s h n e v s k a y a . To‘g‘ri, siz sotib olgan buyumingizni muqadas saqladingiz. Yo‘q, berkitib qo‘ydingiz, nikoh niqobi bilan yashirdingiz. Boshqa ilojingiz ham yo‘q edi: ota-onam rozi bo‘lmasligi mumkin edi, sizga esa baribir. Keyin-chi? Uylanib olganingizdan keyin menga o‘z xotiningiz sifatida muomala qilmadingiz; noz-ishvalarimni pulga sotib ola boshladningiz. Sizga bo‘lgan nafratimni sezib qolganingizda, darrov qimmatbaho sovg‘a ko‘tarib kelar edingizda, menga dadil bo‘lib haqqi bor kishidek yaqinlashar edingiz. Erim siz – nachora, taslim bo‘lar edim. Oh! O‘zingdan ham nafratlanasan, kishi! Bundan yomon narsa bormi dunyoda? Mening boshimga shunday kunlarni soldingiz. Lekin, menga hadya qilgan pullaringiz – o‘zingizni emas, firibgarlik bilan qo‘lga kiritilgan pullar ekanini bilganimdan keyin qanday ahvolga tushganimni bilsangiz edi...

V i s h n e v s k i y (*o‘rnidan turib ketadi*). Jim, bo‘ldi!

V i s h n e v s k a y a . Xo‘p bo‘ladi, bu to‘g‘rida gapirmayman, chunki siz jazzangizni tortdingiz, biroq men o‘zim to‘g‘rimda gapiraman.

V i s h n e v s k i y . Nima desangiz deyavering, menga baribir, biroq siz to‘g‘ringizdagi fikrim o‘zgarmaydi.

V i s h n e v s k a y a . So‘zlarimni tinglagach, balki o‘zingiz ha-qingizdagi fikringizni o‘zgartirarsiz. Ko‘pchilik ichiga kirishdan qo‘rqib, o‘zimni chetga olib yurganlarim esingizdami? Bu bejiz emas edi. Lekin, siz qistayverganingizdan keyin rozi bo‘lishga majbur bo‘lgan edim. Shunday qilib, menga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatmay, o‘rgatmay, meni o‘z jamiyattingizga – yo‘ldan urish, fisq-u fujur avj olgan jamiyattingizga qo‘sdingiz. Meni na ogohlantiradigan, na yordamlashadigan odam bor edi. Ulfatlaringizning pastkash va buzuq odamlar ekanini o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim. Men o‘zimni saqladim. O‘sha vaqtida ulfat-laringiz orasida Lyubimov ham bor edi, siz uni yaxshi bilasiz. Yodin-gizdami, uning chehrasi naqadar ochiq, ko‘zları nur bilan to‘la, aqli, qalbi pok odam edi! U siz bilan qizg‘in bahslashar edi, o‘sha vaqtarda uning ochiq bayon etadigan fikrlariga yaxshi tushunmasam ham ularning ma’noli ekanini payqar edim. Siz e’tiroz bildirarsiz deb o‘ylardim. Ammo siz qarshi chiqmas edingiz; siz faqat tuhmat qilish, orqasidan

g‘iybat qilib, uning haqida yaramas fikr tug‘dirishga urinish bilan ovora edingiz. Uning yoniga tushgim kelar edi-yu, biroq buning uchun menda imkoniyat ham yo‘q edi, aqlim ham yetmas edi. Nihoyat, uni sevishdan boshqa narsa qo‘limdan kelmadı.

V i s h n e v s k i y.. Sevdigizmi?

V i s h n e v s k a y a . Sevdim. Keyin siz uni halok qila boshlaganingizni, asta-sekin maqsadingizga erisha boshlaganingizni ko‘rdim. Sizgina emas, kerak bo‘lgan odamlarning hammasi maqsadga erisha boshladi. Avval siz jamiyatni unga qarshi shaylantirdingiz, u bilan tanish bo‘lish yoshlari uchun zarar deb uqtirdingiz, keyin u erkin fikr qiluvchi zararli odam deb ta’kidladitingiz, shunday qilib, unga qarshi xo‘jayinlarini ham g‘azablantirdingiz; bechora ishni, ota-onasini, do‘sclarini tashlab ketishga majbur bo‘ldi... (*Ro‘molcha bilan ko‘zini berkitadi.*) Buning hammasini o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim, azobini birgalashib tortdim. Men yovuzlik tantanasini ko‘rdim, siz bo‘lsangiz meni hali ham sotib olingen qiz, qilgan hadyalaringizga minnatdor bo‘lib, shular evaziga sizni sevishi kerak bo‘lgan kishi deb hisoblaysiz. Mening unga bo‘lgan ochiq va toza munosabatlarimni g‘iybatga aylan-tirdilar; xotinlar g‘ashlik qilib, tuhmat qila boshladilar, yosh va keksa takasaltanglar hech qanday andishasiz izimga tusha boshladilar. Siz meni, mutlaqo boshqacha taqdirga munosib ayolni, hayotning haqiqiy ma‘nosiga tushunoladigan va yovuzlikka dushman bo‘lgan ayolning boshiga mana shunday kunlarni soldingiz! Sizga aytmoqchi bo‘lgan gaplarim mana shu, bundan keyin mendan ortiq ta‘na so‘zini eshitmaysiz.

V i s h n e v s k i y . Chakki qilasiz. Men endi kambag‘al bo‘lib qoldim, kambag‘allar o‘z xotinlariga, so‘kishga ruxsat beradilar. Ularda mumkin. Agar men burungi Vishnevskiy bo‘lganimda, sizni so‘zsiz haydab yuborgan bo‘lar edim, biroq dushmanlarim yordami bilan tuzuk odamlar qatoridan tubanga tushishim kerak bo‘lib qoldi. Tubanlikda yashovchi erlar o‘z xotinlari bilan so‘kishaveradilar, hatto urishadilar ham, bundan hech qanday mojaro kelib chiqmaydi.

J a d o v xotini bilan kiradi.

## TO'RTINCHI SAHNA

Burungilar, Jadov va Polina.

Vishnevskiy. Nega kelding?

Jadov. Meni kechiring, tog'a...

Polina. Assalomu alaykum, tog'a! Salomatmisiz, xolajon! (*Vishnevskayaga shivirlaydi.*) O'rın so'rab keldi. (*Vishnevskaya yoniga o'tiradi.*)

Vishnevskaya. A? Rostdanmi? (*Jadovga ajablanib qaraydi.*)

Vishnevskiy. Tog'angni masxara qilgani keldingmi?

Jadov. Tog'ajon, balki men o'shanda sizni haqorat qilgandirman. Kechiring meni... yoshlik, kaltabinlik natijasi... mening bunday qilishim kerak emas edi... axir, qarindoshmiz.

Vishnevskiy. Xo'sh?

Jadov. Men yordamchisiz, qo'llovchi kishisiz yashashning qanday bo'lishini sinab ko'rdim... Ro'zg'ordor odamman.

Vishnevskiy. Nima demoqchisan, endi?

Jadov. Turmushdan juda qyinadim... O'zim ham mayli edi-ya, lekin mana bu jondan aziz xotinim... Ruxsat etsangiz yana o'z qo'l ostingizda ishlasam... tog'ajon, menga yordam qiling! Tuzukroq joyga o'mashtirib qo'ying... Men ham... (*sekin*) daromad qiladigan bo'lay.

Polina (*Vishnevskayaga*). Serdaromad joy bo'lsa.

Vishnevskiy (*qah-qah urib kuladi*). Xa-xa-xa! Yusov! Mana bu qahramonni ko'rdingmi! Ko'cha-ko'ylerda poraxo'rlarni yanib, qandaydir yangi avlod to'g'risida vaysab yurgan yigit, pora olish niyatida bizdan serdaromad joy so'rab kelibdi! Qoyilman yangi avlodga! Xa-xa-xa!

Jadov (*irg'ib turib*). Oh! (*Ko'ksini ushlaydi.*)

Yusov. Yosh edi-da! O'ylamay valdirayverardi! Tuturuqsiz so'zlarni gapirardi... So'z so'zligicha qolaveradi. Kishiga hayotning o'zi yo'l ko'rsatib beradi. (*Tamaki hidlaydi.*) Filosofiyangni tashlaysanda, endi. Asli o'z vaqtida to'nglik qilish o'rniga, aqli odamlarga quloq solganingda yaxshi bo'lar edi.

Vishnevskiy (*Yusovga*). Menga qara, Yusov! Buning so'zлari esingdami! Ular – mag'rurlik, qusurga nafratdan iborat edi! (*Jadov-*

*ga, borgan sayin qizishib.)* Sizni fosh qiladigan, iflos chuqurga uloqtirib tashlaydigan qandaydir bilimli, sof vijdonli, haqiqatparvar odamlardan iborat yangi avlod o'sib kelayapti degan sen emasmidt? Sen eding-ku? Rostimni aytsam, men ishonar edim. Men sizlarni yomon ko'rardim... Qo'rqrar edim. Hazili yo'q. Endi nima bo'lib chiqdi! Vijdoningiz miyangizga quyilgan bilimlar shamollab tamom bo'lgungacha; qiyinchilik bilan birinchi uchrashuvningizgacha yetar ekan, xolos-da! Qoyilman, barakalla! Yo'q siz dushmanlikka arzimaysiz. Men sizdan nafratlanaman!

Jadov. Mayli, nafratlanavering. Men ham o'zimdan nafratlanaman.

Vishnevskiy. Sof vijdonni o'ziniki qilib olgan odamlarning ahvolini ko'rdingmi! Bizning esa rasvomiz chiqdi! Bizni sudga berdilar.

Jadov. Nima, nima?

Yusov. Bandasining holi shu-da.

Jadov. Tog'ajon, men bizning avlodimiz boshqalardan ko'ra vijdonliroq deganim yo'q edi. Sof vijdonli odamlar, grajdandalar, vijdonli chinovniklar hammavaqt ham bo'lgan va bo'ladi; ojiz odamlar ham bo'lgan va bo'ladi. Mana meni misolga oling. Men faqat bizning zamonamizda... (*sekin boshlab, asta-sekin ruhlana boshlaydi*) jamiyat asta-sekin qusurga bo'lgan ilgarigi xayrixohligidan xalos bo'la boshlayapti, ijtimoiy yovuzlikka qarshi dadil ovozlar eshitilayapti, degan edim... Men, bizda o'z nuqsonlarimizga qarshi tushuncha uyg'onayapti, bu tushuncha keljakning yaxshi bo'lishiga umid bog'laydi degan edim. Men, jamoat fikri dunyoga kelayapti... yoshlarda sofdillik, o'z burchiga muqaddas munosabatda bo'lish kabi tuyg'ular paydo bo'layapti, bu tuyg'ular o'sib borib, meva hosil qiladi degan edim. Buni ko'rishga siz muvaffaq bo'lmasangiz, biz ko'rib xudoga shukur qilarmiz. Mening zaifligimdan xursand bo'lmay qo'yaqoling. Men qahramon emas, oddiy bir zaif odamman, boshqalarga o'xshash mening ham irodam kuchli emas. Muhtojlik, sharoit, ota-onalarning bilimsizligi, atrofdagi buzuqlik natijasida men ham xuddi chopar ot singari ishdan chiqib qolishim mumkin. Lekin men uchun bitta saboq, mana shu bugungi saboq kifoya... Buning uchun sizga rahmat, mening qaytadan tirilishim uchun, qat'iyligimni saqlab qolishim uchun, sof

yurakli odamlardan birontasi bilan uchrashishim kifoya. Ikkilanishim mumkin-ku, lekin sira jinoyat qilmayman, qoqilishim mumkin, lekin yiqilmayman. Mening qalbimni olgan ta'limotim yumshatib qo'ygan, endi uni hech qanday qusur toshga aylantirolmaydi.

Jimlik.

Nomusimdan o'zimni qayerga yashirishni bilmay qoldim... Ha, menga uyat, uyat, sizning uyingizga kelganim uchun uyat.

*Vishnevskiy (jahli chiqib). Yo'qol bu yerdan!*

*Jadov (beozor).* Ketaman. Polina, endi sen ham onang yoniga ketsang bo'ladi, yo'lingni to'solmayman. Endi o'zimga nisbatan munofiqlik qilmayman. Taqdirimda qora non yeish bor bo'lsa, faqat qora non yeymen. Meni hech qanday noz-ne'mat, boylik qiziqtirolmaydi, yo'q! Men har qanday odamning ko'ziga uyalmay, vijdon azobisiz, to'g'ridan to'g'ri qarash kabi qimmatbaho huquqni saqlab qolishni istayman, poraxo'rlar tasvir etilgan satira va komediyalarini o'qib va tomosha qilib, ochiqdan ochiq, chin ko'ngildan kulishni xohlayman. Hayotim boshdan oyoq mehnat qilish va azob chekishdan iborat bo'lsa ham nolimayman. Xudodan birgina tilagim bor. Men undan birgina mukofot kutaman. Nimani deb o'ylaysiz, siz?

Jimlik.

Men poraxo'rlar jinoiy javobgarlikdan ham ko'ra jamoat sudidan ortiqroq qo'rqaqidigan vaqt kelishini kutaman.

*Vishnevskiy (o'rnidan turib).* Men seni o'z qo'llarim bilan bo'g'ib o'ladiraman! (*Tebranadi*). Yusov, ahvolim tang. Meni kabinetga olib kir. (*Yusov bilan birga ketadi.*)

## B E S H I N C H I   S A H N A

Vishnevskaya, Jadov, Polina va keyin Yusov.

*Polina (Jadov yoniga kelib).* Sen rostdanam meni tashlab ketadi deb o'yladingmi? Men hazillashgandim. Menga o'rgatishgandi.

*Vishnevskaya. Yarashib olinglar, bolalarim.*

Jadov bilan Polina o'pishadilar.

Y u s o v (*eshik tagida*). Doktor chaqiring! Doktor!  
V i s h n e v s k a y a (*kresloden turayotib*). Nima qildi?  
Y u s o v . Aristarx Vladimirichning yuragi yorilib ketdi!  
V i s h n e v s k a y a (*eshitar-eshitmas qichqirib*). Ah! (*O'zini  
kresloga tashlaydi*)

Polina qo'rqib ketganidan Jadovga yopishadi: Jadov bir qo'li bilan stolga tayanib,  
boshini quyi soladi, o'zini yo'qotib qo'ygan Yusov eshik  
oldida qotib qoladi.

1856-yil





*Prov Mixaylovich Sadovskiyga  
bag'ishlanadi*

## QATNASHUVCHILAR

Gordey Karpich Torsov, badavlat savdogar.

Pelageya Yegorovna, xotini.

Lyubov Gordeyevna, qizi.

Lyubim Karpich Torsov, ukasi, mol-mulkini sovurib bitirgan.

Afrikan Savich Korshunov, fabrikant.

Mitya, Torsovning gumashtasi.

Yasha Guslin, Torsovning jiyani.

Grisha Razlyulyayev, badavlat bir kishining o'g'li, yosh savdogar.

Anna Ivanovna, yosh beva.

**Masha**} Lyubov Gordeyevnaning dugonalari.  
**Liza** Lyubov Gordeyevnaning dugonalari.

Yegorushka, dastyor, Torsovning uzoq qarindoshi.

Arina, Lyubov Gordeyevnaning enagasi.

Erkak va ayol mehmonlar, qiziqchi va hokazolar.

Voqeа uyezd shahrida, rojdestvo arafasida savdogar Torsovning  
uyida o'tadi.



## BIRINCHI PARDA

Gumashtalar turadigan kichkina xona; to'rda eshik chap tomondagi burchakda karavot, o'ng tomonda shkaf; chap tomonda deraza tagida stol, uning yonida stul; o'ng tomondagi devor yonida kontorka bilan yog'och taburetka; karavot yonida gitara; stol va kontorkada kitob va qog'ozlar.

## BIRINCHI SAHNA

Mitya uy ichida kezib yuradi; Yegorushka taburetkada  
«Bova Korolevich»ni o'qib o'tiradi.

Yegorushka (*o'qiydi*). «Shahanshoh otam, dong'i ketgan pahlavon qirol, Kiribit Verzoulovich, endilikda men unga tegolmayman, negaki, yoshligimda meni shoh Gvidonga unashadirib qo'yishgan edi».

Mitya. Yegorushka, xo'jayinlar uydami?

Yegorushka (*o'qib turgan joyni yo'qotmaslik uchun barmog'i bilan bosib turib*). Hech kim yo'q, izvoshga tushib sayr qilgani ketishdi. Yolg'iz Gordey Karpichning o'zi o'tiribdi. (*O'qiydi*.) «Alqissa, Kiribit Verzoulovich qiziga debdi»... (*Barmog'i bilan bosadi*.) Ammo, shunaqangi jahli chiqib o'tiribdiki, asti qo'yaverasiz! Men chiqib ketibman hamki, so'kinib o'tiribdi. (*O'qiydi*.) «Alqissa, malika Militrisa Kirbitevna Licharda degan xizmatkorini o'z qoshiga da'vat etib...»

Mitya. Kimdan xafa bo'layapti?

Yegorushka (*yana barmog'i bilan bosadi*). Lyubim Karpich amakimdan xafa. Bayramning ertasi kuni Lyubim Karpich amakim biznikida ovqat qilgan edilar, mast bo'lib, dasturxon boshida bo'larbo'lmas qiliqlar qilib, hammani kuldirib o'tirdilar. Mening arzir-arzimas narsaga kuladigan odatim bor, birdan kulgim qistab, xaxolab yubordim, meni ko'rib boshqalar ham kulishdi, Gordey Karpich ama-

kim, bu nodonlik, sen meni masxara qilayapsan deb jahllari chiqib ketdi-da, uni haydab yubordilar. Lyubim Karpich bo'lsa, ulardan o'ch olmoqchi bo'lib, sho'xlik qilib cherkov oldida tilanchilik qiladigan gadoylar orasiga borib turibdilar. Gordey Karpich amakim esa, meni butun shahar xalqi oldida sharmanda qildi, dedilar. Shundan beri jahllari chiqib, kim ko'rinsa, alamlarini olib yuribdilar. (*O'qiydi.*) «Shuniyat bilan shahrimiz bo'sag'asiga bostirib keldi».

Mitya (*derazadan qarab*). Ular qaytishganga o'xshaydi... Ha, qaytishibdi! Pelageya Yegorovna, Lyubov Gordeyevna bilan birga mehmonlar ham kelishayapti.

Yegorushka (*erikni cho'ntagiga yashiradi*). Yuqoriga yugurish kerak. (*Ketadi.*)

## IKKINCHI SAHNA

Mitya (*yolg'iz o'zi*). Xudoyim-ey, juda diqqinafas bo'lib ketdim-ku. Ko'cha-ko'yda bayram, hammaning uyida bayram bo'lsa-yu, men to'rt devor ichida o'tirsam-a! Yakka-yu yagonaman, qarindoshim ham, tanish-bilishim ham yo'q! Buning ustiga-ustak... Ha, mayli, bo'lgancha bo'lar! Yaxshisi, o'tirib ishimni qilay, balki ko'nglim yozilar. (*Kontorka yoniga o'tirib, xayolga toladi, keyin ashula aytay boshlaydi.*)

*Husnini tasvirlab bo'lmaydi aslo!  
Qoshlari qoradur, ko'zлari shahlo!*

Ha, ko'zлari shahlo. Kecha ustida suvsar po'stin, boshida ro'mol, ibodatdan qaytayotgan ekan... voy-voey!.. Menimcha, bunday go'zal qiz olamga kelmagan bo'lsa kerak! (*Xayolga toladi, keyin ashula aytadi.*)

*Qaysi bog'ning guli ekan bu go'zal...*

Ey, shunaqa paytda ish ko'ngilga sig'armidi! Uning haqida o'ylaganim-o'ylagan. Intizorlikda yurak-bag'rim ezilib ketdi. Voy, sho'rpeshonam, sho'rpeshonam!.. (*Yuzini qo'llari bilan berkitib, indamay o'tiradi.*)

Issiq kiyingan Pelageya Yegorovna kirib ostonada to'xtaydi.

---

<sup>1</sup> Komedyada uchraydigan qo'shiqlarni Rustam Komilov tarjima qilgan.

## UCHINCHI SAHNA

Mitya bilan Pelageya Yegorovna.

Pelageya Yegorovna. Mitya, Mitenka!

Mitya. Labbay? Nima deysiz?

Pelageya Yegorovna. Kechqurun biznikiga chiqqin-a, chirrog'im! Qizlar bilan gurunglashib, ashula aytishib o'tirasizlar.

Mitya. Juda minnatdorman. Bajonidil.

Pelageya Yegorovna. Hadeb kontorda yolg'iz o'zing o'tira-  
verasanmi! Kishining yuragi siqilib ketadi! Chiqasanmi? Gordey Kar-  
pich uyda bo'lmaydi.

Mitya. Xo'p bo'ladi, albatta, chiqaman.

Pelageya Yegorovna. Yana jo'namoqchi-ku, axir... tag'in  
o'shanikiga, o'zining... xah... oti nima edi?..

Mitya. Afrikan Savichnikigami?

Pelageya Yegorovna. Ha, ha! Nimaga ham bizga ilashib  
oldi, uying kuygur!

Mitya (*stul qo'yib beradi*). O'tiring, Pelageya Yegorovna.

Pelageya Yegorovna. O'tirishga vaqtim bor deysanmi. Ha,  
mayli, picha o'tirsam-o'tiray. (*O'tiradi*) Ha-ya, shuni aytgina... qa-  
yoqdan ham kelib qoldi u! Hayronman!.. Shunday apoq-chapoq bo'lib  
ketishganki. Ha! Shunaqa! Maqsad nima? Nima keragi bor ekan?  
Hech aqlim yetmay qoldi! Afrikan Savich degani janjalkash, piyanista  
odam... Ha!

Mitya. Balki Gordey Karpichning Afrikan Savich bilan birorta  
sheriklik ishlari bordir.

Pelageya Yegorovna. Bo-o-o! Qanaqa ish bo'lardi! Hech  
qanaqa ishi yo'q. Axir, Afrikan Savich ingliz bilan ichishgani ichishgan.  
Fabrikasining dilextori ingliz bo'lganidan keyin birga ichishadi-da...  
ha! Bizniki ularning tengi emas. Aytganing bo'larmidi! G'ururi olamni  
bosadi. Bu yerda menga ulfatchilik qilishga arziydigan odam yo'q, bu  
yerdagilarning bari ablak, mujik, mujikdan farqi yo'q, deydi; u bo'lsa,  
moskvalik, butun umrini Moskvada o'tkazadi... o'zi ham davlatmand,  
deydi. Uni nima jin urdi? Birdan shunaqa o'zgarib qoldi-da, birdan-a! Il-  
gari es-hushi joyida edi. Judayam, aytarlik to'la-to'kis yashamasak ham,  
binoyidek turardik, boshqalarning havasi kelardi. Bultur safarga borib,  
birovdan yuqtirib keldi-da. Rost, yuqtirib kelgan, menga aytishdi...

hamma qiliqlarini o'sha yerdan yuqtirib kelgan. Endi bizning butun odatlarimiz unga yoqmas emish, hozirgi zamonchasiga turmush quraman, modalarga amal qilaman deydi. Ha, ha!.. Boshingga chepchik kiyib yur deydi, menga!.. Topgan gapini qara endi!.. Qarigan chog'imda birovni yasanib-tusanib yo'ldan urarmidim! Tufey! Nima qilarimni bilmay qoldim! Ha! Ilgari ichkilikni og'izga olmasdi... rost... sira ichmasdi... Endi bo'lsa, Afrikan Savich bilan birga ichishadi! Ichkilikdan (*boshini ko'rsatadi*) miyasi aynib qolganmi deyman.

Jimlik.

Nazarimda, shayton yo'ldan ozdirganga o'xshaydi! Odam degan aql-hushini ham yo'qotadimi!.. Yosh bo'lsa ham mayli edi: yoslikda yasanging ham keladi, har narsaga havas ham qilasan; axir, yosning oltmishta yetib qopti-ku! Ha, yoshi oltmishta yaqinlashdi, chirog'im! Rost! Moda – yangi chiqqan rusmlaring har kuni o'zgarib turadi, ammo bizning rus odatlarimiz qanday bo'lsa, shundayligicha qoladi, deyman unga! Ota-bobolarimiz bizdan aqlliroy o'tgan deyman. Badjahl bo'lganidan keyin, unga bir gap aytib bo'ladi, chirog'im!

Mitya. Nimasini aytasiz! Juda qattiqqa'l odam.

Pelageya Yegorovna. Lyubochkamizning bo'yli yetib qoldi, erga beraylik desam, uning tengi yo'q... deb turib oladi... tengi yo'q deydi, vassalom... Nega tengi yo'q ekan, bor! Unga qolsa, yo'q bo'ladi... Bu gaplar onaning ko'ngliga qanday botarkin demaydi!

Mitya. Balki Gordey Karpich Lyubov Gordeyevnani Moskvaga uzatmoqchidirlar.

Pelageya Yegorovna. Uning ko'nglidagini kim biladi, qovog'idan qor yog'adi, g'ing demaydi, ha, men ona bo'laman qizimga... rost-da... bir og'iz gap aytolmayman-a, yuragim siqilganidan begona odamlarga dardimni aytib yig'layman, ko'nglimni yozaman... (*Turadi.*) Chiqqin-a, Mitya.

Mitya. Xo'p chiqaman.

Guslin kiradi.

## TO‘RTINCHI SAHNA

O‘shalar va Guslin.

Pelageya Yegorovna. Mana bu yigitcha ham bor! Bolixonaga chiqqin-a, Yashenka, qizlar bilan ashula aytishib o‘tirasizlar, sen bunaqa ishlarga ustasan, gitarangni ham olib chiq.

Guslin. Xo‘p bo‘ladi, bizga bunaqangi ish cho‘t emas, qaytanga, o‘zimizga maza.

Pelageya Yegorovna. Xo‘p, xayr. Borib yarim soatcha damimni olay.

Guslin va Mitya. Xayr.

Pelageya Yegorovna chiqib ketadi; Mitya g‘amgin bir holatda stol yoniga kelib o‘tiradi. Guslin karavotga o‘tirib, qo‘liga gitara oladi.

## BESHINCHI SAHNA

Mitya bilan Yasha Guslin.

Guslin. Sayrgohdagi odamning ko‘pligini aytmaysanmi!.. Xo‘-jayinlaringiz ham o‘sha yerda edi. Sen nega bormading?

Mitya. Nima qilay, Yasha, juda yuragim siqilib ketdi.

Guslin. Nega siqiladi? Nima g‘amming bor?

Mitya. Nega g‘amim bo‘lmas ekan? Birdan miyamga qanday sho‘rpeshona odam ekanman degan fikr kelib qoladi. Onam keksa-yib qolgan bo‘lsa, keksaygan chog‘ida umrini bechoralikda o‘tkazsa, uni boqish kerak, xo‘s, nima bilan boqaman? Jindakkina moyana olsam, xuddi ayb menda bo‘lganday, Gordey Karpichdan turtki bilan so‘kishdan bo‘lak hech narsa ko‘rmasam, nuqul oyoqyalangsan, faqir-san, bechorasan degani degan, moyanani esa oshiray demaydi. Boshqa biron joyga kirib ketay desang, tanish-bilishing bo‘lmasa, ish topish qiyin. Rostimi aystsam, boshqa yerga o‘zim ham bormayman.

Guslin. Nega bormaysan? Ana, Razlyulyayevlar – xonadoni yaxshi, o‘zлari ham badavlat, mehribon odamlar.

Mitya. Yo‘q, Yasha, to‘g‘ri kelmaydi! Gordey Karpichdan yomonlik ko‘rsam ko‘ray, qashshoq bo‘lsam bo‘layki, u yerga bormayman. Taqdirim shu ekan!

Guslin. Ha, nega shunaqa?

Mitya (*turadi*). Shundog‘-da, sababi bor. Dilimda yana bir dardim bor. Yasha, ammo u dardimni hech kim bilmaydi. Hech kimga aytgan emasman.

Guslin. Menga aytaqol.

Mitya (*qo'l siltab*). Nima keragi bor!

Guslin. Ha, aytaqolsang-chi, muncha!

Mitya. Aytsam ham, aytmasam ham foydasi yo'q!

Guslin. Qayoqdan bilasan, balki, bo'lib qolar?

Mitya (*Guslinning yoniga keladi*). Dardimga hech kim darmon bo'lolmaydi. Tamom bo'ldim! Lyubov Gordeyevnani juda yaxshi ko'rib qoldim.

Guslin. Yo'g'-e? Qanday qilib?

Mitya. Qanday qilib bo'lardi, yaxshi ko'rib qoldim dedim-ku, yaxshi ko'rdim-da.

Guslin. Yaxshisi, bu narsani esingdan chiqar, Mitya. Ming qilsang ham senga tegmaydi, anoyi emas.

Mitya. Buni-ku, o'zim ham bilaman-a, ammo yurakka nima deysan! «Do'stga oshiq bo'lish mumkin, unutish mumkin emas!..» (*Qo'llarini silkitib gapiradi*) «Bir go'zalni sevib qoldim, hech narsa ko'zimga ko'rinxas!.. Baxil kishilar yo'l qo'ymaslar, tashla derlar, qo'y derlar!»

Guslin. Shunday bo'lsa ham tashlaganing ma'qul. Mana, masalan, Anna Ivanovnani olaylik: mening tengim, uning ham bir chaqalik bisoti yo'q, menda ham hech vaqo yo'q, shunday bo'lishiga qaramasdan, uylanay desam, tog'am yo'l qo'y maydi. Senga yo'l bo'lsin! Hadeb o'layversang, keyin o'zing yana battarroq qiynalasan.

Mitya (*o'qiydi*).

*Bu jahonda nedir beshafqat?*

*Beshafqatdir ishq-muhabbat!*

(*Uy ichida aylanib yuradi*.) Yasha, Kolsov'ni o'qiganmisan? (*To'xtaydi*.)

Guslin. O'qiganman, nima qildi?

Mitya. Bu hislarni juda boplab yozgan-da!

Guslin. Ha, aynan o'zini yozgan.

Mitya. Aynanligi ham gapmi. (*Uy ichida aylanib yuradi*.) Yasha!

Guslin. Nima deysan?

Mitya. Men qo'shiq to'qidim.

Guslin. Sen-a?

Mitya. Ha.

<sup>1</sup> Kolsov A.V. (1809–1842) – mashhur rus shoiri.

Guslin. Qani, kuya solib ko'raylik-chi.

Mitya. Bo'pti. Ma. (*Guslinga qog'oz uzatadi*.) Men pitcha o'tirib ishlay: birdan Gordey Karpich so'rab qolsa... (*O'tirib yoza boshlaydi*.)

Guslin gitara olib, kuya sola boshlaydi; Razlyulyayev garmon ko'tarib kiradi.

## OLTINCHI SAHNA

O'shalar va Razlyulyayev.

Razlyulyayev. Salom, og'aynilar! (*Garmon chalib, o'yinda tushadi*.)

Guslin. Voy ahmoq-e! Garmon olib nima qilarding?

Razlyulyayev. Nima qilardim, chalib yuraman. Mana... (*Chaladi*.)

Guslin. Shu ham muzika bo'pti-yu... rasvo muzika! Tashla-ye!

Razlyulyayev. Qiyn ekanmi?.. Tashlasam tashlayveraman... Nimasidan qo'rqaman! Pulimiz yo'q deysanmi? (*Cho'ntagini urib ko'rsatadi*.) Jaranglashini eshitdingmi! Aysh qilsak – qilaveramiz! (*Garmonini qo'yadi*.)

*Bitta tog' baland.*

*Boshqasi pastroq.*

*Bir yorim yaqin,*

*Boshqasi yiroq.*

Mitya (*Mityaning yelkasiga bir uradi*.) Ha, Mitya! Nima qilib o'tirbsan?

Mitya. Ishim bor. (*Ishini davom ettiradi*.)

Razlyulyayev. Mitya, hay Mitya, men ayshimni qilib yuribman, og'ayni... xudo haqi, aysh qilib yuribman... Rost! (*Ashula ayta-di*: «*Bitta tog' baland...*») Bayram o'tguncha maza qilib aysh qilaman, keyin ishga tushib ketaman... Nima, pulimiz yo'q deysanmi? Mana, pul... Men sira mast emasman... O'zim, shunday aysh qilib yuribman... vaqtim chog'...

Mitya. Aysh qilsang qilaver.

Razlyulyayev. Bayramdan keyin uylanmoqchiman! Rostdan uylanmoqchiman! Badavlat qizga uylanaman.

Guslin (*Mityaga qarab*). Mana, bir eshit, yaxshi chiqibdimikin?

**Razlyulyayev.** Qani, ayt, men bir eshitay.  
**Guslin (aytadi).**

*Berahm, shum narsa yo'q  
Yetim ko'rgan qismatdan.  
Bu musibat og'irroq  
Tutqunlik-asoratdan.  
Hamma xalq uchun bayram,  
Yetim chekar dard-alam!..  
Og'riydi aziz boshi  
Ichkilik ichmasa ham.  
Go'zallik ovuntirmas,  
Yoshlik quvontirmaydi;  
Boshin jonon qiz emas,  
Qayg'u-hasrat silaydi.*

Ashula davomida Razlyulyayev toshday qotib, ashulani maroq bilan tinglab turadi; ashula tugagandan keyin hammasi indamay o'tiradi.

**Razlyulyayev.** Yaxshi, juda yaxshi! Yurakni ezib yubo-rayozdi... Yurakka cho'g'day yopishadi. (*Xo'rsinadi.*) Eh, Yasha! Qani, sho'xrog'idan chal, ke, yurakni ezma, bugun bayram-ku, axir. (*Ashula aytadi.*)

*Eh, gusarni sevmaslik –  
Yaramas ish bu!*

qani, jo'r bo'lsang-chi, Yasha.

Guslin gitara chalib jo'r bo'ladi.

**Mitya.** Jinniliklariningni qo'ysalaring-chi. Undan ko'ra, hammasiz bir bo'lib xirgoyi qilaylik.

**Razlyulyayev.** Bo'pti!

O'tiradilar.

**Guslin (ashula boshlaydi; Mitya bilan Razlyulyayev unga jo'r bo'ladilar).**

*Siz barnolar, yosh o'g'lonlar.  
Do'stlarim, o'rtoqlarim...*

**Gordey Karpich** kiradi; hamma jim bo'lib, o'midan turadi.

## YETTINCHI SAHNA

O'shalar va Gordey Karpich.

Gordey Karpich. Ashula aytish nimasi! Mujikka o'xshab baqirishadi-ya! (*Mityaga*.) Sen ham qo'shilyapsanmi! Mujiklar uyida turmasang kerak! Bu yer qovoqxonami! Bundan buyon ko'rmay! (*Stol yoniga kelib, qog'ozlarni ko'zdan kechiradi*.) Nega qog'ozlarni sochib tashlading!..

Mitya. Schyotlarni tekshirib o'tirgandim.

Gordey Karpich (*Kolsovning she'rlar to'plami va she'r yozilgan daftarni oladi*). Bu qanaqa tentaklik tag'in?

Mitya. Zerikkan vaqtlarimda, bayram kunlari Kolsov janoblari-ning she'rlarini ko'chirib o'tiraman.

Gordey Karpich. Boshimiz kal-u, ko'nglimiz nozik-da, a!

Mitya. O'z ma'lumotimni oshirib, ul-bulga aqlim yetsin deb qilaman-da.

Gordey Karpich. Ma'lumot emish! O'zing ma'lumotning nimaligini bilasanmi?.. Mahmndonalik qilishingni qara-ya! Undan ko'ra, egningga surtuk tiktirib ol! Axir, boloxonamizga chiqib turasan, mehmonlar kelib turishadi... uyat! Pulni qayoqqa qo'yasan?

Mitya. Oyimga yuboraman, oyim keksayib qolgan, boqadigan odami yo'q.

Gordey Karpich. Oyimga yuboraman emish! Oldin o'zingni epaqaga keltirsang-chi; oyingga qancha pul kerak! Katta yeb-ichib o'rganmagan-ku, o'zini o'zi eplasin endi.

Mitya. Qiyinchilikni ko'rsam ham mayli, ammo onam qarigan chog'ida qiynalmasin.

Gordey Karpich. Axir, bu qanday ahmoqlik! O'zingni-ku, tuzatib yurolmaganingdan keyin, hujradan chiqmay o'tiraver-da; bisotingda hech narsang bo'limgandan keyin, senga orzu-havasni kim qo'yibdi! She'r bitarmish, ma'lumot orttirarmish-u, o'zining esa qora ishchidan farqi yo'q! Ahmoqona ashula aytish bilan odam savodli bo'larkanmi? Tentaklik bu! (*Mityaga ko'z qirini tashlab, tishi orasidan*.) Ahmoq. (*Biroz jim turgach*.) Bunday surtuk bilan boloxonaga chiqako'rma. Senga aytaman, eshityapsanmi! (*Razlyulyayevga qarab*.) Sen ham shunaqasan! Otang qoplab pul topadi-yu, egningga tuzukroq palto ham olib bermaydi.

Razlyulyayev. Nima qipti! Paltom yangi!.. Fransuz suknosidan. Moskvadan tanishlar orqali oldirib kelganmiz... gazi yigirma so'lkavoy turadi. Aptekar Frans Fyodorich kiyib yurgan ro'dapo kiyimdan kiygin deysizmi... Uni shu ham paltomi, deb hamma masxara qiladi. Odamlarga kulgi bo'lishdan nima foyda!

Gordey Karpich. Juda mahmadona bo'psan-da! Rostini aytganda, senda ham ayb yo'q! O'zing bir tentak bo'lsang, otang ham sendan battar bo'lsa... butun umri yag'iri chiqib ketgan paltoda o'tib ketdi; johil, nodonmisizlar, johilliklaringcha o'lib ketasanlar.

Razlyulyayev. Mayli, o'lsak o'lib ketarmiz.

Gordey Karpich (*jahl bilan*). Nima deding?

Razlyulyayev. Mayli, dedim.

Gordey Karpich. Nodon, gapingni ham to'g'ri gapirol-maysan-a! Sen ahmoqlarga gap uqtirish eshakning qulog'iga tanbur chertish bilan baravar. (*Chiqib ketadi.*)

## SAKKIZINCHI SAHNA

Qolganlarning o'zi.

Razlyulyayev. Vajohatingdan o'rgilay! Quturishini qara! Xayolida qo'rqiymoqchi bo'ldi-yu... Qo'rqihib bo'psan!

Mitya (*Guslinga qarab*). Mana, mening turmushim shunaqa! Peshonamning sho'rligini ko'rdingmi!

Razlyulyayev. Bunday kun ko'raversang ichkilikka ham berilib ketasan! Ke, qo'y, o'ylayverma. (*Ashula ayta boshlaydi.*)

*Bitta tog' baland,  
Boshqasi pastroq.  
Bir yorim yaqin,  
Boshqasi yiroq.*

Lyubov Gordeyevna, Anna Ivanovna, Masha va Lizalar kiradilar.

## TO'QQIZINCHI SAHNA

Ilgarigilar, Lyubov Gordeyevna, Anna Ivanovna,  
Masha va Liza.

Anna Ivanovna. Salom, yaxshi yigitlar!

Razlyulyayev. Xush kelibsizlar!

Mitya. Salom! Xush kelibsizlar!.. Qanday shamol uchirdi?

**A n n a I v a n o v n a .** Hech qanaqa shamol uchirgani yo‘q, o‘zimiz kelmoqchi edik, keldik. Gordey Karpich jo‘nadi, Pelageya Yegorovna damini olib yotibdi, inon-ixtiyorimiz o‘zimizda... O‘ynaymiz, kulamiz!..

**M i t y a .** Marhamat, o‘tiringlar.

O‘tiradilar. **M i t y a L y u b o v G o r d e y e v n a n g i r o‘parasiga o‘tiradi;**  
**R a z l y u l y a y e v u y ichida aylanib yuradi.**

**A n n a I v a n o v n a .** Indamay o‘tira-o‘tira charchadik, yong‘oq chaqish ham jonga tegdi, qizlarga yuringlar, yigitlarning yoniga tushamiz dedim, qizlar jon deb rozi bo‘lishdi.

**L y u b o v G o r d e y e v n a .** Nima deb vaysayapsan? Bu yerga tushish xayolimizga ham kelgani yo‘q edi, o‘zing aytding-da.

**A n n a I v a n o v n a .** Hech-da! Oldin o‘zing boshlading... Tovuq tushiga tariq kiribdi, degani rost-da; yigitlar qizlarni o‘laydi, qizlar yigitlarni.

**R a z l y u l y a y e v .** Xa-xa-xa!.. Haq gapni aytdingiz, Anna Ivanovna.

**L y u b o v G o r d e y e v n a .** Hech-da!

**M a s h a (Lizaga qarab) .** Voy, qanday sharmandalik!

**L i z a .** Butunlay aksini gapiryapsiz, Anna Ivanovna.

**A n n a I v a n o v n a .** Voy, uyalmay ketinglar! Bir gap aytardim-u, yigitlar bor-da... O‘zim ham qiz bo‘lganman, bilaman.

**L y u b o v G o r d e y e v n a .** Qizdan qizning farqi bor.

**M a s h a .** Voy, qanday sharmandalik!

**L i z a .** Nimalar deyapsiz o‘zingiz, juda qiziq gaplarni gapirasiz-a, odamni sharmanda qildingiz-ku.

**R a z l y u l y a y e v .** Xa-xa-xa!..

**A n n a I v a n o v n a .** Hozirgina boloxonada nimalarni gapirib o‘tirgan edinglar? Aytaymi?.. Aytaymi, yo‘qmi? Ha, indamay qoldinglar!

**R a z l y u l y a y e v .** Xa-xa-xa!..

**A n n a I v a n o v n a .** Sen nega tirjayasan? Axir, sening to‘g‘ringda gapirayotganim yo‘q-ku.

**R a z l y u l y a y e v .** Mening to‘g‘rimda bo‘lmasa, ehtimol, biz to‘g‘rimizda o‘laydigan ham topilib qolar. Biz ham biladiganimizni bilamiz! (*O‘yinga tushadi.*)

*Eh, gusarni sevmaslik!*

*Yaramas ish bu!*

Anna Ivanovna (*Guslinning yoniga keladi*). Ha, bandurist, meni qachon olasan?

Guslin (*gitara chalib*). Gordey Karpich ijozat bergenida. Shoshib ham nima qildik, shoshmasak ham bo'ladi. (*Bosh tebratadi*.) Beri kelchi, Anna Ivanovna, senga aytadigan gapim bor.

Anna Ivanovna uning yoniga borib o'tiradi;

Guslin Lyubov Gordeyevna bilan Mityani imlab ko'rsatib  
uning qulog'iga bir nimalar deb shivirlaydi.

Anna Ivanovna. Yo'g'-e?.. Nahotki!

Guslin. Ha, shunday.

Anna Ivanovna. Xo'p, mayli, dampingni chiqarma. (*Shivirlab gapirishadi*.)

Lyubov Gordeyevna. Bugun kechqurun biznikiga chiqasanmi, Mitya?

Mitya. Chiqaman.

Razlyulyayev. Men ham chiqaman. O'yinda tushishga juda ishqibozman. (*Olifta bo'lib turadi*.) Hay, qizlar, bitta-yarimtang meni yaxshi ko'rsanglar-chi.

Masha. Shunday gapni gapirishga uyalmaysizmi?

Razlyulyayev. Gapisam nima qipti! Meni yaxshi ko'ringlar dedim... sodda odam bo'lganim uchun.

Liza. Qizlarga bunday deb bo'lmaydi. Qizlarning o'zi sizni sevishlarini kutishingiz kerak edi.

Razlyulyayev. Qizlarning o'ziga qolsa, o'lsa ham sevmas! (*O'yinda tushadi*.)

*Eh, gusarni sevmaslik!*

Lyubov Gordeyevna (*Mityaga qarab qo'yib*). Balki, birov-birovni sevib yurgandir, ammo buni o'lsa ham aytmaydi: yigit o'zi fahmlab olishi kerak-da.

Liza. Dunyoda hech bir qiz men seni sevaman deb aytmaydi!

Masha. Albatta, aytmaydi-da.

Anna Ivanovna (*ularning yoniga kelib, goh Lyubov Gordeyevnaga, goh Mityaga qarab, ashula ayta boshlaydi*).

*Kim kimni sevganligi  
Aniqlandi muqarrar.*

*Ma'shuqa qarshisida  
Oshiq og'ir xo'rsinar.*

M i t y a . Buni kimga tegizib aytdingiz?

A n n a I v a n o v n a . Kimga tekizib aytganimizni o'zimiz bilamiz.

R a z l y u l y a y e v . Hay, qizlar, shoshmanglar, men sizlarga bir ashula aytib beraman.

A n n a I v a n o v n a . Qani, ayt, ayt!

R a z l y u l y a y e v (*ashulani cho'zib aytadi.*)

*Ko'kda ayiq etardi parvoz...*

A n n a I v a n o v n a . Bundan battarrog'ini bilmaysanmi?

L i z a . Bizni mazax qilayapti, shekilli.

R a z l y u l y a y e v . Bunisi yoqmasa, boshqasini aytay. Men xush-chaqchaq odamman. (*Ashula aytadi.*)

*Hay, qattiq ur taxtani,  
Xotirla Moskvani!  
Moskva uylanmoqchi  
Kolomnani olmoqchi.  
Tula xaxolab kulib,  
Deydi: «Men bo'lmayman sep!»  
To'rt tiyin qorabug'doy,  
Qirq tiyin turar yorma,  
Yarim tanga tariqvoy,  
To'qqiz tiyindir arpa.*

(*qizlarga qarab*)

*Arzon bo'lardi suli,  
Qimmat-da, kira puli.*

Ko'rdingizmi, havoning qanaqaligin!

M a s h a . Buning bizga daxli yo'q ekan.

L i z a . Biz qalloplik qilmaymiz.

A n n a I v a n o v n a . Muncha xiralik qilasan! Undan ko'ra, mana bu jumboqni yechsang-chi: dum-dumaloq, qiz emas, dumi bor, sichqon emas!

R a z l y u l y a y e v . Obbo, juda qiyin-ku.

A n n a I v a n o v n a . Qiyinini topib aytamiz-da!.. O'ylab top!  
Qani, qizlar, ketdik.

*Qizlar o'rinalidan turib, ketmoqchi bo'ladilar.*

Yuringlar, yigitlar.

Guslin bilan Razlyulyayev ham otlanadilar.

Mitya. Men keyinroq chiqaman. Bu yerni saranjomlab olay.  
Anna Ivanovna (*boshqalarning otlanib bo'lishini kutib*).

Kecha oqshomda qizlar,  
Kecha oqshom go'zallar,  
Kecha oqshomda qizlar pivo qaynatardilar.  
Keldi qizlar yoniga,  
U go'zallar yoniga,  
Keldi qizlar yoniga chaqirilmagan mehmon.

(*Anna Ivanovna hammani eshikdan chiqarib, Lyubov Gordeyevnani tutib qoladi-da, eshikni berkitadi.*)

## O'NINCHI SAHNA

Mitya bilan Lyubov Gordeyevna.

Lyubov Gordeyevna (*eshik yonida turib*). Qo'yinglar, jinnilik qilmanglar.

Eshik orqasidan qizlarning kulgisi eshitiladi.

Qamab qo'yishdi-yu!.. Voy, jinnilar-ey! (*Eshik yonidan ketadi*.) Bu nima jinnilik!..

Mitya (*stul qo'yib*). O'tiring, Lyubov Gordeyevna, birpas suhbatlashaylik. Sizning bu yerga kelishingizni ko'rib juda quvonib ketdim.

Lyubov Gordeyevna (*o'tirib*). Nimaga quvonasiz, hayronman.

Mitya. Nega quvonmay! Sizga qilgan xizmatimdan ham ortiq iltifot ko'rsatishingiz meni suyuntiradi. Mana, tag'in bir marta baxtiyor bo'ldim...

Lyubov Gordeyevna. Nima bo'pti! Keldim, birpas o'tirdim, ketdim, buning uncha ahamiyati yo'q. Hozir ham turib ketishim mumkin.

Mitya. Yo'q, yo'q, ketmang, zinhor!.. Ketib nima qilasiz!.. (*Cho'ntagidan qog'oz oladi*.) Ruxsat etsangiz, men sizga o'z mehnatimni taqdim etay... qo'limdan kelgancha, chin qalbimdan yozgaman.

Lyubov Gordeyevna. Bu nima o'zi?

Mitya. Sizga atab she'r to'qigan edim.

**L y u b o v G o r d e y e v n a** (*sevinchini yashirmoqchi bo'ladi*).  
Yana biron ta bema'ni gap bo'lmasin... balki o'qishga ham arzimas.

**M i t y a**. Bunisini aytolmayman, negaki, ilmim bo'lmasa ham o'zim to'qiganman.

**L y u b o v G o r d e y e v n a**. O'qib ber-chi!

**M i t y a**. Hozir. (*Stol yoniga o'tirib, qog'ozni oladi*.)

**L y u b o v G o r d e y e v n a** uning pinjiga kelib turadi.

*Gul emas, ko'kat emas dalada bo'lgan xazon,  
So'lib xazon bo'lmoqda sof ko'ngilli yosh o'g'lon.  
Manglayi sho'rlik qilib, go'zalga bo'lди shaydo,  
O'z boshiga keltirdi tunganmas jabr-u jafo.  
Davlatmand go'zal qizga qo'yish bilan muhabbat,  
O'z joniga behuda sotib oldi falokat.  
Go'yo zulmat kechada chiqmaganidek quyosh,  
U qiz bu yigit bilan bir yostiqqa qo'ymas bosh.*

**L y u b o v G o r d e y e v n a** (*birmuncha vaqt xayolga tolib o'tiradi*). Qani, buyoqqa ber. (*Qog'ozni olib yashiradi, keyin o'rnidan turadi*.) Javobini xatda aytaman.

**M i t y a**. O'zingiz-a?

**L y u b o v G o r d e y e v n a**. Ammo, she'r to'qishni bilmayman, shunday yozaman.

**M i t y a**. Bunday iltifotingizni katta baxt deb hisoblayman. (*Qog'oz bilan pero uzatadi*.) Marhamat, oling.

**L y u b o v G o r d e y e v n a**. Afsuski, xatim xunuk. (*Yozadi; Mitya qaramoqchi bo'ladi*.) Qarama, qarasang yozmayman, yirtib tashlayman.

**M i t y a**. Qaramayman. Ammo, iltifotingizga javoban yana qo'-limdan kelganicha sizga atab she'r yozishimga ijozat etasiz.

**L y u b o v G o r d e y e v n a** (*peroni stolga qo'yib*). Yozsang, yoz... Qaytanga qo'limni siyoh qildim, bilganimda yozmas edim.

**M i t y a**. Bering.

**L y u b o v G o r d e y e v n a**. Ma. Ammo hozir emas, men ket-ganimidan keyin o'qiysan. (*Qog'ozni buklab, Mityaga beradi; Mitya qog'ozni cho'ntagiga berkitadi*.)

**M i t y a**. Xuddi aytganingizday qilaman.

**L y u b o v G o r d e y e v n a** (*o'rnidan turadi*). Boloxonaga chiqasanmi?

**M i t y a**. Chiqaman... hozir chiqaman.

**L y u b o v G o r d e y e v n a .** Yaxshi qol.

**M i t y a .** Ko'rishguncha xayr.

**L y u b o v G o r d e y e v n a** eshik tomon yuradi; eshikdan

**L y u b i m K a r p i c h** kirib keladi.

## O 'N BIRINCHI SAHNA

O'shalar va Lyubim Karpich.

**L y u b o v G o r d e y e v n a .** Voy!

**L y u b i m K a r p i c h** (*Lyubov Gordeyevnani ko'rsatib*). To'xta! Kimsan? Nima qilib yuribsan? Qanday ish bilan yuribsan? Nazorat qilinsin!

**L y u b o v G o r d e y e v n a .** Sizmisiz, amaki!

**L y u b i m K a r p i c h .** Men, jiyan! Ha, qo'rqib ketdingmi? Qo'rqlama, boraver! Men chaqimchi emasman, hozir yopiqqlik qozon yopiqligicha qoladi, keyin bekorchilikda tekshirib ko'raman.

**L y u b o v G o r d e y e v n a .** Yaxshi qolinglar! (*Chiqib ketadi*.)

## O 'N IKKINCHI SAHNA

~ Mitya bilan Lyubim Karpich.

**L y u b i m K a r p i c h .** Mitya, savdogar ukasi, Torsov o'g'li Lyubim Karpich Torsovni qabul qil.

**M i t y a .** Marhamat, xush kelibsiz.

**L y u b i m K a r p i c h** (*o'tiradi*). Akam meni dargohidan haydadi! Mana bu yupun paltoda ko'chada ko'pam yurib bo'lmas ekan!.. Sovuq... Chillaning sovug'i, ba-ba-ba-ba!.. Qo'lim muzlab qoldi, ba-ba-ba!

**M i t y a .** Isinib oling, Lyubim Karpich.

**L y u b i m K a r p i c h .** Uyingdan haydar chiqarmaysanmi, Mitya? Haydasang, ko'chada itday sovqotib o'laman-a...

**M i t y a .** Ko'chaga haydar bo'ladimi odamni, unaqa demang!..

**L y u b i m K a r p i c h .** Akam haydar qo'ydi-ku, axir. Pulim borida men ham issiq-issiq joylarda yurardim; endi pulim yo'q – hamma haydaydi. Pulim ham ko'p emas edi, hammasi bo'lib ikki frank-u bir necha santim edi, xolos! Shu ham pulmi! Bu pulga imorat ham qurolmaysan!.. Qishloq ham sotib ololmaysan!.. Pulni nima qilish kerak edi? Qayoqqa surf qilish kerak? Omonat qo'yish ham yaramaydi! Shartta ichib tugatdim. Battar bo'lsin!

M i t y a . Nega ichasiz, Lyubim Karpich? Ichkilikning kasofatidan o'zingizni xor qilib yuribsiz!

L y u b i m K a r p i c h . Nega ichasan deysanmi?.. Ahmoqligimdan. Rost, ahmoqligimdan. Sen nimadan deb o'yarding?

M i t y a . Ichishni tashlang-qo'ying.

L y u b i m K a r p i c h . Tashlab bo'lmaydi-da, shunday yo'lga kirib qolganman.

M i t y a . Qanaqa yo'lga?

L y u b i m K a r p i c h . Birodar, men gapiRAY, sen qulq sol! Sen indamasdan tingla, doimo esingda saqla. Otadan juda yosh qolganman, men senga aytsam, otam o'lganda bo'yim terakday, yigirma yosh-larga kirgan befaHM yigit edim. Aql qayoqda edi deysan, miyam qovoq edi. Akam bilan bisotni taqsimlab oldik: u butun savdo-sotiqni olib qoldi-da, menga pul, bilet va har xil veksellarni tutqizdi. Mol-mulkni qanday taqsimladi, surishtirib o'tirmadim, buni o'zi biladi-yu xudo biladi. Biletlardan pul undiray deb, Moskvaga ravona bo'ldim. Bormay iloj yo'q edi-da! U yoq-bu yoqni ko'rish kerak edi, o'zingni ham ko'rsatasan, past-u balandni bilib olasan, kishi. Innakeyin, o'zim binoyi ko'rksamgina yigit edim, ammo olamning bordi-keldisini bilmas, begona uylarda ham bo'lмаган edim. Hammasini ko'rib, bilish kerak edi! Avvalo, olifta bo'lib kiyindim, bilasan-ku, bizni! Rosa jinnilik qildim! Turgan gap, eng oldin traktirlardan boshladim... Shpilen zi polka, yana bir shisha muzdakrog'idan keltiring... Bir mahal qarasam, yor-u birodarlar, oshna-og'aynilarim juda ko'payib ketibdi! Teatrlarga borib yurdim...

M i t y a . Teatrda tomosha ko'rish juda maroqli bo'lsa kerak, Lyubim Karpich.

L y u b i m K a r p i c h . Men, ko'pincha, tragediyalarni tomosha qilardim: tragediyaga juda ishqiboz edim, ammo hech qaysisini tuzukroq tomosha qilganim ham yo'q, ko'rganlarim esimda ham yo'q, negaki, hamisha mast bo'lib yurardim. (*O'rnidan turadi.*) «Prokop Lyapunov bo'g'zingga pichoq qadab turibdi, ich». (*O'tiradi.*) Shunday qilib boryo'q pulimni sovurdim; qolgan pulimni oshnam Afrikan Korshunovning so'ziga inonib, unga omonat topshirdim; o'zim ham u bilan yurardim, aysh-ishratni ham birga qilardik, barcha buzuqliklarga o'sha boshlardi, muttahamlarning muttahami ham o'sha, meni xonavayron qilgan ham o'sha. Natijada hamma narsamdan ayrildim, ichay desam, pulim yo'q,

ichmay desam, ichkim keladi. Nima qilay? Qayoqqa boshimni uray, dardimni kimga aytay? Egnimdag'i kiyimlarimni, modaga qarab tiktir-gan narsalarimni qog'oz pulga sotib yubordim, qog'oz pulni kumush pulga, kumush pulni sariq chaqaga alishtirdim, bir mahal qarasam – hech narsam qolmabdi!

Mitya. Qanday kun kechirdingiz, Lyubim Karpich?

Lyubim Karpich. Qanday kun kechirding deysanmi? Mening kunim kallakesar tatarning ham boshiga tushmasin, juda keng joyda yashardim, tepam osmon, oyog'im osti yer, to'rt tomonim katta ko'cha. Odamlardan uyalasan, ulardan o'zingni olib qochasan, ammo tashqariga chiqmay ilojing yo'q, chunki qorin och. Ko'chada ketayotganingda hamma senga qaraydi... Ilgarigi qilgan jinniliklarimni, chopqir izvoshlarda yurganlarimni hamma ko'rgan edi-da, endi bo'lsa kiyim-boshim juldur-juldur, soqol-mo'ylovim o'sib ketgan... Odamlar boshini chayqab, yuzini teskari o'girib ketadi. Uyat, sharmandalik! (*Boshini quyi solib o'tiradi*) Bitta yaxshi hunar bor, daromadi ham katta, uni «o'g'irlilik» deyiladi. Ammo, u hunar mening qo'limdan kelmaydi, negaki, bunga vijdonim yo'l qo'ymaydi, uning ustiga, qo'rqaman ham, hech kim u hunarni yaxshi demaydi.

Mitya. Eng razil ish shu-da.

Lyubim Karpich. Odamlar, boshqa mamlakatlarda bunday «hunar» egasiga bir taler<sup>1</sup>dan to'laydi deb aytishadi, bizda esa tuppaturuz odamlar gardaningga mushtlab haydaydi. Yo'q, og'ayni, o'g'irlilik yomon narsa! Bu qolib ketgan narsa, butunlay barham berish kerak bunga... Ammo, qorning o'larday och bo'lgandan keyin, biron ish qilish kerakmi, axir! Ko'cha-ko'ylerda masxarabozlik qilib yurdim, ertaklar aytib, lo'ttibozlik qilib chaqa yig'dim. Erta sahardan to qora kechgacha shaharda junjikib, odamlarga ko'rinxmay deb burchak-burchaklarda berkinib yurardim, bironta savdogar ko'rinxmasmikin deb intizor bo'lardim. Birontasi, ayniqsa boyrog'i kelib qolsa, darrov oldiga chiqardim-da, masxarabozlik qilardim, bittasi bir miri, boshqasi yarim tanga berib ketardi. Topganiningni tamaddi qilasan.

Mitya. Shundan ko'ra, akangiznikiga kela qolmabsiz-da.

Lyubim Karpich. Bo'lmasdi-da, juda ichkililikka berilib ketgandim. Eh, Mitya, bu yo'lga kirako'rma, kirdingmi, qaytib chiqishing

<sup>1</sup>Taler – qadimgi nemis puli, uch markaga teng.

qiyin. Gapimni bo‘lmay tur, keyin gapirasan. Buyog‘ini tingla! Shaharda shamollab qoldim, qahraton qish edi, egnimda mana shu yupqa paltom, qo‘llarimni kuh-kuhlab isitaman, oyoqlarim sovqotgani uchun sakrayman. Mehribon odamlar meni kasalxonaga eltib tashlashdi. Sog‘aya boshladim, endi o‘zimga kela boshlaganimda, mast emasdym-da, birdan cho‘chib ketdim, yuragimni dahshat bosdi... qanday hayot kechirdim? Nima balolar qildim? Yuragim siqila boshladi, shunaqangi siqilib ketdiki, o‘lib ketganim ham yaxshiroqday tuyuldi. Butunlay tuzalib ketay, keyin ibodat qilaman-u, akamning yoniga boraman, juda bo‘lmasa uyiga qorovul qilib olsa ham mayli, deb jazm qilib qo‘ydim. Shunday ham qildim. Kelib oyog‘iga bosh qo‘ydim!.. Otam o‘rniga ota bo‘l, dedim. Hayotim rasvo bo‘lib o‘tdi, endi odam bo‘lmasam bo‘lmaydi dedim. Akam meni qanday kutib olganidan o‘zingning xabaring bor! U o‘z ukasining bunaqaligidan nomus qilarmish. Sen meni qo‘llab-qo‘ltiqla, oyoqqa turg‘iz, siyla-siypa, men ham odam bo‘lib ketay desam, yo‘q, seni boshimga uramanmi, deydi. Menikiga aziz mehmonlar, badavlat savdogarlar kelib-ketib turadi, ularning oldida meni sharmanda qilasan, deydi. Men es-hushli odamman, hislarim nozik, butunlay boshqa ota-onadan tug‘ilishim kerak edi, deydi. Mening maishatimni ko‘rib turibsan-ku! Mening mujik bolasi ekanimni kim biladi? Shu sharmandalikning o‘zi ham menga yetib ortadi, seni bo‘ynimga bo‘yinturuq qilib nima qilaman, deydi. Shu gaplari bilan ko‘nglimni chil-chil qildi! Ha, mayli, xudoga soldim, uning mana bu suyagi (*peshonasini ko‘rsatadi*) qattiq-da. U ahmoqqa ilm-ma’rifat kerakmish. Biz ahmoqlarga davlat zararli, davlatdan buzilib ketamiz. Pulni bilib sarflash kerak... (*Mudraydi.*) Mitya, o‘rningda picha mizz‘ib olay, juda uyqum kelyapti.

Mitya . Mayli, yotaqoling, Lyubim Karpich.

L y u b i m K a r p i c h (*turadi*). Mitya, sen menga pul berma... yo‘q, bergen-u, ammo ko‘p berma, ozgina berib tur. Men picha uxbab olay, keyin chiqib isinib kelaman, tushundingmi!.. Birozgina... ko‘p emas! Shuncha jinnilik qilganim yetar.

Mitya (*yonidan pul chiqarib*). Mana, keragicha oling.

L y u b i m K a r p i c h . Yarim tanga bo‘lsa bo‘ladi. Hammasi kumushk-u, menga kumushi kerakmas. Ikkita bir paqirlik bo‘lsa bo‘lgani. (*Mitya beradi.*) Bo‘pti, juda soz. Juda shafqatli odamsan-da, Mitya! (*Yotadi.*) Akam sening qadringga yetmaydi. Ha mayli, shoshmay tursin,

bir o‘chimni olaman-u. Ahmoqning qo‘liga tushgan davlat – balo bo‘ladi! Davlatni aqli odamning qo‘liga bersang, ishni boplaydi! Moskvada yurib, ko‘p narsani ko‘rdim... Katta tajriba orttirdim! Ahmoqning qo‘liga pul bera ko‘rma, haddidan oshib ketadi... fu, fu, fu, tr-r... akamga o‘xshab mana men hayvonga o‘xshab... (*Uyqu aralash.*) Mitya, men kechasi senikiga kelib yotaman.

M i t y a . Keling, keling. Kontora hozircha bo‘s... bayram kunlari...

L y u b i m K a r p i c h (*ko‘zi uyquga ketib*). Akamni bir rasvo qilaman. (*Uxlab qoladi.*)

M i t y a (*eshik yoniga borib, cho‘ntagidan qog‘oz chiqaradi*). Qani, nima deb yozibdi? Ochishga qo‘rqaman! Qo‘llarim titrayapti!.. Ha mayli, nima bo‘lsa bo‘lar, ochib o‘qiy-chi. (*Xatni o‘qiydi.*) «Men ham seni sevaman. Lyubov Torsova». (*Ikki qo‘li bilan boshini ushlaganicha, yugurib chiqib ketadi.*)



## IKKINCHI PARDA

Torsov uyida mehmonxona. To‘rda divan, divan oldida yumaloq stol bilan oltita kreslo, har ikki tomonida uchtadan; chap burchakda eshik; devorlarda bittadan oyna, oynalar tagida bittadan kichkina stol; ikki tomonda eshik, orqa tomondagι burchakda ham eshik bor. Sahna qorong‘i; chap tomondagι eshikdan yorug‘ tushib turadi.

### BIRINCHI SAHNA

Yorug‘ tushib turgan eshikdan Lyubov Gordeyevna bilan  
Anna Ivanovna kiradilar.

Anna Ivanovna. Nega lochinlarimiz haligacha kelishmaydi?..  
Tushib aytib chiqaymi, a?

Lyubov Gordeyevna. Yo‘q, keragi yo‘q. Ha, mayli, tush-sang tushib chiqaqol. (*Uni quchoqlaydi.*) Bor, aytib chiq, Annushka.

Anna Ivanovna. Yuragingdan urganga o‘xshaydi-ya?

Lyubov Gordeyevna. Oh, Annushka, bilsang, men uni shu qadar sevamanki!..

Anna Ivanovna. Sevsang sevgin-u, ammo es-hushingni yo‘qotma, qizcha. O‘zingga ehtiyot bo‘lib yur, gap-so‘z bo‘lmisin. Avval qanday yigit ekanini yaxshilab tekshir.

Lyubov Gordeyevna. Yigit yomon emas-da... Uni juda yaxshi ko‘rib qolganman, yuvosh, hech kimi yo‘q.

Anna Ivanovna. Yaxshi yigit bo‘lsa sev, o‘zingga yaxshiroq ayon. Men shunchaki aytdim-qo‘ydim. Yigitlar qancha-qancha qizlarni qon-qon yig‘latib ketganini ko‘rganim uchun aytaman. Es-hushdan ay-rilib, biron gunoh qilib qo‘yish ham hech gap emas.

Lyubov Gordeyevna. Biz xotin-qizlarning sevganimiz qayerga ham borardi? Dala ko‘katiday gap, gullamasdan xazon bo‘ladi.

Anna Ivanovna. Shoshma, birov kelayotganga o‘xshaydimi. U emasmikin? Sen turatur, men chiqib qarab kelay, balki kutganingdir... Ochilib gaplappinglar. (*Chiqib ketadi.*)

Mitya kiradi.

## IKKINCHI SAHNA

Lyubov Gordeyevna bilan Mitya.

Lyubov Gordeyevna. Kim u?

Mitya. Men, Mityaman.

Lyubov Gordeyevna. Namuncha hayallading?

Mitya. Odamlar gapga tutib qolishdi. (*Yaqin keladi.*) Lyubov Gordeyevna, yolg‘iz o‘zingizmisiz?

Lyubov Gordeyevna. Ha, yolg‘izman. Nima qildi?

Mitya. Lyubov Gordeyevna, yozgan xatingizni qanday tushunish kerak, chinmi yo hazillashyapsizmi?

Lyubov Gordeyevna indamaydi.

Gapiring, Lyubov Gordeyevna! Men hozir shu qadar shubhaga tushib qoldimki, tushuntirib berishga ojizman. Uyingizdagi ahvolim o‘zingizga ma’lum, hamma menga xo‘jayin. Gordey Karpich bo‘lsa meni nazar-pisand qilmaydi; yakka-yu yagona orzum – siz edingiz: agar siz ham meni mazax qiladigan bo‘lsangiz, bu dunyoda yashaganidan yashamaganim yaxshiroq. Ishoning, yuragimdan chiqarib gapirayapman.

Lyubov Gordeyevna. Yo‘q, Mitenka, men senga hazil emas, bor gapni yozdim. Sen meni sevasanmi?

Mitya. Albatta, Lyubov Gordeyevna, men ko‘nglimdagi bor gapni ochib aytishga ojizman, ammo shuni aytib qo‘yayki, siynamdagi tosh emas, yurak. Sevgimga hamma narsa ham guvohlik beradi.

Lyubov Gordeyevna. Sen Anna Ivanovnani yaxshi ko‘rasan deb yuruvdim.

Mitya. Bo‘lmagan gap.

Lyubov Gordeyevna. Rost, menga shunday deb aytishgandi.

Mitya. Agar shu gap rost bo‘lsa, men nima degan odam bo‘laman! Qalbimda bo‘lmagan gaplarni qanday izhor etolaman? Menimcha, bu beorlik, benomuslik bo‘lardi. Sizni aldash uyoqda tursin, hatto menga shuncha iltifot qilishingizga ham arzimayman.

**L y u b o v G o r d e y e v n a .** Sizlarga ishonib bo‘lmaydi, chunki olamdag'i hamma erkaklar aldamchi bo‘ladi.

**M i t y a .** Hammasi aldamchi bo‘lsa bordir-u, ammo men aldamchi emasman.

**L y u b o v G o r d e y e v n a .** Kim biladi deysan! Balki sen ham meni aldab, mazax qilmoqchidirsan.

**M i t y a .** Sizdan bu gaplarni eshitgandan ko‘ra, shu o‘tirgan yerimda o‘lib qo‘yaqolganim yaxshiroq! (*Yuzini o‘giradi.*)

**L y u b o v G o r d e y e v n a .** Yo‘q, Mitya, men hazillashdim. Meni sevishingni bilaman, shunchaki, bir hazillashgim keldi-da.

**M i t y a** indamaydi.

Mitenka, Mitya... Nega indamaysan? Mendan xafa bo‘ldingmi? Hazillashdim dedim-u, Mitya! Kel endi, bir nima de. (*Mityaning qo‘lidan ushlaydi.*)

**M i t y a .** Eh, Lyubov Gordeyevna, yuragimga hazil sig‘adimi shu topda! Men unaqa odam emasman.

**L y u b o v G o r d e y e v n a .** Kel, qo‘y, xafa bo‘lma.

**M i t y a .** Agar meni yaxshi ko‘rsang, bunday hazilingni tashla! O‘rinsiz hazil. Eh, nima bo‘lsa bo‘lar! (*Quchoqlaydi.*) Seni mendan zo‘rlik bilan tortib olsa oladiki, ammo o‘z ixtiyorim bilan bermayman. Sening yo‘lingda jonimni qurban qilaman, Lyuba!

**L y u b o v G o r d e y e v n a** (*uning pinjiga kirib*). Mitenka, endi nima qilamiz, a?

**M i t y a .** Nima qillardik? Bir-birimizdan judo bo‘lish uchun sevishganimiz yo‘q-ku, axir!

**L y u b o v G o r d e y e v n a .** Meni boshqa odamga unashtirib qo‘yishsa-chi?

**M i t y a .** Bilasanmi, Lyuba, gap bitta – ertaga to‘ppa-to‘g‘ri Gordey Karpichning oldiga kiramiz-da, oyog‘iga yiqlamiz. Gap shunday-shunday, butun ixtiyor sizda, ammo bir-birimizsiz turolmaymiz, deymiz. Modomiki, birovni sevdingmi, mag‘rurlikni tashlashing kerak!

**L y u b o v G o r d e y e v n a .** G‘urur qayoqda deysan, Mitenka! G‘urur qoptimi shu topda! Mitenka, mendan xafa bo‘lma, Mitenka, boy aytgan gaplarimga parvo qilma, qizlar shunaqa bo‘lishadi, ayb menda! Sen bilan hazillashish emas, balki sen bechorani bag‘rimiga bosib erkalashim kerak edi. (*Mityaning ko‘ksiga bosh qo‘yadi.*)

Basharti, dadam bizning baxtimizga to'sqinlik qilsa, unda nima qilamiz?

Mitya. Oldindan birnima deb bo'lmaydi, xudoning buyurgani bo'ladi. Seni-ku, bilmadim, ammo men sensiz yashayolmayman.

Jimlik.

Lyubov Gordeyevna. Birov kelayapti!.. Bor endi, jonim, sekin chiqib ket, men keyinroq chiqaman.

Mitya sekin chiqib ketadi; Arina sham ko'tarib kiradi;  
Lyubov Gordeyevna uning oldiga boradi.

## UCHINCHI SAHNA

Arina, Lyubov Gordeyevna, so'ngra Yegorushka kiradi.

Arina. Voy, seni qara-yu! Odamni cho'chitib yubording-a. Bu yerda nima qilib o'tiribsan? Oying seni u yoqda qidirib yursa-yu, sen bu yerda o'tirsang. Qorong'ida yurish nimasi! Voy mening odobli, ta'bi nozik malikam.

Lyubov Gordeyevna chiqib ketadi.

Rostdan ham biron kishi bilan o'tirgan bo'lmasin tag'in. (*Burchaklarni ko'zdan kechiradi.*) Voy, jinni bo'lmay o'lay, u to'g'rida shunday gaplarni o'yabman-a! (*Shamlarni yoqadi.*) Qariganimda shunday deb o'ylash gunoh emasmi.

Yegorushka kiradi.

Bor, Yegorushka, qo'shni qizlarni aytib chiq. Pelageya Yegorovna ziyoftga chaqiryaptilar degin.

Yegorushka. Voy! Shunaqa degin hali, Arinushka, onaxonim! (*O'yinka tushadi.*)

Arina. Sen nega sevinasan, tentak!

Yegorushka. Shunday o'yin-kulgi bo'ladi-yu, sevinmaymi! Ay-ay-ay!.. (*Sakraydi.*)

Arina. Qiziqchilar kelib qolishsa ham ajab emas, yoshlar qiziqlik qilaylik deyishgan edi.

Yegorushka. Voy, hozir o'laman! Hozir o'lib qolaman!

Arina. Senga bir balo bo'ldimi, tirmizak?

Yegorushka. Kulaverib ichagim uzilib o'laman, sal narsaga kulaveraman-da, axir, buvi!

**A r i n a.** O'zing ham yasan.

**Y e g o r u s h k a.** Yasanaman, yasanaman! Voy, o'ldim, voy o'l-dim!

**A r i n a.** Tezroq chiqib qizlarni aytib kelsangchi.

**Y e g o r u s h k a.** Ketdim! (*Chiqib ketadi.*)

Pelageya Yegorovna kiradi.

## TO'R TINCHI SAHNA

**A r i n a** bilan Pelageya Yegorovna.

**Pelageya Yegorovna.** Arinushka, qizlarga odam yubor-dingmi?

**A r i n a.** Yubordim, onaxonim, yubordim.

**Pelageya Yegorovna.** Ha, durust. Qizlarimiz bilan birga ashula aytishsin, Lyubushka bilan mehmonlarni xursand qilib o'tirish-sin. Yoshligida o'ynab-kulib qolsin-da, qizalog'im... ha, qiz bolaning taqdiri shu-da, hech qayerga chiqolmasa, olamda nima borligidan bexabar bo'lsa... Mana endi ularning bayrami... mayli, o'ynashsin, ku-lishsin!

**A r i n a.** Ha-a, onaxonim, nimasini aytasan! Mayli, o'ynab-ku-lishsin!

**Pelageya Yegorovna.** Madera olib kel, Arinushka, madera olib kel... Uni kattalar oldiga qo'yasan; yoshlarga pryanik, konfet, o'zing bilganlaringdan qo'yasan... Ha, o'zing bilasan, ha, o'zing bilib qil. Maderkani unutma, Arinushka.

**A r i n a.** Bilaman, onaxonim, bilaman. Hammasi joyida bo'ladi. Hozir, onaxonim, hozir.

**Pelageya Yegorovna.** Yigitlar oldiga zakuska ham qo'y.

**A r i n a.** Hammasi bo'ladi, onaxonim, hammasi bo'ladi. Xotiring jam bo'lsin, mehmonlar qoshiga chiqqa qol, o'zim hamma ishni jon-u dilim bilan qilaman. (*Chiqib ketadi.*)

**Pelageya Yegorovna** (*eshik yoniga borib*). Hay, qizlar, yi-gitlar, buyoqqa kelaqolinglar, bu yer ham keng hamda yorug'roq.

Lyubov Gordeyevna, Masha, Liza, Anna Ivanovna,  
Razlyulyayev, Mitya, Guslin hamda 1- va 2- mehmon ayollar  
kiradilar.

## BESHINCHI SAHNA

Pelageya Yegorovna, Lyubov Gordeyevna, Masha, Liza,  
Anna Ivanovna, Razlyulyayev, Mitya, Guslin va l-hamda  
2- kampir mehmonlar.

Pelageya Yegorovna (*kampirlarga qarab*). Biz manavi yerda o‘tiramiz. (*Divanga o‘tiradi, kampirlar uning yoniga kelib o‘tirishadi*.)

Anna Ivanovna bilan Guslin stulga o‘tirib, sekin-sekin gapirishib o‘tiradilar; Mitya ularning oldiga kelib turadi; Masha, Lyubov Gordeyevna va Lizalar zalda qo‘ltiqlashib yuradilar, ularning ketidan Razlyulyayev yuradi.

Ular o‘ynashsin, kulishsin, tomosha qilib o‘tiramiz.

Liza. Men oyimlarga, hatto gapirishni ham bilmaydi, shunaqa gaplarni aytadiki, odam uyalib ketadi, dedim.

Razlyulyayev. Tosh biz tomonga otildi deyman-a?

Liza. Siz to‘g‘ringizda emas, sizga aloqasi yo‘q. (*Gapida davom etadi*.) Uning nimasini yaxshi ko‘ray, oyijon, dedim... (*Shivirlab gapiradi*.)

Pelageya Yegorovna. Men, onaxonim, eski urf-odatlarni yaxshi ko‘raman... o‘zimizning ruscha odatlarni. Ammo, erim buni yoqtirmaydi; nima qilay, tabiatiga to‘g‘ri kelmagandan keyin. Men o‘zim yaxshi ko‘raman, men o‘yin-kulgini sevaman... ha... mehmon kutishni, ashula aytirishni ham... ha, ota-onam ham shunaqa edi, butun avlod-ajdodimiz ashulaga ishqiboz odamlar edi.

1-mehmon. Qarab turib, bular bizning yoshligimizdagи singari o‘yin-kulgi qilisholmaydi deyman, Pelageya Yegorovna.

2-mehmon. Yo‘q, qilisholmaydi, qilisholmaydi.

Pelageya Yegorovna. Yoshligimda eng birinchi ashulachi ham, o‘yinchı ham men edim, mendan o‘tadigani yo‘q edi... Qanchadan qancha qo‘shiqlarni bilardim! Endi unaqa qo‘shiqlarni aytishmaydi.

1-mehmon. Yo‘q, aytishmaydi, hammasi yangicha bo‘lib ketdi.

2-mehmon. Rost, aylanay, rost, yoshligingiz esingizga tushib ketarkan.

Pelageya Yegorovna. Yashenka, eski qo‘shiqlardan biron-tasini ayтиб bersang-chi.

Guslin gitara oladi.

Razlyulyayev (*qizlarga qarab*). Bundan chiqdi, bizning umidlar behuda ekan-da, a; sizlardan hech gap chiqmaydiganga o'xshaydi.

Liza. Voy o'lay, qanaqa gap chiqsin.

Masha. Gapingizga odamning kulgisi qistaydi.

Razlyulyayev. Siz uchun kulgili, ammo men nima qilay?  
Nega meni yaxshi ko'rmaysizlar?

Lyubov Gordeyeva. O'tiraylik.

O'tiradilar.

Guslin (*ashula ayta boshlaydi*).

*Tezogar soy orqasida  
To 'rt xonodon bor.  
Ana shu xonadonlarda  
To 'rt do'stim yashar.  
Sevikli dunganalarim,  
O'rtoqjonlarim.  
Do 'stashingiz, sevishingiz,  
Sevingiz meni.  
Chamanzorlarga borsangiz –  
Olingiz meni;  
Rang-barang gullar tersangiz –  
Tering menga ham;  
Chambar yasasangiz, yasab –  
Bering menga ham;  
Borsangiz soy sohiliga –  
Meni oboring.  
Gulchambarlarimiz soyga  
Tashlab yuboring.  
Barcha chambarlar oqmoqda,  
Cho 'kdi chambarim,  
Hammaning yori qaytmoqda,  
Qaytmas dilbarim.*

Arina (*qo'lida shishalar va stakanlar bilan kiradi, ketidan bir qiz yegulik olib kiradi*). Mana, onaxonim, olib keldim.

Pelageya Yegorovna (*qizga qarab*). Qizlarga tutmaysanmi.

Qiz hamma qizlarga tutadi-da, patnisni stolga qo'yib, chiqib ketadi.

Arina, vinoni buyoqqa olib kel. Quy maderadan, quy... maderadan... O'yin qizisin. Nima qipti, ichamiz, ichaveramiz. Aybi yo'q, biz kam-pirlarmiz, shunaqa, ha... (*Ichadilar*.) Annushka, kel, vino ich. Ichasanmi?

**A n n a I v a n o v n a .** Ichaman, nega ichmay? Yolg‘iz ichma, odam borida to‘yib ich, degan ekanlar. (*Pelageya Yegorovnaning oldiga kelib ichadi, sekin-sekin gapirishadi.*)

**A r i n a .** Hoy o‘g‘lonlar, ha, sizlar nega bo‘sashib turibsizlar?

**M i t y a .** Men ichmayman.

**R a z l y u l y a y e v .** Ichsak ichaveramiz! (*Guslin bilan birga kelib ichadi, keyin Arinani quchoqlab.*) Qani, keling, bir qadimgi ashuladan olaylik! (*Ashula aytadi.*)

*Eh, xotirlayin yoshlik davrimni  
Goho u yorimni, goh bu yorimni...*

**A r i n a .** Nari tur, sho‘x bo‘lmay qolgur, suyaklarimni sindirib yubording.

**R a z l y u l y a y e v** (*ashula aytadi.*)

*Bo‘yinchasi Tarusada,  
Jilovi Kalugada,  
Tagi temirli chana,  
O‘zi chopar ekan-a.*

**Q i z l a r** kulishadi.

**A r i n a .** Nari tur deyman!.. Tinch qo‘y meni! (*Chiqib ketadi.*)

**A n n a I v a n o v n a .** Kampirni sudragandan ko‘ra men bilan tush.

**R a z l y u l y a y e v .** Qani kel! Chal, Yasha!

**Y a s h a** chaladi, ular o‘yinga tushadilar.

**I-m e h m o n .** Juda xushchaqchaq juvon ekan.

**P e l a g e y a Y e g o r o v n a .** Ha, xushchaqchaq juvon.

**R a z l y u l y a y e v** (*yer depsib*). Mana bunaqa tushadilar o‘yinga! (*To ‘xtaydi.*)

**Y e g o r u s h k a** (*kiradi*). Qizlar kelishdi.

**P e l a g e y a Y e g o r o v n a .** Chaqir, chaqir, kirishsin.

**Y e g o r u s h k a** chiqib ketadi; qizlar kiradi; **A r i n a** lagan keltirib ustini berkitib qo‘yadi.

O‘tiringlar, o‘tiraqolinglar, qani, baxt sinaydigan qo‘shiqdan olinglar, men shunaqasini yaxshi ko‘raman.

**L y u b o v G o r d e y e v n a , M a s h a , L i z a v a**  
**A n n a I v a n o v n a l a r** qo‘llaridagi uzuklarini olib laganga qo‘yadilar, qizlar ashula boshlaydilar.

*Unni elagin, elak,  
Somsa yopinglar tezroq,  
Barakalla!  
Uyingga kelar mehmon,  
Menga kelar qayliqjon.  
Barakalla!  
Choriqli kelar senga,  
Etikli kelar menga.  
Barakalla!  
Kimga qo'shiq aystsalar –  
Shu kishi baxtli bo'lar.  
Barakalla!  
Kimgaki uzuk chiqsa –  
Maqsadga yetar o'sha.  
Barakalla!*

Razlyulya yev yenglarini shimarib, lagandan bir uzukni olib  
Lyubov Gordeyevnaga beradi.

Pelageya Yegorovna. Qani, bo'linglar, bo'la qolinglar.  
Qizlar (*ashula boshlaydilar*).

*Qo'ndi chumchuqcha  
Oppoq shaharga.  
Barakalla!  
Oppoq shaharga,  
Baland devorga.  
Barakalla!  
U qarar hamon  
Begona tomon.  
Barakalla!  
Kimgaki uzuk chiqsa –  
Maqsadga yetar o'sha.  
Barakalla!*

Arina (*kiradi*). Qiziqchilar kelishdi, kirishsinmi?  
Pelageya Yegorovna. Ha, kirishsin, o'ynab berishsin. Qizlar, ashulani keyin aytarsizlar.

## OLTINCHI SAHNA

O'shalar hamda qiziqchilar: balayka bilan gitara ko'targan chol, ayiq bilan echki yetaklagan onaboshi, qiyom ko'targan Yegorushka.

**Chol (ta'zim qiladi).** Ulfatlarga salomlar bo'lsin.  
Onaboshi. Ta'zim qil, ayiqpolvon.

Ayiq ta'zim qiladi.

**Chol.** Buyuring, nima qilaylik, ashula aytaylikmi, o'yinga tushaylikmi, kuldiraylikmi – hammasidan bormiz.

**Pelageya Yegorovna.** Mayli, o'yinga tushib beringlar. Vino ber bularga, Arina.

Arina vino tutadi; ba'zilari ichadi.

**Chol.** Saxovatingiz va mehribonligingiz uchun rahmat. (*Ashula ayta boshlaydi.*)

*Bizning yigitlarimiz  
Faqir-u, ammo jasur!  
Qo'li-qo'lga tegmay tez  
Movutni chaqqon to'qir.  
Movutni mo'l to'qishdi –  
Talay kaftan tikishdi.  
Bizga kaftan kerakmas,  
Hamyonda pul bo'lsa bas.  
Hamyondagi so'm-tilla  
Sira uxlatmas tunda,  
Jaranglab chaqa pullar –  
Qovoqxonaga undar.  
Mayxonachi Andrey,  
Mayxonangni tez och-e:  
Yangi kaftan bor saqat,  
Qo'yajakmiz omonat,  
Olib ketmaymiz hechvaqt.*

*(Chol chetga chiqib turadi.)  
Yegorushka (qiyom bilan o'yinga tushadi.)*

*Oh, qiyom, qiyom,  
Lazzatli taom!  
Qish, qishjon, qishjon,  
Sovuq qahraton!  
Dahshatli bo'ron  
Shafqatsiz bo'ron –  
Supur yo'llarni,  
Yo'l och yor sari.*

*Oh, qiyom, qiyom,  
Lazzatli taom!*

*Bizning xotincha  
O'tirar yakka;  
Bedanadaka!  
Sevishim shundan  
Va hurmatim ham:  
Mag'rur yuradi,  
Kayfin suradi.*

*Ta'zim qiladi.*

1-m e h m o n . Voy, juda balo ekansan-u, a!  
P e l a g e y a Y e g o r o v n a . Yosh bola, bilganicha o'ynaydi-da,  
ovsin. Hali u juda yosh. Beri kel, Yegorushka.

*Y e g o r u s h k a keladi.*

Ma, pryanik... (*Beradi.*)

*Y e g o r u s h k a ta'zim qilib, ketadi.*

Ha, yosh bola, shunchalik o'ynaydi-da!

Onaboshi ayiqni yetaklab yuradi, echki o'yinga tushadi.

C h o l (*ashula aytadi*).

*Bizning takamiz  
Aqlii, yuvosh,  
Pishirardi osh.  
Keltirardi suv –  
Chol-u kampirni  
Boqar edi u.  
Bir kun o'rmonga –  
Kirganida u  
Yetti bo'riga  
Keldi ro'baro'.  
Ulardan biri  
Juda och edi.  
Uch yildan beri  
Uloq topolmay,  
Noiloj edi.*

O n a b o s h i (*ayiqqa qarab*). Vino so'ra, echki xotirasiga icha-man de.

*A y i q ta'zim qiladi.*

P e l a g e y a Y e g o r o v n a . Arinushka, qiziqchilarni vino bilan siylamaysanmi!

A r i n a vino tutadi; ular ichib ta'zim qiladilar.

On a b o s h i . Qani, ayiq polvon, mana bu xonimlarni bir kuldir.  
Go'zal qizlar, oyimcha qizlar yuzlariga upa-elikni qanday surtadilar,  
yigitlarga qanday qaraydilar, qayliqni qanday tanlaydilar!

A y i q har xil qiliqlar qiladi.

Qani, munkillab qolgan kampir qanday egilib-bukilib ishga  
boradi.

A y i q har xil qiliqlar qiladi.

Qani endi xonimlarga bir ta'zim qil. (*Chetga chiqib turadi.*)

C h o l gitara chaladi, boshqa qiziqchilar o'yinga tushadilar;  
hamma ularni tomosha qilib o'tiradi; G u s l i n bilan M i t y a L y u b o v  
G o r d e y e v n a n i g y o n i g a kelib turadi; M i t y a L y u b o v G o r d e y e v n a n i g y o n i g a  
qulog'iga bir nimalar deb shivirlab, o'padi, ularning yoniga R a z l y u l y a y e v  
keladi.

R a z l y u l y a y e v . Hoy, nima qilyapsan?

M i t y a . Nima ishing bor?

R a z l y u l y a y e v . Shoshmay tur, Pelageya Yegorovnaga aytib  
beray!

M i t y a . G'ing deb ko'r-chi.

G u s l i n (*unga hamla qiladi*). Og'zingga qarab gapir! Shu yerdan  
birga chiqib ketamizmi, axir? Bilib qo'y. Tashqari qorong'i, ko'cha  
pastqam!

R a z l y u l y a y e v . Nega yopishasanlar menga? Men unga uylan-  
moqchiman, biz sovchi yubormoqchimiz. Endi nima deysan? Ha, uy-  
lanaman!

M i t y a . Ko'ramiz.

R a z l y u l y a y e v . Qizini senga berarmishmi? Chuchvarani xom  
sanabsan!.. Bizda nima ko'p, pul ko'p!

A r i n a . Hay, nima shovqin!.. Bas qilinglar!.. Eshikni birov  
qoqqanday bo'ldimi?..

Hamma qulq soladi.

Ha, a, eshik taqilladi.

P e l a g e y a Y e g o r o v n a . Bor, chiqib och.

A r i n a (*chiqib ketadi, keyin yana qaytadi*). Xo'jayin kelib qoldi!

Hamma o'midan turadi.

## YETTINCHI SAHNA

O'shalar hamda Gordey Karpich bilan Korshunov.

Gordey Karpich (*qiziqchilarga qarab*). Bu ablahlar kim?.. Yo'qol hammang! (*Xotiniga qarab*.) Xotin! Pelageya Yegorovna! Mehmonni kut. (*Sekin*.) Sharmanda qilding-ku!

Pelageya Yegorovna. Marhamat, Afrikan Savich, xush kelibsiz.

Korshunov. Salom, Pelageya Yegorovna... Xe-xe-xe!.. Iye, uyingizda o'yin-kulgi-ku! Ayni vaqtida kelibmiz-da.

Pelageya Yegorovna. Qizlar bilan... o'yin-kulgi qilib o'tirgandik. Hamisha qizlar bilanman... Bayramchilik... Qizimning ko'ngli ochilsin deb...

Gordey Karpich. Marhamat, Afrikan Savich, o'z uyingizday ko'raverasiz.

Afrikan Savich stol yonidagi kresloga o'tiradi.

(*Xotiniga qarab*.) Hayda qizlarni!

Korshunov. Nimaga haydaydi! Qizlarni ham haydaydimi, odam... Xe-xe-xe!.. Ashula aytishsin, biz eshitib, husni-jamollarini tomosha qilib o'tiramiz, pul ham beramiz, haydash nimasi!

Gordey Karpich. Ixtiyor, ixtiyor, Afrikan Savich! Sening oldingda uyalib qolmay deyman-da! Buni ko'rib, bular nodon ekan deb o'ylamagin tag'in, xotinning qilgan ishi-da. Hech gap uqtirolmadim, uqtirolmadim-da, unga. (*Xotiniga qarab*.) Necha marta senga aytdimki, agar bazm qurmoqchi bo'lsang – muzikachilarни cha-qir, kam-ko'sti bo'lmasin deb. Hamma aytganingni qilaman-ku, axir.

Pelageya Yegorovna. Biz kampirlarga... muzikachilarni kim qo'yibdi. Unaqlarni sizlarga chiqargan.

Gordey Karpich. Mana, ko'rdingmi, bular sira turmushning bordi-keldisini bilmaydi. Bu gaplarni eshitib, kulging qistab o'tirgandirsan.

Pelageya Yegorovna. Hadeb bilmaydi, bilmaydi, deysan. Undan ko'ra, mehmonni kutsang-chi. Qani, Afrikan Savich, biz kampirlar bilan birga vino iching, keling. (*Madera quyadi*.)

Gordey Karpich (*zarda bilan*). Hoy, xotin! Jinni-pinni bo'ldingmi? Afrikan Savich sening maderangni ko'rmabdimi? Ayt,

yarim dyujina shampanskiy keltirsin... tezroq bo'l. Yangi mebellar bilan jihozlangan mehmonxonaga sham yoqishsin, ayt. Ana buning yo'rig'i boshqa.

P e l a g e y a Y e g o r o v n a . Hozir hammasini o'zim boplayman. (*Turadi.*) Arinushka, qani yur. Aybga buyurmaysizlar, hamsoyalar.

1-m e h m o n . Hoy oysin, biz ham sen bilan birga chiqib ketamiz. Uy-uyimizga tarqalishsak ham bo'lar endi.

2-m e h m o n . Ha, vaqt bo'ldi! Kecha qorong'i, ko'chalarda yomon itlar bor.

1-m e h m o n . Rost aytasiz, yomon itlar bor!..

Ta'zim qilib chiqib ketadilar.

### SAKKIZINCHI SAHNA

Gordey Karpich, Korshunov, Lyubov Gordeyevna,  
Anna Ivanovna, Masha, Liza, qizlar, Mitya,  
Guslin va Razlyulyayev.

Korshunov. Qani, kel, qizlar yoniga o'tiramiz. Bunday hуriliqolarni qayerdan topding?.. Xe! (*Lyubov Gordeyevnaning yoniga keladi.*) Salomatmisiz, go'zalim Lyubov Gordeyevna?

Lyubov Gordeyevna unga ta'zim qiladi.

To'plaringizga meni ham qo'shinglar.

Lyubov Gordeyevna. Biz hech kimning ko'kragidan itarmaymiz.

Anna Ivanovna. O'tiring, mehmonimiz bo'ling.

Korshunov. Men keksani muncha sovuq kutmasalaring. Hozir bayram, o'pishsak ham ayb bo'lmas deyman.

Anna Ivanovna. Bu takalluflarning nima hojati bor!

Korshunov. Gordey Karpich, qizing bilan o'pishsam maylimi? Rostini aytasam... xe-xe... Shunaqa narsalarga juda ishqibozman-da. Yomon ko'radigan odam ham bormikin! Xe-xe!..

Gordey Karpich. Takalluf qilib o'tirma, marhamat.

Korshunov. Qani, bir o'pishaylik, oyimqiz.

Lyubov Gordeyevna. Agar dadam shuni istasalar... (*O'pishadilar.*)

Korshunov. Hammalaring bilan navbatma-navbat o'pishib qo'yaqolay.

Anna Ivanovna. Men bilan bermalol o'pishishingiz mumkin!  
Takabbur emasman.

Masha. Voy o'lay, uyat-a... uyat!

Liza. Shu o'pishishda nima lazzat bor.

Gordey Karpich (*Mityaning oldiga kelib*). Sen bu yerda nima qilib o'tirbsan? Shu yer sen o'tiradigan joymi? Notavon ko'ngilga qo'tir jomashov!

Mitya, Guslin va Razlyulyayevlar chiqib ketadilar.

### TO 'QQIZINCHI SAHNA

Gordey Karpich, Korshunov, Lyubov Gordeyevna,  
Anna Ivanovna, Liza, Masha va qizlar.

Korshunov (*Lyubov Gordeyevnaning yoniga o'tiradi*). Sizdan ko'ra men saxiyroq ekanman, Lyubov Gordeyevna, meni o'pishni ham istamadingiz, men bo'lsam sizga sovg'a olib keldim, xe-xe-xe.

Lyubov Gordeyevna. Bekorga ovora bo'libsiz.

Korshunov. Brilliant olib keldim, xe-xe... (*Beradi*.)

Lyubov Gordeyevna. Isirg'a-ku! G'oyat minnatdorman.

Anna Ivanovna. Qani, ko'rsat-chi.

Masha. Juda chiroyli ekan!

Liza. Juda did bilan ishlangan ekan!

Korshunov. Qo'lchangizni bering. (*Lyubov Gordeyevnaning qo'lini ushlab o'padi*.) Men sizni juda yaxshi ko'raman, xe-xe-xe. Shu qadar yaxshi ko'ramanki, asti qo'yaverasiz, siz-chi, siz meni yaxshi ko'rmasangiz kerak, a?

Lyubov Gordeyevna. Nega yaxshi ko'rmay?

Korshunov. Nimaga bo'lardi! Boshqa kishini yaxshi ko'rarsiz, ana shuning uchun-da. Siz meni yaxshi ko'ring, men yaxshi odamman, xushchaqchaq odamman, xe-xe-xe...

Lyubov Gordeyevna. Gapingizga tushunolmay qoldim.

Korshunov. Meni yaxshi ko'ring deyman. Nima qipti, hali qariganimcha yo'q... (*Unga qaraydi*.) Yo qarimanmi? Xe-xe-xe... Qari bo'lsam nima qipti, zarari yo'q. Boshingizdan oltin sochaman. Pulim yo'q, bir faqiri bechora odamman... Atigi besh yuz mingcha pulim bor, xolos... xe-xe-xe. Kumush pul!.. (*Uning qo'lidan ushlaydi*.)

Lyubov Gordeyevna (*o'rnidan turib*). Pulingizning menga keragi yo'q.

Gordey Karpich. Lyubov, qayoqqa ketyapsan?  
Lyubov Gordeyevna. Oyimlarning yoniga!  
Gordey Karpich. O'tir, hozir o'zi keladi.

Lyubov Gordeyevna o'tiradi.

Korshunov. Chol bilan pitcha o'tiray ham demaysiz. Qani,  
qo'lingizni bering, oyimqiz, bir o'pay.

Lyubov Gordeyevna (*qo'lini beradi*). Voy, xudo-ey!

Korshunov. Qanday ajoyib qo'llar-a! Xe-xe-xe... xuddi bax-  
malning o'zi-ya! (*Uning qo'lini silaydi, keyin brilliant uzuk taqib  
qo'yadi*.)

Lyubov Gordeyevna (*qo'lini tortib olib*). Voy, bu nimasi,  
kerak emas, kerak emas.

Korshunov. Mayli, menga bu narsalar cho't emas, dav-  
latimning bir chekasi o'pirilib ketmaydi.

Lyubov Gordeyevna. Kerakmas, axir. Kimga bersangiz,  
beravering! (*Uzukni qo'lidan olib qaytarib beradi*.)

Korshunov. Bergan narsani qaytarib olish yo'q... Xe-xe-xe!

Pelageya Yegorovna, uning ketidan Arina va vino bilan  
stakan ko'tarib Yegorushka kiradi.

## O'NINCHI SAHNA

O'shalar va Pelageya Yegorovna, Arina hamda Yegorushka.

Gordey Karpich. Qani, ichaylik.

Korshunov. Xo'sh, qani, Gordey Karpich, mehmon qil, hoy  
qizlar, mening sha'nimga ashula aytinqlar. Men izzat-ikromni yaxshi  
ko'radigan odamman.

Pelageya Yegorovna. Aytaqolinglar, qizlar.

Gordey Karpich (*shishani ochib, stakanga quyadi va meh-  
monlarga tutadi*). Xotin, aziz mehmonimiz Afrikan Savichga vino ber!

Pelageya Yegorovna. Marhamat, Afrikan Savich, o'tinib  
so'raymiz.

*(Korshunov stakan ni oladi).*

Gordey Karpich (*stakan olib*). Xotin, sen ham ich.

Pelageya Yegorovna. Bu vinoni yomon ko'raman... Ha  
mayli, bir stakan ichsam-ichay.

## *Qizlar (ashula boshlaydilar).*

*Oramizda kim bo'ydoq  
Va kimning xotini yo'q?  
Bo'ydog'imiz Afrikan  
Savichning xotini yo'q.  
U otiga minadi,  
Ostida ot o'ynoqlar,  
Yaqinlashar o'tloqqa,  
O'tlar yam-yashil bo'lib  
Aylanadi gulboqqa.*

Korshunov (*Lyubov Gordeyevnaning yoniga o'tirib*). Mana bunisi joyida bo'lди, mana bu menga yoqadi. Qani, biring yaqinroq kel-chi. (*Bir qiz uning yoniga keladi, Korshunov uning yuzidan chinchilab qo'yadi*.) Juda ko'zi o'tkir qiz ekansan-ku! Sendaqa qizlarga oppoq upa, qip-qizil eliklar olish uchun talay pul sarf bo'lar deyman, a, xe-xe-xe... pulim yo'q, kamiga qarzdorman... xe-xe-xe... Etagingni tut. (*Qizning etagiga birtalay mayda pul tashlaydi, qiz ta'zim qilib, o'rtoqlarining yoniga borib turadi*). Xo'sh, qani, Gordey Karpich, nima ish bilan kelganimizni xotiningga ayt.

Gordey Karpich. Xotin, men senga bu shaharda turish juda jonomiga tegdi, har qadamda nodonlik, jaholat deb ilgari ham aytardim. Shuning uchun Moskvaga ko'chsak deyman. U yerda o'z odamimiz bo'ladi, mana, kuyovimiz Afrikan Savich.

Pelageya Yegorovna. Voy, voy, bu nima deganing?

Korshunov. Biz hamma ishni bitishib qo'ydik, Pelageya Yegorovna... Nega muncha qo'rmasangiz, qizingizni yeb qo'ymasman.

Pelageya Yegorovna. Voy, xudo-ey! (*Qizini quchoqlaydi*.) Bu mening qizim! Bermayman!

Gordey Karpich. Xotin!

Pelageya Yegorovna. Otasi, Gordey Karpich, ko'nglimni ranjitma!.. Bas qil!.. Yurak-bag'rimni tilka-pora qilding.

Gordey Karpich. Xotin, mening fe'limni bilasan-a!.. Xotiring jam bo'lsin Afrikan Savich, men aytganimni qiladigan odamman.

Korshunov. So'z berdingmi, lafzingda tur-da. (*O'rnidan turadi-da, qizlar yoniga kelib, sekin gapirishib turadi*.)

**L y u b o v G o r d e y e v n a** (*otasining yoniga borib*). Dadajon! Ixtiyorim sening qo'lingda, chizgan chizig'ingdan chiqmayman. Ammo men bechoraga rahming kelsin, yosh umrimni xazon qilma!

**G o r d e y K a r p i c h**. O'z baxtingni o'zing bilmaysan, ahmoq. Moskvada yashaysan, yeganing oldingda, yemaganing ketingda bo'ladi, karetalarda yurasan. Mana bu pastqam joyda emas, gavjum shaharda turasan – bunisi bir. Ikkinchisi, mening izmim shu.

**L y u b o v G o r d e y e v n a**. Izmingdan chiqolmayman, dadajon! (*Otasi oldida tiz cho'kib*.) Meni bir umrga bebaxt qilib qo'yma!.. Bu niyatingdan qayt, dadajon!.. Nima qil desang, qilaman, ammo meni sevmagan odamimga zo'r lab berma!..

**G o r d e y K a r p i c h**. Men lafzimdan qaytmayman. (*O'rnidan turadi*.)

**L y u b o v G o r d e y e v n a**. Ixtiyor senda, dadajon! (*Ta'zim qilib, onasining yoniga borib turadi*.)

**K o r s h u n o v**. Ish tamom, vassalom! Qani, qizlar, yor-yordan bo'lsin endi.

**Q i z l a r** (*ashula aytishadi*).

*Bog'larda gul-chechak xazon bo'lar,  
Chamanzorlar qurir, za'faron bo'lar,  
Aziz yorim, agarda men bo'lmasam.  
O'rningdan tur, onajonim, ertaroq,  
Suv sep, sug'or gullarimni dam-badam,  
Oqshomgi va tonggi shafaq chiqqan chog',  
Gullarga sep qaynoq ko'z yoshingni ham.*

**L y u b o v G o r d e y e v n a**. Uni emas, uni emas, boshqasini aytinlar.

**G o r d e y K a r p i c h**. Yur, mehmonxonaga chiqaylik, Afrikan Savich. Xotin! Hammalarin ham chiqinglar.

**L y u b o v G o r d e y e v n a**. Endi nima qilaman-a!..

**G o r d e y K a r p i c h**. Arina, vino keltir.

**A r i n a**. Shoshmaytur, shu paytda ko'ngilga vino sig'adimi! Voy, jonginam!.. Hoy qizlar, jonginalarim, mana bu ashulani aytamiz. (*Boshlaydi*.)

*Sevikli onajonim!  
Azizim, mehribonim,  
Kechalar duogo'yim,  
G'amxo'rim, jonajonim!*

*Onajon, menga qara,  
Ko'z uzmasdan termilgin,  
O'z sevikli qizingni,  
So'nggi bor to'yib ko'rgin!*

**Lyubov Gordyeyeva.** So'nggi bor.

Qizlar ashula aytib turganda Gordyey Karpich bilan  
Korshunov chiqib ketadi; Lyubov Gordyeyeva onasining quchog'iga  
tashlanadi, dugonalari uni o'rtaga oladilar.





## UCHINCHI PARDА

Torsov uyida kichkina bir xona: u turli-tuman shkaf, sandiq va etajerkalar bilan to‘la, etajerkalarga idishlar, kumush buyumlar terib qo‘yilgan; mebel: divanlar, kreslolar, stollar – hamma jihozlar juda chiroylig-u, ammo zich. Umuman, bu xona bekaning kabineti bo‘lib, beka shu yerdan turib butun uy-ro‘zg’orni boshqaradi, o‘z mehmonlarini ham shu yerda betakalluf qabul qiladi. Bir eshik mehmonlar ovqat qilib o‘tirgan zal tomonga, ikkinchisi, ichkari uylarga ochiladi.

## BIRINCHI SAHNA

A r i n a zalga kiradigan eshik yonidagi stulda o‘tiradi,  
yonida bir necha qizilar va xotinlar.

A r i n a (*zalni ko ‘rsatib*). Sira kutmagandik, onaxonlarim, bu tu-shimizga ham kirmagan edi. Tomdan tarasha tushganday, qiyg‘ir bo‘lib uchib keldi-yu, qushchamizni ota-onasining qo‘lidan chang solib ildiketdi, qavm-qarindoshlaridan, dugonalaridan ajratdi-qo‘ydi. O‘zimiz ham bilmay qolibmiz!.. Bu dunyoning ishlarini bilib bo‘lmas ekan-da. Hozirgi zamon odamlari ayyor, hiylagar, pismiq bo‘lib qolgan. Gordey Karpichning atrofida aylandi, o‘rgildi, parvona bo‘ldi, ishqilib, boshko‘zini aylantirdi-qo‘ydi. Gordey Karpich bo‘lsa qarigan chog‘ida uning davlatiga uchib o‘tiribdi! Malikaday qizimizni qari bir bedavoga unashib qo‘ydi-ya. Ana, oppog‘im, kabutarim o‘tiribdi – ko‘ziga olam qop-qorong‘i. Voy o‘lmasam! O‘zim qo‘limda ko‘tarib, erkalab katta qilganman seni, xuddi qush asraganday asraganman-a!.. Yaqindagina ik-kimiz shu to‘g‘rida gapirishib o‘tiruvdik. Seni oddiy kishiga bermaymiz, bolam, degandim; boshqa yurtning shahzodasi kelib darvozangga bosh ursa, unda boshqa gap deb o‘tiruvdim. Aytganimizday bo‘lmadi. Ana, bizni bir-birimizdan judo qilgan odam o‘tiribdi, baq-baqaloq, lablari do‘rdoq! Qizimizdan ko‘zini uzmay tirjayib o‘tiribdi! Hu, uying kuy-

sin! Ana ovqatni yeb bo'lishdi, turishdi, ishlaringga boringlar endi.  
(*Stuldan turadi.*)

Xotinlar ketadi; Pelageya Yegorovna kiradi.

## IKKINCHI SAHNA

Arina bilan Pelageya Yegorovna.

Pelageya Yegorovna. Bor, Arinushka, idish-tovoqlarni yig'ishtirib olishga qarash... ha... Men picha o'tirib damimni olay, charchadim.

Arina. Uzzukun tinmay yurganingdan keyin, charchamaysanmi, onaxonim, axir, yosh emassan!..

Pelageya Yegorovna (*divanga o'tiradi*). Uh... Ha, aytgin, qizlar xonasiga samovar keltirishsin, katta samovarni... eng kattasini. Ha, Annushkani menga aytib yubor.

Arina. Xo'p bo'ladi, xo'p bo'ladi.

Pelageya Yegorovna. Ha... boraqol... boraqol... Uh, tinkam qurib ketdi!

Arina chiqib ketadi.

Boshim lo'qillab og'riyapti! Dard ustiga chipqon deganday, mana bu tashvishlar ortiqcha bo'ldi. Hammayoqda tashvish! Uf, bay-bay-bay! Oyog'imda oyoq qolmadi, charchadim! Ishim boshimdan oshib yotipti-yu, xayolim boshqa yoqda... Uni qil, bunga yugur, nimadan boshlashni bilmayman... Darhaqiqat... ha... (*Xayolga cho'mib o'tiradi*) Bu qanaqa kuyov bo'ldi endi, qanaqa kuyov bo'ldi bu... Voy-voy-voy!.. Mehr-muhabbat qayda! Qizim uning davlatiga ucharmidi!.. Bo'yi yetib turgan qiz bo'lsa... goho qalbi ham talpinib qo'ysa kerak. Unga hozir kambag'al bo'lsa hamki, ko'ngliga yoqqan yor bo'lsa... Ana shunda rohat qilib yashagan... umr surgan bo'lardi...

Anna Ivanovna kiradi.

## UCHINCHI SAHNA

Pelageya Yegorovna bilan Anna Ivanovna.

Pelageya Yegorovna. Ma, choy qutining kaliti. Chiqib, mehmonlarga choy quyib ber. Nima kerak bo'lsa, dasturxonga qo'y, nima kerakligini esa, o'zing bilasan! Oyog'imning tinka-madori qolmadi, sen yosh juvonsan... xizmat qil... ha.

Anna Ivanovna. Nega ayarkanman xizmatimni, qo'lim uzilib ketmaydi-ku. (*Kalitlarni oladi.*)

Pelageya Yegorovna. Choy hov anavi shkafda, qizil qutida turibdi.

Anna Ivanovna shkafni ochib, qutini oladi. Mitya kiradi.

## TO'R TINCHI SAHNA

O'shalar bilan Mitya.

Pelageya Yegorovna. Nima deysan, Mitenka?

Mitya (*yig'lay-yig'lay deydi*). Men... Men... Pelageya Yegorovna, balki sizning qilgan mehribonchililingiz, silab-siyapashlaringizga arzimasman ham... yetimcha deb tashlab qo'yamadingiz, onam o'mini bosdingiz... umrim bo'yi sizdan minnatdor bo'lishim, hamisha duoyi joningizni qilib yurishim kerak. (*Ta'zim qiladi.*)

Pelageya Yegorovna. Senga nima bo'ldi, Mitya?

Mitya. Hamma qilgan yaxshililingiz uchun rahmat. Endi xayr, Pelageya Yegorovna! (*Turadi.*)

Pelageya Yegorovna. Ha, yo'l bo'lsin?

Mitya. Oyimning yoniga ketmoqchiman.

Pelageya Yegorovna. Necha kunga borib kelmoqchisan?

Mitya. Xo'jayindan hayit kuniga javob oldim, ammo qaytib kelmasman deyman.

Pelageya Yegorovna. Nega endi bizni tashlab ketmoqchisan?

Mitya (*og'irligini goh u oyog'iga, goh bu oyog'iga tashlab*). Shunaqa bo'lib qoldi!.. Boshqacha ilojim yo'q... ketishga majbur bo'lib qoldim.

Pelageya Yegorovna. Qachon ketmoqchisan?

Mitya. Shu bugun kechasi.

Jimlik.

Kechgacha ko'risholmasmiz deb, xayrlashgani kelgandim.

Pelageya Yegorovna. Nima ham qildik, Mitya, agar ketishing zarur bo'lsa... seni zo'rlamaymiz, xudo yor bo'lsin... Yaxshi bor!..

Mitya (*Pelageyaga ta'zim qiladi, keyin u bilan va Anna Ivanovna bilan o'pishadi, keyin yana ta'zim qilib, to'xtaydi.*)

Lyubov Gordeyevna bilan ham xayrlashmoqchi edim... Bir xonadonda birga yashadik, axir... yo o'lib ketarman yo bo'lmasa...

Pelageya Yegorovna. Ha, ha, albatta, xayrlashib ketishing kerak. Xayrlash, xayrlash!.. Annushka, borib Lyubushkani chaqir.

Anna Ivanovna (*bosh chayqaydi*). Biri bir qo'lidan tortsa, ikkinchisi boshqa qo'lidan tortadi, yana biri ko'z yoshi to'kadi, sevgani bilan qovusholmadi. (*Chiqib ketadi.*)

## BESHINCHI SAHNA

Pelageya Yegorovna bilan Mitya.

Pelageya Yegorovna. Bizning boshimizga tushgan kulfatdan xabaring bormi? Bu kulfatdan qanday qutulishni bilmay boshim qotib o'tiribman... Xuddi yashin urganday, hali-hali o'zimga kelolmayman!

Mitya. Kim aybdor bunga, birovdan ko'rib nima qilasiz, o'zingiz o'z qo'lingiz bilan tutqazib o'tiribsiz-ku.

Pelageya Yegorovna. O'zimiz... o'zimiz... o'z qo'limiz bilan tutqazdik, aytganing to'g'ri. Mitya, qizning ixtiyori menda bo'lqanda berarmidim! Nima, men o'z qizimga dushmanmanmi?

Mitya. Odamlarning gapiga qaraganda, uncha yaxshi odam emas emish. Hech kim yaxshi demaydi, hamma yomon deydi.

Pelageya Yegorovna. Bilaman, Mitenka, bilaman.

Mitya. Mana endi, shu ovozalarga qaraganda, basharti Lyubov Gordeyevna shu odamga tegsalar, xazon bo'ladir.

Pelageya Yegorovna. Nimasini aytasan, Mitenka, nimasini aytasan... qo'y, sensiz ham o'lay deb o'tiribman. Qizim bechoraga tikilaverib, ko'zlarimda nur qolmadi. Yana to'yib-to'yib qarab olay deyman. Xuddi go'rga qo'yib kelmoqchi bo'lgan odamday.

Mitya (*yig'lamsirab*). Ha, bu nima degan gap bo'ldi endi! Odam degan ham shunaqa qiladimi? O'z qizingiz-ku, axir!..

Pelageya Yegorovna. O'zimning qizim bo'limganda shuncha o'lib-tirilarmidim, yurak-bag'rim shuncha qon, zardob bo'lar-midi.

Mitya. Yig'lab o'tirgandan ko'ra, bermang, qo'ying. Nega qizin-gizni qul qilib berib, umrini xazon qilasiz? Gunoh emasmi? Bu qilmishingiz uchun xudo oldida javob berasiz.

Pelageya Yegorovna. Bilaman, hammasini bilaman, ammo ixtiyor menda emas deb aytayapman-ku, senga, axir. Muncha yaramga tuz sepmasang? Sensiz ham karaxt bo'lib o'tiribman, sen tag'in o'lganimning ustiga chiqib tepayapsan. Menga rahming kelmaydimi, Mitenka?!

Mitya. Bu gapingiz to'g'ri-yu, Pelageya Yegorovna, dardi dunyom qorong'i bo'lib o'tiribman; ehtimol, sizdan ko'ra mening daridim og'irroqdir. Men sizga shu qadar ishonamanki, hatto ichimdagisi rimni ham xuddi onamga ochganday ochib gapiraman. (*Ko'zlarini ro'molchasi bilan artadi.*) Kecha qiz-yigitlar majlisi bo'lgan edi-ku... (*Yig'isi so'zlashiga xalaqit beradi.*)

Pelageya Yegorovna. Ha, ha, gapir, gapir...

Mitya. O'shanda biz ikkimiz qorong'ida o'tirib gapni bir joyga qo'ygan edik, onaxon, ikkalamiz siz bilan Gordey Karpichning oldiga kirib, qani, fotiha beringlar, bir-birimizsiz yashay olmaymiz, deb yalinmoqchi bo'lgan edik (*ko'z yoshlarini artadi*); bugun ertalab eshit-samki... tarvuzim qo'ltig'imdan tushib o'tiribman endi!

Pelageya Yegorovna. Rostdan-a?

Mitya. Xudo ursin, rost bo'lmasa, Pelageya Yegorovna.

Pelageya Yegorovna. Voy, sho'ring qurg'uur! Voy, be-baxt yigit!

Lyubov Gordeyevna kiradi.

### OLTINCHI SAHNA

O'shalar va Lyubov Gordeyevna.

Pelageya Yegorovna. Qizim, mana, Mitya xayrashgani kelibdi, oyisini kiga ketmoqchi.

Mitya (*ta'zim qiladi*). Yaxshi qoling, Lyubov Gordeyevna!.. Mendan yomonlik o'tgan bo'lsa, uzr!

Lyubov Gordeyevna. Yaxshi bor, Mitya! (*Ta'zim qiladi*.)

Pelageya Yegorovna. Ayrilish oldidan o'pishib olinglar, balki shu-shu ko'rishmay ketarsizlar... ha... o'pishsa nima qipti!

Mitya bilan Lyubov Gordeyevna o'pishadilar;

Lyubov Gordeyevna divanga o'tirib yig'laydi. Mitya ham yig'laydi.

Bo'ldi, qo'yinglar, yig'lamanglar! Jinni bo'lib qolaman!

Mitya. Mayli, bo'lgancha bo'lar! Tavakkal! (*Pelageya Yegorovnaning yoniga keladi*.) Pelageya Yegorovna, qizingizni cholga bergenningizga achinasizmi, yo'qmi?

Pelageya Yegorovna. Achinmasam yig‘lab o‘tirarmidim.

Mitya. Gapiraveraymi, Pelageya Yegorovna?

Pelageya Yegorovna. Gapir.

Mitya. Gap shunday, qizingizni qalinroq kiyintiring. Sekin tash-qariga chiqsin, chanaga o‘tqazaman-u, olaman-ketaman! Qani, chol topib ko‘rsin-chi, mayli, kallam ketsa ketaqolsin. Onamning yoniga olib boraman-da, o‘sha yerda nikoh qilamiz. Eh! Qo‘ying, ko‘nglimga erkinlik bering, bir yayrasin! Javobgarlikka tortsalar, nima uchun javobgar bo‘lganimdan xabardor bo‘laman-ku!

Pelageya Yegorovna. Bu nima deganing, tentak, bu nima deganing?

Lyubov Gordeyevna. Nima qilmoqchisan, Mitya!

Mitya. Bundan chiqdiki, yaxshi ko‘rmas ekansan-da? Menden ko‘ngling qoldimi?

Lyubov Gordeyevna. Sen dahshatli gaplarni gapiryapsan!

Pelageya Yegorovna. Nimalarni o‘ylab chiqarayapsan, tentak! Bunaqangi gunoh qilishga kim jur‘at etadi... ha... fikringdan qayt... senga bir balo bo‘ldimi o‘zi!

Mitya. Axir, men achinsangiz deyapman-ku, agar qizingizga achinmasangiz, beravering Afrikan Savichga, qul qilib sotavering. Qizingizning turmushini ko‘rib, o‘zingiz qon bo‘lib ketasiz hali. Gordey Karpich ikkovingiz «e attang» deb peshonalaringga urasizlar-u, ammolg‘isht qolipdan ko‘chgan bo‘ladi.

Pelageya Yegorovna. Otasi fotiha bermasdan turib, qanday bo‘ladi, axir! Qanday qilay, o‘zing tanangga o‘ylab ko‘r!

Mitya. Albatta, fotihasiz turmush – turmush emas! Bo‘lmasa o‘zingiz fotiha berib yuboraqoling, Pelageya Yegorovna (*tiz cho‘kib turadi*), Gordey Karpich balki... keyinroq o‘zları...

Pelageya Yegorovna. Endi nima qilaman-a! Es-hushimdan ayrilib qoldim... Hech narsaga aqlim yetmaydi... ha... boshim gir-gir aylanadi... Yurak-bag‘rim o‘rtanib ketdi, bolalarim!..

Lyubov Gordeyevna (*Mityaning yoniga kelib*). Yo‘q, Mitya, bunday qilish yaramaydi! Bekorga o‘zingni o‘zing qiynama, qo‘y! (*Mityani o‘rnidan turg‘izadi*.) Kuygan yuragimni battarroq kuydirma. O‘zing ketaver, xudo yor bo‘lsin! Xayr, yaxshi bor!

Mitya. Nega meni shuncha aldab, mazax qilib kelding?

L y u b o v G o r d e y e v n a . Kel, qo'y, Mitya, unaqa dema. Seni aldab nima qilardim, nega alday? Seni yaxshi ko'rib qoldim, buni senga o'zim aytdim. Ammo men ota-onamning izmidan chiqolmayman. Otam teg derkan, tegishim kerak. Otamga bo'ysunishim kerak, negaki, qizlarning taqdiri shunaqa. Peshonamga bitgani shu ekan. Qadimdan beri odat shu. Odamlar meni yomonlab yurishmasin degan andisha bilan, otamning gapiga qarshi chiqmayman. Shu tufayli yurak-bag'rimni qon qilgan bo'lsm ham bilamanki, bu ishni qonundan tashqari chiqmay qildim, shuning uchun hech kim meni masxara qilmaydi. Xayr, yaxshi bor!

O'pishadilar.

M i t y a . X o ' p , m a y l i , n a s i b b o ' l m a g a n e k a n - d a !

L y u b o v G o r d e y e v n a divanga o'tirib yig'laydi.

Yaxshi qol! (*Pelageya Yegorovnaga ta'zim qiladi.*) Yaxshi qolning, mehribonim Pelageya Yegorovna! Saxovatingizni, mehribon-chiliklaringizni aslo unutmayman, men yetimcha bolani musofirlikda tashlab qo'ymadingiz.

P e l a g e y a Y e g o r o v n a . Yaxshi bor, bolam, bizdan xafa bo'lma, gunoh bo'ladi. Xudo baxtingni bersin... biz ham seni unutmaymiz.

M i t y a t a ' z i m q i l i b c h i q i b k e t a d i .

## Y E T T I N C H I S A H N A

Pelageya Yegorovna bilan Lyubov Gordeyevna, keyin Korshunov.

P e l a g e y a Y e g o r o v n a . Ha, Lyubushka, yigitga rahming kelyaptimi? Eh, qizim, qizginam!.. Uni yaxshi ko'rib yurgan ekansan-u, mening xabarim ham yo'q ekan. Men kampir o'lgoruda es qayoqda deysan... Bilganimda ham nima qilardim? Ko'z yoshi to'kishdan boshqa ilojim yo'q, o'z qizimning izmi ham menda emas. Qaniydi endi, ixtiyor menda bo'lisa! Qarigan chog'imda rohatini ko'rardim. O'zi tappa-tuzukkina yigit, mehribongina, men kampirni ham hurmat qilardi. Senga qarayman, qarayman, qizim, xafa bo'lishingni ham bilaman!.. Ammo nima qilay, qo'limdan hech narsa kelmasa!

L y u b o v G o r d e y e v n a . Keling, oyijon, ko'p o'zingizni qiyamang, baribir, qo'limizdan hech narsa kelmaydi. (*Jim o'tiradi.*)

Eshik taqillaydi, K o r s h u n o v n i n g : «Mumkinmi?» degan tovushi keladi.

Pelageya Yegorovna. Kiring, otaxon.

Korshunov (*kiraturib*). E, ana, mening qayliqcham bu yerda berkinib o'tirgan ekan-u... xe... topaman, topmasdan qo'ymayman. Ruxsat etsangiz, Pelageya Yegorovna, qizingiz bilan o'z ishlarimiz to'g'risida pichagina maxfiy gapirishib olsak.

Pelageya Yegorovna. Marhamat, otaxon. (*Chiqib ketadi*.)

Korshunov (*Lyubov Gordeyevnaning yoniga kelib o'tiradi*). Nimaga yig'layapsiz, oyimqiz? Uyat-e, uyat, xe-xe-xe... Mana men, sizdan katta bo'lsam ham, yig'lamayman-ku... (*Unga tikilib qaraydi*.) Nimaga yig'layotganingizni bilib turibman: yoshta tegmoqchisiz-a? Ha, bu qizlarga xos tentaklik-ku, jonim (*uning qo'lidan ushlab o'padi*), tentaklik. Gapimga quloq soling... men haq gapni gapiraman, bor gapni aytaman... birovni aldashni yomon ko'raman, aldab ham nima qilaman? Eshitasizmi?

Lyubov Gordeyevna. Gapiring.

Korshunov. Yaxshi. Gapni shundan boshlaylik, bo'lmasa. Yosh yigit muhabbattingiz qadriga yetarmidi? Yosh yigitni hamma ham yaxshi ko'raveradi, bunaqa narsaga yosh yigit o'rgangan bo'ladi, ammo buning qadriga keksa odam yetadi. Keksa kishini yaxshi ko'rsangiz sizga sovg'a ham olib kelib turadi, uni qiladi, buni qiladi, tilla bu-yumlar, duxobalar olib beradi, nima bilan erkalashni bilmay qoladi. (*Uning qo'lidan o'padi*.) Moskvada bo'lsa, magazinlarda bunaqa narsalar to'lib yotibdi, xohlaganingiz topiladi. Shuning uchun aytamanki, keksani yaxshi ko'rish foydali... Bu bir... Ikkinchidan, yosh va chiroyli erlar hamisha yengiltak bo'ladi, bir mahal qaraysanki, chetda boshqa xotin ketidan sudralib yurgan bo'ladi yo bo'lmasa, boshqa bir xonim uni sevib qoladi-da, o'z xotini esa uyda xazonday sarg'ayib o'tiradi... Ginaxonlik, rashk boshlanadi... Rashk degani nima o'zi, a? Xe... xe... Rashkning nimaligini bilasizmi, bekam?

Lyubov Gordeyevna. Yo'q, bilmayman.

Korshunov. Men bilaman. Rashk degan narsa qo'lga nina tiqib olish emas, undan ko'ra qattiqroq og'ritadi. Axir, odamni xazon qilib yuboradi, la'nati. Rashk tufayli odamlar bir-birini so'yib ketadi, marginush yeb o'zini o'zi o'ladiradi! (*Asabiy ravishda kulib, yo'taladi*.) Keksa odamni yaxshi ko'rsa-chi? Xotirjam yashayveradi. Yana shuni ham aytib qo'yayki, aziz malikam, yoshtar o'yin-kulgini, aysh-ishrat va shunga o'xshash narsalarni yaxshi ko'rishadi, xotini esa uydan tashqari chiqmay, yarim kechagacha tiq etsa eshikka qarab o'tirgani o'tirgan.

Eri mast-alast bo'lib keladi-da, o'zini ko'rsatadi. Keksa er-chi? Keksa er xotinining yonidan siljimay o'tiradi, o'lsa o'ladiki, ammo yonidan nari ketmaydi. Ko'zlariga termilib, u yoq-bu yog'ini silab, qo'llaridan o'pib o'tiradi... (*O'padi.*) Mana bunaqa qiladi.

**L y u b o v G o r d e y e v n a .** O'lgan xotiningiz sizni yaxshi ko'rarmidi?

**K o r s h u n o v** (*uning yuziga tikilib qaraydi*). Buni so'rab nima qilasiz, oyimqiz?

**L y u b o v G o r d e y e v n a .** O'zim, shunday, bilgim keldi.

**K o r s h u n o v .** Bilgingiz keldimi?.. (*O'rnidan turadi.*) Yo'q, yaxshi ko'rmasdi, men ham uni sevmas edim. Sevishga ham arzimasdi o'zi. Men uni faqat husniga qiziqib bechora, gado bo'lishiga qaramay olgandim, butun oilasini boqdim, otasini avaxtadan qutqarib qoldim, boshidan tilla sochardim.

**L y u b o v G o r d e y e v n a .** Muhabbat oltinga sotilmaydi.

**K o r s h u n o v .** Xoh sev, xoh sevma, ammo tez-tez qarab tursang bo'lgani derdim. Ular, men senga aytsam, juda pulga muhtoj bo'lib qolgan edilar, yeishga nonlari ham yo'q edi, yo'q demay pul berib turdim, ammo meni sevishlarini istayman. Buni talab qilishga haqqim bormi yo yo'qmi? Shu deb unga pul to'lardim-da. Menden nolish gunoh bo'ladi, men yaxshi ko'rgan odamimni boshimga ko'taraman, ammo yomon ko'rib qolgan odamimning holiga voy! (*Hayajonlanib yuradi.*) Shunaqangi odam meniig dushmanim, uning ko'zimga ko'rinnmagani yaxshi! Gapim va ko'zim bilan g'ajib tashlayman, unga tinchlik ham bermayman, men... (*Birdan to'xtab, xaxolab kuladi.*) Siz rostdan ham meni yovuz odam ekan deb o'yladingiz deyman-a?.. Xe... Xe... Jo'rttaga shunday hazillashyapman! Men sodda, mehribon cholman... Men sizni qo'limda ko'tarib yuraman (*allalaydi*), belanchakka solib tebrataman, ashulalar aytib beraman... (*Uning qo'llaridan o'padi.*)

**G o r d e y K a r p i c h** kiradi.

## SAKKIZINCHI SAHNA

Lyubov Gordeyevna, Korshunov va Gordey Karpich.

Gordey Karpich. E-e, kuyovim bu yerda ekan-ku! Biz esa seni qidirib yuribmiz. Ishlar shampanskiyga aylanib ketdi. Qani, yuringlar, mehmonlar oldiga chiqaylik, sensiz bazm ham bo'lmay turibdi.

Korshunov. Menga shu yerning o'zi ham yaxshi.

Gordey Karpich. Undog' bo'lsa aytay, shu yerga keltirsin, ikkalamiz shu yerda ichamiz. (*Eshik oldiga boradi.*) Hoy, yigitcha! Vino keltir buyoqqa! Kumush patnisda olib kel. (*O'tiradi.*) Xo'sh, kuyov, endi nima deysan?

Korshunov. Hech narsa demayman.

Gordey Karpich. Nega hech narsa demaysan?

Korshunov. Shunday, o'zim.

Gordey Karpich. Kel, qo'y hazilingni! (*Korshunovga qaradi.*) Endi mening kim ekanimni bildingmi?

Korshunov. Nega bilmay?

Gordey Karpich. Mana, sen bilan ikkimiz ko'rishdik, tanishdik, ichishdik, qani endi ayt-chi, men qanaqa odam ekanman? Mening qadrimga yetisharkanmi bu yerda?

Korshunov. Qadringga yetishib bo'pti.

Gordey Karpich. Yo'q, sen menga bir gapni aytgin, hamma narsam joyida ekanmi? Boshqalarnikida dasturxon tepasida chakmon kiygan yigit yo bo'lmasa qiz xizmat qiladi, menikida, o'zing ko'rding-ku, qo'liga qo'lqop kiygan ofitsiantlar xizmat qiladi. Mana shu ofitsiant juda usta odam, Moskvadan kelgan, hamma tartib-qoidalarni biladi; kimni qayerga o'tqazishni, nima qilishni yaxshi biladi. Boshqalarnikida-chi! Bir uyga tiqulishib olishadi-da, mujiklarga o'xshab ashula aytishgani aytishgan. Xushchaqchaqlik qiladilar-u, ammo menimcha, bu pastlik, bizga to'g'ri kelmaydi. Ichimliklarini aytmaysanmi, nodonlarning! Nalivka, vishnevkalardan bo'lagini bilishmaydi... bunday vaqlarda shampanskiy ketishini anglamaydilar! Qaniydi, Moskvadami yo Piterburgdami tursam, qanday moda chiqsa shunga taqlid qilardim.

Korshunov. Harqanaqasiga-ya?

Gordey Karpich. Harqanaqasiga. Bor pulimni sarflasam sarflardim-u, ammo o'zimni ko'rsatardim. Menga qara, hoy qizim,

ehtiyot bo'lib yurgin, o'zingni tiyib yur-a, qaylig'ingga yoqmay qolishing ham mumkin, buni moskvalik deydilar. Yurish-turishni ham bilmasang kerak, qayerda qanday gapirish ham qo'lingdan kelmaydi hali.

**L y u b o v G o r d e y e v n a .** Bilganimni gapiraveraman-da, dada, pansionda o'qimagan bo'lsam.

**O f i t s i a n t** kirib **K o r s h u n o v** bilan **G o r d e y K a r p i c h** ga vino tutadi; shishani stolga qo'yib, o'zi chiqib ketadi.

**G o r d e y K a r p i c h .** Mana shunaqa ishlar, kuyov! Gordey Karpich Torsovning ham kimligini bilib qo'yishsin!

Y e g o r u s h k a k i r a d i .

Y e g o r u s h k a . Gordey Karpich amaki, bu yoqqa chiqing.

**G o r d e y K a r p i c h .** Nima deysan?

Y e g o r u s h k a . Chiqing, qiziq ish. (*Kuladi.*)

**G o r d e y K a r p i c h** (*yaqinlashib*). Nima gap?

Y e g o r u s h k a . Lyubim Karpich amakim keldilar.

**G o r d e y K a r p i c h .** Nega kiritishdi uni?

Y e g o r u s h k a . Kirgilari kepti-da, sira bas kelolmadik. (*Xaxolaydi.*)

**G o r d e y K a r p i c h .** Nima qilyapti?

Y e g o r u s h k a . Mehmonlarni haydab chiqaryaptilar. (*Xaxolaydi.*) Birovning nonini tuya qilishga juda ustasanlar, deydilar... Men ham uyning xo'jayiniman, deydilar... men, deydilar... (*Xaxolab kuladi.*)

**G o r d e y K a r p i c h .** Ts-s... Rosa sharmanda qildi-ku! (*Yegorushka bilan birga chiqib ketadi.*)

K o r s h u n o v . U yoqda nima gap o'zi?

**L y u b o v G o r d e y e v n a .** Bilmadim. Amakim bir nima qilayot-gandir-da... Ba'zan jinniligi tutib turadi.

R a z l y u l y a y e v , M a s h a v a L i z a k i r a d i l a r .

## TO'Q QIZINCHI SAHNA

**L y u b o v G o r d e y e v n a , K o r s h u n o v , R a z l y u l y a y e v ,**  
M a s h a h a m d a L i z a .

**P e l a g e y a Y e g o r o v n a** (*eshikdan turib*). Inim qani?.. Qani Lyubim Karpich? Nimalar qildi u, nimalar qilib qo'ydi!

**L y u b o v G o r d e y e v n a .** Bu yerda yo‘qlar, oyijon.

Pelageya Gordeyevna ketadi.

**R a z l y u l y a y e v .** Ana xolos! Lyubim Karpichning juda g‘alati qiliqlari bor-da! Xa-xa-xa!.. Shunaqangi qiliqlar qiladiki, hayronlar qolasan!

**L i z a .** Hech kuladigan joyi yo‘q, nodonlik, xolos!

**M a s h a .** Uyalib ketganimdan qayooqqa qochishimni bilmabman.

Divanga o‘tiradilar.

**L y u b i m K a r p i c h** kiradi.

### O‘NINCHI SAHNA

O‘shalar va Lyubim Karpich.

**L i z a .** Voy o‘lay, tag‘in-a!

**M a s h a .** Bu dahshat-ku!

**R a z l y u l y a y e v .** Xa-xa-xa...

**L y u b i m K a r p i c h .** Gur, gur, gur... bul, bul, bul!.. Barmoq bilan o‘n tiyin, bodring bilan o‘n besh tiyin!.. Qadrdon oshnamga! (*Korshunovga qo‘luzatadi.*) Salom!.. Bir ming-u bir kun ko‘rismabmiz! Ahvolingiz qalay?

**K o r s h u n o v .** E, senmisan, Lyubim?

**L y u b i m K a r p i c h** (*yuzini qo‘llari bilan berkitib*). Men emasman, tuya ko‘rdingmi, yo‘q.

**K o r s h u n o v .** Men seni tanidim, og‘ayni, shaharda tilanib yurarding.

**L y u b i m K a r p i c h .** Shahar ko‘chalarida tilanib yurganim esingda ekan, ikkimiz birga aysh-ishrat qilganlarimiz, kuzning qorong‘i kechalari mayxonadan qovoqxonalarga o‘tib yurganlarimiz ham esingdadir? Meni kim xonavayron qilgani, kim tufayli gado bo‘lib qolganim ham esingdadir?

**K o r s h u n o v .** Nega o‘zing bo‘sh kelding? Seni hech kim yoqandan tortib bu yo‘lga olib kirmadi-ku, og‘ayni. Ayb o‘zingda.

**L y u b i m K a r p i c h .** Men-ku, ahmoq ekanman-a, ammo o‘zingning ham nomusing yo‘q ekan! Sen meni ko‘klarga ko‘tarding, u deding, bu deding, ammo men biron narsa o‘g‘irlamagan bo‘lsam ham, odamlarning ko‘ziga qarashga uyalaman!

Korshunov. Hali ham hazilkash ekansan! (*Lyubov Gordeyevna ga qarab.*) Amakingiz juda hazilkash odam. Eski qadrdonligimizni na-zarga olib, bir so‘lkavoy berar ekanmiz-da.

Lyubim Karpich. Ts-s... So‘lkavoy bilan qutulib ketolmassiz deyman! Avvalo eski qarzingni, undan keyin jiyanim uchun bir million uch yuz ming to‘laysan!.. Bundan arzonga bermayman.

Korshunov (*kuladi.*) Bir tiyini ham kam bo‘lmaydi degin?

Lyubim Karpich. Bir tiyin ham kami yo‘q!

Razlyulyayev. Voy, Lyubim Karpich-ey! Bir tiyin ham ka-miga yurma.

Gordey Karpich kiradi.

## O‘N BIRINCHI SAHNA

O‘shalar va Gordey Karpich.

Gordey Karpich. E, shu yerdamisan! Meni nima qil-moq-chisan, a? Ko‘zimdan yo‘qol!

Korshunov. Shoshmay tur, Gordey Karpich, haydama, nega haydaysan! Picha masxarabozlik qilsin, ko‘raylik. Xe-xe-xe!..

Lyubim Karpich. Akam qizini senga berib, o‘zini o‘zi may-na qilmoqda, seni shunday masxara qilayki, kelgan joyingni topolmay qolgin!

Gordey Karpich. Bu yer buning joyi emas. Chiq, jo‘na!

Lyubim Karpich. Shoshma, aka, haydamay tur. Sen: Lyubim Torsov hazilvonlik qilgani keldi, u mast, deb o‘ylagandirsan? Men siz-larga jumboq aytgani keldim. (*Korshunovga qarab.*) Eshakning qulog‘i nega uzun bo‘ladi? Qani, ayt-chi?

Razlyulyayev. Mana buni jumboq deydilar!

Korshunov. Men qayoqdan bilay?

Lyubim Karpich. Uning eshakligini hamma bilsin uchun. (*Akasiga qarab.*) Mana senga bir jumboq: qizingni kimga uzatyapsan?

Gordey Karpich. Bu sening ishing emas! Menden gap so‘rashga haqqing yo‘q!

Lyubim Karpich. Yana bitta savol: o‘zing halol savdogarmisan, yo‘qmi? Halol bo‘lsang – haromlar bilan yurma! Qozonga yaqinlashsang, qorasi yuqadi.

K o r s h u n o v . Hazil qilsang, bilib qil, og‘ayni!.. Yo buni haydab chiqar, yo og‘zini yumsin.

L y u b i m K a r p i c h . Seni aytaman! O‘zing ham qozonday op-poqdirsan-a!

G o r d e y K a r p i c h . Uka, yaxshilikcha ket, yo‘qsa ishing chatoq bo‘ladi.

L y u b o v G o r d e y e v n a (*qo‘rqib, turib ketadi*). Amaki, qo‘ying endi!

L y u b i m K a r p i c h . Qo‘ymayman! Endi qonim qaynab ketdi!

Xizmatkorlar va mehmonlar kiradilar.

### O‘N IKKINCHI SAHNA

O‘shalar, Pelageya Yegorovna, Anna Ivanovna, Guslin,  
mehmonlar va xizmatkorlar.

L y u b i m K a r p i c h . Xaloyiq, eshiting! Lyubim Torsovni xo‘rlashmoqda, uydan haydab chiqarishmoqda. Mehmondan nimam kam? Nega meni haydaydilar? Egnim kir bo‘lsa ham vijdonim toza. Men Korshunov emasman, kambag‘al, qashshoqlarni talab, kishilarning ha-qiga xiyonat qilganim yo‘q, rashk qilib xotinimni o‘ldirganim yo‘q... Meni haydashadi-yu, uni bo‘lsa aziz mehmon qilib to‘rga o‘tqizishadi. Xotinini o‘ldirgan bo‘lsa, nima qipti, boshqasini berishadi, mana, akam qizini bermoqda! Xa-xa-xa! (*Fojiali ravishda xaxolab kuladi*.)

K o r s h u n o v (*o‘rnidan irg‘ib turib ketadi*). Buning gapiga ishonmanglar, hamma gapi yolg‘on, mendan o‘ch olmoqchi, mastlik bilan gapiryapti.

L y u b i m K a r p i c h . Qanaqa o‘ch! Men seni allaqachon ke-chirganman. Men kichkina, arzimagan bir odamman, qumursqaman! Sen boshqalarga yomonlik qilmasang bo‘lgani!

G o r d e y K a r p i c h (*xizmatkorlarga qarab*). Olib chiqib ke-tinqlar buni!

L y u b i m K a r p i c h (*barmog‘ini yuqori ko‘tarib*). Ts-s... Tegma menga! Dunyoda beor, benomus kishi huzur qilarkan!.. Eh, odamlar, odamlar! Lyubim Torsov piyanista bo‘lsa ham, senlardan ming mar-ta yaxshi! Mana endi o‘zim ham chiqib ketaman. (*Xaloyiqqa qarab*.) Yo‘lni kengroq och, Lyubim Torsov kelayotir! (*Chiqib ketadi va darhol qaytadi*.) Zolim, jallod! (*Ketadi*.)

K o r s h u n o v (*zo'raki kuladi*). Hali uyimda shunaqa tartib-qoidalar bor degin? Uyimga kelgan mehmonlarni mastlarga haqorat qildiradigan odad chiqarganman degin? Xe-xe-xe! Yana Moskvaga ko'chib ketaman, bu yerda mening qadrimga yetishmaydi, deydi-ya. Moskvada senga o'xshagan ahmoqlarning urug'i qurigan, sendaqalarni ko'rishsa, kulishadi. Yana kuyovim, kuyovim deganini qara! Xe-xe-xe! Voy, qadrdon qaynatam-ey! Yo'q, kechirasiz, men anoyi emasman, meni bekordan bekorga haqorat qilib ketaversa. Endi mening uyimga borasan-u, qizimni oling deb oyog'imga bosh urasan.

G o r d e y K a r p i c h . Men oyog'ingga bosh urgani boraman?

K o r s h u n o v . Borasan, men seni bilaman. To'y qilmasdan ilojing yo'q, o'zingni dorga ossang osasanki, ammo butun shaharga nomim chiqsin deysan. Biroq kuyov topolmaysan. Mana, sening darding! Xe-xe-xe!

G o r d e y K a r p i c h . Shu gaplaringdan keyin men ham sendan qo'limni yuvib qo'lting'imga urdim! Umrim bino bo'lib birovga yalangan emasman. Gap shunday bo'lsa, qizimni to'g'ri kelgan odamga ham berib yuboraveraman! Ustiga shuncha pul qo'shib beramanki, olmagani ham oladi...

M i t y a kirib, eshik oldida to'xtaydi.

## O 'N UCHINCHI SAHNA

O'shalar va M i t y a .

M i t y a (*xaloyiqqa qarab*). Nima shovqin?

G o r d e y K a r p i c h . Ana, Mitkaga beraman!

M i t y a . Nima?

G o r d e y K a r p i c h . Jim tur! Ha... Mitkaga beraman... erta-gayoq uzataman! Shunaqangi to'y-tomosha qilib berayki, og'zing ochilib qolsin, Moskvadan cholg'uchilar chaqirtiraman, bir o'zim to'rtta karetaga tushib yuraman.

K o r s h u n o v . Ko'ramiz, ko'ramiz. Afv so'ragani borasan, bila-man! (*Chiqib ketadi.*)

## O'N TO'RTINCHI SAHNA

Pelageya Yegorovna. Gordey Karpich, kimga beraman deding?

Gordey Karpich. Mitkaga dedim... Ha! Kekkayishini qaray! Mening nimam kam undan? «Borib yalinasan» emish-a! Bekorlarni aytibdi, borib bo'bman! Jo'rttaga Mitkaga beraman, alamidan yorilib o'lsin.

Mitya (*Lyubov Gordeyevnaning qo'lidan ushlab, Gordey Karpichning oldiga keladi*). Nega jo'rttaga bo'ladi, Gordey Karpich? Bunaqangi ishni jahl ustida qilmaydilar. Menga jo'rttagasi kerakmas. Undan ko'ra, umr bo'yи qiynalib yurganim yaxshi. Bizga shafqat qilmoqchi bo'lsangiz, otalarcha mehr-muhabbat bilan fotiha bering. Chunki biz bir-birimizni sevamiz, hatto sizga aybimizni ham ochib gapirmoqchi edik... Men sizga bajon-u dil, o'z o'g'lingiz qatorida...

Gordey Karpich. Nima, nima, bajon-u dil deb nima demoqchisan? Og'zimdan chiqib ketganiga xursand bo'lasan-a! Shunday deb o'ylashga qanday jur'at etding? Nima, Lyuba sening tengingmidi? Kim bilan gaplashayotganining bilasanmi o'zing?

Mitya. Juda yaxshi bilaman, mening xo'jayinimsiz, kambag'al bo'lGANIM uchun qizingizga teng bo'lolmasligimni ham bilaman, ammo, nima qilsangiz qiling, qizingizni jonimdan ham yaxshi ko'raman.

Hamma hayron.

Lyubim Karpich qaytib kelib, xaloyiq orasida turadi.

## O'N BESHINCHI SAHNA

O'shalar va Lyubim Karpich.

Gordey Karpich. Nega yaxshi ko'rmas ekansan! Diding joyida! Puli ko'p-da, a, egning but bo'lib, qorning oshga to'yib qoladi.

Mitya. Sizdan bu gaplarni eshitish shu qadar og'irki, biror narsa deyishga ham ojizman. Yaxshisi, indamay qo'yaqolay. (*Chetga chiqib turadi*.) Qani, endi o'zingiz gapiring, Lyubov Gordeyevna.

Lyubov Gordeyevna. Dadajon, shu mahalgacha chizgan chizig'ingizdan chiqmadim! Baxtli bo'lishimni istasangiz, meni Mityaga berasiz.

Pelageya Yegorovna. Namuncha o'jarlik qilaverding endi, Gordey Karpich..! Muncha endi! Endi dardimni unutib, quvona boshlagan edimki, yana sen o'z bilganingdan qolmaysan. Bir narsani aytganingdan keyin lafzingda turgin-da, bu nima qilganing, axir... Hali unga beraman deysan, hali bunga. Nima, qizginamni qiyab o'ldirmoqchimisan?

Lyubim Karpich (*xaloyiq orasidan turib*). Aka, Lyubushkani Mityaga ber.

Gordey Karpich. Yana keldingmi, a? Meni bugun qanday sharmanda qilganingni bilasanmi, a? Butun shahar xalqi oldida beobro' qilding-ku! Shuni anglaganingda ko'zimga ham ko'rinasding, tag'in bu kamlik qilganday, maslahat ham beraman deysan-a! Boshqa odam gapirsa gapirsin-u, ammo sen gapirako'rma.

Lyubim Karpich. Lyubim Torsov seni sharmanda qilgani uchun uning oyog'iga bosh qo'yishing kerak!

Pelageya Yegorovna. Voy, aylanay, Lyubimushka, aytganing to'g'ri, u oyog'ingga bosh qo'yishi kerak... ha... shunday. Sen bizni katta gunohdan saqlab qolding, xudoga ming nola qilsak ham, uni yuvolmasdik.

Gordey Karpich. Nima, men bu oilaning jallodimanmi?

Pelageya Yegorovna. Jallod-ku, emassan-a, tentaklik qilib, qizingni halok etarding... Ha! Ko'nglimdagini ochiq aytaveraman. Afrikian Savichdan ko'ra yaxshiroq chollarga qiz uzatganlar ham jazosini tortyapti.

Lyubim Karpich. Qani, yo'l beringlar menga! (*Ashula aytdi*) Trum-tu-tum, trum-tu-tum (*O'yingga tushadi*.) Bu yoqqa qara, buni ko'r, mana, Lyubim Torsov ko'z oldingda tirik turibdi. Bunaqa yo'ldan yurib ko'rgan, bu yo'lning qanaqaligini yaxshi biladi! Men ham badavlat, shuhratli edim, karetalarda yurardim, shunaqangi sho'xliklar qilar-dimki, yetti uxlab tushingga ham kirmaydi. Mana, oliftaligimni qara!

Gordey Karpich. Menga sira gapirma, eshitmayman, sen o'la-o'lgunimcha dushmanimsan.

Lyubim Karpich. Odammisan, hayvonmisan? Lyubim Karpichga ham picha rahming kelsin-da! (*Tiz cho'kadi*.) Aka, Lyubush-

kani Mityaga ber, Mitya menga boshpana beradi. Och, yalang' och yuribman. Keksayib qoldim, qahraton qishda ko'cha-ko'y larda bir burda non topish uchun masxarabozlik qilib yurish endi menga og'irlik qiladi, hech bo'lmasa, qarigan chog'imda halol kun ko'ray deyman. Axir, men hammani aldab yurardim, tilanchilik qilib topganimni ichardim. O'zimga yarasha biron ish berishadi, o'z ovqatimni o'zim topib yeydigan bo'lib qolaman. Ana shunda xudoga shukur qilaman. Aka! Mening nolam ham xudoga yetar. Kambag'al bo'lsa nima! Eh, qani endi, men kambag'al bo'lsam, men ham odam qatorida bo'lardim. Kambag'allik ayb emas.

Pelageya Yegorovna. Gordey Karpich, nahotki bag'ring shu qadar tosh bo'lsa, a?

Gordey Karpich (*ko'z yoshlarini artib*). Yuragi toshdan deb o'ylaganmidilaring? (*Ukasini turg'izadi*.) Aql o'rgatganing uchun rahmat, ukam, yo'qsa aqldan ozayozgan ekanman. Miyamga bunaqangi chirik xayolning qanday kirib qolganini o'zim ham bilmayman. (*Mitya bilan Lyubov Gordeyevnani quchoqlaydi*.) Qani, bolalar, amaking Lyubim Karpichga rahmat aytinlar, qo'sha qaringlар.

Pelageya Yegorovna ham bolalarni bag'riga bosadi.

Guslin. Tog'a, endi menga ham mumkinmi?

Gordey Karpich. Mumkin, mumkin. Kimga nima kerak bo'lsa – aytinlar, men endi boshqa odam bo'lib qoldim.

Guslin. Eh, Annushka, bizning ham baxtli kuniimiz kelarkan.

Anna Ivanovna. Ana endi to'-yu tomoshani ko'raverasizlar.

Pelageya Yegorovna. Rosa o'yin-kulgi qilamiz!

Razlyulyayev (*Mityaning yoniga keladi-da, yelkasiga bir tu-shiradi*). Mitya!.. Og'aynimsan... hammasidan kechdim... O'zim yaxshi ko'rib yurardim-u, senga buyurgan ekan... senga topshirdim. Qo'lingni ber. (*Qo'l siqishadilar*.) Ol dedimmi, bo'ldi, olaver, oshnamsan... Do'stimdan hech narsani ayamayman! Biz shunaqa odammiz, bilib qo'y! (*Etagi bilan ko'zlarini artib, Mityani o'padi*.) U rost aytadi, piyanistalik ayb emas... yo'g'-e, kambag'allik ayb emas deganim... Nuql gapdan adashib yuraman.

Pelageya Yegorovna. Ana xolos, hamma shu yerda  
ekan-ku! (*Qizlarga qarab.*) Qani qizlar, sho'xrog'idan olinglar... ha,  
sho'xchangidan... To'yni ko'ngildagidek o'tkazamiz... ha...

Qizlar ashula boshlaydilar.

Lyubim Karpich. Ts-s... Tingla, komandamni! (*Ashula ayta  
boshlaydi, qizlar jo'r bo'ladilar.*)

*Gap-so'z bir yerga tindi...  
Bor baraka qilindi,  
Hamma ish topdi anjom,  
To'y-bazm bo'lar endi.*

Parda

1853-yil.







## QATNASHUVCHILAR

Xarita Ignatevna Ogudalova, tul; yaxshi kiyinadi, lekin yoshiga mos emas.

Larisa Dmitriyevna, qizi; qariqiz, kiyimlari yaxshi, lekin bexasham.

Mokiy Parmenich Knurov, o'z zamonasining usta savdogarlaridan, ancha yoshga borib qolgan badavlat odam.

Vasiliy Danilich Vojevatov, yosh yigit, katta savdo firmalaridan birining vakili; yevropacha kostum kiyadi.

Sergey Sergeich Paratov, kema xo'jayinlaridan, olista barin, yoshi o'ttizdan oshgan.

Yuliy Kapitonich Karandishev, yosh yigit, o'rtamiyona chinovnik.

Yevfrosinya Patapovna, Karandishevning xolasi.

Robinzon.

Gavrilo, klubda bufetchi, bulvarda ham qahvaxonasi bor.

Ivan, qahvaxona xizmatchisi.

Ogudalovaning qaroli.

Ilya, lo'li.

Erkak va ayol lo'lilar.

Voqeja Volga bo'yidagi Bryaximov shahrida yuz beradi.



## BIRINCHI PARDA

Volganing baland qirg‘og‘ida shahar bulvari. Qahvaxona oldida kichik maydon, o‘ngda qahvaxonaga kiriladigan yo‘l, chapda daraxtlar, orqa tomondagi cho‘yan panjara orqali Volga daryosi, qishloqlar, o‘rmon va boshqa manzaralar ko‘rinib turadi. Qahvaxona oldidagi maydonchaga stollar, stullar, bir stol o‘ng tomonga, qahvaxona yoniga, boshqasi chap tomonga qo‘yilgan.

## BIRINCHI SAHNA

Gavrilo qahvaxona eshigi yonida turibdi, Ivan jihozlarini tartibga solmoqda.

Ivan. Bog‘da hech kim ko‘rinmadi-ya!

Gavrilo. Bayram kunlari doim shunaqa bo‘ladi. Eskichasiga yashayapmiz, birodar. Choshgoh ibodatini qilib bo‘lgandan keyin, quyuq-suyuqni surishtirmay qoringa joylash-u non-tuzdan so‘ng yetti soat dam olish.

Ivan. Yetti soat emish... Uch-to‘rt soat degin. Shu ham qiliq bo‘ldi-yu.

Gavrilo. Kechki ibodatga yaqin uyg‘onadilar-da, o‘lguday zerikkuncha choy ichadilar.

Ivan. Zerikkuncha? Zerikishi nimasi?

Gavrilo. Samovarning pinjiga tiqilib ikki soat surinkasiga choyni lo‘qillataversang bilasan-qo‘ysan. Besh-olti bor terlaysan, yettinchisiga yetganda zerika boshlaysan... Keyin choyning baxridan o‘tib boqqa qarab o‘rmalaydilar, nafasni rostlab ko‘ngil ochadilar. Bu paytlarda faqat sara kishilar bo‘ladi, xolos. Ana, qara, Mokiy Parmenich Knurov aylanib yuribdi.

Ivan. «Shu bulvarni qadamlab o‘lchab beraman» deb birovga va’da qilganday, u yoqdan bu yoqqa borib keladi. Nima azob ekan-a, aqlim yetmaydi?

Gavrilo. Hazmi taom uchun!

Ivan. Hazmi taom nima uchun kerak?

Gavrilo. Ishtahani ochish uchun-da, ishtaha ochish esa, unga tushlik ovqat uchun kerak. Shunday ovqatlari borki, hazmi taomsiz tushlik qilish mumkinmi, axir?

Ivan. Nega u kamgap?

Gavrilo. «Kamgap» emish... Millioner odam, kim ko'rinsa shu bilan adi-badi aytishga tobi bor ekanmi, nodon... Kim bilan ham gapirishsin? Shaharda uning bilan ikki-uch kishi gapirishadi, xolos, boshqa kim bor, shuning uchun ham kamgap. Shu sababdan bu yerlarda kam bo'ladi-da, foydasi bo'limganda boylab qo'ysa ham turmas edi. Gapirishgisi kelsa, Moskva, Peterburg, keyin chet mamlakatlarga borib gaplashib keladi. U yerlarda yoyilib rohat qiladi.

Ivan. Ana, Vasiliy Danilich pastdan chiqib kelayapti. Bunisi badavlat bo'lsa ham, sergap odam.

Gavrilo. Vasiliy Danilich hali yosh, yoshlik qilyapti, yoshi biroz ulg'aysa, bu ham o'sha suratning o'zginasi bo'lib qoladi, ko'rasan.

Chap tomondan Knurov kirib keladi va Gavrilo bilan Ivanning salomiga alik olmay, stolga borib o'tiradi, cho'ntagidan fransuzcha gazeta oladi-da, o'qiy boshlaydi. O'ng tomondan Vojevatov kiradi.

## IKKINCHI SAHNA

Knurov, Vojevatov, Gavrilo va Ivan.

Vojevatov (*salom qilib*). Mokiy Parmenich, sizga salom berish sharafiga muyassar bo'lganim uchun baxtliman.

Knurov. A! Vasiliy Danilich! (*Qo'l uzatadi*.) Xo'sh, qayerdan?

Vojevatov. Pristandan. (*O'tiradi*.)

Gavrilo yaqin keladi.

Knurov. Biron kishini kutib olgani chiqqanmidingiz?

Vojevatov. Shunday, ammo kelmadi. Kecha Sergey Sergeich Paratovdan telegramma olgan edim. Men undan paroxod sotib olayapman.

Gavrilo. «Qaldirg'och»nimi, Vasiliy Danilich?

Vojevatov. Ha, «Qaldirg'och»ni. Nimaydi?

Gavrilo. Juda suzag'on, baquvvat paroxod-da!

V o j e v a t o v . Ko'rmaysanmi, Sergey Sergeich aldadi, kelmadi.

G a v r i l o . Siz u kishini «Samolyot» paroxodida kelar deb chiq-qandirsiz, ehtimol o'zining «Qaldirg'och»ida kelar.

I v a n . Vasiliy Danilich, qarang, hov yuqoridan bir paroxod kelyapti.

V o j e v a t o v . Volgada yurgan paroxodlarning soni yo'q.

I v a n . Bunda, albatta, Sergey Sergeich kelayapti.

V o j e v a t o v . Rostdanmi?

I v a n . Ha, shunaqaga o'xshaydi. «Qaldirg'och» juda tanig'lik!

V o j e v a t o v . Rangini yetti chaqirimdan ajratasan-a!

I v a n . O'n chaqirimdan ham ajratib bo'ladi... Suzishiga razm soling. Xo'jayin kemada bo'lsa kerak-da.

V o j e v a t o v . Uzoqdamni hali?

I v a n . Hu, orol ortidan burilib chiqdi. Uchib kelayapti.

G a v r i l o . Uchib deysanmi?

I v a n . Uchish ham gapmi. «Samolyot» axir! Xuddi o'qday kelayapti.

G a v r i l o . Xuddi o'zları.

V o j e v a t o v (*Ivanga*). Qayerga to'xtarkin, qani aytib ber-chi!

I v a n . Xo'p bo'ladi... Shunday kelayaptiki! Xuddi hozir zambarak ham otishadi.

G a v r i l o . Turgan gap!

V o j e v a t o v . Qanaqa zambarak?

G a v r i l o . Volganing o'rtaida u kishining katta qayiqlari bor, bilsangiz...

V o j e v a t o v . Bilaman.

G a v r i l o . O'sha qayiqlarining bittasiga zambarak o'rnatilgan, Sergey Sergeich kelganda doim o'sha zambarakdan o'q uzadilar. (*Qahvaxona orqasiga ko'z tashlab*.) Ana, Chirkov ham izvoshini haydab kelayapti. Kelishini xabar qilishgan bo'lsa kerak. Chirkovning o'zi haydab kelayaptimi, bo'ldi, kelayotgan o'sha kishi.

V o j e v a t o v . Qayoqdan bilasan, balki u kishi uchun emasdир.

G a v r i l o . To'rt dul dulni qatorasiga qo'shibdimi, bilingki, o'sha kishi uchun. Boshqa kishiga Chirkov o'lsa ham to'rt ot qo'shmaydi... Qarang, ot emas, xuddi sherlarga o'xshaydi qurg'urlar. Jabduqlarini qarang... bu, albatta, o'sha kishi uchun.

Ivan. Chirkov yonida lo‘li ham yasanib o‘tiribdi, kamarini chunon tortibdiki, xudo ursin, hali-zamon ikkiga bo‘linib ketadi!

Gavril. Bu, albatta, o‘sha kishi uchun kelgan! Boshqa hech-kimga to‘rt duldul qo‘shilgan emas, ha! O‘sha kishining o‘zları.

Knurov. Paratov ko‘p olifta-da.

Vojevatov. Nimasini aytasan, oliftalikni ham juda eshadi.

Knurov. Paroxod arzon tushgandir-a?

Vojevatov. Arzon, Mokiy Parmenich.

Knurov. Ha-da, arzon bo‘lmasa olishning ma’nosi ham yo‘q-da, u nega sotyapti ekan-a?

Vojevatov. Fikrimcha, foyda ko‘rmayotgan bo‘lsa kerak.

Knurov. Foyda qayda deysiz? Foydaning yo‘lini u janoblar bilarmidi? Mana siz boplabsiz, ayniqsa, arzonga olsangiz.

Vojevatov. Bizga juda zarur. Quyi tomonda ancha yukimiz bor.

Knurov. Yo unga pul zarur bo‘lib qoldimikan-a?.. Isrofgar odam-da, o‘zi...

Vojevatov. Nima qilsa, o‘zining ishi. Bizning pulimiz tayyor.

Knurov. Ha, pul bo‘lsa changalda sho‘rva. (*Muloyimgina kulib.*) Vasiliy Danilich, pulsor kishining oshig‘i doim olchi-da.

Vojevatov. Ha, albatta! Siz buni hammadan yaxshi bilasiz, Mokiy Parmenich.

Knurov. Bilganda qanday, Vasiliy Danilich, shunday bilaman-ki...

Vojevatov. Muzdagidan ichmaymizmi, Mokiy Parmenich?

Knurov. Sizga bir gap bo‘ldimi, saharlab! Men hali nonushta qilganim yo‘q.

Vojevatov. Zarari yo‘q. Menga bir ingliz – fabrika direktori o‘zi, tumovning eng yaxshi davosi ertalab och qoringa shampanskiy ichish degan edi. Men kecha biroz shamollab qolibman.

Knurov. Qanday qilib? Shunday issiq kunda-ya.

Vojevatov. O‘sha tumov davosining juda ham sovug‘ini berib qo‘yishibdi, chamamda.

Knurov. Yo‘q, qo‘ying! Odamlar ko‘rib qolsa yaxshi bo‘lmaydi, tong otmasdan shampanskiy ichishyapti degan malomatga qolamiz.

Vojevatov. Odamlar malomat qilmasligi uchun choy icha-qolaylik.

Knurov. Choy boshqa gap.

Vojevatov (*Gavriloga*). Gavrilo! Choy, mening choyimdan keltir, tushundingmi? Mening choyimdan!

Gavrilo. Xo'b bo'ladi. (*Ketadi*.)

Knurov. Siz hali alohida choy ichasizmi?

Vojevatov. Farqi shundaki, choynakda olib keladi-yu, choy stakanlariga quyib ichamiz, vassalom...

Knurov. Hiylangiz joyida.

Vojevatov. Muhtojlik har nimaga o'rgatadi, Mokiy Parmenich!

Knurov. Parijdagi ko'rgazmaga borasizmi?

Vojevatov. Paroxodni sotib olib, yuklar uchun uni quyi to-monga yuboraman-da, keyin jo'nayman.

Knurov. Men ham yaqinda jo'nayman, meni kutmoqdalar.

Gavrilo ikki choynak shampanskiy va patnisda ikki stakanni olib chiqadi.

Vojevatov (*quyib turib*). Yangilikni eshitdingizmi, Mokiy Parmenich? Larisa Dmitriyevna erga tegayapti.

Knurov. Erga tegayapti? Qo'ying-e! Kimga?

Vojevatov. Karandishevga.

Knurov. Bu qanaqasi! Yetti uxlasa kishining tushiga kirmay-digan ish! Karandishev nima degan odam axir! Tengi emas u, Vasiliy Danilich.

Vojevatov. To'g'ri, tengi emas! Lekin boshqa kuyov bo'lma-gandan keyin, nima qilsin? Sepsiz qiz-da.

Knurov. Yaxshi kuyovni o'shanaqa sepsiz qizlar topadi-da.

Vojevatov. U vaqtlar o'tib ketgan. Ilgari kuyovlar ko'p edi, sepsiz qizlarga ham yetar edi, endi kuyov qani, faqat sepiga qarab kuyov chiqayapti, sepsizlarga chikora. Tuzukroq kuyov chiqqanda Xarita Ignatevna qizini shu Karandishevga berarmidi, deysiz?

Knurov. Usta xotin-da.

Vojevatov. Shu xotin rus bo'lmasa kerak deb o'ylayman!

Knurov. Nega?

Vojevatov. Haddan ziyod epchil-da, o'zi.

Knurov. Qanday qilib qo'lga tushib qolibdi-a? Ogudalovalar avlodи ancha tuzuk edi-ku, qo'qqisdan Karandishevga laqqa tushibdi!

Bo‘lmasa, o‘z epchilligi orqasida uyi doimo yosh-yalanglar, bo‘ydoqlar bilan to‘la edi!..

V o j e v a t o v . To‘g‘ri, uyiga keladigan xaridorlar mo‘l, nega desangiz, u yerlarda doimo xursandchilik! Qiz bo‘lsa, bir qoshiq suv bilan yutib yuborguday: chevar, sozanda, bulbuldek ovozi bor, muomalada tortinchoq emas. Bu xislatlar kimni o‘ziga tortmaydi deysiz. Lekin, uylanishga kelganda, mulohaza qilish kerak bo‘ladi.

K n u r o v . Axir, ikki qiz uzatgan-ku.

V o j e v a t o v . Uzatishga-ku uzatgan-a, ularning o‘zlaridan so‘rash kerak, turmushlari qanday ekan. Katta qizini bir kavkazlik bek olib ketdi. Juda qiziq bo‘ldi-da. U qizni ko‘riboq hang-mang bo‘lib qolibdi, ikki hafta yig‘labdi, qizning oldidan nari ketmasmish, ko‘zini alang-jalang qilib xanjarini ushlab turgan emish, hech kimni qizga yaqinlashtirmabdi. Shunday qilib uylanibdi, lekin Kavkazga yetmasdanoq birovga rashk qilib so‘yib tashlabdi deydilar... O‘rtancha qizi chet eldan kelgan birovga tekkan ekan, keyincha, ma’lum bo‘lishicha, u chet ellik emas, bir firibgar ekan.

K n u r o v . Ogudalovaning hisobi joyida, mol-mulki chamalik, bas, beradigan sepi yo‘q, shuning uchun hammaga eshigi ochiq.

V o j e v a t o v . O‘zi ham o‘yin-kulgini sevadigan xotin. Puli esa mundoqroq kun ko‘rishga ham yetmaydi.

K n u r o v . Qayerdan oladi bo‘lmasa?

V o j e v a t o v . Shu kuyovlar bo‘yniga-da. Qizi sizga yoqdimi, cho‘ntakni kovlang. Keyin, kuyovdan qizning sepiga deb ham oladilar, lekin uylanmoqchi bo‘lsangiz, sep so‘ramaysiz.

K n u r o v . Faqat talabgorlargina emas, sizning ham bu uyga teztez kirib turishingiz arzonga tushmasa kerak deyman.

V o j e v a t o v . Davlatim kamayib qolmaydi, Mokiy Parmenich! Nima ham derdik! Kayf-u safoning otasi ham, onasi ham pul. Xursandchilik pulga keladi, shu uyga kirsang ancha orom olasan kishi.

K n u r o v . Rost aytasiz. Haqiqatan ham orom oladi kishi.

V o j e v a t o v . O‘zingiz juda kam bo‘lasiz deyman.

K n u r o v . O‘ng‘aysizroq joy, u yerga har xil chakki-chukki odam-lar to‘planadi. Keyin, uchrashganda salom-alik qilishga, ko‘rishganda, albatta, gaplashishga urinadilar. O‘zingiz o‘ylab qarang, shu Karandishev bilan qanday qilib tanish-bilish bo‘lish mumkin?

V o j e v a t o v . To‘g‘ri, uylari xuddi bozorga o‘xshaydi.

K n u r o v . Nimasi yaxshi deysiz! Bittasi Larisa Dmitriyevna oldida qilpillab, qosh-ko‘zini maqtasa, bittasi eshilib shirin so‘zga tushadi. Xuddi xumga tushgan ariday g‘o‘ng‘illab bir og‘iz gap aytishga gal berishmaydi. Uning yakka qolgan paytini topib, tanho uchratish ma’qul.

V o j e v a t o v . Uylanish kerak.

K n u r o v . «Uylanish kerak» emish! Iloji yo‘q-da. Undan tashqari, har kim ham orzu qilavermaydi, masalan, meni oling, mening xotinim bor.

V o j e v a t o v . To‘g‘ri, iloji yo‘q... Yetolmayman puf sassiq-da, Mokiy Parmenich.

K n u r o v . Hali shunaqa deb o‘ylaysizmi?

V o j e v a t o v . Turgan gap! Hamma gap siz o‘ylaganday emas. Ko‘pga tuzoq qo‘yib ko‘rishgan-u, biroq ilinmagan. Mana endi, hech qanday takallufsiz, Karandishevga berib qo‘yaqolishdi. Nima deysiz, er-da.

K n u r o v . Shunaqa qiz bilan Parij ko‘rgazmasiga borsang, ajoyib bo‘ladi-da!

V o j e v a t o v . Ha, zerikmasdi kishi, quling o‘rgilsin sayohat bo‘lardiku-ya. Rejangiz chakki emas, Mokiy Parmenich!

K n u r o v . Sizning ko‘nglingiz ham bu rejadan xoli bo‘lmasa kerak, labbay?

V o j e v a t o v . Menga yo‘l bo‘lsin! Bunday ishlarni eplay olmayman, soddaman. Xotin-qizlar bilan gaplashishda ancha tortin-choqman, tarbiyam o‘lgur yoshlikdan mana shunaqa bo‘lgan, axloq joyida-da.

K n u r o v . Ha, gapiring, gapiring! Har holda, menga qaraganda sizda imkoniyat ko‘proq, yoshsiz, bu katta gap! Pulni ham ayamaysiz, paroxodni bo‘lsa arzonga tushirdingiz, foydasidan sarf qilsangiz ham bo‘ladi. Lekin «Qaldirg‘och»dan arzonga tushmasa kerak-a?

V o j e v a t o v . Har qaysi molning o‘z bahosi bor, Mokiy Parmenich. Yosh bo‘lishimga qaramay, qo‘limdan kelmagan ishga urinmayman.

K n u r o v . Qaydam! Sizga o‘xshagan yosh yigitni bir ko‘rishdayoq oshiq bo‘lib qolishi ham mumkin, ana o‘shanda ko‘rasiz!

V o j e v a t o v . Yo‘q, Mokiy Parmenich, hali men bunday kepataga tushganimcha yo‘q.

K n u r o v . Nima?

V o j e v a t o v . O'sha «sevgi» deb ataladigan gap mendan nari...

K n u r o v . O, azamat-e, durust, haqiqiy savdogar bo'lasiz. Lekin, shunga iqror bo'lingki, boshqalarga nisbatan siz unga ancha yaqinsiz.

V o j e v a t o v . Mening yaqinligim qayerga borishi mumkin? To'g'ri, ba'zan oyilaridan yashirib bir piyola shampanskiyni ortiqroq beraman. Ashulalar o'rgataman, qizlarga o'qish taqiqlangan romanlardan xufiya qilib yetkazib turaman, xolos.

K n u r o v . Asta-sekin yo'ldan toydirib, ko'zini ochayapman deng.

V o j e v a t o v . Aybim nima! Majbur qilayotganim yo'q. U kishining tarbiyasining g'amini men nega tortishim kerak. Men otaxonlari emasman-ku.

K n u r o v . Bir nimaga aqlim yetmayapti, nahotki Larisa Dmitriyev-naga shu Karandishevdan bo'lak er topilmasa?

V o j e v a t o v . Topilardi-yu, lekin qiz tushmagur soddaroq.

K n u r o v . Bu nima deganingiz? Befahm demoqchimisiz?

V o j e v a t o v . Yo'q, befahm emas, onasiga o'xshab hiyla qilishni, ayyorlik, xushomadgo'ylikni joyiga qo'yolmaydi. Gapning lo'ndasini aytib qo'yaqoladi.

K n u r o v . Ya'ni, rostgo'y, shunday-da?

V o j e v a t o v . Ha, ha, rostgo'y, lekin sepsiz qizlar uchun bunday qilish sira ham mumkin emas. Biron kishi yoqib qolsa, qizi tushmagur oqizmay-tomizmay rostini aytib, sirini ochadi-ko'yadi! Masalan, o'tgan yili Sergey Sergeich Paratov paydo bo'ldi. Qiz bechoraning qarab ko'zları to'ymadi ham. U bo'lsa ikki oycha kirib-chiqib yurdi, butun kuyovlarni tumtaraqay to'zitib yubordi, keyin birdaniga g'oyib bo'lib ketdi. Qayoqqa ketgani noma'lum.

K n u r o v . Bir gap bo'lganmi o'zi?

V o j e v a t o v . Kim biladi deysiz, alomat odam. Qiz uni chunonam sevib qolgan ekanki, hajrida kuyib o'layozdi. Qanday ko'ngilchang qiz-a. (*Kuladi*.) Orqasidan darrov yo'lga chiqqan ekan, onasi ikki stan-siya naridan qaytarib kelibdi-ya!

K n u r o v ! Paratovdan keyin ham kuyovlar chiqishdimi?

V o j e v a t o v . Ikkiasi kirib-chiqib yurishgan edi. Bod kasaliga mubtalo bo'lgan bir qaltiroq chol-u yana bir bekning o'ziga tuzukroq sarkori, lekin doim ichib yuradigan odam. Larisaning ko'ngliga sig'masa ham ular oldida noz-karashma qilishga majbur, chunki onaning buyrug'i shunday.

**K n u r o v.** Rostini aytganda, bechora qizning ahvoli yomon ekan-da.

**V o j e v a t o v.** Shunaqa, odamning kulgisi keladi. Goho bechoraning ko‘zida jiqla yosh-u, onasi kulishga majbur qiladi. Keyin bordaniga kassir paydo bo‘lib qoldi... Chunonam pul sarf qildiki, Xarita Ignatevnani pulga ko‘mib tashladi. Hammani qochirdi, lekin uzoq umr ko‘rolmadi. Uni xuddi shu uydan ovoqqa oldilar. Rosa shovshuv bo‘ldi. (*Kuladi.*) Bir oygacha ko‘chaga chiqmay pisib yotishdi. Shundan keyin Larisa onasining yuziga oyoq bosib: «Shuncha sharmandagarchilik yetar, boymi, kambag‘almi, kim sovchi yuborsa shunga tegaman, surishtirib o‘tirmayman», dedi. Xuddi shu paytda, go‘yo osmondan tushganday, Karandishev paydo bo‘lib, qizga xaridor bo‘lib qoladi.

**K n u r o v.** Bu, Karandishev, qayerdan paydo bo‘ldi o‘zi?

**V o j e v a t o v.** U uch yildan beri shu xonadonda o‘ralashib yurardi. Uydan haydashga-ku, haydashmasdi, ammo bir pullik hurmat ham qilishmasdi. Boy kuyovlarning qorasi ko‘rinmay qolgan kezlarda esa, uylari qup-quruq bo‘lib qolmaslik uchun uni nomigagina taklif qilib qo‘yishardi. Bordi-yu, biror boyroq kuyov chiqib qoldimi, bechora Karandishevning ahvoliga maymunlar yig‘lardi. Unga qarash, gapirish qayoqda, itmisan, eshakmisan ham deyishmas edi. U bo‘lsa bir burchakka suqilib olib, turli-tuman tovlanib o‘tiraverardi. Bir marta o‘zini otmoqchi ham bo‘ldi, lekin eplolmay kulgi bo‘ldi, xolos. Paratov kirib-chiqib yurgan vaqtarda ajoyib bir hodisa ro‘y bergen, qiziq hodisa... Nima bo‘ladi-yu, bir ko‘ngil ochish kechasi tashkil qiladilar, har kim istagan libosini kiyib kelishi kerak. Karandishev yo‘lto‘sarlar kiyimini kiyib, qo‘liga bolta ushlab keladi, hammaga, ayniqsa, Sergey Sergeichga xo‘mrayib qaray boshlaydi.

**K n u r o v.** Xo‘sh, undan keyin?

**V o j e v a t o v.** Qo‘lidan boltani tortib olib, o‘z kiyimini kiyishga buyurganlar. Bo‘lmasa hozir bu yerdan yo‘qol deyishgan.

**K n u r o v.** Demak, halol xizmati badaliga munosib in’om olgan ekan-da, sho‘rlik! O‘zi ham juda xursand bo‘lsa kerak!

**V o j e v a t o v.** Nimasini aytasiz, xursand bo‘lganda-chi, o‘zida yo‘q xursand. Rosa kulgi bo‘ldi-da! Haqiqiy tentak. Ogudalova uni tezroq uylanib, gap-so‘z bosilguncha o‘z mulkiga ketaqolsin deydi.

U bo'lsa Larisani qo'ltiqlab olib shahar bog'ida yurgani yurgan, yana qanday deng, shu qadar kekkayib yuradiki, biror narsaga qoqilib tushadi deb qo'rqaSAN, kishi. Yana, nima uchundir, ko'zoynak taqib olgani oshiqcha, ilgari bo'lsa sira taqmas edi. Salomni ham zo'rg'a beradi, shu qadar kerilib ketdiki, asti qo'yaverasiz, avvallari mutlaqo tovushi chiqmaydigan odam birdan «men, menlab» qoldi.

K n u r o v . Xuddi rus dehqoniga o'xshabdi-da, u ham faqat ichganga xursand bo'libgina qolmaydi, to biror narsani sindirib, birortasi bilan mushtlashib, o'lgudek kaltak yeb, hammaga masxara bo'limgunicha ko'ngli o'rniga tushmaydi, ana shulardan keyingina uyiga ketadi.

V o j e v a t o v . Karandishevning ham holi shu bo'ladi.

K n u r o v . Bechora qiz! Uni ko'rgan sari ezilib ketsa kerak deyman.

V o j e v a t o v . Uyini tuzatishga tushdi endi, tentak. Alhamga ar-zimaydigan gilamni devoriga qoqibdi, xanjarlar-u to'pponchalarni osib tashlabdi, yana qanaqa ovchi deng, umrida qo'liga miltiq olgan emas. Kim bo'lsa uyiga olib kiradi, rosa maqtanadi, kirmasang xafa bo'ladi, o'zi ham o'lgudek kibr, hasadchi odam. Qishlog'idan bir qirchang'i ot oldirib kelibdi, izvoshchi bo'lsa pakana, egnidagi kiyimi esa keng. Larisa Dmitriyevnani shu izvoshga solib olib yurgani yurgan, o'zi esa yonida, xuddi izvoshiga mingtacha yo'rg'a ot qo'shib olganday kekkayib o'tiradi. Boqqa kirib qolgudek bo'lsami, mirshabga qarab: «Mening izvoshimni aytib yubor!» – deb do'q uradi. Qarabsizki, bir dabdalasi chiqqan izvosh taraqa-turuq qilib keladi.

K n u r o v . Bechora, Larisa Dmitriyevnaga rahmim keladi! Rahmim keladi!

V o j e v a t o v . Juda rahm-shafqatli bo'lib qolibsizmi?

K n u r o v . Axir, bu xotin, faqat zeb-u ziynat uchun yaratilganini ko'rmayapsizmi? Brilliantga yarasha oltin bo'lishi ham kerak-da.

V o j e v a t o v . Usta zargar ham deng.

K n u r o v . Ha, otangizga rahmat. Zargar bo'lib hamki, oddiy zargar emas, o'taketgan naqqosh bo'lishi shart, ha! Qashshoq uy, uning ustiga, ahmoq er, eh bechora qiz, yo halok bo'ladi, yo bo'lmasa buzilib ketadi.

V o j e v a t o v . Men o'ylaymanki, qiz u bilan ko'p turmas. Hozir u murdaday karaxt, sal bunday o'ziga kelsin, er sho'rlikni bun-

day to'yib ko'rsin. Ana undan keyin tomoshani ko'ring... (*Ohista.*) Xizrni yo'qlasak ham bo'lar ekan, o'zлari ham kelishayapti.

Karandishev, Ogudalova, Larisa kiradi. Vojevatov turib salom qiladi.  
Knurov gazeta oladi.

## UCHINCHI SAHNA

Knurov, Vojevatov, Karandishev, Ogudalova; Larisa sahna ortiga, panjara yoniga qo'yilgan skameykaga o'tirib durbin bilan Volgani tomosha qila boshlaydi, Ivan bilan Gavrilo ham bor.

Ogudalova (*stol yoniga kelib*). Salom, janoblar.

Karandishev unga yaqinlashadi. Vojevatov, Ogudalova va Karandishev bilan qo'l berib so'rashadi. Knurov, Ogudalova bilan jim, o'midan turmay ko'rishadi. Karandishevga bo'lsa bosh irg'ab qo'yadi-da, yana gazeta o'qishga tutinadi.

Vojevatov. Xarita Ignatevna marhamat, o'tirsinlar! (*Kursini surib qo'yadi.*)

Ogudalova o'tiradi.

Choy xohlaydilarmi?

Karandishev ham o'tiradi.

Ogudalova. Mayli, bir piyola ichishim mumkin.

Vojevatov. Ivan, piyola ber, undan keyin qaynagan suv ham olib kel.

Ivan choynakni olib ketadi.

Karandishev. Bu qanday bo'limg'ur xayol? Hozir choy ichadigan vaqtmi? Qiziq.

Vojevatov. Tashnalik, Yuliy Kapitonich, nima ichishimni bilmay turibman. Bir maslahat bersangiz, jon-u dilim bilan tashakkur aytar edim.

Karandishev (*soatiga qarab*). Hozir tush vaqtি, bir ryumka araq ichib, orqasidan biroz kotlet yeb, so'ng bir stakan yaxshi vino ichish mumkin. Men doim shunday nonushta qilaman.

Vojevatov (*Ogudalovaga*). Mana bu chinakam turmush! Kishining havasi keladi, Xarita Ignatevna! (*Karandishevga*). Aqalli bir kun bo'lsa ham sizday kun o'tkazsa kishi. Arag'-u vino! Lekin biz bunday yashasak, hademay aqldan ozib, yo'limizni topolmay qolamiz. Siz

har narsa qilsangiz yarashadi, sarmoyangizni yeb qo‘ymaysiz, chunki tagida yo‘q. Biz esa, dunyoga g‘am-g‘ussa uchun yaratilganlarmiz, ishlarimiz juda katta, biz aqldan ozsak bo‘lmaydi.

I v a n choynak va piyola keltirib qo‘yadi.

Marhamat qiling, Xarita Ignatevna. (*Quyib uzatadi.*) Odamlar, «falonchi issiq ichimliklar ichar ekan» deb malomat qilmasligi uchun choyning hamsovug‘ini ichayapman.

O g u d a l o v a . Choying sovuq ekan, lekin menga juda ko‘p quyding-da, Vasya.

V o j e v a t o v . Hechqisi yo‘q, ichib yuboring, havo yaxshi, zarar qilmaydi.

K a r a n d i s h e v (*Ivanga*). Bugun ovqat vaqtida kelib bir xizmat qilib ket, ha, mehmonlar kelmoqchi.

I v a n . Xo‘p bo‘ladi, Yuliy Kapitonich.

K a r a n d i s h e v . Sal ozodaroq bo‘lib ol, durustmi?

I v a n . Turgan gap, yasanamiz-da, o‘zingizdan o‘tar gap yo‘q. Tushunamiz, ha!

K a r a n d i s h e v . Vasiliy Danilich, gap bunday bo‘lsin, bugun ovqatni menikida qilaylik.

V o j e v a t o v . Chin yurakdan tashakkur aytaman. Ehtimol, mening ham yasanib kelishimni buyurarsiz?

K a r a n d i s h e v . Istagan kiyimingizni kiying, har holda, xonimlar bo‘ladi. Ishqilib, uyalib qolmang-da.

V o j e v a t o v . Xo‘p mayli. (*Qulluq qilib.*) Sizni qizartirmasman deb umid qilaman.

K a r a n d i s h e v (*Knurovning yoniga kelib*). Mokiy Parmenich, bugun tushki ovqatni biznikida yeyishning iloji bo‘larmikan?

K n u r o v (*hayronlik bilan uni boshdan oyoq ko‘zdan kechirib*). Siznikida?

O g u d a l o v a . Mokiy Parmenich, farqi yo‘q, xuddi biznikida, chunki bu mehmondorchilik Larisaning sharafiga bo‘layapti.

K n u r o v . Demak, siz taklif qilayapsiz? Unday bo‘lsa boraman.

K a r a n d i s h e v . Demak, ishonsam bo‘ladi.

K n u r o v . Boraman dedimmi, bo‘ldi. (*Gazeta o‘qiydi.*)

O g u d a l o v a . Yuliy Kapitonich – mening bo‘lg‘usi kuyovim, men bu kishiga qizim Larisani uzataman.

K n u r o v (*o'qishni davom ettirib*). U sizning ishingiz.

K a r a n d i s h e v . Shunday, Mokiy Parmenich, tavakkal qildim. Men, umuman, eski urf-odatlardan nari odam.

K n u r o v gazeta bilan yuzini berkitadi.

V o j e v a t o v (*Ogudalovaga*). Mokiy Parmenichning jahli chiqapti.

K a r a n d i s h e v (*Knurovdan Vojevatovning oldiga borib*). Men Larisa Dmitriyevnani faqat sara odamlar bilan suhbatda bo'lishini istayman.

V o j e v a t o v . Demak, men ham sara odamlar jamiyatiga taalluqli ekanman-da, tashakkur. Men buni kutmagan edim. (*Gavriloga*.) Gavrilo, choying uchun qancha to'lay?

G a v r i l o . Ikki porsiya buyurganmidingiz?

V o j e v a t o v . Ha, ikki porsiya.

G a v r i l o . O'zingiz bilasiz, Vasiliy Danilich, birinchi marta emas-ku, axir, o'n uch rubl, xolos.

V o j e v a t o v . Shunday degin, men arzon bo'lib qolgandir deb o'yabman.

G a v r i l o . Qanday qilib arzon bo'lsin! Narx-navo shunday. Daromad – buromad. O'zingizdan o'tar gap yo'q.

V o j e v a t o v . Mayli, bo'pti. Janjallahayotganim yo'q-ku. Muncha vaysading! Pulingni ol-da, nari bor mendan! (*Pul beradi*.)

K a r a n d i s h e v . Nega bunchalik qimmat? Tushunolmayman.

G a v r i l o . Birovga qimmat, birovga arzon. Siz bunday choyni icholmaysiz.

O g u d a l o v a (*Karandishevga*). Qo'ying, birovning ishiga aralashmang.

I v a n . Vasiliy Danilich, «Qaldirg'och» kelib qoldi.

V o j e v a t o v . Mokiy Parmenich, «Qaldirg'och» kelayapti. Malol kelmasa bir ko'rsangiz. Pastga tushmaymiz, mana shu yerdan qaraymiz.

K n u r o v . Mayli, ko'rsak bo'ladi. (*Turadi*.)

O g u d a l o v a . Vasya, seniig aravangda ketaman-da.

V o j e v a t o v . Mayli, faqat tezroq qaytarib yuborasiz-da. (*Larisa-ning oldiga kelib, sekin-sekin so'zlashadi*.)

O g u d a l o v a (*Knurovning yoniga kelib*). Mokiy Parmenich, to'yni boshlab yubordik. Shu qadar sertashvishki, qo'yaverasiz.

K n u r o v . Shunday deng.

O g u d a l o v a . Qarangki, kutilmagan darajada katta xarajatlar... Ertaga Larisaning tug'ilgan kuni. Biron narsa sovg'a qilmoqchi bo'laman-u...

K n u r o v . Yaxshi, o'zim bir kirib o'tarman.

O g u d a l o v a ketadi.

L a r i s a (*Vojevatovga*). Xayr, ko'rishguncha, Vasya!

V o j e v a t o v bilan K n u r o v ketadi.

L a r i s a Karandishevning yoniga keladi.

## TO 'RTINCHI SAHNA

K a r a n d i s h e v va L a r i s a .

L a r i s a . Men hozir Volganing u tomonini tomosha qildim! Qanday chiroqli, tezroq qishloqqa ketaylik.

K a r a n d i s h e v . Volgani tomosha qildingizmi? Xo'sh, Vojevatov sizga nimalar dedi?

L a r i s a . Hech nima, bo'limgan gaplar. Volganing narigi tomoni, o'rmon, meni maftun qilib qo'yibdi... (*Xayol bilan*) Ketaylik shu yerdan, ketaylik!

K a r a n d i s h e v . Har holda, hayronman! U siz bilan nima haqda gaplashishi mumkin?

L a r i s a . Nima haqda gaplashgani bilan sizning nima ishingiz bor?

K a r a n d i s h e v . Tag'in Vasya deb atashingiz ortiqcha. Uylamagan yigitni sansirab so'zlashni nima desa bo'ladi?

L a r i s a . Biz bir-birimizni yoshligimizdan taniymiz. Birga o'ynab katta bo'lganmiz, yoshlikdagi odat.

K a r a n d i s h e v . U odatlaringizni tashlashingiz kerak. Tentak, so'lagi oqqan bola bilan bunday muomalada bo'lish nima degan gap! Bu odatlaringizga bundan keyin chidab bo'lmaydi, bilsangiz.

L a r i s a (*xafa bo'lib*). Bizning o'rtamizda hech qanday bema-zagarchilik bo'lgan emas.

K a r a n d i s h e v . Lo'li to'pi-chi.

Larisa ko'z yoshini artadi.

Nimadan xafa bo'ldingiz, xonim?

**Larisa.** Lo'li to'pi... Nima bo'pti? Har holda, shod-xurramlik edi. Lekin, menga shu to'pdan ko'ra tuzukroq bir nima berish sizning qo'lingizdan kelarmikan?

**Karandishev.** Bo'lmasam-chi.

**Larisa.** Nima uchun siz doimo shu to'pni menga pesh qilasiz? Shunday yashash menga yoqardi deb o'ylaysizmi? Men onamning xohishi bilan shunday yashar edim. Noiloj shunday hayot kechirishga majbur edim... Har doim o'sha lo'li hayotini ta'na qilishingiz, yo tentaklik, yo bo'lmasa rahmsizlik. Agar men tinchlikni, yakkalikni, uzlatni istamaganimda, sizga tegishga rozi bo'larmidim? Tushuning axir, meni tanladi, demak, arzigulikman degan fikrni xayolingizga ham keltirmang, chunki men hali u xislatni sizda ko'rganim yo'q. Men hali endigina sizni sevmoqchiman, xolos. Soddagina oilaviy hayot qurmoqchiman, ana shu hayot menga jannat bo'lib ko'rinyapti. Ko'rayapsizmi, men arosatda qolgan kishiman, menga dalda berishingiz, g'amimga sherik bo'lishingiz kerak, menga xushmuomala bo'ling, erkalating, ko'nglimni ko'taring! Bunday fursatni qo'lingizdan boy berib qo'yamang.

**Karandishev.** Larisa Dmitriyevna, sizni xafa qilib qo'yaman deb o'ylamagandim ham, shunchaki aytdim-da...

**Larisa.** «Shunchaki aytdim-da» Bu nima deganingiz? Ya'ni, o'ylamasdan so'zladim demoqchimisiz? Xafa qilib qo'yishingizni bilmadingiz, shundaymi?

**Karandishev.** Albatta, men beg'araz.

**Larisa.** Unday bo'lsa, bu yana battarroq. Avval kishi nima demoqchi bo'lganini o'ylashi kerak. Agar sizga bema'ni gap yoqsa, boshqa biron kishini topib valaqlashing, men bilan o'ylashibroq gap-lashing! Axir, mening ahvolimning jiddiy ekanini ko'rib tiribsiz-ku! Og'zimdan chiqqan har bir so'zni ham, birovning so'zini ham, hammasini salmoqlab ko'raman. Men juda ziyrak va ko'ngli bo'sh bo'lib qoldim.

**Karandishev.** Unday bo'lsa, afv etishingizni so'rayman.

**Larisa.** Xo'p, mayli, lekin bundan so'ng ehtiyyot bo'ling. (*Xayolga cho'mib.*) Lo'li to'pi... bu haqiqat, lekin bu to'pda olivjanob va yaxshi odamlar ham bor edi.

**Karandishev.** Kim ekan u olivjanob odam? Sergey Sergeich Paratov bo'lmasin tag'in?

**Larisa.** Bas, o'tinib so'rayman, bu to'g'rida gapirmang!

K ar and i sh e v . Nima uchun?

L ar i s a . Siz uni bilmaysiz... Bilganda ham... kechirasiz, unga baho berish sizning qo'lingizdan kelmaydi.

K ar and i sh e v . Odamning fe'l-atvoriga qarab baho beriladi. Axir, u sizga yaxshi ish qilib ketdimi?

L ar i s a . Bu mening ishim. Bordi-yu, men bu to'g'rida biror nima deyishdan qo'rqib va jur'at etolmas ekanman, sizga ham gapirgani ruxsat etmayman.

K ar and i sh e v . Larisa Dmitriyevna, menga aytинг-chi, faqat o'tinib so'rayman, ochiq aytинг!

L ar i s a . Nimani aytay?

K ar and i sh e v . Paratovdan qayerim kam?

L ar i s a . Hali shunaqami, unday gaplarni qo'ying!

K ar and i sh e v . Yo'q, aytинг. Aytинг, qayerim kam?

L ar i s a . Keragi yo'q! Bu qanday taqqoslash bo'ldi?

K ar and i sh e v . Menga sizning fikringizni bilish qiziq edi.

L ar i s a . Keragi yo'q, so'ramang.

K ar and i sh e v . Nima uchun axir?

L ar i s a . Shuning uchunki, to'g'risi, taqqoslash sizning foydan-gizga hal bo'lmay qoladi. Siz bunday qaraganda yaxshi, vijdonli kishi-siz, lekin Sergey Sergeich bilan taqqoslaganda ana shu fazilatlaringiz ko'rinxmay ketadi.

K ar and i sh e v . Bu faqat gappina, isbot kerak. Siz har ikko-vimizni yaxshilab solishtirib ko'ring!

L ar i s a . O'zingizni kimga tenglashtiryapsiz? Bu qadar ko'r-ko'rona!.. Sergey Sergeich chinakam o'g'il bola. Erlarning sarasi! Bu gapning ma'nosini tushunasizmi? Ehtimol, men adashayotgandirman, men yoshman, odamlarni yaxshi bilmasman, biroq men bu fikrimdan qaytmayman. O'lganda ham shu fikrimda o'laman.

K ar and i sh e v . Tushunolmadim, nimasi ortiq ekan, hechni-masi. Tantiligimi? Jur'atimi? Bu har kimning qo'lidan keladi.

L ar i s a . Qanday jur'at ekanini bilasizmi?

K ar and i sh e v . Qanday bo'lsa ham bo'lsin, xo'sh nima bo'pti? Bo'sh kelsang oshaveradi-da.

L ar i s a . Unday bo'lsa, men sizga bir voqeani aytib beray, bu yerga Sergey Sergeichning kavkazlik bir ofitser oshnasi keldi, u juda yaxshi mengan ekan. Bir kun biznikida ham bo'lishdi. Sergey Sergeich unga: «Eshitishimga qaraganda siz yaxshi mengan emishsiz», – dedi. «Ha,

yomon emas», – dedi ofitser. Sergey Sergeich bo'lsa unga to'pponcha berdi. O'z boshiga bitta stakan qo'yib ikkinchi uyga chiqdi. O'n ikki qadamcha nariga borib turib, «Oting!» – dedi.

Karandishев. Xo'sh, u otdimi?

Larisa. Otib, stakanni sindirdi, lekin rangi biroz oqarib ketdi. Shunda Sergey Sergeich: «Siz juda yaxshi otar ekansiz, biroq sizga uncha yaqin bo'limgan kishiga qarab otib, shunchalik oqarib ketdingiz. Mana, qarab turing, dunyoda men uchun hammadan qimmatbaho bo'lgan qizga qarab o'q uzaman, lekin rangim oqarmaydi», – dedi. Hech ham parvo qilmay kulib turib qo'limga bir tangani ushlatib qo'ydi, xuddi o'shanday masofadan otib, tangani urib tushirdi.

Karandishев. Siz ham uning aytganini qildingizmi?

Larisa. Uning so'zini qaytarib bo'ladimi?

Karandishев. Unga shunchalik ishonardingizmi?

Larisa. Nimalar deyapsiz! Unga ishonmaslik mumkinmi?

Karandishев. Toshurak odam ekan, shuning uchun tanti, hech narsadan toymaydi.

Larisa. Yo'q, toshurak emas. Faqirlarga xayr-ehson qilganini o'z ko'zim bilan ko'rghanman. Yonidagi bor pulini ularhib berganini ko'rghanman.

Karandishев. Ha mayli, faraz qilaylik, Paratov sizning ko'z oldingizda, birmuncha fazilatga ega deylik. Xo'sh, manavi savdogarbachcha Vojevatov nima degan odam, sizning Vasyangiz?

Larisa. Siz rashk qilayotgan ko'rinasiz. Qo'ying, bu tentakkilikni tashlang, men bu bemazagarchilikka chiday olmayman. Oldindan ogohlantirib qo'yay. Siz qo'rwmang, men hech kimni sevmayman va bundan keyin ham sevolmayman.

Karandishев. Bordi-yu, Paratov kelib qolsa-chi?

Larisa. Bu boshqa gap! Sergey Sergeich qaytib kelsa-yu, agar salt-suvoy bo'lsa, bir nazar tashlasa bas... Qo'rwmang, u qaytib kelganicha yo'q, endi qaytib kelganda ham kech. Ehtimol, bundan keyin hech ko'risholmasmiz ham.

Volgadan zambarak ovozi eshitiladi.

Bu nimasi?

Karandishев. Bironta ahmoq savdogar o'z kemasidan tushayotgan bo'lsa, o'shaning sharafiga salut berayaptilar.

Larisa. Biram qo‘rqib ketdimki.

Karandishev. Nima bo‘ldi, aytin?

Larisa. Ko‘ngil bejo. Xastaman. Hozir manavi tepalikdan pastga qaragan edim boshim aylanib ketdi. Bu yerdan tushib ketgan kishi sog‘ qolmasa kerak?

Karandishev. Sog‘ qolish ham gapmi, chil-chil bo‘lib ketar, naq o‘lim-ku. Undan tashqari, bu yer shu qadar chuqrurki, tagiga yetmayoq parchalanasan kishi.

Larisa. Yuring, uyga ketaylik, bo‘ldi.

Karandishev. Rost-a, men ham ketishim kerak-ku. Bugun mehmonim bor.

Larisa (*panjaraga yaqinlashib*). Hoy, shoshmang! (*Pastga qarab*) Voy, voy, ushlang meni!

Karandishev (*Larisaning qo‘lini ushlab*). Yuring-e, bu nima go‘daklik? (*Ketadilar*.)

Gavrilo va Ivan qahvaxonadan chiqadilar.

## BESHINCHI SAHNA

Gavrilo bilan Ivan.

Ivan. To‘p ovozi! To‘ra keldi! To‘ra keldi! Sergey Sergeich keldi.

Gavrilo. Men aytdim-ku, o‘sha kishi deb. Bilaman-da, lochin parvozidan ma’lum bo‘ladi.

Ivan. Arava bo‘sh-a, piyoda kelishayapti shekilli. E, ana o‘zlarini ham. (*Qahvaxonaga chopib kirib ketadi*.)

Gavrilo. Bosh ustiga, marhamat. Nima bilan ziyofat qilishni bilmaysan kishi.

Paratov (bir tomoniga tugma taqilgan qora syurtuk, baland poshnali amirkon etik, oq furajka kiygan, yelkasida safar sumkasi).

Robinzon (plash kiygan, o‘ng barini chap yelkasiga tashlab olgan, yangi shlapa chakkasida), Knurov va Voevotlar kiradilar, qahvaxonadan kiyim cho‘tkasini ko‘tarib Ivan chiqadi va Paratovning kiyimlarini tozalamoqchi bo‘ladi.

## OLTINCHI SAHNA

Paratov, Robinzon, Knurov, Vojevatov,  
Gavriilo va Ivan.

Paratov (*Ivanga*). Senga nima bo'ldi? Men suv bilan keldim-ku, daryoda chang yo'q.

Ivan. Nima bo'lsa ham, endi taqsir, qo'yavering, tartib shuni talab qilgandan keyin... Bir yildan beri ko'rishmaymiz, shunday bo'lgandan so'ng... xush kelibsiz, to'ram!

Paratov. Ha, durust, balli! Ma, ol! (*Bir rublik qog'oz pul beradi.*)

Ivan. Umringizdan baraka toping, to'ram. (*Uzoqlashadi.*)

Paratov. Shunday qilib, Vasiliy Danilich, siz meni «Samolyot» degan paroxodda kelishimni kutgandingizmi?

Vojevatov. Ha. Men «Qaldirg'och»ingizda paydo bo'lishingizni qaydan bilay. Men uni yuk kemalari bilan birga kelar deb o'ylagandim-da.

Paratov. Yo'q, yuk kemalarimni sotib yubordim. Ertalab yetib kelaman deb o'ylagan edim, «Samolyot»ni quvib o'tib ketay degan edim, mashinist qo'rqaqlik qildi. Kochegarga o't qala deb baqiram, mashinist bo'lsa o'tinlarni tortib oladi. «Agar yana bitta tarasha qalaydigan bo'lsangiz o'zimni suvgaga tashlayman», deb turib olibdi deng. «Doshqozon chidash berolmaydi» deb qo'rqaadi, shekilli? Qandaydir raqamlarni qog'ozga chizib, menga ko'rsatadi, xolos. Menga o'rgatmoqchi bo'ladi. Ming qilsa ham, chet el odami-da, gollandiyalik o'zi, yuraksiz. Hisob ilmiga yetuk, xolos. Yurak qayda deysiz. E, men sizlarni o'z do'stim bilan tanishtirishni unutibman, janoblar. Mokiy Parmenich, Vasiliy Danilich tanishing, Robinzon.

Robinzon ehtirom bilan salom qilib, Knurov va  
Vojevatova qo'l beradi.

Vojevatov. Bu kishining ismi shariflari nima?

Paratov. Shunday, Robinzon deyilsa bas.

Robinzon (*Paratovga*). Serj!

Paratov. Xo'sh?

Robinzon. Tush ham bo'ldi, do'stim, mening mazam qochdi.

Paratov. Ozgina sabr qil, mehmonxonaga boramiz hali.

Robinzon (*qahvaxonani ko'rsatib*). Ana-ku!

**P a r a t o v .** Ha, jin urgur, mayli, bor!

**R o b i n z o n** qahvaxonaga kiradi.

Gavrilo, bu afandiga bir qadahdan ortiq berako'rma, andak to'-polonchiroq .

**R o b i n z o n** (*yelkasini qisib*). Serj! (*Kirib ketadi*,) orqasidan **Gavrilo**.)

**P a r a t o v .** Bu kishi, janoblar, Arkadiy Schastlivsev, xashaki artistlardan.

**V o j e v a t o v .** Nega endi u Robinzon bo'ladi?

**P a r a t o v .** Hozir aytib beraman, qandaydir bir paroxodda ketayotgan ekan, yaxshi bilmayman, savdogar o'g'li Neputev degan oshnasi bilan birga ekan. Ma'lumki, ikkalasi ham o'larday mast. Ko'ngillariga nima kelsa shuni qilishgan, odamlar avval chidab turibdi, bular esa noma'qulchilikni avjiga chiqarib drama ko'rsatishibdi. Qip-yalang'och bo'lishib, par yostiqni yirtishgan-u, parga ag'anab, yovvoyilarga o'xshab qutura boshlashibdi. Sabr kosasi to'lgan xalqning talabiga ko'ra, kapitan bularni bitta bo'sh orolga tashlagan-u, ketgan. Biz o'sha orol yonidan o'tib ketayotgan edik, birov qo'lini baland ko'tarib, hadeb bizni chaqiradi. Ko'rib qoldim-u, to'xta, dedim. O'zim qayiqchaga tushib borib, shu artist Schastlivsevga ega bo'ldim. Paroxodga olib kelib, o'z kiyimimni kiygizdim. Xayriyat ust-bosh yetarli ekan, Artistlarni ko'rganda juda eshilib ketaman, janoblar! Mana shuning uchun u Robinzon.

**V o j e v a t o v .** Xo'sh, Neputev orolda qolib ketdimi?

**P a r a t o v .** Uni boshimga uraymi? Qo'yavering, shamollab yursin. O'zingiz bilasiz, janoblar, yo'lda o'lguday zerikadi kishi. Kim bo'lmasin, yo'ldosh bo'lsa bas, xursand bo'laman.

**K n u r o v .** Bo'lmasam-chi, albatta!

**V o j e v a t o v .** Bu chinakam baxt, shunday baxtki, asti qo'ying! Oltin deng, oltin!

**K n u r o v .** Bitta qiling'i yomon ekan, ko'p ichar ekan.

**P a r a t o v .** Yo'q, janoblar, bu masalada men ancha-muncha qattiqqo'lman. Uning puli yo'q, mening ijozatimsiz quyib berishga hech kimning haqqi yo'q. Menden so'rab qolsa, qotirib fransuzcha kitoblardan bir necha varag'ini qo'liga tutqizaman. Qani bir varag'ini yodla, bo'lmasa, pul yo'q deyman. Albatta, o'tirib o'qishga tushadi, urinib qoladi!

V o j e v a t o v . Bu sizga baxt, Sergey Sergeich! Bunday kishidan hech narsa ayamasa ham bo‘ladi! O‘zi yaxshi artist ekanmi?

P a r a t o v . Qayoqda yaxshi artist bo‘lsin, haligi, hamma ko‘challardan o‘tgan; hatto suflyorlik ham qilgan emish. Endi operettalarda o‘ynar ekan. O‘ziga yarasha, yomon emas. Andak kuldiroladi ham.

V o j e v a t o v . Demak, xushchaqchaq?

P a r a t o v . Ha, g‘alatiroq afandi!

V o j e v a t o v . Hazillashsak bo‘lar ekan-da?

P a r a t o v . Bo‘ladi, hazilkash yigit. Mayli, ikki-uch kunga sizga yuborishim mumkin. Ko‘ngil ochib qoling.

V o j e v a t o v . Tashakkur! Ko‘nglimizni ochsa, qo‘ynini to‘ldiramiz, ha!

K n u r o v . «Qaldirg‘och»ni nechuk achinmay sotmoqchi bo‘la-yapsiz, Sergey Sergeich?

P a r a t o v . Achinish nima degan so‘z, bilmayman. Mokiy Parmenich, men hech narsani qadr qilmayman, naf ko‘radigan bo‘lsam hamma narsamni sotaman. Hozir, janoblar, tirikchiligidan ham, hisoblarim ham o‘zgacharoq. Men juda bir boy kishining qiziga uylanayapman. Sepiga bo‘lsa butun boshli oltin kon bilan kelayapti.

V o j e v a t o v . Mana buni sep desa bo‘ladi.

P a r a t o v . Lekin, bu menga ham arzon tushmayapti. Men o‘zimning ozodligim, sho‘x yigitlik hayotim bilan vidolashmoqqa majburman. Shuning uchun so‘nggi kunlarimni juda xursandchilik bilan o‘tkazishim kerak.

V o j e v a t o v . Xo‘p bo‘ladi, Sergey Sergeich, joyiga qo‘yamiz.

P a r a t o v . Men oladigan qizning otasi atoqli chinovnik janoblardan. Taqvodor chol! Lo‘lilar, bazmlar to‘g‘risida gap bo‘lsa ko‘ngli aynab ketadi. Hatto, tamakini ko‘proq chekadiganlarni ham xushlamas ekan. Unga qolsa, frak kiying-u, «parlez français!»<sup>1</sup>. Mana shuning uchun fransuz tilini Robinzon bilan mashq qilayapman. Robinzon bo‘lsa, meni oliftaroq ko‘rinsin debmi, «lya Serj» deb ataydigan bo‘ldi. Ichagim uziladi, kulib. «Lya Serj» emish!

Qahvaxona zinapoyasida bir narsani chaynab R o b i n z o n paydo bo‘ladi, uning orqasidan G a v r i l o chiqadi.

<sup>1</sup> Fransuzcha gapiring!

## YETTINCHI SAHNA

Paratov, Knurov, Vojevatov, Robinzon,  
Gavrilo, Ivan.

Paratov (*Robinzonga*). «Que faites-vous là? Vanez!»<sup>1</sup>

Robinzon (*takabburlik bilan*). «Comment?»<sup>2</sup>

Paratov. Hay-hay, nazokatni qarang! Qanday xushovoz, janob-lar! (*Robinzonga*) Sen o'sha qovoqxona uchun do'stlarni tashlab ketadigan bemaza qiliqlaringni tashla!

Vojevatov. Bular o'zi shunaqa-da.

Robinzon. Lya Serj, sen ulgurdingmi hali... Nima hojati bor edi.

Paratov. Kechirasan-da, laqabingni oshkora qilib qo'ydim.

Vojevatov. Biz, Robinzon, siringni ochmaymiz, hadiksirama! Angliyalik mehmon bo'lib qolaverasan. Xotirjam bo'l!

Robinzon. Iye, darrov san? Nima, siz bilan non-u qatiq ichgan-midik, yo bo'lmasa, biron ta may ichib «san-man» bo'lganmidik.

Vojevatov. Baribir-da, nozini qarang!

Robinzon. Men-ku, nom-u nasabni atab gapirganni yomon ko'raman-a, ammo har kim...

Vojevatov. Axir, men har kim emaski...

Robinzon. Kimsiz bo'lmasa?

Vojevatov. Savdogar.

Robinzon. Boymisiz?

Vojevatov. Boyman.

Robinzon. Saxiymisiz?

Vojevatov. Saxiy.

Robinzon. Xuddi mening didimdag'i zot ekansiz! (*Vojevatovga qo'l berib*) Juda soz, mana endi men bilan jo'n muomalada bo'lishga ijozat berishim mumkin.

Vojevatov. Demak, do'st bo'ldik? Ikki tan-u bir jon!

Robinzon. Ham bir hamyon. Ismi sharifingiz, xo'sh, yo'g'-e... Unisining nima keragi bor, faqat ismingiz!

<sup>1</sup> U yerda nima qilaysiz? Bu yoqqa keling!

<sup>2</sup> Nima?

V o j e v a t o v . Vasiliy Danilich!

R o b i n z o n . Aha, Vasya. Qani birinchi tanishganimiz sharafiga xarajatlarni to'la-chi.

V o j e v a t o v . Gavrilo, yozib qo'y! Sergey Sergeich, bugun kechqurun Volganing nariyog'ida sayr qilishni o'ylab qo'ydik. Bir qayiqda lo'lilar-u bir qayiqda o'zimiz. Gilamlarni yoyib qo'yib yonboshlashamiz, shirin maylardan selava qilamiz.

G a v r i l o . Ikkita kattagina ananas ko'pdan beri sizga muntazir. Sizning kelishingiz munosabati bilan shularni so'yib baham ko'ramiz-da.

P a r a t o v (*Gavriloga*). Juda soz, mayli, so'y! (*Vojevatovga*.) Janoblar, nima desangiz hammasiga men tayyor!

G a v r i l o . Nima darkor bo'lsa, Vasiliy Danilich, barini o'zim shaylayman. Xotirjam, yaxshilar uchun alohida kumush tovoqlarim, barkashlarim ham bor. Xizmatingizga odamlarni ham ayamayman.

V o j e v a t o v . Durust, soat oltiga hamma narsa tayyor bo'lsin. Ortiqcharoq ul-bul shaylasang, kuymaysan, lekin yetmay qolsa, xafa bo'lasan.

G a v r i l o . Tushunamiz, ha.

V o j e v a t o v . Qaytishda bo'lsa, qayiqning hammayog'iga rang-barang chiroqlar osamiz.

R o b i n z o n . Hozirgina tanishdig-u, juda yaxshi ko'rib qoldim, janoblar. Rostakam mo'jiza.

P a r a t o v . Hammadan ham xursandchilik bo'lsin! Men bo'y-doqlik, boshvoqsiz hayotim bilan xayrlashayapman. Shu kunlarni esga olsa arziydigan xursandlik bo'lsin-da. Tushgi ovqat esa, menikida bo'lsin, janoblar.

V o j e v a t o v . Attang, bu mumkin emas, Sergey Sergeich.

K n u r o v . Bizni bir joyga chaqirib qo'yishgan edi-da.

P a r a t o v . Bormaysiz qo'yasiz-da, janoblar!

V o j e v a t o v . Bormasak, bo'lmas, Larisa Dmitriyevna erga tegayapti, ziyofat qilib berayapti.

P a r a t o v . Larisa erga tegayapti! (*O'ylanib qoladi*.) Mayli, xudo umr bersin, bu ish soz bo'pti. Men uning oldida biroz aybliman. To'g'risi, men ularga qoramni ko'rsatmaydigan darajada aybliman. Modomiki, erga tegayotgan ekan, eski hisob-kitob tamom. Men borib

yana uning, ham xolamning qo'lchalarini o'pishim mumkin. Men Xarita Ignatevnani xola deb atayman. Men sal bo'lmasa Larisaga uylanib qoluvdim-a. Rosa kulgi bo'lar edim-da. Tozayam tentak qilib o'ynar ekan-da. Erga tegayapti... juda yaxshi o'yabdi... undan tashqari, mening ham yuragim ancha yengil tortib qoladi. Xudo umrini, baxtini bersin... Kirib o'taman, albatta, bir kirib o'taman. Bir ko'rish kerak, albatta, bir kirib o'taman.

V o j e v a t o v . Sizni ham chaqirishar.

P a r a t o v . Bo'lmasam-chi, mensiz bo'larmidi!

K n u r o v . Dasturxon ustida suhbat uchun odam borligiga juda xursandman.

V o j e v a t o v . Vaqtni xushchaqchaq o'tkazish haqida o'sha yerda maslahatlashib olamiz. Ehtimol, biron narsa miyaga kelib qolar tag'in.

P a r a t o v . Janoblar, «umr qisqa» debdi faylasuflar. Demak, umr-dan foydalanishni bilish kerak. «N'est ce pas»<sup>1</sup>, Robinzon?

R o b i n z o n . Shunday, lyu Serj.

V o j e v a t o v . Sizni zeriktirib qo'ymasmiz, axir. Biz uchinchi qayiqni ham olamiz, unga polk orkestrini tushiramiz.

P a r a t o v . Ko'rishguncha, janoblar! Men musofirxonaga ketdim. Qani, Robinzon.

R o b i n z o n (*shlapasini ko'tarib*):

*Yashasin quvnoqlik,  
Yashasin gashtimiz!*



---

<sup>1</sup> Shunday emasmi?



## IKKINCHI PARDА

O g u d a l o v a uyida bir bo‘lma. Ikki eshik: biri sahnaning to‘g‘risida – kiradigan eshik, ikkinchisi esa – chap tomonda, o‘ng tomonda deraza; mebellar yaxshi, fortepyano va uning ustida gitara turibdi.

### BIRINCHI SAHNA

O g u d a l o v a yolg‘iz. Qo‘lida quticha bilan chap tomondagi eshik yoniga boradi.

O g u d a l o v a . Larisa, Larisa!

Larisaning sahna orqasidan «Men kiyinayapman, oyi» degan ovozi eshitiladi.

Buni qara, Vasya qanday yaxshi hadya olib kelibdi senga.

L a r i s a orqadan: «Keyin ko‘rarman!»

Bunaqa toza buyum, besh yuz so‘mdan kam turmaydi. «Erta-ga ertalab Larisaning bo‘lmasiga olib kirib qo‘ying, kimdan ekanini aytmang», deb ketdi. Lekin u, dog‘uli yuragimda gap saqlolmasligimni yaxshi biladi. O‘tirgin deb qistasam, ko‘nmadi. Qandaydir chet el-dan kelgan bir kishiga shaharni tomosha qildirib yurgan emish. Xuddi masxarabozga o‘xshaydi. Qilgan ishlarining chinmi yoki hazil ekanini bilolmaysan kishi. «Bu janobga shahrimizdagi eng yaxshi qovoqxonalarning hammasini ko‘rsatish kerak», deydi. U janobni biz-nikiga ham olib kelmoqchi bo‘ldi. (*Derazadan qarab.*) Ana, Mokiy Parmenich ham kelib qoldi! Chiqmay qo‘yaqol, u bilan o‘zim gapla-shaman.

K n u r o v k i r a d i .

## IKKINCHI SAHNA

Ogudalova va Knurov.

Knurov (*eshik oldida to'xtab*). Hech kim yo'qmi?

Ogudalova. Hech kim, Mokiy Parmenich.

Knurov (*kirib*). Juda soz.

Ogudalova. Bu baxtim tarixini qayerga yozib qo'ysam ekan-a!.. Qulluq, Mokiy Parmenich. Juda xursand bo'lidi. Shodligimdan, hatto o'zimni yo'qotib qo'ydim... To'g'risi, sizni qayerga o'tqazishimni ham bilmay qoldim.

Knurov. Baribir, qayerga bo'lsa ham o'tiraveraman. (*O'tiradi*.)

Ogudalova. Larisani afv etasiz, u kiynayapti. Chaqirsam ham bo'ladi.

Knurov. Yo'q, ovora qilmang!

Ogudalova. Qanday shamol uchirdi-a?

Knurov. Sanqib yuribman, ovqatdan oldin doim mana shunaqa sanqib yuraman, yo'lakay kirib qoldim.

Ogudalova. Sizning poyqadamingizni biz alohida baxt deb hisoblaymiz, Mokiy Parmenich, siz bundan xotirjam bo'ling! Bu - ulug' baxt.

Knurov. Shunday qilib, Larisa Dmitriyevnani erga berayapman deng!

Ogudalova. Shunday, Mokiy Parmenich, erga berayapman.

Knurov. Sepsiz bo'lsa ham uylanishga rozi bo'ladigan kishi topilibdi-da, bo'lmasa?

Ogudalova. Albatta topildi, Mokiy Parmenich, bizda pul nima qilsin?

Knurov. Kuyovingiz qanday, o'ziga tuzuk odammi?

Ogudalova. Qayoqda deysiz! Unchalik emas!

Knurov. Xo'sh... Larisa Dmitriyevnani o'shanday kambag'al kishiga berib, yaxshi ish qildim deb o'ylaysizmi?

Ogudalova. Bilmadim, Mokiy Parmenich. Menda nima gap, hammasi Larisaning o'z ixtiyoril bilan bo'layapti.

Knurov. Qani ayting-chi, bu kuyov bo'lmish yigit to'g'ri ish qilayaptimi?

Ogudalova. Nima ham deyin, shu ishi tuzuk deb o'ylayman.

K n u r o v . Hech ham tuzuk joyi yo‘q-da, aksincha, bu yaxshi emas! U, o‘z nazdida uncha tentak emas. O‘zi kim... uni kim tanir edi-yu kim e’tibor berar edi deysiz? Endi-chi, butun shahar o‘sha to‘g‘risida ga-piradi, u eng oliv jamiyat orasiga suqilib kiradi. Hatto, masalan, meni mehmonga aytishga ham jur’at qildi... Shunisi kishiga alam qiladiki, u qanday qilib va qaysi davlati bilan, shunday xotinni olib nima bilan kun kechirishni o‘ylamagan va o‘ylashni ham istamagan alam qiladi. Mana shu narsa ustida gaplashib olishimiz lozim.

O g u d a l o v a . Marhamat, qulog‘im sizda, Mokiy Parmenich!

K n u r o v . Siz o‘z qizingizni nima deb o‘ylaysiz?

O g u d a l o v a . Nima deyishni ham bilolmay qoldim, sizga qulq solishdan boshqa choram yo‘q.

K n u r o v . Larisa Dmitriyevnada faqir oila hayotiga mos pastkashlik va dunyoviy tirikchilikka xos sifat yo‘q, tushunasizmi, axir.

O g u d a l o v a . Yo‘q, yo‘q, hech yo‘q!

K n u r o v . U bir malak.

O g u d a l o v a . Malak, Mokiy Parmenich.

K n u r o v . U, faqt hayotning ziynati bo‘lib yaratilgan.

O g u d a l o v a . Shunday, Mokiy Parmenich. Yasan-tusan uchun yaratilgan.

K n u r o v . Xo‘s, sizning Karandishevningiz shunaqa yasantirib qo‘yishning uddasidan chiqarmikan?

O g u d a l o v a . Yo‘q, qayoqda deysiz!

K n u r o v . Larisa bunday faqir, meshchanlar hayotida bo‘g‘ilib qoladi. Xo‘s, keyin nima qiladi? Sarg‘ayadi, sil bo‘ladi, vassalom.

O g u d a l o v a . Qo‘ying-e, u nimasi! Xudo saqlasin!

K n u r o v . Erini tezroq tashlab yana o‘z bag‘ringizga kelishiga aqli yetsa-ku, yaxshi-ya.

O g u d a l o v a . Bu ham mening uchun ko‘rgilik bo‘ladi. Mokiy Parmenich, oshib-toshib yotgan nimam bor. Nimamga suyanaman, oldimda olib o‘tirib.

K n u r o v . E, buyog‘i yengil gap. Biron baquvvat, badavlat odamning yaqindan madadi bo‘lsa...

O g u d a l o v a . Yaxshi, o‘sha madadni qaydan topamiz.

K n u r o v . Topishga harakat qilish kerak. Bunday paytlarda ser-savlat, saxiy va badavlat bir do‘s bo‘lishi zarur.

O g u d a l o v a . Zarurligining nimasini aytasiz.

K n u r o v . Siz menga «Avvalo Larisa hali erga tekkanicha yo‘q, erga tekkandan keyin ham ajralishigacha gap ko‘p» dersiz. To‘g‘ri, ehtimol ajrab ketish juda uzoq va qiyin gapdir. Lekin, juda yaqin bo‘lishi ham mumkin. Xuddi o‘sha vaqtida yana biron xato qilib qo‘ymasligingiz uchun men sizni ogohlantirib qo‘yayapmanki, men Larisa Dmitriyevnadan hech narsamni ayamayman. Xo‘sh, nima uchun tirjayayapsiz?

O g u d a l o v a . Men juda xursandman, Mokiy Parmenich, bizga bunchalik muruvvatingizdan xursandman.

K n u r o v . Siz, ehtimol, bunday takliflar beg‘araz bo‘lmash deb o‘ylayotgandirsiz?

O g u d a l o v a . Qo‘ysangiz-chi, Mokiy Parmenich!

K n u r o v . Iotasangiz, xafa bo‘ling, istasangiz meni haydar chiqaring.

O g u d a l o v a (*qizarib*). Voy, Mokiy Parmenich!

K n u r o v . O‘n minglarni bekordan bekorga xarjlab yuboradiganlarni topping, o‘sanda meni urib haydasangiz ham roziman. Lekin qidirib ovora bo‘lmang, topolmaysiz. Boshqa gap bilan ovora bo‘lib ketdim, asli gap bu emas edi. Bu qanaqa quticha ekan?

O g u d a l o v a . Men, haligi, Mokiy Parmenich, qizimga hadya qilmoqchi edim.

K n u r o v (*u yoq-bu yog‘ini ko‘rib*). Ha...

O g u d a l o v a . Qimmat, hamyon ham kasodroq.

K n u r o v (*qutichani kuzatib*). Bu – arzimas narsa, tuzukroq bu-yum olish kerak. Siz Larisa Dmitriyevnaga yaxshi ust-boshlar hadya qiliшingiz kerak. Yaxshi deyapman-a, juda yaxshi, to‘yga xos sarupolar buyuring, boringki, nima lozim bo‘lsa hammasini.

O g u d a l o v a . Shunday, Mokiy Parmenich.

K n u r o v . Agar uni jo‘n kiyintirib qo‘yishsa, kishiga alam qiladi. Siz hammasini eng yaxshi do‘konlarga buyurtma qiling, hisoblashib o‘tirmang, tiyin ustida talashmang! Jami xarajat hisobini menga yuboring, o‘zim to‘layman.

O g u d a l o v a . Darhaqiqat, tashakkur aytishga ham so‘z topolmay qolasan kishi!

K n u r o v . Mana, qisqasi shuning uchun ham kirgandim. (*Turadi*.)

O g u d a l o v a . Nima bo‘lsa ham, ertaga qizimni bir xursand qilmoqchi edim. O‘zingiz bilasiz, ona ko‘ngli...

**Knurov** (*qutichani olib*). Xo'sh, o'zi nima gap? Qancha turar ekan?

Ogudalova. Baholang, Mokiy Parmenich!

**Knurov.** Nimasini baho qilay! Arzimagan gap! Bahosi uch yuz rubl. (*Cho'ntagidan pul chiqarib Ogudalovaga beradi*.) Xayr, bo'lmasa! Yana andak aylanib kelay, bugungi ziyofat yaxshi bo'lsa kerak degan umiddaman. Ziyofat vaqtida ko'risharmiz hali. (*Eshikka tomon yo'llanadi*.)

Ogudalova. Yaxshiliklarining uchun yuz-yuz tashakkur, Mokiy Parmenich, qulluq.

**Knurov** ketadi. **Larisa** qo'lida savat bilan chiqadi.

### UCHINCHI SAHNA

Ogudalova va Larisa.

**Larisa** (*savatni stolchaga qo'yib, qutidagi narsani ko'ra boshlaydi*). Bu Vasyaning hadyasiimi? Yomon emas. Qanday mehribon!

Ogudalova. «Yomon emas» emish. Bu juda qimmatbaho bu-yum. Nahotki xursand bo'lmasang?

**Larisa.** Nimaga ham xursand bo'lay?

Ogudalova. Vasyaga rahmat degin, qulog'iga «rahmat» deb pichirlab qo'ysang, bas. Knurovga ham.

**Larisa.** Knurovga nima uchun?

Ogudalova. Unisini men bilaman. Shunday qilish kerak, tamom, vassalom.

**Larisa.** Onajon, hamma ishing sir va hiyla.

Ogudalova. Hay, hay, qizim! Hiyla emish, hiylasiz bu dunyoda yashab bo'ladimi, axir.

**Larisa** (*gitarani olib, deraza yoniga o'tirib ashula ayta boshlaydi*).

*Onajonim, jonajonim, ostobim sen mening,  
Rahm qilgin, shafqat etgin, o'z bolangman men sening.*

Yuliy Kapitonich xalq sudyaligiga nomzodini qo'yilishi uchun rozilik bermoqchi.

Ogudalova. Bu juda soz. Qaysi uyezdda?

**Larisa.** Zaboloteda!

O g u d a l o v a . Ana xolos, bu bir o'rmon-ku. Nega shunday uzoq joyni tanlabdi?

L a r i s a . U yerda nomzodlar oz, ehtimol, saylashar.

O g u d a l o v a . Mayli, hechqisi yo'q, u yerda ham odamlar yashaydi-ku, axir.

L a r i s a . Menga qolsa, o'rmonga bo'lsa ham roziman, shu yerdan tezroq ketib olsam bo'lgan.

O g u d a l o v a . Ovloqroq joyda yashash ham yaxshi. U yerda Karandisheving ham ko'zingga issiq ko'riniq qoladi, butun uyezdda yagona kishi bo'lib qolar, ana o'sha yerda sekin-sekin ko'nikib ketasan unga.

L a r i s a . U shu yerning o'zida ham yaxshi, men undan hech qanday yomonlik ko'rganim yo'q.

O g u d a l o v a . Hay-hay, gapni qarang, yaxshi degan shunaqa bo'ladimi?

L a r i s a . Albatta, bundan ham yaxshilari bor, buni o'zim ham bilaman.

O g u d a l o v a . Borlikka borku-ya, lekin biz uchun emas.

L a r i s a . Endi men uchun shuning o'zi ham durust. Ortiqcha gapning nima hojati bor, ish bitgan-ku.

O g u d a l o v a . Uning senga yoqib qolganiga xursandman, xolos. Xudoga shukur. Sening oldingda uni yomonlab o'tirmayman. Lekin bir-birimizdan yashiradigan sir ham yo'q, ko'r emassan o'zing ham.

L a r i s a . Men ko'r bo'lib qoldim, butun tuyg'ularimni ham yo'qotdim, shunga ham xursandman. Ko'pdan beri atrofimdag'i voqealar tushga o'xshab ko'rindi. Yo'q, bu yerdan ketish kerak, qutulish kerak. Men Yuliy Kapitonichning joniga tegaman. Yoz ham o'tib ketay deyapti, men o'rmonlarda sayr qilib yurishni, meva, qo'ziqorinlar terishni istayman...

O g u d a l o v a . Savat tayyorlashingda ham gap bor ekan-da! Endi tushundim. Sen katta savat shlapadan ham bittasini topib olsang, tappa-tayyor podachi qiz bo'lasan-qo'yasan.

L a r i s a . Topib olaman ham. (*Ashula aytadi.*)

*Behudaga bag'rimni yondirma mening.*

U yerda hammayoq osoyishta, tinch.

O g u d a l o v a . Sentabrdan boshlab shamollar guvillab, derazadan urib bersa, uncha ham osoyishta bo'lmas.

L a r i s a . Nimasi yomon.

O g u d a l o v a . Bo‘rilar xilma-xil qilib uvillab tursa...

L a r i s a . Har holda, bu yerdan yaxshi. Hech bo‘lmaganda jonim orom oladi-ku.

O g u d a l o v a . Nima, bormagin deyapmanmi senga? Ketaver, joning orom olsin! Lekin Zabolote Italiya emas, shuni bilib qo‘ygin, seni ogohlantirib qo‘yishim kerak, vaqt kelib ko‘nglingga o‘tirishmay qolsa, nega onam aytmadи deb, meni koyib yurmagin.

L a r i s a . Qulluq... Lekin mayli, ovloq, yovvoyi, sovuq joy bo‘lsin. Bu yerta o‘tkazgan hayotimdan so‘ng har qanday ovloq joy ham menga jannat bo‘lib ko‘rinadi. Yuliy Kapitonich nega bunchalik paysalga solayapti, tushunolmayman.

O g u d a l o v a . Hozir uning xayoliga qishloq kelarmidi! U o‘zini ko‘rsatmoqchi. Qiziq, hech narsadan hech narsa yo‘q, bu landavur ham odam qatoriga o‘tib oldi.

L a r i s a (*kuylaydi*).

*Behuda bag ‘rimni yondirma mening.*

Qurib ketkur hech tushmayapti. (*Derazadan qarab.*) Ilya, Ilya! Buyoqqa bir kirgin. Bor ashulalarni o‘rganib olay, zerikkan chog‘larimda aytib yuraman.

I l y a kiradi.

## TO‘RTINCHI SAHNA

Ogudalova, Larisa va Ilya.

I l y a . Bayramlari muborak bo‘lsin! Xudo umr-u baxt bersin! (*Furajkasini eshik oldidagi stulga qo‘yadi.*)

L a r i s a . Ilya, mana shu «Behuda bag ‘rimni yondirma»ni aytish uchun sozlab ber! Hech sozlolmayapman. (*Gitarani uzatadi.*)

I l y a . Xo‘p, yaxshi qiz. (*Gitarani olib sozlaydi.*) Juda soz qo‘shida, uch ovoz qo‘shilib yalla qilsa yana yaxshi, bittasi tenor bo‘lsa, bittasi avjini olib tursa, juda soz bo‘ladi-da... bizni bo‘lsa xudo urdi!

O g u d a l o v a . Nega xudo uradi?

I l y a . Anavi tenorimiz bor-ku, Anton.

O g u d a l o v a . Bilaman, bilaman.

I l y a . Tenor bitta-yu bitta o‘sha-da, qolganlari hammasi bas, yo‘g‘on ovoz. Shunday yo‘g‘on ovozlilar borki... Tenor esa bitta, Anton, xolos.

O g u d a l o v a . Xo'sh, nima bo'pti?

I ly a . Xorga yaramay qoldi, qurg'ur.

O g u d a l o v a . Tobi yo'qmi?

I ly a . Yo'g'-e, tobi joyida, balo ham urgan emas.

O g u d a l o v a . Nima bo'lди, bo'lmasa?

I ly a . Qoq belidan bir yoniga bukchayib qopti, ikki haftacha bo'lди.

Falokat-da, falokat! Endi xor uchun har bir ortiq odam juda qimmatga tushadigan bo'lди, nachora, tenorsiz bo'lmagandan keyin! Doktorga borgan edi, doktor «bir-ikki hafta ichida tuzalasan, yana to'g'rilanib ketasan», debdi. Axir, u bizga hozir kerak-da.

L a r i s a . Ashulani aytang-chi?

I ly a . Hozir, yaxshi qiz. Ayb mana shu ikkinchi simida. Falokatda! Falokat! Yalla qilganda qadni mana bunday raso tutib turib aytish kerak, u bo'lsa bukchayib yotibdi.

O g u d a l o v a . Sababi bormi, axir?

I ly a . Lodonlik.

O g u d a l o v a . Qanday lodonlik?

I ly a . Bizning oramizda shunday bir lodonlik bor. «Ehtiyot bo'l, Anton!» dedim. U tushunmadi.

O g u d a l o v a . Biz ham tushunmadik.

I ly a . Sizga aytmagandim-da, toza taralla qildi. Chunon ham tarallabedod qildiki, «bu ehtiyoitsizlikdan ehtiyot bo'l, hoy Anton» dedim. U bo'lsa tushunmaydi. Falokat-da! Mana yuz rublga «chuv» tushaman. Mana bizda qanaqa ishlar-a. Antipa bir to'raning kelishini kutayotgan paytda, uning qiyshayib qolishini qarang. Shunday qomati raso lo'li edi, bukchayib qoldi-ya. (*Yo'g'on ovoz bilan.*) «Behuda bag'rimni...»

Derazadan «Ilya, beri kel, tez kel!» degan ovoz keladi.

Nimaga, nima kerak senga?

Ko'cha tomondan «Yur, to'ra keldi» degan ovoz keladi.

Yolg'on aytasan!

Ko'cha tomondan «Rost, keldi!» degan ovoz eshitiladi.

Kechirasiz, yaxshi qiz, to'ra kelib qolibdi. (*Gitarani qo'yib, furaj-kasini oladi.*)

O g u d a l o v a . Qanaqa to'ra?

I ly a . Shunaqa to'raki, bir yildan beri kuta-kuta ko'zimiz to'rt bo'lди, alomat to'ra. (*Ketadi.*)

## BESHINCHI SAHNA

Larisa, Ogudalova.

Ogudalova. Bu kelgan kim bo‘ldi ekan? Lo‘lilarning quvonchidan ma’lumki, ancha badavlat bo‘ydoq bo‘lsa kerak. Lo‘lilarnikida yashasa kerak. Larisa, nega bu qadar shoshdik-a, yaxshi bir kuyovni boy bergen bo‘lmaylik, tag‘in!

Larisa. Oh, onajon, shuncha azob chekkanim yetmaydimi? Bo‘ldi. Shuncha tubanliklar yetar!

Ogudalova. Juda topib gapirding-da, «tuban» emish! Nima, meni qo‘rqiitmoqchi bo‘layapsanmi? Biz kambag‘al-bechoralarning butun umri shunday faqirlikda o‘tadi. Qariganda odam qatori yashash uchun, yaxshisi, yoshlikda xaqirlik ko‘rgan yaxshi.

Larisa. Yo‘q, mumkin emas, og‘ir, haddan tashqari og‘ir.

Ogudalova. Osonlik bilan hech nima topib bo‘lmaydi, bilsang, butun umring qashshoqlikda o‘tib ketadi.

Larisa. Yana hiyla, yana yolg‘on.

Ogudalova. Hiyla ham qil, mug‘ambir ham bo‘l, yolg‘onla ham! Baxt degan narsa qochganga emas, quvganga tutqich beradi, bilsang.

Karandishev kiradi.

## OLTINCHI SAHNA

Ogudalova, Larisa, Karandishev.

Ogudalova. Yuliy Kapitonich, Larisa qishloqqa ketmoqchi, ana, qo‘ziqorin terish uchun savat ham tayyorlab qo‘ydi.

Larisa. Mening uchun bir yaxshilik qiling, tezroq jo‘naylik!

Karandishev. Men sizga tushunolmay qoldim, buncha shoshilasiz, qayoqqa, nima uchun?

Larisa. Bu yerdan tezroq qochib ketishni istayman.

Karandishev (*jahl bilan*). Kimdan qochasiz? Kim sizni xafa qilayapti? Yo mendan nomus qilayapsizmi?

Larisa (*sovuuqqina*). Yo‘q, men sizdan nomus qilmayman. Bilmayman, uyog‘i nima bo‘ladi, hozircha menga yomonlik qilganingiz yo‘q.

Karandishev. Bo‘lmasa nega bu yerdan qochmoqchisiz, nega odamlardan yashirinmoqchi bo‘lasiz? Men es-hushimni bir yerga

to'plab olay, nari-berimni to'g'rilay, vaqt bering! Men xursandman, baxtiyorman... Shu ahvolimning zavqini surib, rohat qilishga menga imkoniyat bering!

O g u d a l o v a . Gerdymoqchisiz-da!

K a r a n d i s h e v . Ha, gerdymoqchiman, yashirishning hojati yo'q. Bu kunlarga yetishguncha ming-ming ta'na-yu dashnomlar ko'rdir, izzat-nafsim ko'p marotaba yarlarga urildi. Mening mag'rur vijdonim ko'p marotaba haqoratlarga duch keldi. Endi gerdaysam, faxrlansam haqim bor.

L a r i s a . Siz qishloqqa qachon ketishni mo'ljallayapsiz?

K a r a n d i s h e v . To'ydan keyin, istasangiz to'yning ertasiga. Faqat nikoh, albatta, shu yerda o'tishi kerak, bo'lmasa, gap-so'zga qolaman. Bu tengi emas, shuning uchun odamlardan qochib yurishibdi. Bu kuyov emas, g'arq bo'layotgan kishiga uchragan somon parchasi deb, malomat qiladilar.

L a r i s a . Axir, Yuliy Kapitonich, o'zi ham shunga o'xhash bo'layapti-da, haq gap.

K a r a n d i s h e v (*yurakdan*). Siz bu haq gapni o'z ichingizda bilib qo'yaqolsangiz-chi, axir! (*Yig'i aralash.*) Biroz bo'lsa ham menga rahmingiz kelsin! Loaqlal odamlar, qiz o'z xohishi bilan sevib tekkan deb o'ylasinlar-da.

L a r i s a . Bunisi nega?

K a r a n d i s h e v . Nega deysiz-a? Hali siz kishining izzat-nafsimi butunlay oyoq osti qilmoqchimisiz?

L a r i s a . Izzat-u nafs-a! Siz o'z izzat-nafsingizni o'ylaysiz!.. Har kim o'zini sevadi! Meni qachon biron kishi sevar ekan? Siz meni halokatga olib borasiz.

O g u d a l o v a . Bas, Larisa, bu nima qiliq?

L a r i s a . Oyi, qo'rqaman, nimadandir qo'rqtyapman. Menga qarang, agar to'y shu yerda bo'ladigan bo'lsa, faqat odam kamroq bo'l-sin, mumkin qadar shovqin-suronsiz o'tsin!

O g u d a l o v a . Bekorlarni aytibsani! To'y bo'lsa to'yga o'xshasin. Meni Ogudalova deydilar, gadoychasiga to'y qilishga ko'nmayman. Shunday yasantirayki, bu yerdagilarning havasi kelsin.

K a r a n d i s h e v . Men ham borimni ayamayman.

L a r i s a . Bo'pti, endi og'iz ochmayman. Endi tushundim, sizlar uchun men bir qo'g'irchoq ekanman, rosa o'ynaysiz, sindirasiz, keyin tashlab yuborasiz.

Karandishev. Mana bugungi ziyofat ham menga anchaga tu-shadi.

Ogudalova. Shu ziyofatni ham oshiqcha deb o'layman, be-korga shuncha xarajat!

Karandishev. Ikki-uch baravar qimmatga tushsa ham pulni ayamasdim.

Ogudalova. Hech kimga keragi yo'q, ovoragarchilik.

Karandishev. Menga kerak.

Larisa. Nima uchun, Yuliy Kapitonich?

Karandishev. Larisa Dmitriyevna, uch yildan beri tanishlarin-giz meni masxara qilib basharamga kulib keldilar, endi kulish navbati menga keldi, men ham qasdimni olaman.

Ogudalova. Tag'in nimalar o'ylab chiqarar ekansiz-a! Janjal boshlamoqchimisiz? Unday bo'lsa biz bormaymiz.

Larisa. O'tinaman, hech kimning ko'ngliga ozor bermang!

Karandishev. Ozor bermang emish! Menga ozor bersalar maylimi? Xavotir olmang, hech qanday janjal bo'lmaydi, tinch o'tib ketadi. Faqat men sizning sharafmgizga qadah ko'tarishni taklif qila-man, ko'pchilik o'rtasida hislarimning chinakam ekanini qadrlab meni tanlaganingiz uchun, meni baxtiyor etganingiz uchun tashakkur aytaman, xolos. Oladigan qasdim mana shu bo'ladi!

Ogudalova. Bo'limgan gap!

Karandishev. Yo'q, bu olifta janoblar juda jig'imga tegishyapti. O'zлari ter to'kib topmagan davlatga muncha chiraniшadi, axir! Arzimagan bitta ovqatga o'n besh rubllab tashlaydilar!

Ogudalova. Bu gaplarning hammasi sho'rlik Vasya ustidanmi?

Karandishev. Bitta Vasya emas-da, hammasi bir-biridan bat-tar. Bunday qarang, shaharda nimalar bo'layapti, yuzlarida xursand-lik alomatlar! Izvoshchilar shaharning u boshidan bu boshiga chopib: «To'ra keldi, to'ra keldi», deb qichqirishadi. Yer yalovchi qorovullar ham qovoqxonadan qovoqxonaga chopib, «To'ra keldi, to'ra keldi», deb jar solmoqdalar. Lo'lilar esa, aql-u hushlarini yo'qtib qo'yishibdi, chapak chalishadi, bir-biriga gap bermay shovqin qilishadi. Aravaga tushgan to'rtta lo'li xotin musofirxonaga kelib: «Xush keldingiz!» deb ketishadi. Hayron qoladigan ish. To'ralari bo'lsa, eshitishimga qaragan-da, bor-budini boy berib, so'nggi paroxodchasini ham sotgan emish.

Xo'sh, kim kelibdi? Bitta bezori, isrofgar, buzuqlarning piri, ana shunga butun shahar shod-u xurram. Yaxshi odat!

O g u d a l o v a . Kim kelibdi o'zi?

K a r a n d i s h e v . Sizning Sergey Sergeich Paratovingiz!

L a r i s a q o'rqib o'midan turadi.

O g u d a l o v a . Hali shunaqa deng!

L a r i s a . Yuring, qishloqqa ketaylik, hoziroq jo'naylik!

K a r a n d i s h e v . Endi ketishning keragi yo'q.

O g u d a l o v a . Nima bo'ldi senga Larisa, nega undan yashirinasan. U qaroqchi emas-ku.

L a r i s a . Nega so'zlarimga qulq solmaysiz, siz meni xarob qila-yapsiz, tagi yo'q jahannamga sudrayapsiz!

O g u d a l o v a . Jinni bo'psan!

K a r a n d i s h e v . Nimadan qo'rqsiz?

L a r i s a . O'zimdan qo'rqayotganim yo'q.

K a r a n d i s h e v . Kim uchun bo'lmasa?

L a r i s a . Siz uchun.

K a r a n d i s h e v . Unday bo'lsa, men uchun qo'rqlay qo'yaqoling! Men ham qarab turmayman! Qani menga teginib ko'rsin-chi, kunnini ko'radi.

O g u d a l o v a . Yo'q, nima bo'ldi sizga, nima qilmoqchisiz! Xudo saqlasin. Siz uni Vasya deb o'ylamang. Unga sal ehtiyyot bo'ling, aks holda, dunyoga kelganiningizga pushaymon bo'lasiz!

K a r a n d i s h e v (*deraza yoniga kelib*). Mana, marhamat, qarang. Eshigingizga keldi, o'ho', to'rt ot qo'shilipti-ya, aravakash yonida lo'lilar. Ana dabdaba-yu! Zarari-ku, yo'q-a, lekin insof qilib aytganda, bu qilig'i surbetlik va ahmoqlikdan boshqa narsa emas.

L a r i s a . (*Karandishevga*.) Yuring, mening uyimga kiraylik, yuring! Onajon, uni o'zing qarshi ol. Ayt, endi kelib yurmasin.

L a r i s a , K a r a n d i s h e v ketadi, P a r a t o v kiradi.

## YETTINCHI SAHNA

Ogudalova va Paratov.

P a r a t o v (*butun ko'rinishni hazilkashlik va jiddiy tarzda olib boradi*.) Xolajon, qo'llari!..

O g u d a l o v a (*quchoq ochib*). Oh, Sergey Sergeich! Oh, bolajonim.

**P a r a t o v.** Bag'ringizga bosmoqchimisiz? Bo'ladi. (*Quchoqlashib o'pishadi.*)

**O g u d a l o v a.** Qanday shamol uchirdi? Yo'lingiz tushib kirgan bo'lsangiz kerak.

**P a r a t o v.** Ataylab, xolajon, darhol diydoringizni ko'rgani chop-dim-da.

**O g u d a l o v a.** Qulluq. Eson-omonmisiz, ishlaringiz qalay?

**P a r a t o v.** Noshukur emasman, xolajon, vaqtim chog', ishlarimning esa mazasi yo'q.

**O g u d a l o v a** (*Paratovni ko'zdan kechirib*). Sergey Sergeich, qadrdon, menga aytin-chi, nega o'sha vaqtda birdaniga g'oyib bo'l-dingiz?

**P a r a t o v.** Ko'ngilsiz bir telegramma oldim, xolajon.

**O g u d a l o v a.** Masalan?

**P a r a t o v.** Ishboshlarim va boshqaruvchilarim mensiz mening bor-yo'g'imni bir yong'oq po'chog'iga joylab qo'yishibdi. Sal bo'lmasa bor-yo'g'imni, foyda tug'ayotgan va bekor yotgan mol-mulkimni «kim oshdi» savdosiga qo'ymoqchi bo'lishgan ekan. O'zing uchun o'l yetim tufayli jo'nab ketgandim, xolajon.

**O g u d a l o v a.** Hammasini to'g'rilab olgandirsiz, albatta.

**P a r a t o v.** Afsuski, yo'q, to'g'riladimku-ya, lekin hammasini emas, ko'p zarar ko'rdim, shunday bo'lsa ham, xolajon, xafa bo'lganim yo'q, doim xushvaqtman.

**O g u d a l o v a.** Xushvaqtligingizni ko'rib turibman.

**P a r a t o v.** Bittasidan boy bersak, ikkinchisidan yutamiz, xolajon, ishimiz shunaqaroq.

**O g u d a l o v a.** Nimadan yutmoqchi bo'layapsiz? Yangi dastmoya soldingizmi?

**P a r a t o v.** Bizdek yengiltak afandilarga yangi dastmoya solish qayqda! Qarzdorlar avaxtaxonasiga tushishga tobim yo'q, xolajon. O'z erkimni sotmoqchi bo'layapman.

**O g u d a l o v a.** Tushundim, boy kelinga uylanmoqchidirsiz-da. Xo'sh, erkingizni qanchaga sotayapsiz?

**P a r a t o v.** Yarim millionga.

**O g u d a l o v a.** Tuzuk.

**P a r a t o v.** Bundan past tushishning hech hojati yo'q, xolajon. To'g'ri kelmaydi, o'zingiz bilasiz, erkim o'zimga ham qimmatga tushgan.

O g u d a l o v a . Azamat erkaksiz-da!

P a r a t o v . Bo‘lganim shu.

O g u d a l o v a . Lochin yigitsiz-da! Qarab turib havasing oshadi.

P a r a t o v . Juda ko‘tarib yubordingiz. Qo‘llarini... (*Qo‘lini o‘padi.*)

O g u d a l o v a . Erkingizga xaridor qiz bormi o‘zi?

P a r a t o v . Axtarsak topilib qolar deyman.

O g u d a l o v a . O‘rinsiz savol uchun uzr so‘rayman!

P a r a t o v . Juda o‘rinsiz bo‘lsa, so‘ramay qo‘yaqoling, bilasiz-ku, uyatchan yigitman.

O g u d a l o v a . Hazilni bas qil! Qayliqcha topdingmi, yo‘qmi? Topgan bo‘lsang, o‘zi kim?

P a r a t o v . O‘ldirsangiz ham aytmayman.

O g u d a l o v a . Ixtiyor o‘zingda.

P a r a t o v . Men Larisa Dmitrievnaga bo‘lgan hurmatimni izhor qilish orzusida edim, ko‘rishning iloji bormi?

O g u d a l o v a . Nega bo‘lmasin! Men hozir chaqirib yuboraman. (*Qutichadagi buyumlarni ko‘rsatib.*) Ha, aytgancha, Sergey Sergeich, ertaga Larisa Dmitrievnaning tug‘ilgan kuni, shu buyumlarni sovg‘a qilib olib beray desam, pulning mazasi yo‘q.

P a r a t o v . Obbo xolajon-ey, xolajon-ey! Eng kamida uch kishidan undirgandirsiz! Koshki men bu yo‘llaringizni bilmasam.

O g u d a l o v a (*Paratovning qulog‘idan tortib.*) Voy mug‘ombir-e!

P a r a t o v . Ertaga o‘zim bundan tuzukroq sovg‘alar olib kelaman.

O g u d a l o v a . Hozir Larisani chaqirib beraman.

O g u d a l o v a ketadi, Larisa kiradi.

## SAKKIZINCHI SAHNA

P a r a t o v va Larisa.

P a r a t o v . Kutmagandingiz-a?

L a r i s a . Yo‘q, shu kunlarda kutmagandim. Ko‘p kutdim, lekin anchadan buyon kutmay qo‘ygan edim.

P a r a t o v . Nima uchun kutmay qo‘ydingiz?

L a r i s a . Noumid edim. Siz qo‘qqisdan g‘oyib bo‘ldingiz, bir parcha xat ham...

**P**arato v. Siz uchun arzigelik xushxabar bo‘l imaganidan xat yozmadim.

**L**arisa. Men ham shunday deb o‘ylagandim.

**P**arato v. Hali erga tegayapman deng?

**L**arisa. Shunday, tegayapman.

**P**arato v. Sizdan bir gap so‘rashga ijozat bering, meni ko‘p kutingizmi?

**L**arisa. Nima qilasiz surishtirib?

**P**arato v. Men shunchaki so‘rayotganim yo‘q, Larisa Dmitriyevna, meni masalaning nazariy tomoni qiziqtirayapti. Xotin kishi qattiq sevgan kishisini qancha vaqt ichida unuta oladi, ajrashgan kunining ertasigami, bir hafta yoki bir oydan keyinmi? Gamlet o‘z onasiga qarab «oyoqlaridagi kavushlari eskirmay turib» deganda haqlimidi. Shuni aniq bilmoqchiman.

**L**arisa. Savolningizga javob bermayman, Sergey Sergeich, mening haqimda nima deb o‘ylasangiz o‘ylayvering.

**P**arato v. Men sizni hammavaqt hurmat bilan yodga olaman. Lekin, sizning shu qilig‘ingizdan keyin xotinlardan ko‘nglim ancha sovidi.

**L**arisa. Qanaqa qiliq? Sizning hech narsadan xabaringiz yo‘q.

**P**arato v. U «beozor va yoqimli qarashlar», bu totli ishq pichirlari, hatto har so‘z sirasidagi oh-u voh, bu qasamlar, shularning hammasi bir oy o‘tar-o‘tmas yodlangan darsday bo‘lak bir kishiga takrorlanadi. Eh, siz xotinlar!..

**L**arisa. Nima «xotinlar»?

**P**arato v. Nomizingiz qiliqlaringizga yarasha.

**L**arisa. Meni buncha xafa qilishga qanday jur’at etasiz? Sizdan so‘ng, biror odamni sevganmikinman? Shunga ishonasiz hammi?

**P**arato v. Ishonmayman, lekin o‘ylayman.

**L**arisa. Bunchalik qattiq ta’na qilish uchun, faqat o‘ylash ozlik qiladi, bilish darkor.

**P**arato v. Erga tegayapsiz-ku?

**L**arisa. Meni majbur etgan nima? G‘am-g‘ussada yonib turganningda iltifot qilib, kulishga majbur etsalar, ko‘rganda ko‘ngling ayniy-digan kuyovlarni ro‘para qilsalar, har kun uyda janjal bo‘lsa, o‘z uying-

da kun kechirib bo'l magandan keyin, o'z uyingdan, hatto tug'ilgan shahringdan qochish darkor bo'lgandan keyin, nachora?

Paratov. Larisa, demak siz?..

Larisa. Nima «men»? Xo'sh, nima demoqchisiz?

Paratov. Kechiring! Men sizning oldingizda gunohkorman. Demak, siz hali meni unutgan emassiz, siz meni... hamon sevasiz?

Larisa indamaydi.

Ayting... Ochiq ayting!

Larisa. Albatta sevaman, so'rab nima qilasiz?

Paratov (*Larisaning qo'lini muloyimgina o'padi*). Rahmat, ta-shakkur. Men sizdan kechishim mumkin. Lekin sevgingizdan kechish juda og'ir bo'lardi, bilsangiz.

Larisa. Nahot?

Paratov. Agar birovni mendan ortiqroq ko'rsangiz, meni qat-tiq haqorat qilgan bo'lar edingiz. Sizning bu gunohingizni osonlikcha kechirmas edim.

Larisa. Endi-chi?

Paratov. Endi, umrim bo'yи sizning ajib timsolingiz xayolimda barq uradi. Biz ajralishamiz-u, lekin eng qalin do'stlar bo'lib qolamiz.

Larisa. Demak, xotin kishi azob cheksa ham, qon qussa ham mayli, faqat sizni sevsas bas, shundaymi?

Paratov. Nima qilaylik, Larisa Dmitriyevna! Sevgida tenglik yo'q, bu mening kashfiyotim ham emas. Sevgida ba'zan ko'z yoshi to'kishga ham to'g'ri keladi.

Larisa. Faqat xotin kishiga-ya?

Paratov. Albatta, erkakka emas.

Larisa. Nega, axir?

Paratov. Buni tushuntirish qiyin emas, chunki erkak yig'lasa, «xotinchalish» degan laqab qo'yadilar. Erkak uchun odamzod o'ylab chiqargan haqoratlar ichida bundan qattiq haqorat yo'q.

Larisa. Koshki sevgi oshiq-ma'shuqda barobar bo'lsa, ko'z yoshi ham bo'lmas edi. Shunaqasi ham bo'larmikin?

Paratov. Ba'zan shunaqasi ham bo'ladi. Lekin bu, holva-furushning kulchatoyiga o'xshagan qandaydir bema'ni...

Larisa. Men sizga aytishim lozim bo'l magan gaplarimni aytib qo'ydim, Sergey Sergeich, o'ylaymanki, ochiq so'zligimni boshqacha tushunmassiz.

Paratov. Meni kim deb o‘ylayapsiz, boshingiz ochiq bo‘lsa ham boshqa gap, nikoh men uchun muqaddas, ijozat bering, bilay, bo‘lg‘usi zavjingiz ancha qadr-u qimmatli va yaxshi fazilatli odam bo‘lsa kerak?

Larisa. Yo‘q. Bittagina fazilati bor, xolos.

Paratov. Bitta bo‘lsa, oz.

Larisa. Oz bo‘lsa ham soz!

Paratov. Masalan?

Larisa. U meni sevadi.

Paratov. Unday bo‘lsa chinakam qimmatbaho fazilat ekan. Oilaviy hayot uchun eng muhimi ham shu.

Ogudalova bilan Karandishev kiradi.

### TO‘QQIZINCHI SAHNA

Ogudalova, Larisa, Paratov, Karandishev,  
so‘ngra xizmatkor kiradi.

Ogudalova. Ruxsat eting, janoblar, sizni tanishtirib qo‘yay! (Paratovga.) Yuliy Kapitonich Karandishev. (Karandishevga.) Sergey Sergeich Paratov.

Paratov (Karandishevga qo‘lini uzatib). Bizlar tanishmiz. (Soxta ehtirom bilan.) Mo‘ylovi uzun-u, fahmi qisqa. Xarita Ignatevna va Larisa Dmitriyevnalarning qadron do‘sti...

Karandishev (chidam bilan). Juda soz.

Ogudalova. Sergey Sergeich bizning uyimizda xuddi tug‘ishganimizday.

Karandishev. Juda soz.

Paratov (Karandishevga). Siz rashkchi emasmisiz?

Karandishev. Aminmanki, Larisa Dmitriyevna meni rashk qilishga olib boradigan hech ish qilmas.

Paratov. Rashkchi kishilar sababsiz ham rashk qilaverishadi.

Larisa. Men kafilman, Yuliy Kapitonich meni rashk qilmas.

Karandishev. Ha, albatta. Lekin agar...

Paratov. Albatta, albatta! U vaqtida juda vahimali hodisa ro‘y beradi-da!

Ogudalova. Sizlarga nima bo‘ldi, janoblar, rashkdan boshqa gap qurib qolganmi?

Larisa. Biz, Sergey Sergeich, yaqinda qishloqqa ketmoqchimiz.

Paratov. Shunday go'zal joylarni tashlab-a?

Karandishev. Bu joyda qanday go'zallik bor ekan?

Paratov. Har kimga har xil. Har kimning didi boshqa.

Ogudalova. To'g'ri, to'g'ri. Birovga shahar yoqadi, birovga qishloq.

Paratov. Xolajon, birovga tarvuz yoqsa, birovga sovuq urgan oshqovoq.

Ogudalova. Obbo, shayton! Qayerdan bilasan muncha maqolni?

Paratov. Burloqlar<sup>1</sup> bilan hamtovoq bo'lganmizda, xolajon, rus tilini ana o'shalardan o'rganish kerak.

Karandishev. Burloqlardan rus tilini o'rganish kerak dedingizmi?

Paratov. Xo'sh, o'rgansa nima bo'ladi?

Karandishev. Shuning uchunki, biz ularni...

Paratov. Biz deganingiz, kim o'zi?

Karandishev (*jahl bilan*). Biz deganim burloqlar emas, albat-ta, bizday o'qimishli kishilar.

Paratov. Xo'sh, nega ularni odam qatoriga qo'shmaysiz. Men kema xo'jayini, o'shalar bilan ish ko'raman, ularni himoya qilaman, men o'zim ham burloqlardan chiqqanman.

Karandishev. Biz burloqlarni eng qo'pol, nodon odamlar sa-naymiz.

Paratov. Xo'sh, uyog'i-chi, janobi Karandishev!

Karandishev. Shu, uyog'i yo'q!

Paratov. Yo'q, nimanidir aytma dingiz, eng kerakligi qoldi, siz kechirim so'rashingiz kerak.

Karandishev. Men – kechirim so'ray?

Paratov. Iloj yo'q, so'rash kerak.

Karandishev. Nima uchun, axir? Bu mening fikrim, ishon-chim.

Paratov. Yo'q, yo'q! Gapni burmang.

Ogudalova. Janoblar, janoblar, sizlarga nima bo'ldi?

Paratov. Xotirjam bo'ling. Buning uchun duelga chaqirib o'tir-mayman, kuyovingizni jin ham urmaydi, faqat qanday muomala qilish-

<sup>1</sup>Burloqlar – eski vaqtarda, sol, kema tortuvchilar.

ni o'rgatib qo'yaman, xolos. Odatim, qilingan gunohni kechirmayman, shunday qilmasam hech narsadan tap tortmaydigan parishonxotir bo'lib qolaman.

Larisa (*Karandishevga*). Siz nima qilayapsiz? Hozir kechirim so'rang. Men sizga buyuraman.

Paratov (*Ogudalovaga*). Gunohkorni jazolash lozim bo'lganda, bir haftagacha uyga kirib olib jazo usulini o'ylab topish odatim borligini bilsangiz kerak deb o'ylayman.

Karandishev (*Paratovga*). Men tushunmayman...

Paratov. Unday bo'lsa, avval qanday tushunishni o'rganib, so'ng gaplasting!

Ogudalova. Sergey Sergeich, yalinaman, men uchun bu kishini kechiring!

Paratov (*Karandishevga*). Xarita Ignatevnaga qulluq qiling, sizni kechirdim. Odamga qarab muomala qilishni o'rganing, qarindosh. Men ko'taraman, lekin alla qilib turib yerga urishim ham bor.

Karandishev javob qaytarmoqchi bo'ladi.

Ogudalova. Bo'ldi, gap qaytarmang! Bo'lmasa urishib qolaman. Larisa, shampanskiy buyur, ikkalasiga bir stakandan quyib ber, yarash-yarash bo'lsin.

Larisa ketadi.

Bundan buyon, janoblar, urishako'rmang. Men tinchlikni sevadigan ayolman. Do'stona va rozilik bilan bo'ladigan ishni yaxshi ko'raman.

Paratov. Men ham shunday, chumoliga ham ozor bergim kelmaydi, hech qachon birinchi bo'lib boshlamayman, o'zimga-o'zim kafil.

Ogudalova. Yuliy Kapitonich, siz hali yosh siz, og'irroq bo'lishingiz kerak. Xitlik sizga yarashmaydi, axir! Bugungi ziyofatga Sergey Sergeichni taklif eting. Albatta, iltimos qiling! Bu kishi bilan birga bo'lish biz uchun juda ko'ngilli bo'ladi...

Karandishev. O'zim ham shunday o'ylagandim, Sergey Sergeich, bugun menikida mehmon bo'lsangiz!

Paratov (*sovug*). Xo'p bo'ladi...

Larisa, uning orqasidan shampanskiy va patnisdan stakanlarni ko'tarib xizmatchi kiradi.

L a r i s a (*quyib*). Marhamat, janoblar.

P a r a t o v , K a r a n d i s h e v stakanni olishadi.

D o ' s t b o ' l i s h l a r i n g i z n i s o ' r a y m a n .

P a r a t o v . Sizning iltimosingiz men uchun buyruqdir.

O g u d a l o v a (*Karandishevga*). Mana, Sergey Sergeichdan o'rnak oling!..

K a r a n d i s h e v . Mening to'g'rimda hech qanday so'z bo'lishi mumkin emas, Larisa Dmitrievnaning har bir so'zi – men uchun qonun.

V o j e v a t o v kiradi.

### O ' N I N C H I S A H N A

O g u d a l o v a , L a r i s a , P a r a t o v , K a r a n d i s h e v ,  
V o j e v a t o v s o ' g R o b i n z o n .

V o j e v a t o v . Qayerda shampanskiy bo'lsa, biz o'sha yerda, sez-gimiz o'tkir-da! Xarita Ignatevna, Larisa Dmitriyevna, bizning mallavoy kirsa maylimi?

O g u d a l o v a . Mallavoy kim?

V o j e v a t o v . Hozir ko'rasiz, mallavoy, kiraver!

R o b i n z o n kiradi.

D o ' s t i m n i t a n i s h t i r i s h b i l a n o ' z i m n i b a x t i y o r h i s o b l a y m a n , t a n i - shingiz, lord Robinzon.

O g u d a l o v a . Juda soz.

V o j e v a t o v (*Robinzonga*). Qo'lini o'p.

R o b i n z o n O g u d a l o v a bilan Larisaning qo'lini o'padi.

Qani, milord, endi beri kel-chi!

O g u d a l o v a . Nega siz do'stingizni o'z holiga qo'ymay, farmon berasiz?

V o j e v a t o v . Xotinlar orasida juda kam bo'lgan, o'zi tortinchoqroq, ko'proq sayohatda yurgan. Dengiz va quruqliklarni ko'p kezgan kishi, sal bo'lmasa, mana shu yaqin-o'rtada yovvoyi bo'lib ham ketayozgan. (*Karandishevga*.) Ruxsat eting, sizlarni tanishtirib qo'yay! Lord Robinzon, Yuliy Kapitonich Karandishev!

K a r a n d i s h e v (*Robinzonga qo'lini berib*). Angliyadan chiq-qanagingizga ko'p bo'ldimi?

**Robinzon.** Yes. (Yes.)<sup>1</sup>

**Vojevatov** (*Paratovga*). Men bunga uch-to'rtta inglizcha so'z o'rgatib qo'ydim, e'tirof qilish kerak, o'zim ham bundan oshiq bilmayman. (*Robinzonga*.) Muncha vinoga tikilasan? Xarita Ignatevna, mumkinmi?

**Ogudalova.** Marhamat qiling, oling.

**Vojevatov.** Angliyadagilar ertadan kechgacha may ichadilar.

**Ogudalova.** Nahotki ertadan kechgacha vino ichsangiz?

**Robinzon.** Yes.

**Vojevatov.** Bular uch marta nonushta qiladilar, so'ng kech soat oltidan to soat o'n ikkigacha tushlik ovqatni yeishadi.

**Ogudalova.** Shundaymi-ya?

**Robinzon.** Yes.

**Vojevatov** (*Robinzonga*). Qani, quy!

**Robinzon** (*stakanlarga quyib*). If you please! (If yu pliz.)<sup>2</sup> (*Ichadilar*.)

**Paratov** (*Karandishevga*). Bu kishini ham ziyofatga taklif qilsangiz, men juda o'rganib qolganman, busiz yurolmayman.

**Karandishev.** Ismi nima?

**Paratov.** Kim ismini aytib chaqiradi, deysiz! Lord, milord...

**Karandishev.** Hali bu kishi lordmi?

**Paratov.** Yo'q, lord bo'lmasa ham, bular shunaqa laqabni yaxshi ko'rishadi. Yaxshisi, ser Robinzon.

**Karandishev.** Ser Robinzon, o'tinib so'rayman, bugun ovqatni menikida yesangiz!

**Robinzon.** I thank you. (Ay senk yu)<sup>3</sup>.

**Karandishev** (*Ogudalovaga*). Xarita Ignatevna, men uyimga boray, ba'zi mayda-chuyda ishlarim bor. (*Hammaga ta'zim qilib*.) Sizlarni kutaman, janoblar, xush qolingiz! (*Ketadi*.)

**Paratov** (*shlapasini oladi*). Biz ham ketaylik. Safardan keldik, dam olish kerak.

**Vojevatov.** Ziyofatga tayyorlanaylik.

**Ogudalova.** Shoshmang, janoblar, hammangiz birdaniga turmang, axir.

**Ogudalova** bilan **Larisa Karandishevni** kuzatgani chiqadilar.

<sup>1</sup> Ha (inglizcha).

<sup>2</sup> Marhamat (inglizcha).

<sup>3</sup> Tashakkur (inglizcha).

## O‘N BIRINCHI SAHNA

Paratov, Vojevator va Robinzon.

V o j e v a t o v . Kuyov sizga yoqdimi?

P a r a t o v . «Yoqdimi» emish! Kimga yoqishi mumkin! Yana so‘z qotadi-ya, voy g‘oz tumshug‘-ey.

V o j e v a t o v . Biror gap o‘tdimi?

P a r a t o v . Andak o‘tdi. Xashaki xo‘rozdday intiladi, gapga arala-shadi, g‘ijillashmoqchi bo‘ladi. Sen qarab tur hali, g‘ijillashishni o‘rgatib qo‘yay. (*Peshonasiga urib.*) Oh, soz fikr! Robinzon, sen bir og‘ir vazifa bajarasan, o‘zingni bir ko‘rsatib qo‘y...

V o j e v a t o v . Nima gap o‘zi?

R o b i n z o n Yes.

P a r a t o v . Mana bunday... (*Quloq solib.*) Kelishyapti, keyin aytib beraman, janoblar.

L a r i s a bilan O g u d a l o v a kiradi.

Xush qoling.

V o j e v a t o v . Xayr! (*Xayrlashib chiqadilar.*)





## UCHINCHI PARDA

Karandish ev xonasi; xona jihozlar bilan bezatilgan, lekin didsiz. Bir tomonga, devor ustiga gilam qoqilgan va gilamga har xil yarog'-aslalahalar osib qo'yilgan.

Uch eshik: biri o'rtada,  
ikkiasi ikki yonda.

## BIRINCHI SAHNA

Yevfrosinya Potapovna va Ivan  
(Chap tomondag'i eshikdan chiqadilar).

Ivan. Limonlardan keltiring!

Yevfrosinya. Qanaqa limon, jin urgur!

Ivan. Messinskiy limonlaridan.

Yevfrosinya. Senga nimaga kerak bo'lib qoldi?

Ivan. Ovqatdan keyin ba'zi janoblar kofe ichadi, ba'zi biri choy, choy bilan limon kerak-da.

Yevfrosinya. Bugun meni judayam qiynab yubordinglar. Klyukva morsidan qo'y-da, baribir emasmi. Ana u yerdan grafinni ol, hoy, ehtiyot bo'l, grafin juda eski, po'ki zo'rg'a turibdi, yelimlab qo'yganman. Yur, o'zim olib bera qolay. (*O'rtadagi eshikka kirib ketadi, orqasidan Ivan ham*).

Ogudalova va Larisa kiradi.

## IKKINCHI SAHNA

Ogudalova bilan Larisa.

Larisa. Oh, onajon, o'zimni qayerga qo'yishni ham bilmay goldim.

Ogudalova. Shunday qilishini bilgan edim, o'zim.

Larisa. Shu ham mehmondorchilik bo'ldi-yu, shu ham ziyofer bo'ldi-yu! Yana Mokiy Parmenichni taklif qilganini aytmaysizmi! Nima qilayapti o'zi?

Ogudalova. Zab mehmondo'st ekan-da, aytib tamom qilol-maysan.

Larisa. Sharmandalik! Dunyoda birov uchun uyalgandan yomoni yo'q. Mana, bizning hech qanday gunohimiz yo'q, lekin uyat, shunday uyatki, yer yorilmadi, yerga kirsam. U bo'lsa, hech narsa sezmaganday yuribdi. Hatto xursand ham.

Ogudalova. Sezgisi bo'lsa sezadi-da, nimani bilardi u, axir, o'zi tuzuk kishilarning dasturxon solishini umrida ko'rmagan-da. U uyining yasatig'ligi bilan hammani qoyil qildim, deb o'ylayotgandir hali; mana shunga xursand! Uni qasddan mast qilayotganlarini sezganing yo'qmi hali?

Larisa. Voy o'lay! To'xtat uni, onajon, to'xtat!

Ogudalova. Qanday to'xtataman! Chaqaloq emas-ku, enagasziz kun ko'radigan chog'i.

Larisa. Bunchalik nodon emas edi-ku, nega tushunmaydi?

Ogudalova. Nodon bo'lmasa, tentak. Tentakni tentak desang bir gaz o'sarmish. Yolg'ondan vinosini maqtashgan sari u xursand bo'ladi. Yolg'ondakam ichgan bo'lishib, uning o'ziga to'ldirib-to'ldirib berishyapti, vassalom.

Larisa. Voy o'lmasam, nega shunday qilishyapti, axir?

Ogudalova. Ermak uchun.

Larisa. Axir, bu bilan ular menga azob berishyapti-ku?

Ogudalova. Sening azob chekishing bilan kimning ishi bor. Mana, Larisa, hali hech nimani ko'rmay turib azob chekishdan gapirayapsan, u yog'i nima bo'ladi?

Larisa. Oh, nima qilayki, bo'lar ish bo'ldi, faqat afsus va nadomat qilish mumkin, tuzatish qiyin!

Yevfrosinya Potapovna kiradi.

### UCHINCHI SAHNA

Ogudalova, Larisa, Yevfrosinya Potapovna.

Yevfrosinya Potapovna. Ha, bo'ldilaringmi? Choy keltiraymi?

Ogudalova. Yo'q, qulluq.

Yevfrosinya. E, erkaklar qani?

Ogudalova. Ular ichkarida, gaplashib o'tirishibdi.

**Y e v f r o s i n y a .** Yeganini yeb, ichganini ichib bo‘lgandan keyin turib ketsa mehmon degan. Tag‘in nima kerak? Bu ziyofat meni toza ham qiy nab tashladi-da, qancha mehnat, qancha isrofgarchilik! Bu o‘g‘ri oshpazlar bo‘lsa shunday baqirishadiki, go‘yo podshoh keladiganday. Bir og‘iz gapirtirgani qo‘yishmaydi!

**O g u d a l o v a .** Gapirib ham nima qilardingiz! Qo‘yib bermaysizmi, yaxshi oshpaz bo‘lsa, o‘rgatishning hojati yo‘q.

**Y e v f r o s i n y a .** Gap o‘rgatishda emas! Isrofgarchilikda. Noinsoflarni qarang, ko‘ziga nima ko‘rinsa qozonga soladi. Bu narsalar koshki o‘z dehqonchiligidan, qishloqdan kelgan bo‘lsa, hammasi bozordan pulga sotib olingan, bir-biridan qimmat, kishining yuragi achiydi-da. Hali qand ber deydi, hali vanil, hali baliq yog‘i deydi. Bilasizki, vanil degan sabil juda qimmat turadi, baliq yog‘i undan battar, ha, qurib ketgur, mazasi chiqsa bo‘ldi-da, nima qiladi ko‘p solib.

**O g u d a l o v a .** Shunday hisob-kitobli uyda... albatta...

**Y e v f r o s i n y a .** Odam aqldan ozgandan keyin hisob-kitob bekor. Mana, ilonbaliqni olaylik, katta-kichigining mazasi bir. Lekin, bahosiga kelganda farqi katta, juda katta! O‘n dona maydasi yarim tanga turadi, u borib har donasi yarim tangaligidan ko‘tarib kelidi.

**O g u d a l o v a .** Bu, dasturxonga qo‘yilgan baliqlar hali Volgada suzib, biroz o‘sishi kerak edi.

**Y e v f r o s i n y a .** Ha, aytgancha, bir rublligi ham bor, boringki, ikki rubl turadigan baliqlar ham bor. Unaqasini puli ko‘plar olib yesin! Kattaroq xo‘jayinlar, to‘ralar esa yarashadi. Bizga kim qo‘yibdi. Vinoni ham nuqul qimmatiga yopishadi. Bir rubllik, ikki rublligini olmoqchi, vinofurush juda insofli kishi ekan, siz ko‘tarasiga har shishasi uch tangaligidan oling, etiketini esa istaganingizni yopishtirib beraman dedi, barakatopkur, vinomisan, vinojon! Bir qultumini ichsam bormi, baybay, qalampir munchoq, boringki, har xil giyohlarning hidi keladi. Axir shunchalik xushbo‘y hidlar anqib turgandan keyin, narxi ham o‘ziga yarasha bo‘ladi-da. Uch tanga-ya. Lekin uch tangaga arziydi ham. Moyanaxo‘r odam bo‘lsak, bundan ortiq to‘lashga qurbimiz yetmaydi. Yaqinda qo‘shnimiz uylandi, shunday buyumlar keldiki, par yostiqilar, par to‘shaklar, momiq ko‘rpalar... naq qo‘yavering. Ayiq terisi deysizmi, tulki terisi deysizmi, bo‘rsiq terisi deysizmi, nima istasangiz

bor. Shuning hammasi uyg'a keldi. Albatta, sarf qilsa bo'ladi, mana yana boshqa bir amaldor qo'shnimiz ham uylangan edi, sepiga bitta eski fortepyano olib keldilar, xolos. Nima ham deysiz, gerdayishlik bizza ham to'g'ri kelmaydi, aylanay.

Larisa (*Ogudalovaga*). Boshim oqqan tomonga qochib ketsam.

Ogudalova. Ilojî yo'q, peshonang sho'r ekan.

Yevfrosinya Potapovna. Ko'nglingiz behuzur bo'layotgan bo'lsa mening uyimga kiraqolinglar, hali zamon erkaklar chiqadi-yu, tamakini shunday tutatadilarki, nafas ololmay qolasan kishi. Voy, men nima qilib turibman, esim qursin! Har nechuk darhol kumush asboblarni berkitib qo'yay, bu zamonda odamlarda imon bor deysizmi? Cho'ntakka joylab ketishi ham turgan gap.

Ogudalova bilan Larisa o'ng tomondagi eshikka,  
Yevfrosinya Potapovna o'rtâ eshikka kirib ketadilar. Chap tomondagi  
eshikdan: Paratov, Knurov, Vojevatovlar chiqishadi.

### TO'R TINCHI SAHNA Paratov, Knurov va Vojevatov.

Knurov. Men, janoblar, klubga borib ovqatlanaman. Hech narsa yeganim yo'q.

Paratov. Birpas turaturing, Mokiy Parmenich!

Knurov. Umrinda birinchi marta bunday hodisa yuz berishi. Sanoqli zotlarni mehmonga chaqirishibdi-yu, yeydigan narsaning tayini yo'q... Esi past odam ekan bu, janoblar.

Paratov. Qarshilik yo'q. Haq aytdingiz, chinakam esi past.

Knurov. Hammadan oldin o'zi mast bo'lib olganini aytmaysizmi.

Vojevatov. O'zimiz ham rosa bopladic-da.

Paratov. Ha, men o'z o'ylaganimni amalga oshirdim. Buni bir boplash boy'a xayolimga kelgan edi. Toza garang qilib tomosha qilmoqchi edim-da.

Knurov. Demak, bu oldindan o'ylab qo'yilgan ish ekan-da.

Paratov. Gaplashib olgandik-da. Mana, janoblar, bunday vaqt-larda Robinzon juda ish beradi.

Vojevatov. U odam emas, oltin ekan.

Paratov. Xo'jayinni mast qilish uchun u bilan baravar ichish lozim. Lekin u «sharob» deb atagan bu qo'lansa dorini hadeb

ichaversang bo‘larmidi. Robinzon Yaroslavl shahrida chiqadigan chet el vinosini ichaverib o‘rganib qolgan. Pisand qilmaydi ham. Maqtab-maqtab yutadi, xolos. Bittasini tortib ko‘radi, yana boshqasini ichadi, xuddi bilarmon kishiday solishtirib ko‘radi. Boringki, xo‘jayin birga ichmasa, ichmay turib oladi. Shunday qilib, u qo‘lga tushadi. Ko‘p ichib o‘rganmagan odamning darrov surobi to‘g‘rilanib, og‘zi qulog‘iga yetadi.

Knurov. Zab ermak-da! Lekin, janoblar, hazil emas, chindan qornim och.

Paratov. Sabr qiling, Larisa Dmitriyevnaga qo‘shiq ayttiramiz hali.

Knurov. Bu boshqa gap. Aytgancha, Robinzon qani?

Vojevatov. Hali ichishayapti...

Robinzon kiradi.

## BESHINCHI SAHNA

Paratov, Knurov, Vojevatov va Robinzon.

Robinzon (*divanga tashlanib*). Yo rabbiy, o‘zing madad ber! Serj, mening uchun xudo oldida javob berasan, bilib qo‘y!

Paratov. Nima balo, mastmisan deyman?

Robinzon. Mast-a! Nima, mastlikdan biror marta shikoyat qil-ganmidim? Mast bo‘lsam jon derdim-a! Mastlik ajoyib narsa! Olamda mastlikdan yaxshi narsa bo‘ladimi! Men shu niyat bilan kelganman, xuddi shu niyat bilan dunyoda yashab yuribman. Hayotimning asl ma’nosi – mastlik-ku, axir!

Paratov. Nima demoqchisan?

Robinzon. Men zaharlandim, hozir dod deyman, faryod deyman.

Paratov. Vinoning qaysi xilidan ko‘proq ichib qo‘yding.

Robinzon. Kim biladi deysan? Kim yogarmidim men! Har qanday dorishunos ham ajratolmas deb o‘ylayman.

Paratov. Shishaga yopishtirilgan etiketidan bilsang bo‘lardiku!

Robinzon. Shishaga vino navi yozilganku-ya, lekin shisha ichida qandaydir sassiq dori, bu dorining kayfi qimmatga tushadigan ko‘rinadi, chamamda.

**V o j e v a t o v .** Bunaqa hodisalar bo‘lib turadi. Vino qilayotgan paytda biron ta dorivorni ko‘proq tashlab yuborishadi ham, xato qilish qiyin emas. Odam – mashinamidiki. Ey, tag‘in marginush qo‘sib qo‘yilgan bo‘lmasin?

**R o b i n z o n .** Muncha suyunasan! Birov o‘laman deydi, sen kulaman deysan.

**V o j e v a t o v .** Bo‘ldi, tamom bo‘psan!

**R o b i n z o n .** Vahima qilma! Men o‘lishga rozi emasman... Oh, bu bachchag‘arning vinosidan qanday kasalga mubtalo bo‘lishni bilsaydim...

**V o j e v a t o v .** Bitta ko‘zing oqib tushadi, turgan gap. Xotirjam bo‘laver, ha.

Sahna orqasidan **K a r a n d i s h e v n i n g** «Hoy! Burgonskiydan beringlar!»  
degan ovozi eshitiladi.

**R o b i n z o n .** E, marhamat qiling, yana Burgonskiy, Burgonskiy! Dod, qutqaring, o‘laman, dod! Serj, hech bo‘lmasa sening rahming kelsin, o‘n gulimdan bir gulim ochilgani yo‘q, qirchillagan paytim, janoblar! Armon bilan o‘lib ketmayin, axir! San’at olami menday bir kishidan ayrilib qolsa...

**P a r a t o v .** Yig‘lama-e, tuzatib yuboraman, dardingning davosini bilaman, xamirdan qil sug‘urganday osongina tuzatib qo‘yaman.

Bir quticha sigara ko‘tarib **K a r a n d i s h e v** chiqadi.

## OLTINCHI SAHNA

**P a r a t o v , K n u r o v , V o j e v a t o v , R o b i n z o n v a K a r a n d i s h e v .**

**R o b i n z o n** (*gilamga qarab*). Buningiz nima-ya?

**K a r a n d i s h e v .** Sigara.

**R o b i n z o n .** Yo‘q, mana bu osib qo‘yaningiz? Butafor buyum-larmi, ya‘ni soxtami?

**K a r a n d i s h e v .** Qanaqa butafor bo‘lsin, qanaqa soxta. Bu Turkiya yarog‘lari.

**P a r a t o v .** Aha, mana, avstriyaliklarning turklarni yenga olmasligiga gunohkor odam.

**K a r a n d i s h e v .** Nima? Shu ham hazil bo‘ldimi? Bu qanday bemazagarchilik, aytинг! Gunohim nima?

**P**aratov. Siz ularning butun yaramas yarog‘larini to‘plib olibsiz. Ular bo‘lsa, alamiga chidolmay, Angliya yarog‘lari bilan qurollanishmoqda.

**V**ojevatorov. Ha, ha... Haqiqiy gunohkor topildi hisob! Qilik‘ingiz uchun avstriyaliklar rahmat demasalar kerak.

**K**arandishev. Nega yaramas bo‘lsin, bu yarog‘lar? Masalan, mana bu pistolet... (*Devordan pistoletni oladi*).

**P**aratov (*qo‘liga olib*). Shu ham pistoletmi?

**K**arandishev. E, ehtiyoj bo‘ling, o‘qlangan-a!

**P**aratov. Qo‘rqmang, o‘qlansa-o‘qlanmasa xavfi birday otilmaydi baribir... Mana, besh qadamdan turib menga qarab oting, roziman.

**K**arandishev. Yo‘q, yo‘q, bu pistolet ham kerak bo‘lib qoladi.

**P**aratov. Devorga mix qoqish uchun kerak bo‘ladi, xolos. (*Pistoletni stol ustiga tashlaydi*.)

**V**ojevatorov. Yo‘q, unday demang! «O‘yindan o‘q chiqadi» degan maqol bor.

**K**arandishev (*Paratovga*). Sigara chekmaysizmi?

**P**aratov. Qimmat bo‘lsa kerak. Chamamda yuz donasi yetti yuzlar atrofida.

**K**arandishev. Shunga yaqin, juda yaxshi, oliy nav.

**P**aratov. Men bu navini bilaman, Regaliya kapustissima «dosamigos», men bunaqasini chekmayman. Oshnalarga tutaman.

**K**arandishev (*Knurovga*). Buyuring!

**K**nurov. Men siznikini istamayman. O‘zimnikini chekaman.

**K**arandishev. Juda yaxshisi-da, juda ham!

**K**nurov. Yaxshi bo‘lsa o‘zingiz cheking!

**K**arandishev (*Vojevatorova*). Chekmaysizmi?

**V**ojevatorov. Men uchun juda qimmatli qiladi, buni cheksa kishi buzilib ketadi ham. Ko‘rpaga qarab oyoq uzatish kerak.

**K**arandishev. Siz-chi, ser Robinzon, chekasizmi?

**R**obinson. Menmi? Qiziq savol! Besh donasini marhamat qiling! (*Besh donasini tanlab oladi. Cho‘ntagidan qog‘oz olib yaxshilab o‘raydi*.)

**K**arandishev. Nega tutatmaysiz.

**R**obinson. Yo‘q-da, iloji yo‘q. Bunaqasini tuzukroq joyda, tabiat quchog‘ida chekish kerak.

Karandishев. Nechuk, axir?

Robinzon. Shuning uchunki, agar hurmatli odamlar orasida chekkuday bo'lsang, do'pposlab qolishlari mumkin. Men bo'lsam kaltakni uncha yoqtirmayman.

Vojevatov. Kaltakni yomon ko'rasanmi?

Robinzon. Bolalik chog'imdan kaltak desa ko'nglim ayniyidigan bo'lib qolganman, ha!

Karandishев. Qanday asil, janoblari! Qanday asil odam! Angliyalik ekani mana endi ma'lum bo'ldi. (*Qattiq.*) Qani bizning xonimlar? (*Yana balandroq*). Xonimlar qani?

Ogudalova kiradi.

### YETTINCHI SAHNA

Paratov, Knurov, Vojevatov, Karandishев,  
Robinzon va Ogudalova.

Ogudalova. Xonimlar shu yerda, tashvish tortmang. (*Karandishevga sekin.*) Nima qilayapsiz? O'zingizni tuting...

Karandishев. Men, xa-xa. Men o'zimni bilaman. Bir qarang, hammasi mast. Men esa, shirakayf xolos, xursandman. Baxtliman. Tantana qilayapman bugun!

Ogudalova. Tantana qiling, lekin bunchalik emas! (*Paratovga yaqinlashib.*) Sergey Sergeich, bo'ldi, Yuliy Kapitonichni hadeb mazax qilavermang! Bizga ozor berayapsiz, men bilan Larisan xafa qilayapsiz.

Paratov. Yo'g'-e, xolajon, sizni xafa qilishga haddim bormi?

Ogudalova. Boyagi janjalni hali ham esdan chiqarmadingizmi? Uyat-e!

Paratov. Sizga nima bo'ldi, xolajon. Men kek saqlamayman. Marhamat qiling, sizning xursandchilicingiz uchun hozir to'xtataman-qo'yaman. Yuliy Kapitonich!

Karandishев. Nima deysiz?

Paratov. Men bilan «san-man», ya'ni qiyomatli og'ayni bo'lishiga ichishni istaysizmi?

Ogudalova. Mana bu ishingiz yaxshi (*Paratovga.*) Bor bo'ling.

Karandishев. Qiyomatli og'ayni deysizmi? Keling, bosh us-tiga.

Paratov (*Ogudalovaga*). Larisa Dmitriyevnani chaqirib qo'ying! Nega bizdan qochib yuradi.

Ogudalova. Xo‘p, boshlab kelaman. (*Ketadi.*)

Karandishev. Nima ichsak ekan? Burgon vinosidanmi?

Paratov. Yo‘q, burgoningizdan xalos eting, men jo‘n odamman.

Karandishev. Bo‘lmasa nima ichamiz?

Paratov. Bilasizmi nima? Ikkimiz konyak ichishsak alomat bo‘lardi-da, konyak bormi, konyak?

Karandishev. Nega bo‘lmasin! Menda hammasi bor! Hoy, Ivan, konyakdan ber!

Paratov. Bu yerda nima qilasiz, o‘sha yerda ichamiz? Faqat, sta-kancha buyuring, men ryumkada ichmayman.

Robinson. Nega konyak borligini oldinroq aytmadingiz? Qan-chacha qimmat vaqtlar bekor ketdi.

Vojevatov. Ey, tirilib qoldi-ku, bu!

Robinson. Men bu ichimlik bilan qanday muomala qilish yo‘lini bilaman. Men konyakka o‘rganib qolganman.

Paratov, Karandishev chap eshikka kirib ketadilar.

## SAKKIZINCHI SAHNA

Knurov, Vojevatov va Robinson.

Robinson (*chap eshikka qarab*). Karandishev tamom. Men boshlagan edim, Serj tugatyapti. Quyishadi, oyoqqa turishadi, ajo-yib tomosha! Uni qarang, Serjning tabassumiga qarang. Xuddi Bertramning o‘zi. («*Robert*»dan qo‘sinq aytadi.) «Xaloskorimsan. Men – xaloskoringman! Ham madadkorimsan, ham madadkoring-man». Ha, yutvorishdi. O‘pishayapti. (*Ashula aytadi.*) «Men qanday baxti-yor! – Qurbonim mening!» Eh, Ivan olib ketyapti, konyakni olib ketdi! (*Baqirib.*) Hoy, nima qilayapsan, qo‘y joyiga, tursin, men qachondan beri kutib o‘tiribman-a. (*Chopib chiqadi.*)

O‘rta eshikdan Ily a kiradi.

## TO‘QQIZINCHI SAHNA

Knurov, Vojevatov, Ilya so‘ng Paratov.

Vojevatov. Xo‘sh Ilya?

Ilya. Hammamiz to‘plandik, ko‘cha bog‘ida kutmoqdamiz. Qa-chon buyurasiz?

V o j e v a t o v . Hozir hammamiz birga jo'naymiz, birpas tura-turinglar-chi.

I l y a . Xo'p bo'ladi, nima buyursangiz shu bo'ladi.

P a r a t o v kiradi.

P a r a t o v . Ha, Ilya, tayyormisizlar?

I l y a . Tayyormiz, Sergey Sergeich.

P a r a t o v . Gitarang bormi?

I l y a . Olib kelmagan edim-ku, Sergey Sergeich.

P a r a t o v . Gitara kerak, eshitdingmi?

I l y a . Darrov olib kelaman, Sergey Sergeich. (*Ketadi*.)

P a r a t o v . Men Larisa Dmitriyevnadan biron ta ashula aytib berishini so'ramoqchiman, so'ng Volgaga jo'naymiz.

K n u r o v . Larisa Dmitriyevna bo'lmasa sayrimiz uncha ko'ngilli bo'lmaydi. Agarda... o'shanday maishatga har qancha to'lasang arziydi.

V o j e v a t o v . Agar Larisa Dmitriyevna borsa, suyunchisiga hamma eshkakchilarga bir so'lkavoydan ulashib yuborardim.

P a r a t o v . Men ham xuddi shu fikrdaman, janoblar, dilimizning to'g'ri kelishini qarang-a!..

K n u r o v . Iloji bo'larmikan?

P a r a t o v . Dunyoda iloji bo'lмаган hech nima yo'q, deydilar, faylasuflar.

K n u r o v . Janoblar, lekin Robinzon oshiqcha yuk. Shuncha kuldik, yetar. U yerda tag'in ichadi-yu, tayyor hayvon bo'ladi-qoladi. Nima qizig'i bor! Bu sayohatimiz jiddiy bo'ladi. U bizga ulfat emas. (*Eshikka imo qilib*) Ana, konyakka yopishib olganini qarang.

V o j e v a t o v . Obormaymiz-qo'yamiz-da.

P a r a t o v . Bir amallab qoldirib ketamiz.

V o j e v a t o v . To'xtanglar, janoblar! Men to'g'rilayman. (*Eshikka*.) Robinzon!

R o b i n z o n kiradi.

## O'NINCHI SAHNA

Paratov, Knurov, Vojevatov va Robinzon.

R o b i n z o n . Nima deysan?

V o j e v a t o v (*sekin*). Parijga borasanmi?

R o b i n z o n . Qanday qilib? Qachon?

V o j e v a t o v . Bugun kechqurun.

R o b i n z o n . Volgaga bormoqchi edik-ku.

V o j e v a t o v . O'zing bilasan, mayli, sen Volgaga bor, men Parijga jo'nayman.

R o b i n z o n . Mening pasportim yo'q-ku, nima bo'ladi?

V o j e v a t o v . Uyog'ini menga qo'yib ber.

R o b i n z o n . Qarshi emasman.

V o j e v a t o v . Juda soz, bu yerdan birga ketamiz, men seni uyga tashlab, bir-ikki joyga borib kelaman. Sen kutib turasan, dampingni ol, uxla, xo'pmi?

R o b i n z o n . Lo'lilar ashulasini ham bir eshitish kerak edi-da.

V o j e v a t o v . Yana bu kishi artist! Uyal-e! Lo'lilar ashulasi – nodonlik va jaholat! Italiya operasi yoki sho'x bir operetta bo'lganda boshqa gap edi. Sen shunaqalarini eshitishing kerak. O'zing ham o'ynagandirsan, axir!

R o b i n z o n . Bo'lmasam-chi! Men «Sayroq qushchalar» ope-rettasida o'ynaganman.

V o j e v a t o v . Kim bo'lib?

R o b i n z o n . Notarius rolida.

V o j e v a t o v . Shunday bir artistning Parijga bormasligi mumkinmi? Parijga borib kelganingdan keyin, narxing rosa oshadi-da!

R o b i n z o n . Qo'lingni ber!

V o j e v a t o v . Borasan-a?

R o b i n z o n . Boraman.

V o j e v a t o v (*Paratovga*). Hali «Robert»dan aytgan ashulasini eshitdingmi? Bay-bay, xo'p ovozi bor-da!

P a r a t o v . Hali bu bilan Nijniy yarmarkasida ko'p ish ko'r-satamiz.

R o b i n z o n . Avval so'rab ko'ring-chi, hali boramanmi, yo'qmi.

P a r a t o v . Nima uchun?

R o b i n z o n . Yarmarkasiz ham jaholatni ko'p ko'ryapman.

P a r a t o v . Ehe, tili chiqib qolibdi-ku!

R o b i n z o n . Yevropada hozir madaniyatli kishilar yarmarkama-yarmarka sanqib yurmaydi, balki katta-katta shaharlarga sayohat qili-shadi.

Paratov. O'z muborak qadamingiz bilan Yevropadagi qaysi davlat va qaysi shaharlarni baxtiyor qilmoqchisiz?

Robinzon. Albatta Parijni-da. O'zim ham ko'pdan beri bormoqchi bo'lib yurgan edim.

Vojevatov. Biz ikkalamiz bugun kechqurun jo'naymiz.

Paratov. Shunaqami hali, oq yo'l tilayman bo'lmasa. Sen, albatra, Parijga borishing kerak. Sen kam eding, xolos. Aytgancha, xo'jayin qani?

Robinzon. Ichkarida. Sizlarga kutilmagan sovg'a tayyorlayapman degan edi.

O'ng tomondan Ogudalova, Larisa, chap tomondan Ivan bilan  
Karandishev chiqadi.

### O'N BIRINCHI SAHNA

Ogudalova, Larisa, Knurov, Paratov, Vojevatov,  
Karandishev, Robinzon, Ivan so'ngra Ilya va  
Yevfrosinya Potapovna kiradi.

Paratov (*Larisaga*). Nega siz bizni tashlab qo'ydingiz?

Larisa. Negadir, biroz tobim yo'q.

Paratov. Hozir kuyovingiz bilan do'stlikka ichishdik. Qiyomatli do'st bo'ldik.

Larisa. Tashakkur. (*Paratovning qo'lini siqadi*.).

Karandishev (*Paratovga*). Serj!

Paratov (*Larisaga*). Mana ko'rdingizmi qanday do'stona! (*Karandishevga*) Nima deysan?

Karandishev. Seni birov chaqiryapti.

Paratov. Kim ekan?

Ivan. Lo'li Ilya bor-ku...

Paratov. Chaqir, bu yoqqa.

Ivan ketadi.

Meni kechiring, men Ilyani shu o'tirishga chaqirayapman. Ilya eng yaqin do'stim. Meni qabul qilgan uy, do'stlarimni ham qabul qilishlari kerak. Qoidam shunaqa.

Vojevatov (*Larisaga ohista*). Men yangi qo'shiq bilaman.

Larisa. Yaxshimi?

V o j e v a t o v . Juda ham! «Arg‘amchi-yu arg‘amchi, xonim ka-vush kiymoqchi».

L a r i s a . G‘alati-ku.

V o j e v a t o v . Sizga o‘rgatib qo‘yaman.

I l y a gitarasi bilan kiradi.

P a r a t o v (*Larisaga*). Larisa Dmitriyevna, bizni baxtiyor etishingizni so‘rashga ijozat bering! Bitta qo‘shiq eshitsak. Qo‘shig‘ingizni eshitmaganimga taxminan bir yil bo‘ldi. Ehtimol bundan keyin hech eshitmasman.

K n u r o v . Ijozat eting, men ham shu iltimosni takror etay!

K a r a n d i s h e v . Bo‘lmaydi janoblar, bo‘lmaydi. Larisa Dmitriyevna ashula aytmaydi.

P a r a t o v . Sen qayoqdan bilasan? Balki aytib berar.

L a r i s a . Afv etingiz janoblar, bugun vaqt emas, ovozim ham...

K n u r o v . Nima bo‘lsa ham, bitta qo‘shiq aytning!

K a r a n d i s h e v . Men aytmaydi deganimdan keyin, aytmaydi.

P a r a t o v . Ko‘ramiz-da. Biz iltimos qilamiz. Yalinamiz, tiz cho‘kib so‘raymiz.

V o j e v a t o v . Men hozir tiz cho‘kaman. Juda epchilman-da.

K a r a n d i s h e v . Yo‘q, yo‘q, so‘rab ovora bo‘lmang, mumkin emas. Men ijozat bermayman.

O g u d a l o v a . Nima? Ijozat bermaslikka haqingiz yo‘q. To‘xtab turing, vaqt hali erta.

K a r a n d i s h e v . Yo‘q dedim, yo‘q! Chinakam, ijozat bermayman!

L a r i s a . Siz ijozat bermaysizmi? Bo‘lmasa, aytganim bo‘lsin, janoblar!

K a r a n d i s h e v xafa bo‘lib bir burchakka borib o‘tiradi.

P a r a t o v . Ilya!

I l y a . Nimani aytamiz, yaxshi qiz?

L a r i s a . «U sevmas edi meni».

I l y a (*gitarani sozlaydi*). Biram sozlash qiyinki! Ajoyib tenor edi-da! (*Larisa bilan Ilya qo‘shiq aytadi*.) Ahmoqligi bo‘ldi.

Menga yor bo‘lgin, ham dildor bo‘lgin

Ishqingda yonib, yashay degandi.

Jilmayib menga, termilib menga,

Jannah quvonchin va‘da qilgandi.

*G'arib yurakka shunday degandi,  
Sho'rlik jonioqga va'da qilgandi.  
Lekin sevmasdi, ko'nglim bilgandi,  
Yo'q, sevmasdi, oh sevmasdi meni.*

Hamma o'z shodligini har xil bayon qiladi: Paratov sochini changallab o'tiradi, ikkinchi bandga o'tganda Robinzon qo'shiladi.

*G'arib ko'nglimga va'da bergandi,  
Baxtiyor etgum, seni degandi.  
Qasam ichgandi, ishontirgandi,  
Mangu sevaman seni degandi,  
Shirin so'zlar-la bog'lab qo'ygandi.  
Lekin sevmasdi, ko'nglim bilgandi,  
U sevmasdi, yo'q, sevmasdi meni.*

Ily a (*Robinzonga*). Rahmat, to'ram, asqatdingiz.

Knurov (*Larisaga*). Jamolingizni ko'rish baxt-u saodat bo'lsa, ovozingizni eshitish huzur-u farog'at.

Paratov (*xafa holda*). Jinni bo'lib qolaman shekilli! (*Larisaning qo'lini o'padi*.)

Voevatorv. Eshitsang-u, jon bersang, bearmon ketasan kishi! (*Karandishevga*.) Siz esa shunday lazzatdan mahrum qilmoxchi bo'ldingiz-a.

Karandishev. Mening zavqi-dilim ham siznikidan kam emas, janoblar! Larisa Dmitriyevna qo'shiq aytganda zavqim jo'sh uradi. Keling, Larisa Dmitriyevnaning sog'lig'i uchun shampanskiy ichib yuboraylik!

Voevatorv. Hikmatli so'zning sadaqasi bo'lsang.

Karandishev (*baqirib*). Shampanskiy keltiring.

Ogudalova (ohista). Sekinroq, nega baqirasiz?

Karandishev. Kechirasiz, men o'z uyimdaman. Nima qilayot-ganimni bilaman. (*Baland ovoz bilan*) Shampanskiy!

Yevfrosinya Potapovna kiradi.

Yevfrosinya. Tag'in qanaqa shampanskiy? Dam o'tmay uni olib kel, buni olib kel!

Karandishev. Birovning ishiga aralashmang! Buyurganimni bajaring!

Yevfrosinya. Bor, o'zing bor! Oyog'imda oyoq qolmadi. Er-talabdan beri tuz totmay yuribman-u. (*Ketadi*.)

Karandishev chap eshikka kirib ketadi.

O g u d a l o v a . Shoshmang, Yuliy Kapitonich!.. (*Karandishevning orqasidan kirib ketadi.*)

P a r a t o v . Ilya, jo‘na! Qayiqlar shay bo‘lsin! Hozir yetib boramiz!

I l y a o‘rta eshikdan chiqib ketadi.

V o j e v a t o v (*Knurovga*). Yuring, uni Larisa Dmitriyevna bilan xoli qoldiraylik. (*Robinzonga*.) Robinzon, qara, Ivan konyakni olayapti.

R o b i n z o n . Men uni o‘ldiraman. Konyaksiz qolishdan ko‘ra o‘lganim yaxshi.

Chap eshikka Knurov, Vojevatov va Robinzon kirib ketadi.

## O‘N IKKINCHI SAHNA

Larisa va Paratov.

P a r a t o v . Oh, go‘zal pari! (*Larisaga tikiladi*.) Siz qo‘shiq aytgанингизда о‘зимга qancha la‘natlar o‘qidim!

L a r i s a . Nima uchun?

P a r a t o v . Axir, menda ham yurak bor. Sizdek qimmataho gavharni qo‘ldan boy berish osonmi?

L a r i s a . Kim aybli, axir?

P a r a t o v . Albatta, men, siz o‘ylagandan ham battarraq gunohkorman. Men o‘z-o‘zimdan har qancha nafratlansam ham oz.

L a r i s a . Nega ekan, gapiring?

P a r a t o v . Nega sizdan qochdim. Nimalarga ovora bo‘ldim.

L a r i s a . Nega shunday qildingiz?

P a r a t o v . Oh, nima uchun? Bu mening irodasizligim. Mol-u mulkimni qo‘lga olish darkor bo‘lib qoldi. Ey xudo, mol-mulkdan balandroq kishimdan – sizdan ajradim, mana endi o‘zimni ham, sizni ham azobga qo‘ydim.

L a r i s a . To‘g‘risini aytganda, siz mening hayotimni umrbod zaharladingiz.

P a r a t o v . To‘xtang, sabr qiling, darrov aybga qo‘ymang! Men hali u daraja rasvo, dag‘al bo‘lib qolganim yo‘q. Savdogarlik menga ota meros emas. Yuragimda hali ham oliy tuyg‘ular qo‘zg‘alib qo‘yadi. Yana shunday unutilmas daqiqlar...

L a r i s a (*ohista*). Gapiring!

Paratov. Butun davlatimdan kechaman. Ana unda hech qanday kuch sizni mendan tortib ololmaydi.

Larisa. Nima demoqchisiz, nima istaysiz?

Paratov. Diyordingizga to'yish, mungli ovozingizni eshitishni istayman... Ertaga jo'nayman.

Larisa (*boshini quyi solib*). Ertaga!

Paratov. Jozibali ovozingizni eshitsam, butun jahonni unutsam-u, faqat bir baxt haqida xayol sursam...

Larisa (*ohista*). Qanday baxt?

Paratov. Sizning qulingiz bo'lish baxti. Oyoqlaringizga bosh qo'yish baxti.

Larisa. Xo'sh, qanday qilib?

Paratov. Menga qarang, biz bugun ulfatlar qayiqqa tushib, Volgada sayr qilmoqchimiz, siz ham yuring.

Larisa. Bu yerda-chi?.. To'g'risi, nima qilishimni bilmay qoldim... Bu yerda nima bo'ladi keyin?

Paratov. «Bu yer» deganingiz nimasi? Bu yerga hozir ola-bula shoyi ko'yylaklar kiygan xonimlar va Karandishevning xolasi keladi, suhbat esa tuzlangan qo'zigorin to'g'risida bo'ladi.

Larisa. Qachon jo'nash kerak!

Paratov. Hozir.

Larisa. Hozir?

Paratov. Hozir bo'lmasa, hech qachon!

Larisa. Ketdik.

Paratov. Rostdanmi, Volganing narigi yog'iga-ya?

Larisa. Istagan joyingizga.

Paratov. Biz bilan, hozir-a?

Larisa. Qachon desangiz ham.

Paratov. Iqror bo'layki, bundan ortiq muruvvat bo'lishini xayolimga keltirolmayman. Go'zal xilqat! Malikam!

Larisa. Siz mening hokimim!

Ogudalova, Knurov, Vojevatov, Robinzon,  
Karandishev va Ivan chiqadilar. Ivan qo'lidagi patnисda  
stakanlar shampanskiy bilan to'ldirilgan.

## O'N UCHINCHI SAHNA

Ogudalova, Knurov, Larisa, Paratov,  
Karandishev, Vojevatov, Robinzon va Ivan.

Paratov (*Knurov bilan Vojevatovga*). Boradigan bo'ldi.

Karandishev. Azizlar, men Larisa Dmitriyevna sharafiga qadah ko'tarishingizni taklif qilaman. (*Hamma stakan oladi.*) Azizlar, hozir siz Larisa Dmitriyevnaning san'atiga qoyil qoldingiz, sizlarning maqtovlaringiz – bu kishi uchun yangilik emas. Qulay fursat topganda ko'ziga termilib turib maqtovchi jazmanlar yoshligidan yetarli, mo'l. Bu kishi chinakam qobiliyatlarga ega. Men faqat qibiliyatlari uchun maqtamoqchi emasman, Larisa Dmitriyevnaning bebaho bir xosiyati shundaki, azizlar, bebaho xosiyat, azizlar...

Vojevatov. Adashib qoldi.

Paratov. Yodlangan gap, hozir topib oladi.

Karandishev. Shundaki, azizlar, bu kishi odamning qadriga yetadi va odam tanlay oladi. Larisa Dmitriyevna yaltiragan buyumning hammasi oltin emasligini yaxshi biladi. Oltin bilan hal qog'ozning farqiga yetadi. Ancha yaltiroq yigitchalar qurshab olishgan ham edi, lekin bu kishi usti yaltiroq, ichi qaltiroqlardan qochdi-yu, yaltiroq bo'lmasa ham, o'zi uchun munosib kishini axtardi...

Paratov. Barakalla, barakalla.

Karandishev. Topib oldi ham.

Paratov. Ya'ni, sizni! Barakalla, barakalla!

Vojevatov va Robinzon. Barakalla, barakalla!

Karandishev. Shunday, azizlar, mening faxrlanishimga faqat jur'atim emas, hatto haqim bor, faxrlanaman ham. U mening dardimga tushundi, qadrimga yetdi. Hammadan yuqori ko'rди. Kechirasiz, azizlar, mening bu so'zlarim hammaga ham yoqavermasa kerak. Lekin meni hammadan afzal ko'rgani, manzur qilgani uchun jamoat oldida Larisa Dmitriyevnaga tashakkur aytishni qarz va farz deb bilaman. Azizlar, qallig'im sog'lig'i uchun qadah ko'taraman va sizlarga ham ko'tarishni taklif qilaman!

Paratov, Vojevatov, Robinzon. Ura, ura!

Paratov (*Karandishevga*). Vinodan yana bormi?

Karandishev. Bo'lsa kerak. Nega bo'lmasin! Nimalar deyapsan sen? Men bo'laman-u, topmay qo'yamanmi?

**P**arato v. Yana bir qadah ko'tarish kerak bo'lib qoldi.

**K**arandishev. Qanday?

**P**arato v. Bandalarning eng baxtiyori bo'lmish Yuliy Kapitonich Karandishev sog'lig'i uchun.

**K**arandishev. A, bunday degin, sen taklif qilmoqchimisan. Taklif qilmasang ham bo'lmasdi, Serj! Men borib harakat qilay, topib kelaman. (*Ketadi.*)

**K**nurov. Har narsaning ozi soz. Xayr bo'lmasa. Men borib ovqat qilaman-u, to'g'ri o'sha yerga boraman. (*Xotinlarga ta'zim qiladi.*)

**V**ojevatov (*o'rta eshikni ko'rsatib*). Mana bu yerdan keiting, Mokiy Parmenich, to'g'ri ko'cha eshikka chiqasiz, hech kim ko'rmaydi...

**K**nurov ketadi.

**P**arato v (*Vojevatovga*). Biz ham jo'naymiz. (*Larisaga.*) Qani bo'ling.

**L**arisa o'ng tomonga ketadi.

**V**ojevatov. Qadahni kutmasdan-a?

**P**arato v. Shunisi ma'qul.

**V**ojevatov. Nima uchun?

**P**arato v. Tag'in masxara bo'ladi.

Qo'lida shlapasi bilan Larisa chiqadi.

**V**ojevatov. Usiz ham rosa masxara bo'ldi. Robinzon, qani ketdik.

**R**obinzon. Qayoqqa?

**V**ojevatov. Uyga, Parij tayyorgarligini ko'raylik.

Robinzon va Vojevatov ta'zim qilib chiqib ketadilar.

**P**arato v (*Larisaga sekin*). Ketdik! (*Chiqib ketadi.*)

**L**arisa. Yaxshi qol, oy!

**O**gudalova. Senga nima bo'ldi? Qayoqqa?

**L**arisa. Yo xursand bo'lasan yoki jasadimni Volgadan topasan.

**O**gudalova. Xudo saqlasin, nima bo'ldi?

**L**arisa. Ma'lum bo'ldiki, taqdirdan qochib bo'lmas ekan. (*Ketadi.*)

**O**gudalova. Oqibatini qarang! Yoppasiga qochishdi. Eh, Larisa!.. Orqasidan boraymi?.. Yo'q, kerak emas! Nima bo'lsa ham

ko'pchilik orasida-ku. Bu yer-chi, tashlab ketishga arziyidigan yer, balo ham urmas.

Karandishev va Ivan kiradi. Ivan ning qo'lida bir shisha shampanskiy.

## O'N TO'RTINCHI SAHNA

Ogudalova, Karandishev va Ivan,  
so'ngra Yevfrosinya Potapovna.

Karandishev. Men, janoblar... (*Uyni ko'zdan kechirib.*) Qani ular? Ketib qolishdimi? Mana senga nazokat! Nima ham deyish mumkin, mayli, ko'ngildagiday bo'pti! Qiziq, qachon ulgurishdi-ya! Siz ham ketsangiz kerak? Yo'q, siz Larisa Dmitriyevna bilan biroz to'xtang, xafa bo'ldingizmi? Bilaman! Yana yaxshi! Nuqlu oila a'zolari qolibmizda... Larisa Dmitriyevna qani? (*O'ngdag'i eshikka borib.*) Xolajon, Larisa Dmitriyevna sizning yoningizdami?

Yevfrosinya (*chiqib*). Hech qanday Larisa Dmitriyevna mening yonimda yo'q.

Karandishev. Bu nima degan gap o'zi? Ivan, bu janoblar va Larisa Dmitriyevna qayoqqa g'oyib bo'lishdi?

Ivan. Larisa Dmitriyevna ham o'sha janoblar bilan birga ketgan bo'lsa kerak... Chunki ular Volga sayliga bormoqchi edilar.

Karandishev. Volgaga deysanmi?

Ivan. Butun idish-tovoq va vinolar bizning qovoqxonadan ketdi. Xizmatkorlar ham olishgan, hammasi joyida.

Karandishev (*o'tirib, boshini ushlab*). Bu qanday gap, bu qanday gap.

Ivan. Lo'lilar, muzika deysizmi, hammasi shay!

Karandishev (*qizishib*). Qizingiz qani, Xarita Ignatevna, javob bering menga, qizingiz qani?!

Ogudalova. Men qizimni sizning uyingizga olib kelgan edim, Yuliy Kapitonich. Siz menga javob bering, qizim qani?

Karandishev. Bilaman, siz hammangiz oldindan kelishib, til biriktirib qo'ygansiz. (*Yig'lamsirab.*) Haqorat, chidab bo'lmaydigan haqorat.

Ogudalova. Tantana qilishga hali vaqt erta.

Karandishev. Masxara... To'g'ri, masxara odamman, buni o'zim ham bilaman, axir masxara deb jazolash mumkinmi o'zi, yaxshi,

men g‘alatiman. Mayli, kul, lekin ko‘zimga tikilib, to‘g‘ri qarab kul, uyimga kelinglar, vinolarimni ichinglar, so‘kinglar, mazax qilinglar, men shunga arziyidigan kishiman. Biroq, masxara odamning ko‘ksini yorib, yuragini sug‘urib, oyoq ostiga tashlab toptash, o‘h, qanday azob, qanday yashay olaman!

**Y e v f r o s i n y a P o t a p o v n a .** Bo‘ldi, o‘zingni buncha qiy-naysan, qo‘yaver!

**K a r a n d i s h e v .** Axir ular o‘g‘rilar emas, tappa-tuzuk odamlar-ku, hammasi Xarita Ignatevnaning yaqinlari...

**O g u d a l o v a .** Men hech nimani bilmayman.

**K a r a n d i s h e v .** Yo‘q, siz o‘sha qaroqchilar to‘dasidansiz, til biriktirib qo‘ygansiz, Xarita Ignatevna, shuni bilingki, har qanday yovvosh odamni ham quturtirib yuborish mumkin. Jinoyatchilarning hammasi yovuzlar emas, yovvosh odam ham boshqa yo‘l qolmagandan keyin jinoyatga qadam qo‘yadi. Bu yorug‘ dunyoda menga nomus kuchi o‘zimni osib o‘ldirish yoki o‘ch olish qolgan ekan, men o‘ch olaman. Endi men uchun qo‘rqish, qonun, ayash degan gap yo‘q. Omonsiz g‘azab va o‘ch tashnaligi meni bo‘g‘moqda, men hammasidan birma-bir o‘ch olaman, to o‘zimni o‘ldirmagunlaricha o‘ldiraveraman.  
*(Stoldan to ‘pponchani olib chopib chiqib ketadi.)*

**O g u d a l o v a .** Nima oldi u?

**I v a n .** To‘pponcha.

**O g u d a l o v a .** Chop orqasidan, chop, dod sol, ushla deb baqir!



## TO'RTINCHI PARDA

Birinchi ko'rinishning dekoratsiyasi. Yozning yorug' kechasi.

### BIRINCHI SAHNA

Ivan va Robinzon.

Robinzonning qo'lida cho'p. Qovoqxonadan chiqishadi.

Ivan. Cho'pni bu yoqqa bering!

Robinzon. Bermayman. Men bilan o'yna! Nima uchun o'y-namaysan?

Ivan. Qanday qilib o'ynayman, pulni to'lamasangiz?

Robinzon. Keyin beraman. Pullarim Vasiliy Danilichda edi, olib ketib qolibdi. Nahotki ishonmasang?

Ivan. Nima uchun ular bilan birga sayr qilgani bormadingiz?

Robinzon. Uxlab qolibman, u bo'lsa uyqumni bezovta qilishga jur'at etolmabdi, tushundingmi, o'zi ketaveribdi. Qani, o'ynaylik.

Ivan. Yo'q, bu o'yin emas. Men pul qo'yaman, siz qo'ymaysiz. Yutsangiz olasiz-u, yutqizsangiz bermaysiz. Pul qo'ying!

Robinzon. Nima, qarz qilishga o'ynamaysanmi, men bilan-a? Voajabo! Bunday shaharni umrimda birinchi marta ko'rayapman... Men hamma yerda, butun Rossiyada qarz olganim-olgan.

Ivan. Bunga ishonaman, nima so'rasangiz yo'q demayman, janobi Sergey Sergeich bilan Vasiliy Danilichni juda yaxshi taniganimizdan qarz berishga majburmiz, lekin o'yinga naqd pul kerak-da!

Robinzon. Mana bunday demaysanmi. Ma, cho'pingni ol, menga biror shisha... haligi...

Ivan. Yaxshigina portveyn bor.

Robinzon. Arzonini ichmayman.

Ivan. Sizga arzonini berarmidik.

Robinzon. Undan keyin... menga, haligi... nima edi, pishirib berishsin... ha, ha... nima edi...

Ivan. Bedana qovurib berish mumkin, ma'qulmi?

Robinzon. Mayli, xuddi o'zi!

Ivan. Xo'p bo'ladi. (*Ketadi.*)

Robinzon. Meni kalaka qilishmoqchi bo'lishadi. Mayli, men ularni bir kalaka qilay. Alam qilganidan yigirma so'm qarz orttirib qo'yaman, menga nima, o'zлari to'lashadi. Ular meni ulfatchiliklariga zor deb o'ylasalar, yanglischadilar. Menga pul bo'lsa bas, o'zim yolg'iz bo'lsam ham zerikib qolmayman. Biron ta laqillagandan jindak pul undirishning iloji bo'lganda edi...

Ivan qo'lida butilka bilan kiradi.

Ivan (*butilkani qo'yib*). Bedana qovurilayapti.

Robinzon. Men bu yerdagi teatrni ijaraga olmoqchiman.

Ivan. Juda soz.

Robinzon. Bufetini kimga topshirishni bilmayapman, xo'ja-yining olmasmikan?

Ivan. Nega olmasin.

Robinzon. Yaxshi tutish sharti bilan beraman-da! Ishonch uchun hozir biroz pul berish kerak bo'ladi!

Ivan. Yo'q, pul bermasa kerak. Mulla bo'lib qoldi, ikkitasi kelib tushirib ketgan.

Robinzon. Ikkitasi deysanmi? Ikkitasi tushirib ketgan bo'lsa...

Ivan. Uchinchisiga ishonmas.

Robinzon. Qanday odamlar-a! Hayronman. Undirish mumkin bo'lgan joydan allaqachon undirib ketishibdi, poyqadamlari yetmagan hech qayer qolmabdi. Ha, mayli, keragi yo'q. Uncha muhtojligim ham yo'q. Sen unga biron narsa deb o'tirma tag'in, bu ham aldamoqchi ekan deb yurmasin, mening qanaqa odamligimni o'zing bilasan.

Ivan. Shunaqaku-ya... Bugun janobi Karandishev mehmonlarning birdan ketib qolganiga shunday achchig'landilarki, hatto kimnidir o'ldirmoqchi bo'lib to'pponcha olib chiqib ketdilar!

**R o b i n z o n .** To'pponcha olib? Yaxshi bo'l mabdi.

**I v a n .** Mast edi, o'ylayman hovridan tushib qolar deb. Bulvardan ham ikki marta o'tdilar... Ana, tag'in kelayaptilar.

**R o b i n z o n (Qo'r qib).** To'pponcha deysanmi? Kimni o'ldir-moqchi, meni emasdир?

**I v a n .** Unisini bilmadim. (*Ketadi*.)

**K a r a n d i s h e v** kiradi, Robinzon shisha orqasiga yashirinishga urinadi:

## IKKINCHI SAHNA

**Robinzon, Karandishev so'ngra Ivan.**

**K a r a n d i s h e v (Robinzonga yaqinlashib).** O'rtoqlaringiz qani, Robinzon afandim?

**R o b i n z o n .** Qanaqa o'rtoqlarim? Mening o'rtoqlarim yo'q.

**K a r a n d i s h e v .** Menikida siz bilan birga ziyofat yegan janoblar-chi?

**R o b i n z o n .** Qanaqa o'rtoqlar bo'lsin ular... shunchaki ko'z tanish oshnalar edi, xolos.

**K a r a n d i s h e v .** Hozir qayerdaliklarini bilmaysizmi?

**R o b i n z o n .** Bilmayman. Men o'sha ulfatlardan mumkin qadar uzoqlashmoqchiman. Men qo'y og'zidan cho'p olmagan bir bandayı mo'minman... Xotin, bola-chaqam ham bor, bilsangiz.

**K a r a n d i s h e v .** Xotin, bola-chaqa?

**R o b i n z o n .** Chug'urchuqlarimning son-sanog'i yo'q... tinch oilaviy hayot mening uchun hamma narsadan afzalroq; xafagarchilik, janjallardan xudo saqlasin, men ham suhabatni sevaman, faqat bama'ni va aqlli gap bo'lsa... Masalan, san'at haqida... Mana sizga o'xshash gapga tushunadigan oliyjanob odam bilan gaplashishim, hatto jindak ichishim ham mumkin, quyaymi? Nima deysiz?

**K a r a n d i s h e v .** Istamayman.

**R o b i n z o n .** Ixtiyorингиз. Ishqilib, bemazagarchilik ro'y bermasa bas.

**K a r a n d i s h e v .** Axir, qayerdaliklarini siz bilishingiz kerak.

**R o b i n z o n .** Biron joyda kayf qilishayotgandir-da. Boshqa nima ham ishlari bor deysiz.

Karandish ev. Volganing narigi yog‘iga ketishgan deyishdi, rostmikan?

Robinzon. Ehtimoldan uzoq emas.

Karandish ev. Sizni chaqirishgani yo‘qmi?

Robinzon. Yo‘q, men oilali kishiman.

Karandish ev. Qachon qaytishar ekan?

Robinzon. O‘zлari ham bilishmasa kerak. Menimcha ertalab kelishar.

Karandish ev. Ertalab?

Robinzon. Balki vaqtliroq qaytishar.

Karandish ev. Nima bo‘lsa ham kutishim kerak, ba’zi biri bilan gaplashib olmog‘im darkor.

Robinzon. Chinakam kutmoqchi bo‘lsangiz daryo bo‘yiga boring. Bu yerga kelarmidi deysiz. Daryo bo‘yidan to‘g‘ri uylariga ketishadi. Boshqa nima ham kerak! Qorinlari bo‘lsa to‘q.

Karandish ev. Daryo bo‘yi keng axir! Qaysi yerida kutay?

Robinzon. Qaysi yerda kutsangiz kuting-u, faqat bu yerda kutmang. Bu yerda kutishning foydasi yo‘q.

Karandish ev. Mayli, men daryo bo‘yiga boraman, yaxshi qoling. (*Robinzonga qo‘lini berib.*) Meni kuzatib qo‘yolmaysizmi?

Robinzon. Yo‘q, xafa bo‘lmaysiz. Men oilali kishiman dedim-ku.

Karandish ev ketadi.

Ivan, Ivan!

Ivan chiqadi.

Ovqatni ichkariga olib kir, vinoni ham!

Ivan. Afandim, ichkari juda dim. Bu qanday erksizlik! Nimaga o‘zingizni bo‘g‘asiz!

Robinzon. Mayli, kechki havo mijozimga to‘g‘ri kelmaydi. Doktor man etgan, undan keyin, haligi janob so‘rab kelsa yo‘q degin, xo‘pmi? (*Qahvaxonaga kirib ketadi.*)

Qahvaxonadan Gavril o chiqadi.

## UCHINCHI SAHNA

Gavrilo bilan Ivan.

Gavrilo. Sen Volga tomonga qaradingmi, biznikilar ko'rin-maydimi?

Ivan. Kelishganga o'xshaydi.

Gavrilo. Qayerdan bilding?

Ivan. Pastdan shovqin-suron eshitilayapti, lo'lilar chug'urlashib qolishdi. (*Stoldan shishalarni olib qahvaxonaga kirib ketadi.*)

## TO'R TINCHI SAHNA

Gavrilo, Ilya, lo'lilar va lo'li xotinlar.

Gavrilo. Qalay, yaxshi bo'ldimi?

Ilya. Maza! Shunday yaxshi bo'ldiki, asti qo'yaver.

Gavrilo. Xo'jayinlar xursand bo'lishdimi?

Ilya. Rosa xursandchilik bo'ldi. Qiling o'rgilsin sayl. Xudo umr-larini bersin. Bu yoqqa kelishyapti, tun bo'yi bazm bo'ladi, ko'rasan hali.

Gavrilo (*qo'lini ishqab*). Qani, kirib o'tiringlar! Xotinlarga choy buyuraman, sizlar jindak ovqatlanib olinglar.

Ilya. Kampirlarga choyga rom qo'shib berishsin, ayt! Yaxshi ko'rishadi!

Ilya, lo'lilar va lo'li xotinlar, Gavrilo qahvaxonaga kirib ketadilar.

Knurov bilan Vojevatov kiradi.

## BESHINCHI SAHNA

Vojevatov bilan Knurov.

Knurov. Mojaro boshlanayaptimi deyman.

Vojevatov. Shunaqa shekilli.

Knurov. Men Larisa Dmitrievnaning ko'zlarida yosh ko'rib qoldim.

Vojevatov. Ular sal narsaga ko'z yoshi qiladilar, bu ularga odat.

**K n u r o v.** Nima desangiz ham ahvoliga havas qilib bo‘lmaydi.

**V o j e v a t o v.** Bir nima bo‘lib to‘g‘rilanib ketadi.

**K n u r o v.** Ko‘zim yetmay qoldi-da.

**V o j e v a t o v.** Karandishev jindak xafa bo‘ladi, boshini har yonga uradi, keyin yana eski asliga tushib qoladi!

**K n u r o v.** Endi qiz, ilgarigi qiz emas, bu yog‘i ham bor-da... To‘y arafasida kuyovni tashlab ketish uchun asos kerak, axir. O‘zingiz o‘ylab qarang, Sergey Sergeich bir kunga keldi. Qiz esa, butun umri birga o‘tadigan kuyovni tashlab, uni deb ketdi. Bundan chiqadiki, qizning hali ham Sergey Sergeichdan umidi bor ekan. Bo‘lmasa, uni nima keragi bor edi.

**V o j e v a t o v.** Demak, yana aldagani, yana avragan, shundaymi?

**K n u r o v.** Xuddi shunday. Juda-juda jiddiy va‘dalar bergan bo‘lsa kerak. Bo‘lmasa, qanday qilib bir marotaba aldab ketgan kishining so‘ziga yana uchadi.

**V o j e v a t o v.** Hechqisi yo‘q. Sergey Sergeich nimani o‘ylasa, dadil, qo‘rqmay qiladigan odam.

**K n u r o v.** Ming dadil bo‘lganda ham, millionlik kelinni tashlab Larisa Dmitriyevnaga uylanib bo‘pti.

**V o j e v a t o v.** Bo‘lmasam-chi! Nima naf ko‘rardi deysiz?

**K n u r o v.** Insof qilib ayting, qiz sho‘rlikka jabr!

**V o j e v a t o v.** Iloji qancha! Bizda ayb yo‘q, biz xolis odamlar.

Qahvaxona zinapoyasida R o b i n z o n ko‘rinadi.

## OLTINCHI SAHNA

**K n u r o v, Robinzon va V o j e v a t o v.**

**V o j e v a t o v.** O... Azizim, milord! Tushingda nimalarni ko‘rding!

**R o b i n z o n.** Hozir o‘ngimda ko‘rib turgan puldor ahmoqlarni ko‘rdim.

**V o j e v a t o v.** Xo‘sh, pulsiz dono, bu yerlarda nima qilib yuribsiz?

**R o b i n z o n.** Maza qilib yuribman. Sening hisobingga kayf qilib yuribman. Bundan yaxshi nima bor?

**V o j e v a t o v.** Senga kishining havasi keladi. Xo‘sh, qachongacha shu zayilda umr o‘tkazmoqchisan?

**R o b i n z o n .** Bunday qarasam, tentakka o'xshaysan! O'ylab ko'rchi! Qanday qilib bunchalik gashtdan voz kechay.

**V o j e v a t o v .** Esimda yo'q, xazinamning kalitini senga bermagan bo'lsm kerak?

**R o b i n z o n .** Axir, Parijga olib ketmoqchi eding-ku, baribir emasmi?

**V o j e v a t o v .** Bo'lman gap! Men bergan va'damning ustidan chiqaman. Men uchun va'da – qonun. Aytdimmi – bas. Yo biron marta birovni aldagan joyim bormi?

**R o b i n z o n .** To sen Parijga olib ketguningcha ochimdan o'laymi?

**V o j e v a t o v .** Bu to'g'rida kelishmagandik. Parijga esa, hozir desang ham tayyorman.

**R o b i n z o n .** Kech qoldik, ertaga jo'naymiz, Vasya.

**V o j e v a t o v .** Ertaga bo'lsa ertaga. Menga qara, yaxshisi o'zing boraqol. Borish-kelish kirangni to'layman.

**R o b i n z o n .** Nega, yolg'iz adashib qolaman?!

**V o j e v a t o v .** Olib borib qo'yishadi.

**R o b i n z o n .** Bilasanmi, Vasya, fransuz tilini uncha bilmayman, o'rganay desam hech vaqtim yo'q.

**V o j e v a t o v .** Fransuz tilining nima keragi bor senga?

**R o b i n z o n .** Tavba, Parij bo'ladi-ku, fransuz tilining keragi bo'lmas emish.

**V o j e v a t o v .** Hech ham keragi yo'q. U yerda hech kim fransuz tilini bilmaydi.

**R o b i n z o n .** Fransiyaning poytaxti bo'lsin-u, fransuzcha gapirishmasin! Meni ahmoq deb o'ylaysanmi?

**V o j e v a t o v .** Qanaqa poytaxt! Kallang joyidami o'zi? Qanaqa Parijni o'layapsan? Anov ko'chada «Parij» degan qovoqxona bor, seni o'sha yerga obormoqchi edim, xolos.

**R o b i n z o n .** O'lma, o'lma, birodar!

**V o j e v a t o v .** Sen hali chinakam Parijga deb o'ylaganmiding? Biroz bo'lsa ham, mana buni ishlatish kerak. Yana o'zingni aqlli kishilar qatoriga qo'shasan. Xo'sh, nima uchun seni Parijga olib

borarkanman? Nima uchun? Qafasga solib maymun o'ynatarmi-dim?

Robinzon. Yaxshi maktab ko'rgan ekansan, Vasya! Sendan yaxshi savdogar chiqadi...

Vojevatov. Ha, ha, odamlarning gapiga qaraganda shunaqa!

Knurov. Qo'ying, Vasiliy Danilich! Sizga gapim bor.

Vojevatov. Xo'sh, marhamat! (*Yaqinlashadi.*)

Knurov. Men boyadan beri Larisa Dmitriyevna to'g'risida o'ylab o'tiribman. Bilsangiz, hozir u shunday ahvoldaki, bizday yaqin kishilar uning taqdiri masalasiga aralashmog'imiz farz-u qarz.

Robinzon qulqoq soladi.

Vojevatov. Ya'ni, qizni Parijga birga olib ketish uchun qulay fursat keldi, demoqchisiz, shundaymi?

Knurov. Malol kelmasa, xuddi shunday demoqchi edim.

Vojevatov. Xo'sh, nimaga qarab o'tiribsiz? Kim xalaqt beryapti?

Knurov. Siz menga xalaqt beryapsiz, men sizga. Balki siz raqiblikdan qo'rqligandanlardandirsiz? Men ham shunday. Har nechuk o'ng'aysiz bo'ladi. Oraning toza bo'lishi yaxshi-da.

Vojevatov. Xavotir olmang, men haq so'ramayman. Marhamat, Mokiy Parmenich.

Knurov. Haqning nima hojati bor? Bir balo qilish mumkin.

Vojevatov. Eng yaxshisi... (*Cho'ntagidan chaqa olib kaftiga berkitadi.*) O'ngmi, ters?

Knurov (*xayol surib*). Agar o'ng desam yutqizaman, chunki o'ng – sizziz. (*Qat'iy.*) Ters!

Vojevatov (*qo'lini ochib*). Sizga. Demak, Parijga yolg'iz ketaman. Mayli, xarajat ozroq bo'ladi.

Knurov. Faqat Vasiliy Danilich, so'zdan qaytish yo'q. So'zdan qaytgan nomard, esingizdan chiqmasin, siz savdogarsiz, berilgan so'zning nima ekanini tushunishingiz kerak.

Vojevatov. Siz meni xafa qilyapsiz. Savdogar so'zining qadri-ni o'zim ham bilaman. Men, Robinzon bilan emas, siz bilan muomala qilyapman.

Knurov. Ana, Sergey Sergeich Larisa Dmitriyevna bilan kela-yapti! Yuring, qahvaxonaga kirib turaylik. Ularga xalaqit bermaylik.

Knurov, Vojevatov qahvaxonaga kirib ketadilar,  
Paratov va Larisa kiradi.

## YETTINCHI SAHNA

Larisa, Paratov va Robinzon.

Larisa. Uh, biram charchadimki, madorim quridi. Tepalikdan zo'rg'a chiqdim. (*Sahna orqasidagi, panjara yonidagi skameykaga o'tiradi.*)

Paratov. Ha, Robinzon! Xo'sh, Parijga qachon jo'naydigan bo'lding?

Robinzon. Kim bilan? Savdogar bilan safarga chiqmayman. Lekin sen bilan istagan joyingga boraman. Savdogarlardan ixlosim qaytdi.

Paratov. Nima bo'ldi tag'in?

Robinzon. Tagi past bo'larkan!

Paratov. Yo'g'-e? Endi bildingmi?

Robinzon. Avvaldan bilardim. Men oqsuyaklargagina qo'yilman, xolos.

Paratov. Bu sening martabangni orttiradi, Robinzon. Ammo, bevaqt gerdawayapsan. Sharoitga qarab o'zgarib turishing kerak bo'ladi, bechora do'stim! Ma'rifatli homiylarning davri o'tib ketdi. Hozir burjuaziya tantanasi.

Sening aql-u hushingni olib, o'z qayg'u-alamlarini tarqatmoq uchun kayf-u safolarining o'yinchog'i qilib qo'yadilar. Bochkalariga solib tepadan dumalatadilar, vinoga qora moy aralashtirib ichiradilar! Sen ketma, menga hali kerak bo'lib qolasan.

Robinzon. Sening uchun o'tga ham kiraman, suvg'a ham. (*Qahvaxonaga kirib ketadi.*)

Paratov (*Larisaga*). Endi bizning ko'nglimizni ochganiningiz, orom bergenningiz uchun, yo'q, bu oz, to'g'risi, bizni baxtli qilganiningiz uchun tashakkur izhor etishga ijozat bering.

Larisa. Yo‘q, yo‘q, Sergey Sergeich, quruq gapning keragi yo‘q menga. Siz menga faqat shuni aying, men sizning xotiningizmanmi, yo‘qmi?

Paratov. Avvalo, Larisa Dmitrievna, siz uyingizga borishingiz kerak, bu to‘g‘rida ertaga bafurja gaplasharmiz.

Larisa. Men uyimga ketmayman.

Paratov. Bu yerda qolishingiz ham mumkin emas. Kunduzi biz bilan birga Volgani sayr qilishingiz ayb emas. Biroq, shahar markazi-dagi qovoqxonada rasvo kishilar bilan tuni bo‘yi maishat qilish yaxshi bo‘lmas. Gap-so‘z bo‘lasiz.

Larisa. Gap-so‘z bilan ishim yo‘q! Siz bor joyda men bo‘lishim mumkin. Meni uydan siz olib ketgansiz, endi o‘zingiz uyimga eltid qo‘yasiz.

Paratov. Izvoshimda eltid qo‘yadi. Baribir emasmi?

Larisa. Yo‘q, baribir emas. Siz meni kuyovimdan ajratib olib ketdingiz. Siz bilan birga ketganimni onam ko‘rdi, tashvish tortmaydi. Kech qolsam ham xavotir olmaydi, chunki sizga ishonadi... Siz bilan birga kelishimizni kutib o‘tiradi... Qutlamoq, fotiha bermoq uchun bizni kutadi... Men yo siz bilan birga borishim kerak, yo butunlay ko‘zga ko‘rinmasligim kerak.

Paratov. Nima? Nima? «Butunlay ko‘rinmasligim», bu nima deganiningiz? Uyga bormay qayerga borasiz?

Larisa. Baxtsiz kishilar uchun bu olamda joy ko‘p. Mana bog‘, mana daryo. Bu daraxtzorning har bir shoxiga osilib o‘lmoq mumkin, Volgadan istagan joyingni tanlay olasan. Chinakam tilaging o‘lish bo‘lsa, cho‘kib ketish juda oson.

Paratov. Buni qarang-a, ajoyib xayol!.. Siz uzoq umr ko‘rishingiz mumkin, axir! Mumkin va kerak. Sizni kim hurmat qilmaydi. Sevishdan kim bosh tortadi! Yana o‘sha kuyovingiz, jindak erkatalib qo‘ysangiz, boyagi-boyagi, yana ko‘zida to‘tiyosiz.

Larisa. Nima deyapsiz?! Men erimni sevmasam ham, loaqla, hurmat qilishim kerak bo‘ladi. Axir, masxara va haqoratlarni churq etmay ko‘taraveradigan kishini qanday hurmat qilay! Tamom bo‘ldi. Menga uning keragi yo‘q. Mening kuyovim bitta, u ham bo‘lsa siz!

Paratov. Kechiring, so'zlarimga xafa bo'l mang, ammo menga shunday talablar qo'yishga haqingiz bormikin?

Larisa. Nima deyapsiz?! Esingizdan chiqdimi hali?! Unday bo'lsa, boshdan oyoq esingizga solay. Bir yilgacha sizni unutolmadim, azob chekdim, umrim xazon bo'la boshladi. Keyin Karandishevga, to'g'risi, birinchi duch kelgan kishiga erga tegishga qaror qildim. Tirikchilik bilan ovora bo'lib o'rganib ketarman deb o'ylagandim. Bu orada siz paydo bo'ldingiz: «Barchasidan voz kech, men seniki» dedingiz, ayting yolg'onmi? Ayting, shular menga haq berolmaydim? Men so'zlarizingizni chekkan azoblarim badaliga aytilgan yurak so'zları deb o'ylagandim.

Paratov. Gaplaringiz haq, qolganini ertaga gaplashamiz.

Larisa. Yo'q, hozir gaplashaylik, shu topda.

Paratov. Hali shunaqami?

Larisa. Shunaqa!

Qahvaxona eshididan Knurov va Vojevatov ko'rindi.

Paratov. Kechirasiz, menga qarang, Larisa Dmitriyevna, siz bir nafaslik ishqibozlikka ovora bo'lmoqchimisiz?

Larisa. Bo'laman, ishqibozlik qo'limdan keladi.

Paratov. Yo'q, men bunday demoqchi emasdim, qani ayting-chi, qo'l-oyog'i zanjirlar bilan chambarchas bog'langan bir kishi, butun olamni va o'zining haqiqatini, zanjirlarini unutib, ishq farog'atiga g'arq bo'lishi mumkinmi?

Larisa. Xo'sh, nima bo'pti? Esdan chiqarsa yaxshi-da.

Paratov. Bu ichki hissiyot juda yaxshiku-ya, bu haqda lom ham demoqchi emasman. Biroq, uzoqqa bormaydi. Ishqibozlik ehtiroslarining alangasi tezda o'chadi, ana unda sog'lom tushuncha va kishan-kishanligicha qoladi. Sog'lom tushuncha deydiki: «Kishanlarni parchalash mushkul, bu kishanlar uzilmas kishanlardir».

Larisa (*o'ylanib*). Uzilmas kishanlar! (*Tez*) Xotiningiz bormi?

Paratov. Yo'q.

Larisa. Bas, boshqa kishanlar to'g'onoq bo'lolmaydi. Barcha og'rlilikni ikkimiz birga tortamiz, hatto, og'irroq tomonini o'zim olaman.

Paratov. Men unashib qo'yilganman.

Larisa. Oh!

Paratov (*unashilganlik alomati bo'lgan tilla uzukni ko'rsatib*). Mana, meni umrbod o'z iskanjasiga olgan oltin kishan, mana shu.

Larisa. Nega shu vaqtgacha aytmadingiz? Naqadar pastlik, rahmsizlik! (*Stulga o'tirib qoladi*.)

Paratov. Sizni ko'rganda esimga hech narsa kelmay qoldi. Sizni ko'rdim-u, hamma narsani unutdim.

Larisa. Menga qarang-chi! (*Paratov qaraydi*.) «Ko'zlarинг osmondek moviy va porloq» xa-xa-xa! (*Beixtiyor kuladi*.) Yo'qoling ko'zimdan! Bas! Men o'z taqdirim haqida o'zim o'ylab ko'ruman. (*Boshini qo'llari orasiga oladi*.)

Knurov, Vojevatov va Robinzon qahvaxona  
ayvonchasiga chiqadilar.

### SAKKIZINCHI SAHNA

Paratov, Larisa, Knurov, Vojevatov va Robinzon.

Paratov (*qahvaxonaga yaqinlashib*). Robinzon, bor, mening aravamni top. Shu atrofda turgandir. Larisa Dmitriyevnani uyiga eltib qo'yasan.

Robinzon. Lya Serj! U shu yerda, to'pponcha ko'tarib yurib-di.

Paratov. Kim «u»?

Robinzon. Karandishev.

Paratov. Nima qilay yursa!

Robinzon. Meni o'ldirib qo'yadi.

Paratov. Ol-a, katta ish bo'lar ekan-da, bo'lmasa! Buyurganimni ado et! Ortiqcha so'zning hojati yo'q, men bunaqasini yoqtirmayman, Robinzon!

Robinzon. Rostdan aytayapman, meni u bilan birga ko'rdimi, albatta, o'ldirishi turgan gap.

Paratov. O'ldiradimi, yo'qmi, hali noma'lum, lekin buyrug'imni bajarmasang, o'zim o'ldiraman seni. (*Qahvaxonaga kirib ketadi*.)

**R o b i n z o n** (*do'q urib*). O, vahshiylar, qaroqchilar! Rasvo ulfatlar orasiga kirib qolgan ekanman! (*Ketadi.*)

V o j e v a t o v Larisaga yaqinlashadi.

**L a r i s a** (*Vojevatovni ko'zdan kechirib*). Vasya, men halok bo'layapman.

**V o j e v a t o v .** Larisa Dmitriyevna! Jonginam, nima qilaylik! Iloji yo'q.

**L a r i s a .** Vasya, bir-birimizni bolalikdan taniymiz. Aka-singildek bo'lib qolganmiz, nima qilay, yo'l ko'rsat.

**V o j e v a t o v .** Larisa Dmitriyevna, sizni hurmat qilaman va xur-sand bo'lib... Nima qilay, qo'limdan hech narsa kelmaydi. So'zimga ishoning.

**L a r i s a .** Sendan hech narsa talab qilayotganim yo'q, Vasya. Fa-qat menga rahm qilishingni so'rayman, xolos. Hech bo'lmasa birga yig'lashgin.

**V o j e v a t o v .** Ilojim yo'q, Larisa Dmitriyevna.

**L a r i s a .** Nima, sen ham zanjirbandmisan?

**V o j e v a t o v .** Kishanga tushganman, Larisa Dmitriyevna.

**L a r i s a .** Qanday?

**V o j e v a t o v .** So'z bergenman. Haqiqiy savdogar so'zi. (*Qah-vaxona tomon yuradi.*)

**K n u r o v** (*Larisaga yaqinlashib*). Larisa Dmitriyevna, qulog soling menga, lekin xafa bo'l mang. Dilingizga ozor berish xayolimga ham kelgani yo'q. Men sizga umr va baxt tilayman, xolos. Siz – shunga arziysiz. Siz men bilan Parij ko'rgazmasiga borishni xohlamaysizmi?

**L a r i s a** boshi bilan «yo'q» ishorasini qiladi.

Malomatdan qo'rwmang, malomat bo'l maydi. Malomat o'tolmay-digan chegaralar ham bor.

**L a r i s a** boshini boshqa tomonga burib oladi.

Men sizni shunday davlat, mol-u mulkka ko'mamanki, eng uchiga chiqqan ig'vegar ham lom-mim deyolmay hayron bo'lib qoladi. Men hech qanday gap-so'zga qulog solmay, qulingiz bo'lardim, lekin afsus, xotinim bor.

**L a r i s a** indamaydi.

Siz hozir xafasiz, qistamayman. O‘ylab ko‘ring! Taklifim ma’qul tushsa, menga tez bildiring. O‘sha daqiqadan boshlab men sizning eng kamtar qulingiz sifatida butun orzu-havasingizni va nozlaringizni, naqadar qimmat, og‘ir bo‘lishiga qaramay, xohishingizdan zi-yod qilib bajaraman. Xizmatingizga hozirman. Mening qo‘limdan kelmaydigan ish yo‘q. (*Hurmat bilan ta’zim qilib qahvaxonaga kirib ketadi.*)

## TO‘QQIZINCHI SAHNA

Larisa yolg‘iz.

Larisa. Hali panjaradan pastga qaradim, boshim aylanib, oz qoldi yiqilib ketay dedim. Agar kishi bu yerdan yiqilsami, naq o‘lim. (*O‘ylab.*) Shu yerdan o‘zimni tashlasam, yaxshi bo‘lardi! Yo‘q, nega tashlay! Panjara yonida turib pastga qarayman, boshim aylanib, ko‘zim tinadi-yu, yiqilaman... Shunisi yaxshi... Qiynalmaysan... Hech qanday og‘riqni ham sezmaysan kishi! (*Panjara yoniga kelib pastlikka qaraydi, egiladi, panjarani mahkam ushlaydi. So‘ng hayajon bilan orqasiga tashlanadi.*) Voy, qanday dahshat! (*Yiqilishiga oz qoladi-yu, birdan panjarani ushlab qoladi. Panjara yonidagi stulga o‘tirib qoladi.*) Oh, yo‘q... (*Yig‘lamsirab.*) Hayotdan kechmoq – men o‘ylagandek oson emas ekan. Qanday kuchsizman! Qanday baxtsiz bandaman! Osongina o‘lib ketuvchi odamlar ham bor-ku, axir! Demak, ularning yashashga iloji yo‘q. Biron ilinji bo‘lmasa, mehri tushgan birov bo‘lmasa, qizg‘anadigan kimsasi bo‘lmasa... Men – o‘zim-chi? Mening ham sevadigan kimim bor, ilinjim ham yo‘q, mening ham bu dunyoda yashashim mumkin emas, behuda. Nega o‘tirib oldim? Bu jar yoqasida meni nima ushlab turibdi? Nima xalal beryapti? (*Xayolga cho‘mib.*) Oh, yo‘q... yo‘q... Knurov ham emas, zeb-ziynat ham emas... yo‘q, yo‘q... Men qayda-yu, bu behuda ho-yu havas qayda, yo‘ldan ozmoq... O, yo‘q! Dadil emasman, zaifman, o, la’nati ojizlik, qanday bo‘lsa ham kun kechirishmi bu dunyoda? Qanday ayanchli va naqadar bad-baxtman. Koshki, meni birov o‘ldirsa... O‘lish qanday yaxshi... Hali o‘zimga o‘zim dashnom beradigan hech narsa yo‘q... yo kasal bo‘lib o‘lish... O‘zim ham kasal bo‘lib ketyapman shekilli. Uzoq yotib,

tinchlaniб, hammasini unutib, keyin o'lish... Oh, boshim... Ko'zlarim tinyapti. (*Ikki qo'li bilan boshini ushlab xayolga g'arq bo'lib o'tiradi.*)

Robinzon bilan Karandishev kiradi.

## O'NINCHI SAHNA

Larisa, Robinzon va Karandishev.

Karandishev. Larisani uyiga eltid qo'yish menga topshirilgan deyapsizmi?

Robinzon. Ha, shunday.

Karandishev. Uni haqorat qilganlari ham rost-a?

Robinzon. Haqorat qilganda ham qo'yaverasiz.

Karandishev. Ayb o'zida, o'z qilmishlarining jazosini tortibdi. Bu odamlarning kimligini aytganman. Nihoyat men bilan ularning farqini ajratishga fursati bor va aqli yetarli edi. Ayb o'zida. Lekin, haqorat u yoqda tursin, biron hukm chiqarishga mendan boshqa hech kimning haqi yo'q. Gunohini kechamanmi, yo'qmi, mening ishim. Biroq uning himoyachisi sifatida paydo bo'lishim kerak. Uning aka-ukasi, qavm-qarindoshi yo'q. Faqat men yonini olib himoya qilishga va uni haqorat qiluvchilarning jazosini berishga majburman. Bu mening vazifam. Qani o'zi?

Robinzon. Shu yerda edi. Huv ana!

Karandishev. Bizning suhabatimiz vaqtida begona kishi bo'lmasligi lozim. Siz oshiqchasisiz. Bizni xoli qo'ying.

Robinzon. Bosh ustiga, Larisa Dmitriyevnani sizga topshirdim, yaxshi qoling. (*Qahvaxonaga kirib ketadi.*)

## O'N BIRINCHI SAHNA

Larisa va Karandishev.

Larisa (*boshini ko'tarib.*) Hazar qilaman sizdan, bilasizmi shuni! Bu yerda nima qilib yuribsiz?

Karandishev. Bo'lmasa qayerga boray?

Larisa. Bilmayman. Qayerga borsangiz boring, lekin men bor joyga kelmang.

Karandish ev. Yanglishasiz, sizni saqlash uchun qayerda bo'l-sangiz men o'sha yerda bo'lishim kerak. Men sizni haqorat qilgan kishildardan qasos olish uchun bu yerga keldim.

Larisa. Sizning bu homiyligingiz men uchun haqorat, o'zga emas. Meni hech kim hech qachon sizchalik haqorat qilgan emas.

Karandish ev. Haddan ortiq kaltafahmsiz. Vojevatov bilan Knurov sizni talashib chek solishyapti, tanga tashlab o'ng-terst o'y-nashyapti, bu haqorat emasmi? Ana sizning qadrdonlaringiz! Ular sizga bir xotin sifatida, o'z taqdirini o'zi hal qila oluvchi odam sifatida emas, balki bir buyum sifatida qarashadi. Agar chinakam buyum bo'lsangiz boshqa gap. Buyum, albatta, yutgan kishiniki bo'ladi, buyum degan narsa ranjib o'tirmaydi ham.

Larisa (*qattiq ranjib*). Buyum... ha buyum!.. Ular haq, men odam emas, buyum ekanman. Men bunga hozir ishondim, men buyum! (*Qizishib.*) Nihoyat ismim topilibdi, buni siz topdingiz. Yo'qoling, o'tinaman, meni tinch qo'ying, boring, keting.

Karandish ev. Sizni tinch qo'yaymi? Qanday qilib, sizni kim-ga tashlab ketaman?

Larisa. Har qanday buyumning egasi bo'ladi, men o'z egamga boraman.

Karandish ev (*hayajon bilan*). Sizni men olaman, egangiz menman. (*Qo'lidan ushlaydi.*)

Larisa (*itarib tashlaydi*). O... yo'q! Har qanday buyumning o'z bahosi bor... Xa-xa-xa-xa. Men siz uchun juda qimmatlik qilaman, ku-chingiz yetmaydi.

Karandish ev. Nimalar deyapsiz! Shunday behayo javob eshi-taman deb o'ylamagandim.

Larisa (*yig'lab*). Buyum bo'lish taqdirda bor ekan, qimmatbaho buyum bo'lish kerak, juda ham qimmatbaho. Eng so'nggi marta menga bir xizmat qiling. Boring, menga Knurovni chaqirib bering!

Karandish ev. Axir sizga nima bo'ldi, hushingizni yig'ing!

Larisa. Bormasangiz, o'zim boraman.

Karandish ev. Larisa Dmitriyevna! To'xtang. Men gunohin-gizdan o'tdim, hammasini kechiraman.

**Larisa** (*istehzo bilan kulib*). Siz meni kechirasizmi? Qulluq! Fa-qat taqdirimni sizday bachkana maxluq bilan bog'lashga rozi bo'lganim uchun men o'zimni sira kechirolmayman.

**Karandishev**. Ketaylik, hoziroq bu shahardan ketaylik, nima istasangiz hammasiga roziman.

**Larisa**. Vaqt o'tdi. Sizni shu lo'lilar to'dasidan meni tezroq qut-qarishingizni so'radim, siz udda qilolmadingiz, taqdirimga shu lo'lilar orasida yashab, shu to'dada o'lish yozilgan ekan, tan berishdan o'zga choram yo'q.

**Karandishev**. Yolvorib, iltijo qilib so'rayman, meni baxtiyor eting! Yuring!

**Larisa**. Endi kech. Endi mening ko'z oldimda oltinlar, gavharlar jilva qilmoqda.

**Karandishev**. Siz uchun har qanday og'irlikka roziman. Har qanday haqoratga tayyorman.

**Larisa** (*nafrat bilan*). Keting, siz men uchun juda past, tuban odamsiz.

**Karandishev**. Ayting, qanday qilsam sizning muhabbatingizga sazovor bo'laman. (*Tiz cho'kib*.) Men sizni sevaman, sevaman!

**Larisa**. Yolg'on! Men sevgi axtardim, afsus, topmadim. Menga bir o'yinchoq, ovunchoq deb qarashdi, hozir ham shunday qarashadi. Ko'nglimdag'i orzularimga hech kim ko'z tashlamadi, hech kim yaramga malham bo'lindi. Hech kimdan yurak so'zi eshitmadim. Bunday hayot kechirgandan ko'ra o'lgan afzalroq. Sevgi axtarib topolmaganim uchun men ayblimi?.. Sevgi yo'q bu olamda... Qidirib ovora bo'lishning ham hojati yo'q. Sevgini axtarib topmadim, endi oltin qidiraman. Keting, men sizniki bo'lilmayman.

**Karandishev** (*o'rnidan turib*). O, o'tgan ishga salavot, g'am yemang. (*Qo'lini cho'ntagiga soladi*.) Menga tegishingiz kerak.

**Larisa**. Boshqaga bo'lsa roziman-u, ammo sizga o'lsam ham!

**Karandishev** (*g'azab bilan*). Menga tegmaysizmi?

**Larisa**. Hech qachon!

**Karandishev**. Unday bo'lsa, boshqaga ham tegma! (*Otadi*.)

**Larisa** (*ko'kragini changallab*). Oh! Rahmat sizga! (*Stulga o'tiradi*.)

Karandishev. Men... Nima qilib qo‘ydim... Oh, telba boshim.  
(*To ‘pponcha qo ‘lidan tushadi.*)

Larisa. Azizim, menga qanday yaxshilik qildingiz! To‘pponchani bu yoqqa, bu yoqqa bering. Buni men o‘zim... o‘zim... oh, qanday yaxshilik... (*To ‘pponchani olib stol ustiga qo ‘yadi.*)

Qahvaxonadan Paratov, Knurov, Vojevatov, Robinzon,  
Gavrilo va Ivanlar chiqishadi.

### O‘N IKKINCHI SAHNA

Larisa, Karandishev, Paratov, Vojevatov, Knurov, Robinzon,  
Gavrilo va Ivan.

Hammalari. Nima gap, nima bo‘ldi?

Larisa. Men o‘zim... Hech kim aybli emas... bu... men o‘zim!..

Sahna orqasida lo‘lilar ashula aytishadi.

Paratov. Buyuring, dami o‘chsin! Jim bo‘lishsin.

Larisa. (*tobora pasayib borayotgan ovoz bilan*). Yo‘q, yo‘q, nega? Qo‘yavering, xushchaqchaq kishilar xursandchilikdan qolmasin... Men hech kimga xalaqit berishni istamayman! Yashang, umr ko‘ring! Sizlarning yashashingiz, mening o‘lishim kerak. Hech kimga shikoyatim yo‘q. Hammangiz yaxshi odamlarsiz. Men hammangizni... Hammangizni yaxshi ko‘raman. (*Qo‘lini o‘pib, hammaga o‘pich taqdim qiladi.*)

Lo‘lilarning baland xori eshitiladi.

*PARDA*





## QATNASHUVCHILAR<sup>1</sup>

Savel Prokofevich Dikoy, savdogar, shaharda boobro' odam.  
Boris Grigorevich, uning jiyani, yosh yigit, ancha ma'lumotli.  
Marfa Ignatevna Kabanova (Kabanixa), boy savdogar xotin, tul.  
Tixon Ivanovich Kabanov, uning o'g'li.  
Katerina, Tixonning xotini.  
Varvara, Tixonning singlisi.  
Kuligin, meshchan, soatsoz.  
Vanya Kudryash, yosh yigit, Dikoy kontorasidagi xizmatchi.  
Shapkin, meshchan.  
Feklusha «avliyo» xotin.  
Glasha, Kabanovlar uyida oqsoch.  
Boy xotin, ikki xizmatchisi bilan, 70 yoshda, telba.  
Erkaklar va xotinlar, shahar aholisi.  
Voqeal Volga bo'yidagi Kalinov shahrida, yozda yuz beradi.  
3-parda bilan 4-parda o'rtasida 10 kun o'tadi.

---

<sup>1</sup> Borisdan boshqa hammasi ruscha kiyangan.

## BIRINCHI PARDA

Volga daryosining baland qirg‘og‘idagi shahar bog‘i. Volganing u yuzida qishloq manzarasi. Sahnada ikkita skameyka-yu bir necha daraxt.

### BIRINCHI SAHNA

Kulig in skameykada o‘tirib, daryoning narigi yog‘ini tomosha qilmoqda.

Kudryash bilan Shapkin esa u yoqdan bu yoqqa aylanib sayr qilib yurishibdi.

Kulig in (*kuylaydi*). «Keng vodi-yu yassi tepalarda...» (*Ashulasini to‘xtatib.*) Biram go‘zal, biram chiroylik, nimasini aytasan! Kudryash! Senga aytsam, birodari aziz, ellik yildan beri har kuni Volga manzara-sini tomosha qilaman-u, ammo sira ham to‘ymayman.

Kudryash. Nima bo‘pti?

Kulig in. Ajoyib manzara-da! Juda go‘zal! Bahring ochiladi.

Kudryash. Be!

Kulig in. Huzurijon! Sen bo‘lsang «be» deysan! Bu manzaralar-ni ko‘raverib me’dalaringizga tekkan, yo bo‘lmasa tabiat go‘zalliklarini tushunmaysizlar.

Kudryash. Ha-ya, sen bilan bahslashib bo‘ladimi! Sen antiqa bilimdon odamsan.

Kulig in. O‘z-o‘zidan o‘rgangan mexanik, degin.

Kudryash. Baribir.

Jimlik.

Kulig in (*bir tarafni ko‘rsatib*). Hov anavi yoqqa qara, birodar Kudryash, kim u, qo‘llarini paxsa qilayotgan?

Kudryash. Umi? Dikoy, jiyanini so‘kayapti.

Kulig in. Topgan joyini qara-ya!

K u d r y a s h . Unga baribir, qayer bo'lsa ham birovdan qo'rqa digan joyi yo'q! Butun ko'rgilik sho'rlik Boris Grigorichga bo'layapti, rosa yelkasiga minib oldi-da.

S h a p k i n . Savel Prokofichday og'zi shaloq odamni qidirib topolmaysan! Bekordan bekorga kishini jerkib tashlaydi.

K u d r y a s h . O'lgudek battarin odam-da!

S h a p k i n . Kabanixa ham undan qolishmaydi.

K u d r y a s h . Shundayku-ya, lekin Kabanixa juda jahli chiqqanda odob bilan koyiydi, bu bo'lsa xuddi zanjirdan bo'shab ketgan itdek akillarydi!

S h a p k i n . Hovuridan tushirib qo'yadigan odam yo'q, shuning uchun hamma bilan urishgani urishgan.

K u d r y a s h . Attang, menga o'xshagan zabardast yigitlar kam-da, bo'lmasa biz uning bir ta'zirini berib qo'yar edikku-ya.

S h a p k i n . Nima qilardinglar?

K u d r y a s h . Boplab qo'rqtar edik.

S h a p k i n . Qanday qilib?

K u d r y a s h . To'rt-beshta bo'lib, biron xilvatroq ko'chada, yuzma-yuz kelib gaplashib qo'yardik-da, shundan keyin o'zi ham ipakdek muloyim bo'lib qolardi. Ta'zirini berganimiz to'g'risida hech kimga og'iz ham ochmasdi, qadamini ham bilib bosadigan bo'lib qolardi.

S h a p k i n . Seni soldatlikka yuboraman deyishi ham bejiz emas ekan-da.

K u d r y a s h . Yubormoqchi edi-yu, lekin yuborib bo'pti. Osonlikcha ketmasligimni yaxshi biladi-da. Undan sizlar hayiqasizlar, men bas kelaman xolos unga.

S h a p k i n . Ko'ramiz-da.

K u d r y a s h . Nimasini ko'rasan! Men o'taketgan to'ngman, xo'sh, bo'lmasa, meni nega ushlab turibdi? Demak, shuni yaxshi bilki, men unga kerak odamman. Bas shunday ekan, men emas, u mendan qo'rqsin.

S h a p k i n . Xuddi seni hech so'kmaydiganday gapi rasan-a?

K u d r y a s h . Nega so'kmasin! Axir, u so'kinmasdan turolmaydi-da! Men ham bo'sh kelmayman, u birni desa, o'nni taxlayman, keyin jahli chiqib tupuradi-yu, ketaveradi. Yo'q, men uning quli emasman.

K u l i g i n . Undan o'rnak olib bo'ladimi! Yaxshisi, chidash kerak.

Kudryash. Agar sen shunaqa aqlli bo'lsang, avval uni mulla qilib qo'y, keyin bizni. Attang, uning bitta ham bo'yi yetgan qizi yo'q, hammasi yosh.

Shapkin. Bo'lganda nima qilarding?

Kudryash. Uni hurmat qilardim. Qizlarni qo'lga olishga juda ustasi farangman-da!

Dikoy bilan Boris o'tadi. Kuligin boshidan shapkasini yechib salom qiladi.

Shapkin (*Kudryashga*). Yur, bir chetga borib turaylik; tag'in yopishib olmasin. (*Chetga chiqib turishadi.*)

## IKKINCHI SAHNA

Avvalgilar va Dikoy bilan Boris.

Dikoy. Sen, nima, bu yerga pashshangni qo'rigani kelganmisan! Tekinxo'r! Bu kuningdan o'lganing yaxshi!

Boris. Bugun dam olish kuni, uyda nima qilaman!

Dikoy. Istan sang ish topiladi. Bir aytmadim, ikki aytmadim «ko'zimga ko'rinning» deb, jilpillaysan, xolos! Boshqa joy qurib ketganmi? Qayerga bormay, lip etib oldimdan chiqasan! Tfu, padaringga la'nat! Nega g'o'ddayib turibsan! Eshityapsanmi, yo'qmi?

Boris. Qulog'im sizda, nima qilay?

Dikoy (*Borisga qarab qo'yib*). Odam bo'lmay o'l! Sen murtad bilan gaplashishni ham istamayman. (*Ketayotib.*) Boshimga toza balo bo'lding! (*Tupurib chiqib ketadi.*)

## UCHINCHI SAHNA

Kuligin, Boris, Kudryash va Shapkin.

Kuligin. Nega u siz bilan janjal qilgani qilgan, a, afandim? Hech tushunolmay qoldik. Uning dakkisini yeb yashash sizga havasmi deyman.

Boris. Nega havas bo'lsin, Kuligin! Noilojman.

Kuligin. Qanaqa noilojlik ekan afandim, ruxsat bersangiz, sizdan so'rasak. Mumkin bo'lsa aystsangiz.

Boris. Nega aytmay? Katta buvim Anfisa Mixaylovnani tanirmidингиз?

K u l i g i n . Tanimay-chi, tanirdik!

K u d r y a s h . Tanirdik!

B o r i s . Otam asilzoda qizga uylangani uchun buvimni jini suymay qolgan. Shuning uchun otam bilan onam Moskvada turadilar. Onam qaynanasi bilan uch kun ham chiqisholmagan ekan, jiniga to‘g‘-ri kelmabdi-da.

K u l i g i n . E, to‘g‘ri kelarmidi! Nimasini aytasiz! Zo‘r chidam kerak ko‘nikish uchun, afandim.

B o r i s . Ota-onam Moskvada bizga juda yaxshi tarbiya berishdi, bizdan hech narsani ayashmadni. Meni Tijorat akademiyasiga berishdi, singlimni bo‘lsa pansionga. O‘zlari esa, vabo tarqalgan yili qo‘qqisdan o‘lib ketishdi, singlim bilan yetim qoldik. Keyin eshitsak, buvum ham bu yerda vafot etgan ekanlar, bizga tegishli merosni vasiyat qilib amakimga qoldirgan ekanlar, biz balog‘atga yetganimizdan keyin amakim merosimizni berishi kerak ekan, lekin bir shart bilan.

K u l i g i n . Qanaqa shart ekan, afandim?

B o r i s . Amakimning ra‘yiga qarashim kerak ekan.

K u l i g i n . Unday bo‘lsa, afandim, merosingizni yelkangizning chuquri ham ko‘rmas ekan.

B o r i s . Bu hali holva, Kuligin! Avvalo, u qo‘lidan kelganicha bizni xo‘b rasvo qiladi, haqorat qiladi, shunday qiladiki, oxiri hech narsa bermaydi, bordi-yu bersa ham, irimiga berib qo‘yadi. Shuni ham bermaslik kerak edi-yu, rahm-shafqat qildim deb maqtanadi keyin.

K u d r y a s h . Bizning savdogarlarga bu narsa odat bo‘lib qolgan. Siz uni nechog‘lik hurmat qilmang, baribir. U meni hurmat qilmaydi deyishdan ham toymaydi.

B o r i s . Bo‘lmasam-chi. U hozir ham «O‘zimning bolalarim turganda, nega begonalarga pul berarkanman? O‘z bolalarimni ranjitib!» deb gapirib yuribdi.

K u l i g i n . Bundan chiqdi, ishingiz pachava, afandim.

B o r i s . O‘zim yolg‘iz bo‘lganimda-ku, sadqayi sar edi-ya! Hammasiga chaksa qilib tupurardim-u, ketaverardim. Singlimga achinaman. Xat yozib singlimni ham olib kelishiga sal qoldi, yaxshiki onamning urug‘lari yuborishmadni, kasal deb xat qilishdi. Agar bu yerga kelgandami, bilmayman, qanday qillardikin, o‘ylab qo‘rqib ketasan kishi.

Kudryash. Bo'lmasa-chi. Bular odam bilan muomala qilishni biladimi?

Kuligin. Unikida qanday qilib turibsiz, nima ish qilasiz o'zi, afandim?

Boris. Qiladigan ishimning tayini yo'q. «Menikida yuraver, buyurganni qilaver, ish haqingga nima bersam shuni olasan», deydi. Demak bir yildan keyin o'z bilganicha hisob-kitob qiladi.

Kudryash. Uning odati shu. Ish haqi to'g'risida bittamiz ham g'ing deyolmaymiz, g'ing dedikmi, og'ziga kelganini bo'g'ziga yutmaydi. «Sen mening xayolimdagini qayerdan bilasan? Ko'nglimda ni-malar borligini bilmaysan! Ehtimol, kayfim chog' bo'lib ketganda besh ming so'm berib yuborarman!» deydi. Shundan keyin u bilan gapla-shib ko'r-chi! Lekin umri bino bo'lib, hech qachon kayfi chog' bo'lган emas.

Kuligin. Nima ham qilamiz, afandim! Qanday bo'lmasin, uning ko'nglini ovlash payiga tushish kerak.

Boris. Hamma gap ham shunda-da, Kuligin, bu hech ham mumkin emas. Uning ko'nglini o'z odamlari ololmaydi-yu, menga yo'l bo'lsin!

Kudryash. Axir vujudidan haqorat yog'ib turgandan keyin, u bilan kim ham chiqishardi? Ayniqla, pul masalasiga kelganda-chi, hay-hay-hay, hech bir hisob-kitob janjalsiz bitmaydi. Birovlar o'z haqidan voz kechsa-kechadi-yu, uning hovuridan tushganiga xursand. Birortasi ertalab jig'iga tegib qo'ysa bormi, ana unda ko'rasiz. Kuni bo'yi qopmagan odami qolmaydi.

Boris. Xolam bo'lsa, ko'z yoshi qilib, har kuni: «Jon bolalarim, jahliga tega ko'rmanglar! Aylanay sizlardan, fe'lini buz manglar» deb, yalingani yalingan.

Kudryash. Undan qutulib bo'psan! Bozorga tushdimi, vassalom! Undan haqorat eshitmagan mujik qolmaydi. Hatto, o'z zararingga ko'nsang ham, baribir, so'kinmasdan ketmaydi. Shundan so'ng, qarabsanki, kuni bo'yi vaysagani vaysagan.

Shapkin. Qisqasi: itfe'l!

Kudryash. Itfe'l bo'lganda, yana qanaqasi degin!

Boris. Agar birorta, buning tishi o'tmaydigan odam xafa qilib qo'ysa bormi, ish tamom, butun alamini uydagilardan oladi!

K u d r y a s h . Men sizlarga aytsam, bir kuni rosa tomosha bo‘ldida! O‘sha kuni Volgadan qayiqda o‘tib kelayotganda, uni bitta gusar rosa boplab so‘kkan ekan. Shundan so‘ng toza ish ko‘rsatdi-da.

B o r i s . Butun ko‘rgilik uydagilarga bo‘ldi! Shundan keyin, ikki haftagacha uydagilar tomma-tom, o‘tinxonama-o‘tinxona qochib yurishdi.

K u l i g i n . Nima gap o‘zi? Xalq kechki ibodatdan chiqa boshladи, shekilli?

Sahna orqasidan bir necha kishi o‘tib ketadi.

K u d r y a s h . Yur, Shapkin, bir aylanib kelaylik! Bu yerda o‘tirib ham nima qildik?

Xayrlashib chiqishadi.

B o r i s . Eh, Kuligin, ko‘nikolmagandan keyin, bu yerda yashash juda og‘ir-da! Bu yerda xuddi bir yot odamdayman, ularning ishlari ga xalaqit berayotgandayman, hammalari menga yeb qo‘ygudek bo‘lib qarashadi. Bu yerning odatini bilmayman. Hammasi o‘zimizning rus odatlari-yu, lekin negadir sira ko‘nikolmadim-da.

K u l i g i n . Hech qachon ham ko‘nikolmaysiz, afandim.

B o r i s . Nega?

K u l i g i n . Shahrimizning juda ham yaramas odatlari bor, afandim, juda yaramas! Bu meshchanlikda, afandim, o‘taketgan kambag‘allik bilan dag‘allikdan bo‘lak hech narsa topolmaysiz. Bu muhitdan, afandim, hech qachon qutulolmaymiz ham! Chunki halol mehnat bilan non topib yeyish mahol. Puli ko‘plar, afandim, kambag‘al bechoralarni siqib suvni ichishga, ularning mehnatidan ko‘proq foyda ko‘rishga harakat qilishadi. Amakingiz Savel Prokofich shahar hokimiga nima debdi, deng? Shahar hokimiga bir necha kishi, uning ustidan «Birontamiz bilan tuzuk-quruq hisob-kitob qilmaydi», deb arz qilibdi. Hokim unga: «Menga qara, Savel Prokofich, sen odamlar bilan, sal bunday, tuzukroq hisob-kitob qil. Har kuni ustingdan arz qilib kelishadi», debdi. Amakingiz bo‘lsa, hokimning yelkasiga qoqib qo‘yib: «Muhtaram janoblari, siz bilan menga mana shunaqa mayda-chuyda narsalar ustida gapirib o‘tirish yarashmaydi! Bir yil ichida qo‘limga son-sanoqsiz odamlar kelib-ketadi; siz shuni yaxshi bilingki, kishi boshiga bir tiyindan kam to‘lasam ham bora-bora ko‘l bo‘ladi, albatta, bu mening uchun chakki bo‘lmaydi!» debdi. Mana shunaqa, afandim! Bular mana shunaqa yashaydi. Bular

bir-birini ko'rgani ko'zi yo'q, faqat tamagirlik orqasida emas, baxilliklari orqasida bir-birining savdosiga futur yetkazishga urinadi. Bir-biriga g'irt dashman, o'zlarining dang'llama uylariga, afandim, o'taketgan araqxo'r, qaysiki, ichkilik orqasida kishilik qiyofasini yo'qotgan, odamlik kepatasi qolmagan amaldorlarni o'rgatib olishadi. Ular yeng ichida berilgan qittak hadya uchun eng yaqin kishilar ustidan ham bir arava yolg'on-yashiq gaplarni bitib, muhrlarini ham bosib berishadi. Qarabsizki, ish boshlanib ketadi, afandim, sudlashgani sudlashgan, bu azobning oxiri ko'rinnmaydi. Avval rosa bu yerda sudlashadilar, keyin viloyat sudiga boradilar, u yerda bunaqa ishga suyagi yo'qlar bor-da, ular ham qo'llarini ishqab, xursand bo'lib kutib olishadi. Lekin, ish darrov bitaqolmaydi, rosa sudlashadi, buning uchun ular o'zi ham xursand, ularga shunisi kerak-da, axir. «Men sarf qilganimdan keyin, uni ham sarf qildirmay qo'ymayman», deydi. Shularning hammasini she'r qilib yozmoqchiman-u...

Boris. Siz she'r qilib yozolasizmi?

Kuligin. Eskichasiga, afandim. Lomonosov, Derjavinlarni o'qiganman... Lomonosov donishmand kishi, tabiatshunos... o'zi ham bizdaqa oddiy xalqdan chiqqan.

Boris. Bir yozing, juda ham qiziq bo'lardi-da.

Kuligin. Qiyn, afandim, tiriklay yeb qo'yishar. Busiz ham og'zim bo'shligidan rosa ta'zirimni yeyapman, ammo tilimni hech tiyolmayman, gap sotishni yaxshi ko'raman! Afandim, yana oilaviy hayotim to'g'risida ham gapirib bermoqchi edim, boshqa bir vaqtida gapirib berarman. Gap ko'p.

Feklusha va yana bir xotin kiradi.

Feklusha. Ana davlat-u mana hashamat! Nimasini ham aytasan, bolam, ana chiro-yu mana chiroy! Arzi muqaddasda yashaymiz! Bu savdogar boylarni ayt, bolam, boylarni, ana xayr-ehson, ana sadaqa-yu muruvvat! Xudo o'zi bularning qo'lini ochiq qilgan! Men shu qadar mammunmanki, nimasini aytasan, bolam! Ular bizga qanchalik xayr-ehson qilishsa, bolam, xudo ham ularga shunchalik ko'p beradi, ayniqsa, Kabanovlar oilasiga xudo yetkazadi o'zi.

Chiqib ketishadi.

Boris. Kabanovlar oilasiga?

K u l i g i n . Kabanova munofiq xotin, afandim! Gadoylarning bo-shini silaydi-yu, uydagilarning jonini oladi.

Jimlik.

Agar men, afandim, perpetu-mobil topsam!

B o r i s . Xo'sh, nima qilardingiz?

K u l i g i n . Iye, qiziqsiz, afandim! Inglizlar bunaqa mashina uchun million-million berishadi: men shu pulni jamiyat foydasiga sarf qilar edim. Meshchanlarga ish topib berish kerak, qo'l-oyoqlari butun-u, ish-dan darak yo'q.

B o r i s . Siz aytgan o'sha mashinangiz – perpetu-mobilni ixtiro etolishingizga ishonasizmi?

K u l i g i n . Shubhasiz, afandim! Faqat, mana shu mashinaning modelini qilish uchun oz-moz pul ishlasmag bas. Xayr, afandim! (*Ketadi.*)

## TO'R TINCHI SAHNA

B o r i s (*yolg'iz*). Uni noumid qilib bo'lmaydi! Juda yaxshi odam o'zi! O'z xayoli bilan o'zi baxтиyor! Ammo mening yoshligim mana shunday ovloq joylarda xazon bo'ladiganga o'xshaydi. Jismim tirig-u, o'zim o'likman, yana, buning ustiga, miyamga ahmoqona o'ylar keladi! Nega, nima keragi bor! Birovni sevishni menga kim qo'yibdi! O'zim kim-u, tavba; tag'in ahmoqlik qilib birovni yaxshi ko'rganim nimasi. Yana kimni deng? Eri bor xotinni, u bilan gaplashish u yoqda tursin, hatto oldiga borib ham bo'lmaydi.

Jimlik.

Ammo nima bo'lsa ham, xayolimdan nari ketmay qoldi. Ana, eri bilan kelyapti, qaynanasi ham birga! Chinakam ahmoqman! Bir chetdan ko'rgin-da, uyingga jo'na! (*Ketadi.*)

## BESHINCHI SAHNA

Kabanova, Kabanov, Katerina va Varvara.

K a b a n o v a . Agar onamning so'zidan chiqmay desang, u yerga borganingdan keyin ham, meni aytganlarimni qilasan.

K a b a n o v . Albatta, onajon, sizning so'zingizdan chiqarmidim!

K a b a n o v a . Endigi yoshlар keksalarni unchalik hurmat qilish-maydi.

**V a r v a r a** (*o'zicha*). Seni hurmat qilmay ko'raylik-chi!

**K a b a n o v .** Hali ham, onajon, izmingizdan bir qadam ham chiqmayman-ku.

**K a b a n o v a .** Agar endigi bolalarning o'z ota-onalarini qanday izzat-ikrom qilayotganini o'z ko'zim bilan ko'rmaganimda, o'z qulog'im bilan eshitmaganimda edi, sening so'zlaringga ishongan bo'lardim! Hech bo'lmasa, bola deb onaning qanchalik azob chekkanini bilsalaring edi.

**K a b a n o v .** Men, onajon...

**K a b a n o v a .** Agar ona o'z bolam deb har qancha achchiq gapirs ham, menimcha, bola chidashi kerak! Xo'sh, sen nima deysan bunga!

**K a b a n o v .** Onajon, qachon sizning so'zingizni qaytardim?

**K a b a n o v a .** Xo'p, onang qari, onang ahmoq, siz yoshlar zap aqllisizlar, shunday bo'lgandan keyin, biz ahmoqlarni koyimasanglar ham bo'lardi.

**K a b a n o v** (*xo'rsinib, chetga*). Ey xudo yo, tavba! (*Onasiga*) Nahotki biz shunday o'ylasak, onajon!

**K a b a n o v a .** Kamoli sizlarni sevganidan ota-onangiz tergaydi, sevganidan urishadi, yaxshi bo'lsin deydi. Ammo bu hozirgi zamon bolalariga yoqmaydi. Qarabsanki, bolalar onasidan shikoyat qila boshlaydi, onam ko'p valaqlaydi, javragani javrigan, jonimdan to'ydirdi, deydi. Hay, hay, kelinda yoqmaydigan biror gapni gapirib qo'yishdan xudo o'zi saqlasin, ana o'shanda ko'rasan viji-vijini, nima deysanki, qaynanasi kelinini somonday sarg'aytirib qo'yibdi.

**K a b a n o v .** Hech-da, onajon, sizning to'g'ringizda kim gapira-yapti o'zi?

**K a b a n o v a .** Hali eshitganimcha yo'q, yolg'on so'zlashni yomon ko'raman, eshitganimcha yo'q. Agar shunaqa gaplarni eshitarkanman, unda bolaginam, sen bilan boshqacharoq gaplashgan bo'lar edim. (*Xo'rsinadi*.) Oh, gunoh og'ir! Gunoh qilish qiyin deysanmi! Birorta gap g'ashingga tegadi-yu, jahling chiqadi, ana gunoh senga. Yo'q, azizim, mening haqimda nima desang de. Birovga man qilib bo'ladi, oldingda gapirolmaydi-yu, orqangdan mag'zava ag'daradi.

**K a b a n o v .** Tilim kesilsin, agar...

**K a b a n o v a .** Bo'ldi bas, qasam ichma! Gunoh bo'ladi! Onangdan ko'ra, xotiningni yaxshi ko'rishingni ko'pdan bilaman. Uylanganing-dan beri meni avvalgiday hurmat qilmay qo'yding.

K a b a n o v . Onajon, buni qayerdan olib gapirayapsiz?

K a b a n o v a . O'zim bilib turibman! Onangning ko'zi yo'q yerda yuragi bor, yuragi bilan sezib turadi. Bilmadim, meni senga xotining chaqayotgandir.

K a b a n o v . Bo'limgan gap, onajon! Men yo'l qo'yarmidim!

K a t e r i n a . Menga, onajon, siz ham, o'z onam ham bir, Tixon sizni jon-dilidan yaxshi ko'radi.

K a b a n o v a . Sendan hech narsa so'ramagandan keyin gapga suqilmasang ham bo'ladi. Eringning tarafini olmasang ham, uni ranjitmoqchi emasman! Shuni esingdan chiqarma, senga er bo'lsa, menga o'g'il bo'ladi! Sen bunga aralashmay qo'yaqol! Yo, eringni yaxshi ko'rghaningni ko'rsatmoqchi bo'lasanmi? Bilamiz, yaxshi bila-miz, til uchida sevganingni.

V a r v a r a (*o'zicha*). Nasihat qiladigan joyni topdi.

K a t e r i n a . Siz, onajon, mening to'g'rimda bekorga bunday deyapsiz. Til uchidami, yo'qmi, men bu bilan hech narsani isbot qilmoqchi emasman.

K a b a n o v a . Sening to'g'ringda gapirmoqchi ham emasdym, o'zi gap kelib qoldi.

K a t e r i n a . Gap kelib qolganda ham men nima qildim, nega ran-jitasiz?

K a b a n o v a . Obbo nozik-nihol-e! Darrov xafa bo'lib qolibsiz-da.

K a t e r i n a . Behuda gap eshitishga kimning toqati bor?

K a b a n o v a . Bilaman, bilaman, mening gaplarim yoqmaydi siz-larga, nima ham deyman, men sizlarga begona emasman, yuragim achi-shadi sizlarga. Erkin yashashni istaysizlar, buni ko'pdan bilaman. Men o'lgandan keyin erkin ham yasharsizlar, nima deymiz. Ana o'shanda nima istasangiz shuni qiling, qo'lingizdan ushlaydigan kishi bo'lmaydi. O'shanda meni ham eslab qo'yarsizlar.

K a b a n o v . Biz, onajon, ikkovimiz kecha-yu kunduz xudodan siz-ga sog'liq, tinchlik va ishingizga rivoj tilaymiz.

K a b a n o v a . Bas, yetar endi. Balki bo'ydoqligingda onangni hurmat qilgandirsan. Endi meni go'rni eslaysanmi, yosh xotining turib.

K a b a n o v . Biri-biriga xalaqit bermaydi, xotin o'z yo'liga, lekin onamga ham hurmatim katta.

K a b a n o v a . Sen onang tufayli xotiningga bir narsa dermiding? Bunga o'lsam ham ishonmasman.

K a b a n o v . Unga nima der edim? Ikkovlaringni ham sevaman.

K a b a n o v a . Gapir, ha, og'zingga kelganini gapir! Ko'rib turibmanki, men sizlarga g'ovman, xalaqit berayapman.

K a b a n o v . Nimani xohlasangiz, shuni o'ylang, ixtiyor o'zingizda, faqat bunchalik badbaxt bo'lib tug'ilganimga hayronman, nima qilsam sizning ko'nglingizni olaman, axir?

K a b a n o v a . Nega og'zingdan so'lakayingni oqizib, o'zingni yetimga solib qolding? Qanaqa erkaksan o'zing? Ahvolingga bir qara! Xo'sh, shundan keyin, qanday qilib sendan xotining qo'rqsin.

K a b a n o v . Nega mendan qo'rqiishi kerak ekan! Meni sevsas basda!

K a b a n o v a . Nega qo'rqmasin! Nega qo'rqmasin! Aqlingni yedingmi? Axir, sendan qo'rqmasa, meni nazar-pisand qilib bo'pti. Shundan keyin, uyda tartib bo'ladimi? Sening halol xotining-ku, axir. Yo nikoh sizlar uchun ikki pulmi? Axir, miyangda shunaqa ahmoqona xayollaring bor ekan, hech bo'limganda xotining, yana, buning ustiga, singling oldida tilingni tiysang bo'lar edi, u ham hademay kuyovga chi-qishi kerak, sening bu ahmoqona gaplaringni eshitgandan keyin, bergen tarbiyamiz uchun kuyovi rahmat aytmaydi. Aqlingni qara-yu, yana o'z holingga erkin yashamoqchi ham bo'lsan, suf senga!

K a b a n o v . Onajon, men o'z erkim bilan yashamoqchi emasman. O'z erkim bilan yashash menga yo'l bo'lsin.

K a b a n o v a . Demak, seningcha, xotiningni doim pufalash-u erkatalish kerak ekan-da? Do'q urib, qo'rqtish kerak emas ekan-da?

K a b a n o v . Onajon, men, axir...

K a b a n o v a (*tutaqib*). O'ynash tutsa ham mayli! A? Seningcha, shunaqa bo'lsa ham maylimi? Qani gapir-chi?

K a b a n o v . Xudo haqi, onajon...

K a b a n o v a (*sovuuqqonlik bilan*). Ahmoq! (*Xo'rsinib.*) Ahmoq bilan gaplashib ham bo'lmaydi! Gunohga botasan kishi! (*Jimlik.*) Men uyga ketdim.

K a b a n o v . Biz ham, bog'ni bir-ikki aylanib, tezda qaytamiz.

K a b a n o v a . Mayli, bilganlaringni qilinglar, ha, yana uzoq kutib qolmay sizlarni! Bilasan, kutishni yomon ko'raman.

K a b a n o v . Xo'p, onajon, xudo saqlasin!

K a b a n o v a . Ha, shunday bo'lsin! (*Ketadi.*)

## OLTINCHI SAHNA

Kabanov, Katerina va Varvara.

Kabanov. Mana ko'rdingmi, seni deb doim onamdan gap eshi-taman! Shu ham turmush bo'ldi-yu!

Katerina. Menda nima gunoh?

Kabanov. Gunoh kimdaligini o'zim ham bilolmay qoldim.

Varvara. Sen qaydan bilarding?

Kabanov. Ilgari, hamavaqt «Xotin ol, uylan, bola-chaqangni ko'ray» deb, javragani javrigan edi. Endi bo'lsa, ko'z ochishga qo'ymaydi. G'ajigani g'ajigan, bularning hammasi sening uchun.

Varvara. Bunda nima ayb! Onamning o'zlari osilyaptilar, endi sen bormisan. Tag'in, xotinimni yaxshi ko'raman, deysan. Aftingga qaragim kelmaydi. (*Yuzini o'giradi.*)

Kabanov. Qani gapir! Nima qilay?

Varvara. O'z ishingni bil, qo'lingdan hech balo kelmagandan keyin, uningni chiqarma. Nega g'o'dayib turibsan? Nimalarni o'y-layotganiningni ko'zingdan payqab turibman.

Kabanov. Qani, nima ekan?

Varvara. Nima bo'lardi. Savel Prokofich oldiga o'tib, birga ichib kelmoqchisan. Topdimmii?

Kabanov. Topding, singlim, topding.

Katerina. Sen, Tisha, tezroq qayt, tag'in onang hammaning enka-tenkasini chiqarib yubormasin.

Varvara. Tezroq qayt, aka, ha-da. O'zing bilasan!

Kabanov. Bilmay-chi!

Varvara. Sening uchun dashnom yeyishga toqatimiz yo'q.

Kabanov. Bir zumda borib kelaman. Kutib turinglar! (*Ketadi.*)

## YETTINCHI SAHNA

Katerina bilan Varvara.

Katerina. Demak, Varya, menga rahming kelarkan-da!

Varvara (*atrofga qarab*). Albatta rahmim keladi.

Katerina. Bundan chiqdiki, meni yaxshi ko'rarkansan-da?  
(*Qattiq o'padi.*)

Varvara. Nega yaxshi ko'rmay!

Katerina. Rahmat senga! O'zing juda yoqimtoy qizsan, men ham seni o'la-o'lgunimcha yaxshi ko'raman. (*Jimlik.*) Bilasanmi xayolimga nima keldi?

Varvara. Nima?

Katerina. Nega odamlar ucholmaydi?

Varvara. Tushunmadim, nimalar deyapsan?

Katerina. Nega odamlar qushlarga o'xshab ucholmaydi, deyapman? Bilasanmi, goho o'zimni qush deb xayol qilaman. Tepalikka chiqib ketgim keladi. Mana bunday qilib yugurib, qo'llaringni baland ko'tarib uchib ketsang kishi. Hozir bir sinab ko'rmaymizmi? (*Yugurmoqchi bo'ladi.*)

Varvara. Nimalarni o'ylab chiqaryapsan o'zing?

Katerina (*xo'rsinib*). Men juda-juda sho'x edim! Sizlarnikiga kelib so'lib qoldim.

Varvara. Meni bilmaydi deysanmi?

Katerina. Men shunaqa edimmi! Hech narsaning g'amini yemay, qushday erkin yashar edim. Onam menden girgitton bo'lib jonini qoqar, qo'g'irchoqday yasantirib qo'yar, ishlagin deb majbur qilmasdi, ko'nglim tilagan ishni qillardim. Bilasanmi, qizligimda qanday yashar edim? Hozir senga hammasini aytib beraman. Goho erta turardim, yoz bo'lsa buloqqa tushardim-u, maza qilib yuvinardim, o'sha yerdan suv olib kelardim-da, uydagi barcha gullarga quyardim. Mening gullarim juda-juda ko'p edi. Keyin onam bilan ibodatga borardik, hamavaqt g'arib-benavolarga uyimiz liq to'la edi! Ibodatdan qaytib kelgach ishga tutinardik, ko'proq barqutga zar tikishga o'tirardik, shunda haligi g'arib-benavolar, har xil narsalarni so'zlab berishardi – qayerda bo'lganlarini, nimalarni ko'rganlarini, turli-tuman narsalarni, yo bo'lmasa baytlar o'qib berishardi. Ovqat mahaligacha vaqt mana shunday o'tar edi. Kampirlar yotishar edi-yu, men bo'lsam bog'ni sayr qilib yurardim. Keyin kechki ibodatga borardik, kechqurun yana hikoya-yu yana ashula tinglar edik! Shunaqa yaxshi ediki!

Varvara. Bizda ham shunaqa edi.

Katerina. Bu yerda hammasi, go'yo tutqinlik natijasi. Ibodatxonaga borishni juda ham yaxshi ko'rар edim! Xuddi jannatga kirgandek bo'lardim, hech kimni ko'rmas edim, ibodatning qachon tugaganini ham sezmas edim. Go'yo hammasi bir lahzada bo'lganday tuyular edi. Onam hammaning ko'zi senda bo'ldi, der edi! Ko'rganmisan, quyosh

charaqlab turgan kuni, ibodatxona peshtoqidan pastga shaloladek qu'yosh nuri oqib tushadi, mana shu nur go'yo bulutday tutab turadi, men bu bulut qo'ynida xuddi farishtalar uchib-o'ynab, kuylab yurishganini ko'rgandek bo'lar edim. Bizning uyimizda ham shamchiroqlar yonib turar edi. Goho yarim kechada uyg'onib ketaman-u, bir bur-chakka o'tib olib ertalabgacha ibodat qilib chiqaman. Yo bo'lmasa azonlab boqqa chiqib ketardim, endigina quyosh chiqib kelayotgan vaqt cho'kka tushib xudoga iltijo qilib biram yig'lardim, o'zim ham bilmas edim, nima deb iltijo qilardim-u nimaga yig'lardim; meni kuni bo'yi qidirib topisholmas edi. O'shanda nima maqsad bilan ibodat qilardim, o'zim ham bilmayman, menga hech narsaning keragi yo'q, hamma narsa yetarli edi. Oh, qanaqa tushlar ko'rardim men, Varenka, qanaqa tushlar ko'rardim-a! Oltindan ishlangan ibodatxonalarini, yo bo'lmasa ajoyib bog'larni ko'rар edim, ko'zga ko'rinnmaydigan kishi-larning qo'shiqlari eshitilar va sarv daraxtining xushbo'y hidi anqib turar edi. Tog'lar ham, daraxtlar ham o'ngingdag'i daraxt va tog'larga sira-sira o'xshamas, xuddi suratdagilarga o'xshar edi. O'zim bo'lsa, xuddi qushlardek ko'kda uchib yurar edim. Hali ham goho tush ko'raman-u, lekin endi avvalgidek emas.

Varvara. Nega?

Katerina (*biroz jim turgach*). Yaqinda o'laman.

Varvara. Bo'lman gapni gapirma!

Katerina. Yo'q, o'lishimni sezib turibman. Oh, Varya, menga bir balo bo'ladiganga o'xshaydi! Hech qachon bunday bo'lman gapirma edim. O'zidan o'zi g'alati bo'lib ketyapman. Go'yo yangidan hayot boshlaganga o'xshayman yoki... O'zim ham bilmay qoldim.

Varvara. Senga nima bo'ldi?

Katerina (*uning qo'lidan ushlab*). Varya, birmimani sezib turibman, bir falokat yuz bermasaydi. Meni qandaydir vahima chulg'ab oldi, yuragimni vahima bosib ketayapti. Go'yo baland jar yoqasida turibman-u, kimdir meni jarga itarib yubormoqchi, ushlab qoladigan hech narsa yo'q. (*Boshini changallaydi*.)

Varvara. Senga nima bo'ldi? Sog'misan o'zing?

Katerina. Sog'man... kasal bo'lganim ham yaxshi edi, attang. Boshimga bo'lmaq'ur xayollar kelyapti. Bundan qochib qutulolmayman. O'ylab oxiriga yetolmayman, sajda-yu ibodatdan bosh ko'tarolmay qoldim. Tilimdag'i so'z dilimga to'g'ri kelmaydi, go'yo shayton

qulog‘imga shipshiydi, yana bo‘lmaq‘ur ishlar, o‘zimdan o‘zim uyalib ketaman. Nima bo‘ldi menga? Biror falokat yuz bermasa! Kechalari, Varya, uyqum kelmaydi, hamon qulog‘imga qandaydir shov-shuv eshitiladi, kimdir, go‘yo kaptar g‘uv-g‘uvlagandek, qulog‘imga shirin shipshiydi. Endi, Varya, avvalgidek jannat daraxtlari bilan tog‘lar ham tushimga kirmay qo‘ydi, go‘yo meni kimdir issiq quchog‘iga bosib alla-qayoqlarga olib ketayotganday bo‘ladi, men ham u bilan ketaveraman, ketaveraman-u...

Varvara. Keyin-chi?

Katerina. Men senga nimalar deyapman, sen – qiz bolasan-ku, hali.

Varvara (*atrofga qarab qo‘yib*). Gapiraver! Men sendan ham battarman.

Katerina. Nima ham deyay? Uyalaman.

Varvara. Uyalmay gapiraver!

Katerina. Uyda shu qadar siqilamanki, sira demaydigan! Qochib ketgim keladi. Xayolimga shunaqa o‘ylar keladi, agar ixtiyor o‘zimda bo‘lgandami, ashula aytib, qayiqda Volgani aylanar edim, yo bo‘lmasa uch otli izvoshda quchoqlashib...

Varvara. Boshqa odam bilan, albatta.

Katerina. Sen qayerdan bilasan?

Varvara. Bilmay-chi!..

Katerina. Oh, Varya, mening fikrim buzuq! Men bechoraning boshiga ne-ne balolar tushmadi, qancha yig‘lab xunibiyron bo‘lmadim! Bu falokatdan qochib qutulolmayman shekilli! Hech qachon! Bu yaxshi emas, bu juda ham yomon gunoh-ku, Varenka, men boshqa birovni yaxshi ko‘raman shekilli?

Varvara. Senga nima ham derdim! O‘z gunohlarim yetib ortar.

Katerina. Nima qilsam ekan! Hech narsaga qurbim yetmaydi. Boshimni qaysi toshga ursam ekan, bu alamlar bilan o‘zimni bir balo qilib qo‘ymasam go‘rga edi!

Varvara. Nima bo‘ldi senga! Nima bo‘ldi! Shoshma, ertaga akam ketsin, biror narsa o‘ylab topamiz, balkim ko‘rishning iloji bo‘lar.

Katerina. Yo‘q, yo‘q, keragi yo‘q. Senga nima bo‘ldi! Nimalar deyapsan! Xudo saqlasin-a!

Varvara. Nega bu qadar cho‘chib ketding?

Katerina. Agar men u bilan biror marta ko‘rishadigan bo‘lsam, uydan ochib ketaman, qaytib sira-sira uyga kelmayman.

Varvara. Hali shoshmay tur, o‘sanda ko‘ramiz.

Katerina. Yo‘q-yo‘q, menga gapirma, qulq ham solmayman.

Varvara. O‘zingni somonday sarg‘aytirib nima qilasan? Diq-qating oshib o‘lganingda ham, birontasining rahmi kelmaydi! Bulardan yaxshilik kutib bo‘psan. O‘zingni o‘zing qiyashdan nima foyda?

Qo‘liga tayoq tutgan boy xotin bilan uchburchakli shlapa kiygan  
ikki xizmatkori kiradi.

## SAKKIZINCHI SAHNA

Avvalgilar va boy xotin.

Boy xotin. Xo‘sh, nozaninlar? Bu yerda nima qilib turibsizlar? Yigitlarni kutib turibsizlarmi? Vaqtningiz chog‘mi? Shunaqaga o‘xshaydi-a? Husningizga ishonasisiz-da? Chiroy degan narsa shunaqa qilib qo‘yadi. (*Volgani ko‘rsatib.*) Ana, xuddi o‘sha girdobning o‘zi! (*Varvara jilmayadi.*) Nega kulasiz! Ko‘p kekkaymang! (*Tayog‘ini do‘qillatib.*) Hammangiz do‘zaxga kunda bo‘lasiz. Hammangiz jahannam olovida yonasiz. (*Ketayotib.*) Mana husnning oqibati. (*Ketadi.*)

## TO‘QQIZINCHI SAHNA

Katerina bilan Varvara.

Katerina. Oh, meni biram qo‘rqitib yubordiki, hali ham titrog‘im bosilmadi, go‘yo menga allanarsadan darak berayotganday tuyuldi.

Varvara. O‘z boshiga ko‘rinsin, jodugarni!

Katerina. U nimalar dedi, a? Nima dedi?

Varvara. Behuda gaplar. Uning bemaza gaplari kimga kerak ekan. U hamavaqt shunaqa bema‘ni gaplarni gapiradi. Yoshligida toza buzuqliklarni qilib, rosa gunohga botgan. Ishonmasang so‘ra, hamma aytib beradi! O‘limdan o‘lgudek qo‘rqadi. O‘zi qo‘rqqan narsadan boshqalarni ham qo‘rqitib yuradi. Hatto shahardagi bolalar ham undan qochishadi. Ularga tayog‘i bilan do‘q urib, «Do‘zaxga kunda bo‘lasizlar!» deb baqiradi.

Katerina (*ko‘zlarini yumib*). Oh, bo‘ldi, bas qil! Yuragim tars yorilay dedi.

Varvara. O'shandan ham qo'rqib o'tirasamni! Bu jodugar o'lgor...

Katerina. Qo'rqaman, o'lgudek qo'rqaman. Hamon ko'z ol-dimdan nari ketmaydi. (*Jimlik*.)

Varvara (*atrofga qarab*). Nega shu choqqacha akam kelmayapti ekan, chaqmoq chaqayotganga o'xshaydi.

Katerina (*dahshat bilan*). Momaqaldiroq! Ketdik uyga! Tez bo'l!

Varvara. Nima, jinni-pinni bo'ldingmi? Qanday qilib akam kelmay turib uyga boramiz?

Katerina. Yo'q, mayli, ketaylik! O'zi borar!

Varvara. Nega momaqaldiroqdan bunchalik qo'rqsan? Hali uzoqda.

Katerina. Unday bo'lsa biroz kutaylik, yaxshisi, ketsak ham bo'lar edi. Ketaqolaylik!

Varvara. Peshonangga yozilganini ko'rasan, uyga qochib ham qutulolmaysan.

Katerina. Ming qilsa ham, tinch uyda bo'lganing yaxshi, hech bo'limganda butga, xudoga sig'inasan-ku!

Varvara. Men seni momaqaldiroqdan bunchalik qo'rqiishingni bilmas edim. Men qo'rqlayman.

Katerina. Qiz bolaga qo'rqlayman bo'ladimi! Har kim ham qo'rqiishi kerak. Momaqaldiroqning kishini o'ldirishi qo'rqinchli emas, gunohlaring to'lib-toshgan paytda o'limning to'satdan kelib chang solishi yomon xolos. Men o'limdan qo'rqlayman, faqat shu kepatada, sening oldingda turgan bo'yicha, haligi gunoh gaplardan so'ng, xudo dargohiga borishdan cho'chiyman xolos. Bundan dahshatli, bundan qo'rqinchli narsa bormi? Kallam bo'limg'ur o'ylar bilan g'ovladi! Na-qadar gunoh! Aytish ham dahshat!

Momaqaldiroq guldiraydi.

Oh!

Kabanov kiradi.

Varvara. Ana, akam ham kelib qoldi. (*Kabanovga*.) Tezroq. Yugur!

Momaqaldiroq guldiraydi.

Katerina. Oh! Tez, tezroq!



## IKKINCHI PARDA

K a b a n o v l a r u y i d a b i r b o ' l m a .

## BIRINCHI SAHNA

G l a s h a b u y u m l a r n i t u g i s h b i l a n o v o r a . F e k l u s h a k i r a d i .

F e k l u s h a . J o n i m n i q o q a y , q a c h o n k o ' r s a m i s h u s t i d a s a n ! N i m a q i l y a p s a n , j o n i d a n ?

G l a s h a . X o ' j a y i n n i s a f a r g a j o ' n a t m o q c h i m a n .

F e k l u s h a . B o y v a c h c h a b i r o r y o q q a k e t y a p t i l a r m i ?

G l a s h a . H a , k e t y a p t i l a r .

F e k l u s h a . K o ' p g a k e t y a p t i l a r m i , j o n i m ?

G l a s h a . Y o ' q , k o ' p g a e m a s .

F e k l u s h a . X a y r , s a f a r l a r i b e x a t a r b o ' l s i n ! B o ' l m a s a k e l i n r o s a y i g ' l a r e k a n - d a ?

G l a s h a . Q a y d a m !

F e k l u s h a . O ' z i h e c h y i g ' l a y d i m i , y o ' q m i ?

G l a s h a . S h u c h o q q a c h a k o ' r g a n i m y o ' q .

F e k l u s h a . M e n , j o n i d a n , u v v o s s o l i b y i g ' l a g a n n i j u d a y a x s h i k o ' r a m a n ! (*J i m l i k .*) S i z , q i z c h a , a n a v i r o ' p o c h x o t i n l a r g a k o ' z - q u l o q b o ' l i n g , y a n a b i r o r n a r s a n i t o r t i b k e t i s h m a s i n .

G l a s h a . S i z l a r g a h e c h t u s h u n i b b o ' l m a y d i o ' z i , b i r - b i r i n g i z n i g ' i y b a t q i l g a n i n g i z - q i l g a n . S i z l a r g a n i m a y e t i s h m a y d i ? Y o b i z n i k i d a y o m o n k u n k o ' r y a p s i z l a r m i , h a d e b b i r - b i r i n g i z b i l a n o l i s h g a n i n g i z - o l i s h g a n , g u n o h d a n h a m q o ' r q m a y s i z l a r .

F e k l u s h a . D u n y o d a g u n o h s i z y a s h a b b o ' l m a y d i , c h i r o g ' i m , m e n s e n g a a y t s a m , c h i r o g ' i m , s i z g a o ' x s h a g a n o d d i y o d a m l a r n i b i t t a shayton yo 'ldan ozdiradi, bizdek taqvodor ro 'poch xotinlarga esa, oltitadan to o 'n ikkitagacha shayton yopishadi, mana shularning hammasini daf qilish kerak, yaxshi qiz, bu juda qiyin.

**G l a s h a .** Nega sizlarga muncha ko‘p shayton yopishadi?

**F e k l u s h a .** Chirog‘im, men senga aytsam, bizning mana shunaqa haq yo‘liga kirib, tavba-tazarru va taqvo bilan kun ko‘rishimizni ko‘rolmagan shayton alamidan shunday qiladi, xudo saqlasin, men bunday bachkana ishlar bilan shug‘ullanmayman, chirog‘im. Mening birgina gunohim bor xolos. Buni o‘zim bilaman. Yaxshi yeyish, yaxshi ichishni yaxshi ko‘raman. Turgan-bitganim shu bo‘lsa, nima qilay.

**G l a s h a .** Sen, Feklusha, olis tomonlarga borganmisan?

**F e k l u s h a .** Yo‘q, chirog‘im. Zaifligimdan uncha olislarga borgan emasman, ammo eshitishga qolganda juda ko‘p narsalarni eshitganman. Aytishlariga qaraganda, shunday mamlakatlar bormishki, chirog‘im, u yerlarda xristian dinidagi podshohlar yo‘q emish, mamlakatni sultonlar idora qilar emish. Bir yerda taxtda turk sultoni Maxnut<sup>1</sup>, boshqa bir yerda eron sultoni Maxnut o‘tirarmish, mana shular, chirog‘im, butun odamlar ustidan hukm chiqararmish, yana qanaqa hukm degin, butunlay noto‘g‘ri hukm-a. Ular, chirog‘im, birorta ishni odilona hal qilolmas emish, ularning ishlari o‘zi shunaqa emish. Bizning qonunimiz bo‘lsa juda odil, ularniki, chirog‘im, nohaq, bizning qonunimizda ish mana bunday bo‘lsa, ularnikida buning butunlay aksi chiqarmish. Ularning qozilari ham, o‘z mamlakatlarida, barchasi haqqoniy emasmish, odamlar ularga arzga kelishganda ham o‘z arizalarida «Mening ishimni bir yoqlik qil, ey nohaqqoniy hakam!» deb yozarmishlar. Yana shunaqa yerlar ham bormishki, butun odamlarning boshi itning boshiga o‘xsharmish.

**G l a s h a .** Nega shunaqa, itning boshiga o‘xsharmish?

**F e k l u s h a .** G‘ayridin bo‘lganlari uchun. Endi ketdim men, chirog‘im, savdogarlarning uylarini bir aylanib kelay, bechoralarga atagan-tutaganlari bordir. Hozircha xayr!

**G l a s h a .** Xayr!

**F e k l u s h a** ketadi.

Shunaqa yerlar ham bor ekan-a! Dunyoda ajoyib narsalar ko‘p! Bu yerda bizning hech narsadan xabarimiz yo‘q. Xayriyatki, yaxshi odamlar bor, hech bo‘lmasa, onda-sonda dunyoda nimalar bo‘layotgанин о‘шалардан eshitib qolasan kishi, bo‘lmasa hech narsadan xabarsiz nodon bo‘lib o‘lib ketar edik.

Katerina bilan Varvara kiradi.

---

<sup>1</sup> M a h m u d – demoqchi.

## IKKINCHI SAHNA

Katerina va Varvara.

Varvara (*Glashaga*). Yuklarni aravaga olib chiq, arava keldi. (*Katerinaga*.) Seni juda yosh erga berishibdi, qizlik davrini ham surolmapsan, shuning uchun ham hali yuragingda yoshlik sho'xliklari bosilgan emas.

G l a s h a c h i q a d i .

K a t e r i n a . Hech qachon bosilmaydi.

V a r v a r a . Nima uchun?

K a t e r i n a . Shunaqa, asli o'tyurak bo'lib tug'ilganman. Bilasan-mi nima qilgan edim, o'sha kezlarda olti yoshlarda edim, uydagilar meni nimadandir xafa qilib qo'yishdi, oqshom payti edi, qop-qorong'i, men to'g'ri chopib Volga bo'yiga tushdim, qayiqqa o'tirdim-u, haydab ketdim. Ertasiga ertalab meni o'n chaqirim naridan topishdi!

V a r v a r a . Yigitlar senga qararmidi?

K a t e r i n a . Qanday qilib qaramasin!

V a r v a r a . Sen-chi? Hech kimni sevmaganmisan?

K a t e r i n a . Yo'q, faqat hazillashar edim.

V a r v a r a . Sen, Katya, Tixonni ham sevmaysan.

K a t e r i n a . Yo'q, nega sevmayin. Unga juda rahmim keladi!

V a r v a r a . Bilaman, sevmaysan. Unga achinasanmi, demak sevmaysan. Hech ham sevmaysan, to'g'risini aytish kerak. Bekorga mendan yashirasani! Ko'pdan beri bilib yuribman, sen boshqa birovni yaxshi ko'rib qolgansan.

K a t e r i n a (cho 'chib). Qayerdan bilasan?

V a r v a r a . Qiziq gapirasani-a! Men go'dakmanmi? Agar sen uni ko'rib qolsang darrov ranging o'zgarib ketadi, bu bir belgisi.

K a t e r i n a yerga qaraydi.

Bundan boshqa...

K a t e r i n a (yerga qarab). Kimni, axir?

V a r v a r a . O'zing bilasan-ku, aytishning nima hojati bor?

K a t e r i n a . Yo'q, ayt! Ismini ayt!

V a r v a r a . Boris Grigorichni.

K a t e r i n a . Ha, o'shani, Varenka, o'shani! Faqat sen, Varenka, xudo haqqi...

Varvara. O'libmanmi! Sen o'z og'zingga ehtiyot bo'l, yana biror yerda og'zingdan chiqib ketmasin.

Katerina. Yolg'on gapirolmayman, hech narsani sir tutolmayman, axir.

Varvara. Busiz yashab bo'ladimi, qayerda yashayotganiningni unutma! Hammamiz shunga o'rganganmiz. Men yolg'onchi emasdim, darkor bo'lgan edi, yolg'onga ham o'rgandim. Kecha aylanib yurganimda uni ko'rdim, gaplashdim.

Katerina (*biroz jim turgach, ko'zini yerdan olmay*). Xo'sh, u nima dedi?

Varvara. Senga salom aytdi. Attang, u bilan uchrashadigan joy yo'q, deydi.

Katerina (*yerdan ko'zini uzmay*). Qayerda ham ko'rishar edik! Nima hojati ham bor...

Varvara. Juda xafa... G'amgin...

Katerina. Uning to'g'risida menga gapirma, xudo haqqi, gapirma! U bilan mening nima ishim bor. Men o'z erimni sevaman! Tixon, seni hech kimga alishtirmayman! Men bu haqda o'ylashni xayolimga ham keltirmagandim, sen meni dovdiratib qo'yding.

Varvara. O'ylamasang o'ylama, birov seni majbur qilayaptimi?

Katerina. Menga rahming kelmas ekan! O'ylamasang o'ylama, deysan-u, tag'in o'zing kishining esiga solib qo'yanan. Uni sira ham o'ylashni istamayman-u, nima qilay o'zi xayolimdan nari ketmasa?! Nimaniki o'ylamay, u hamon ko'z oldimda turgani turgan. Harchand o'zimga tasalli berishga urinsam ham, qo'limdan hech narsa kelmayapti. Bilasanmi, bugun tuni bo'yi shaytonga hay berib chiqdim. Oz qoldi ochib ketishimga.

Varvara. O'zing ham g'alatisan, xudo saqlasin! Menimcha, o'z bilganiningni qil, lekin «tuya ko'rdingmi, yo'q» bo'lishi kerak.

Katerina. Men bunaqani xohlamayman. Bundan yaxshilik chiqmaydi. Yaxshisi, chidash kerak, chidayman.

Varvara. Bordi-yu, chidolmasang-chi, unda nima qilasan?

Katerina. Nima qillardim?

Varvara. Shuni aytayapman-da, nima qilasan?

Katerina. Ko'nglimga nima kelsa shuni qilaman.

Varvara. Qilib ko'r-chi, seni tiriklayin yeb qo'yishar.

Katerina. Qo'rqmayman! Qochib ketaman.

Varvara. Qayoqqa ochasan? Ering bor-ku.

Katerina. Sen mening fe'limni bilmas ekansan, Varya! Ammo, bundan xudo saqlasin! Bu yerdan ko'nglim sovimasin, bordi-yu, ko'nglim sovigudek bo'lsa, meni hech kim bu yerda ushlab turolmaydi. O'zimni derazadan Volgaga otaman. Agar bu yerda turgim kelmay qolsami, kallamni kessalar ham turmayman!

Jimlik.

Varvara. Bilasanmi, Katya! Tixon ketgandan keyin, kel, boqqa chiqib shiyponda yotamiz.

Katerina. Nega endi, Varya?

Varvara. Senga baribir emasmi?

Katerina. Ovloq yerda yotishga qo'rqaman.

Varvara. Nimadan qo'rqasan? Glasha ham biz bilan yotadi.

Katerina. Negadir qo'rqinchli! Ha, mayli.

Varvara. Seni-ku, chaqirmas edim-a, bir o'zimni onam yotqizmaydi, men, albatta, boqqa chiqib yotishim kerak.

Katerina (*unga qarab*). Nega endi?

Varvara (*kulib*). U yerda fol ochamiz.

Katerina. Chiningmi?

Varvara. Hazillashdim, shunga ham ishondingmi?

Jimlik.

Katerina. Tixon qayerda qoldi?

Varvara. Nima qilasan uni?

Katerina. So'radim-da, u tezda jo'nashi kerak-ku.

Varvara. Onam bilan bekinib olib gaplashyaptilar. Onam uning miyasini qoqib qo'liga beryapti-da.

Katerina. Nima uchun, axir?

Varvara. Bekordan bekorga aql o'rgatyapti. Ikki hafta yo'lida bo'ladi-da, ona ko'zidan nari. O'zing o'yla! U bu yerdan ketgach, bilganini qiladi, deb onamning yuragini fasod bog'lab ketdi. Shuning uchun ham u bir-biridan beshbattar bo'lgan allaqayerdag'i nasihatlarni qilyapti, keyin uni but oldiga olib borib, mening aytganlarimni qilmasang nima ursin deb, qasam ichiradi ham.

Katerina. Olisda ham erkin yurolmas ekan-da.

Varvara. Nega? Bu yerdan ketgandan keyin u ichkilikka rosa zo'r beradi. Qulog'i onamda-yu, ko'ngli araqda. Tezroq qutulsam deydi.

Kabanova bilan Kabanov kiradi.

## UCHINCHI SAHNA

Avvalgilar va Kabanova bilan Kabanov.

Kabanova. Xo'p, endi hamma aytganlarim esingdami? Hammasini dilingga tuyib, qulog'ingga quyib ol!

Kabanov. Esimda, onajon!

Kabanova. Endi hammasi taxt. Arava ham tayyor, faqat xayr-lashsang bo'ldi, keyin xudoga topshirdim.

Kabanov. Ha, onajon, vaqt bo'ldi.

Kabanova. Qani, xo'sh!

Kabanov. Nima deysiz?

Kabanova. Nega serrayib turibsan, yo urf-odatni bilmaysanmi? Sen ketgach, qanday yashash, turishini xotiningga uqtir.

Katerina yerga qaraydi.

Kabanov. Nima, o'zi bilmaydimi?

Kabanova. Gapni qisqa qil! Qani gapir! Nima deganingni o'z qulog'im bilan eshitay! Kelganidan keyin so'raysan, sen aytganlarni bajardimi, yo'qmi?

Kabanov (*Katerinaning ro'parasiga kelib*). Onamning so'zidan chiqma, Katya!

Kabanova. Qaynaningga dag'allik qilma, de!

Kabanov. Dag'allik qilma!

Kabanova. Qaynanasini o'z onasidek hurmat qilsin!

Kabanov. Onamni, Katya, o'z onangdek hurmat qil!

Kabanova. Boy xotinlardek ish qilmay, so'ppayib o'tirma, de!

Kabanov. Mensiz, nima bo'lsa ham ish qilib tur!

Kabanova. Ko'chaga ko'z tashlamasin!

Kabanov. Onajon, qachon u...

Kabanova. Bas, qani ayt!

Kabanov. Ko'chaga qarama!

Kabanova. Sen yo'qligingda yosh yigitlarga qaramasin!

Kabanov. Nima bo'ldi sizga, onajon, xudo haqqi!

Kabanova (*g'azab bilan*). Ko'p valaqlama. Onangning aytganini qil! (*Kulib*.) Bu gaplar foydadan xoli emas, ha.

Kabanov (*zo'rg'a*). Yigitlarga qarama!

Katerina eriga tikiladi.

Kabanova. Xo'p, endi o'zlarining gaplashib olinglar, yur Varvara!

Ketishadi.

## TO'RTINCHI SAHNA

Kabanov bilan Katerina.  
(Katya hang-mang bo'lib qarab turadi.)

Kabanov. Katya!

Katya jim.

Katya, sen mendan xafa bo'ldingmi?

Katerina (*biroz jim turgach, boshini chayqab*). Yo'q!

Kabanov. Senga nima bo'ldi? Kechir meni!

Katerina (*hamon o'sha holatda, boshini sal chayqab*). Xudo ko'tarsin! (*Qo'llari bilan yuzini to'sib*) Onang meni ranjitsdi!

Kabanov. Hammasini ichingga solaversang, hademay sil bo'lasan. Qulqoq solma! Biror narsa deyishi kerak-da, axir! Gapirsa gapiaversin, sen qulqoq solma! Xayr bo'lmasa, Katya!

Katerina (*erining bo'yniga osilib*). Tisha, ketma! Xudo haqqi, ketma! Jonim, xudo haqqi, ketma!

Kabanov. Iloji yo'q, Katya. Onam yuborgandan keyin, bormay bo'ladimi?!

Katerina. Bo'lmasa meni ham birga olib ket!

Kabanov (*uning og'ushidan chiqib*). Iloji yo'q.

Katerina. Nega iloji bo'lmasin, Tisha, nega?

Kabanov. Seni olib ketib nima huzur topardim! Bu yerda, ham-mangiz mening adabimni beryapsizlar! O'zim qutulolmay garang-ku, yana sening ergashganing oshiqcha.

Katerina. Nahotki meni yomon ko'rib qolgan bo'lsang?

Kabanov. Yomon ko'rganim-ku, yo'q, bunday azobda har qanday go'zal xotindan ham kechib yuboradi kishi! O'zing o'ylab ko'r, nima bo'lsa ham, men erkakman, axir, butun umr, o'zing ko'rib turib-san, mana shunday o'tadigan bo'lsa, xotiningni ham tashlab qochasan! Bilamanki, ikki hafta bemalol, erkin yashayman, hech kim menga xo'jayin bo'lmaydi, oyog'imda kishan yo'q, nahotki shundayam xotinni o'ylasam?

Katerina. Sening bu gaplaringni eshitib, yana qanday qilib sevay seni?

Kabanova. Bir gap-da! Yana nimalar desam ekan? Nimadan ham qo'rqasan? Yolg'iz emassan-ku, onam bor yoningda.

Katerina. Sen menga onangni gapirma, yuragimni ezma! Oh, holim xarob! (*Yig'laydi.*) Men sho'rlik nima ham qildim, boshimni qayerga ham urdim? Kimga yalinay? Yo rabbim, zavolim keldi shekilli!

Kabanova. Bas!

Katerina (*erining yoniga borib, pinjiga tiqiladi*). Tisha, yo qolsang, yo bo'lmasa meni ham birga olib ketsang, seni shu qadar ardoqlar edim, oyog'ingga poyondoz bo'lar edim, jonim. (*Erkalatadi.*)

Kabanova. Tushunolmay qoldim senga, Katya! Erkalatishlar u yoqda tursin, goho churq etmas eding, hozir esa bevaqt osilyapsan.

Katerina. Tisha, sen meni kimga tashlab ketyapsan? Sensiz biror falokat yuz bermasaydi?! Biror falokat!

Kabanova. Axir iloji yo'q, nima ham qilolardik?

Katerina. Unday bo'lsa... sen menga biror yomonroq qasam ichirib ket...

Kabanova. Qanaqa qasam?

Katerina. Sen yo'qligingda hech qanday begona kishi bilan ko'rishmasligim, so'zlashmasligim, sendan boshqani o'yamasligim uchun qasam ichir menga!

Kabanova. Nima hojati bor buning?

Katerina. Xudo haqqi, mening aytganimni qil! Ko'nglimni tinchit!

Kabanova. Kishi o'ziga qanday ishonib bo'ladi, xayoliga nimalar kelmaydi kishining.

Katerina (*tiz cho'kib*). Ota-onamning diydoridan benasib bo'lay! U dunyodan ham mahrum bo'lay, agar men...

Kabanova (*uni turgizib*). Bu nima qilganing? Nima gap o'zi! Mana shu so'zlarining o'zi katta gunoh! Eshitmaganim bo'lsin!

Kabanova ning «Bo'l, Tixon!» degan ovozi eshitiladi.

## B E S H I N C H I S A H N A

Avvalgilar hamda K a b a n o v a , V a r v a r a v a G l a s h a .

K a b a n o v a . Bas endi. Tixon, jo'nash kerak. Xudoga topshirdim! (*O'tiradi.*) O'tiringlar! (*Hamma o'tiradi. Jimlik.*) Xo'p endi, xayr! (*Turadi, hamma turadi.*)

K a b a n o v (onasiga yaqin kelib). Xayr, onajon!

K a b a n o v a (yerni ko'rsatib). Oyog'imga tiz cho'k, oyog'imga!

K a b a n o v onasining oyog'iga tiz cho'kadi, keyin o'pishadi.

Xotining bilan xayrlash!

K a b a n o v . Xayr, Katya!

K a t e r i n a erining bo'yniga osiladi.

K a b a n o v a . Nega bo'yniga osilasan, uyatsiz! O'ynashing bilan xayrlashayotganing yo'q-ku! Ering-a, bilib qo'y! Yo, yo'l-yo'riqni bilmaysanmi? Oyog'iga tiz cho'k!

K a t e r i n a tiz cho'kadi.

K a b a n o v . Yaxshi qol singlim! (*Varvara bilan o'pishadi.*) Yaxshi qol, Glasha! (*Glasha bilan o'pishadi.*) Xayr, onajon! (*Egiladi.*)

K a b a n o v a . Xayr! Uzoq xayrlashsang, shuncha ko'p ko'z yoshi bo'ladi.

K a b a n o v chiqadi, uning ketidan K a t e r i n a , V a r v a r a ,  
G l a s h a ham chiqadi.

## O L T I N C H I S A H N A

K a b a n o v a (*yolg'iz*). Nima ham deysan, yoshlik-da! Ularni ko'rib kulging qistaydi! Agar o'z kishim bo'lmaganda toza kulardimda. Na tartibni bilishadi va na qoidani. Tuzuk-quruq xayrlashishni ham bilishmaydi! Xayriyat, hali qaysi uyda keksalar bor bo'lsa, o'sha yerda tartib-qoida bor, keksalar bo'lmasa, dunyo ostin-ustun bo'lardi. Tentaklar, erkin yashamoqchi bo'lishadi, bir erkin yashab ko'rishsinchi, tomosha qilaylik, bir masxarasi chiqib sharmanda bo'lishsin! Eski odatlarning sadaqasi ketsang! Boshqa uylarga kirging ham kelmaydi. Kirganingga ham, ko'ngling aynib, qochib chiqasan kishi. Qarilar o'lib ketgandan keyin olam nima bo'larkin, bilolmayman. Illohim o'sha kundardan asra!

K a t e r i n a bilan V a r v a r a kiradi.

## YETTINCHI SAHNA

Kabanova, Katerina va Varvara.

Kabanova. Erimni juda yaxshi ko'raman deb maqtangan eding, ko'rdik, qanday yaxshi ko'rishingni. Bo'lak xotin bo'lganda edi, eri ketishi bilan kamida bir yarim soat uvvos solib yig'lardi, sening bo'lsa, parvoyingga ham kelmaydi.

Katerina. Yig'lab nima qilay, yig'lashni ham bilmayman, odamlar oldida kulgi bo'laymi?!

Kabanova. Nimasini bilmaysan. Agar yaxshi ko'rganingda bilar eding. Yaxshi bilmasang ham, hech bo'lmasa, ko'z yoshi qilib ham qo'ymaysan, bular ham odobdan, gaplaring barisi tilingning uchida ekan. Xo'p mayli, men ibodatga kiraman, menga xalal bermanglar.

Varvara. Men ko'chaga chiqaman.

Kabanova. Menganima! Chiqsang chiqaver! O'yna, o'ynaydigan chog'ing. Vaqt kelib uyda o'tirib qolarsan.

Kabanova bilan Varvara chiqadi.

## SAKKIZINCHI SAHNA

Katerina (*yolg'iz, o'ychan*). Mana, uyimiz ham jimjit bo'lib goldi. Endi rosa zerikasan kishi! Hech bo'lmasa, birovlarning bolasi bo'lsa ham mayli edi! Oh! Bolam ham yo'q, bola bo'lganda o'sha bilan ovunar edim. Bolalar bilan so'zlashishni biram yaxshi ko'raman, ular farishtalardek gunohsiz, pok bo'lishadi. (*Jimlik.*) Asli go'dakligimda o'lib ketsam yaxshi bo'lar ekan. Osmonda uchib yurib yerga qarardim, hammasini ko'rib xursand bo'lardim. Qayerga istasam o'sha yerga uchib borar edim. Dalaga uchib chiqardim-u, xuddi kapalaklarday guldan gulga qo'nar edim. (*O'ylanib.*) Va'daga muvofiq birorta ish boshlayman, bozordan surp olib kelaman, kiyim tikaman-u, kambag'al-bechoralarga ulashaman. Ular meni duo qilishadi. Varvara bilan bir ishga o'tiraylikki, vaqt o'tganini ham bilmay qolaylik. Undan keyin, Tisha ham kelib qoladi.

Varvara kiradi.

## TO 'QQIZINCHI SAHNA

Katerina bilan Varvara.

**V a r v a r a** (*oyna oldiga borib ro 'mol o 'raydi*). Endi men o'ynagani chiqaman, Glasha bizga boqqa joy solib qo'yadi, onam ko'ndi. Bog'da malina ko'chati orqasida darcha bor, onam hamavaqt qulflab kalitini o'zi olib yurardi, men kalitni ovoldim, onam bilib qolmasin deb, o'mniga boshqa kalit qo'yib qo'ydum. Ma, balki kerak bo'lib qolar. (*Kalitni beradi*.) Agar ko'rsam, darcha tomondan kel deb aytaman.

**K a t e r i n a** (*cho'chib, kalitni qaytarib*). Bo'limgan gap! Nega! Kerak emas! Kerak emas! Kerak emas!

**V a r v a r a**. Senga kerak bo'lmasa, menga kerak bo'lar, ol, yeb qo'ymaydi seni.

**K a t e r i n a**. Nimalar qilmoqchisan, sen shaddot! Yaxshi emas! O'ylamadingmi? Senga nima bo'ldi o'zi! Senga nima bo'ldi?

**V a r v a r a**. Bas, ko'p gap eshakka yuk, yomon ko'raman valjirashni, vaqtim yo'q. O'ynab qolishim kerak. (*Ketadi*.)

## O 'NINCHI SAHNA

**K a t e r i n a** (*yolg'iz, qo'lida kalit*). Nima qilayapti-a? Nimalarmi o'ylab topayapti? Obbo tentak qiz, ey, chinakam tentak! (*Kalitga qarab*.) Mana shu meni halok qiladi! Mana shu! Buni olislarga, daryo tubiga tashlab yuborish kerakki, hech kim, hech kim buni topolmasin. Xuddi olovday qo'lni kuydiradi-ya. (*O'ylanib*.) Biz sho'rlik xotinqizlar, mana shunday halok bo'lamic. Tutqunlikda kim ham shod yurardi? Xayolingga nimalar ham kelmaydi. Bir-ikki duch kelgan halovat ham boshimizni gangitib qo'yadi, qanday ish qilib bo'ladi-a! Falokatga yo'liqish qiyinmas! Keyin umrbod yig'la-siqta, o'mniga kelmaydi, yana tutqunlikning o'zi ko'zingga to'tiyo bo'lib ko'rindi. (*Jimlik*.) Tutqunlik naqadar azob, naqadar achchiq! Buning dastidan yig'lamagan kim bor? Hammadan ko'proq biz, sho'rlik xotin-qizlar yig'laymiz. Mana men o'zim! Butun umrim azob-uqubatda, yorug'likdan darak yo'q! Hech narsani ko'rmay o'taman! Kundan kunga battar. Yana, buning ustiga, bu gunoh-chi! (*O'ylanib*.) Agar qaynanam bo'limganda! Siqib suvimi ichdi mening... Uning dastidan o'z uyim, hatto devorlar ham ko'zimga allaqanday xunuk bo'lib ko'rindi. (*O'ychan kalitga qaraydi*.) Tashlab yuboraymi buni? Albatta, tash-

lab yuborishim kerak. Qanday qilib bu qo'limga tushib qoldi-a? Meni yo'ldan ozdirib, halok qilmoqchimi?! (*Quloq solib.*) Kimdir kelayapti. Biram yuragim o'ynab ketdiki. (*Kalitni cho 'ntagiga soladi.*) Yo'q!.. Hech kim yo'q!.. Nega bunchalik qo'rqib ketdim! Hatto kalitni ham yashirib qo'yibman... Uning joyi shu yer ekan, mayli, turaversin! Taqdir buni o'zi istaydi, shekilli! Hech bo'lmasa uni olisdan ko'rsam, shu ham gunohmi?! Gaphaelsam nima bo'pti?! Erimga nima deyman-a?.. Axir, o'zi xohlamadi-ku. Balkim, butun umr bo'yi bunday uchrashuvni ko'rmasman. Keyin, fursat keldi-yu, foydalanolmadim, deb boshimni toshga urayki, o'rniga kelmas. Nimalar deyapman, nega o'zimni o'zim aldayapman? Endi o'lsam ham uni ko'rishim kerak. Kimga riyokorlik qilayapman o'zi!.. Kalitni tashlab yuborish kerakmi! O'lsam ham tashlamayman! Bu endi meniki! Nima bo'lsa-bo'lsin, Borisni ko'rishim kerak. Oh, tezroq qorong'i tushsa edi!..





## UCHINCHI PARDА

### BIRINCHI KO'RINISH

Ko'cha. K a b a n o v l a r hovlisining darvozasi, darvoza oldida skameyka.

### BIRINCHI SAHNA

K a b a n o v a bilan F e k l u s h a skameykada o'tirishibdi.

F e k l u s h a . Zamona oxir bo'libdi, xolajon, zamona oxir bo'l-gandan keyin mana shunaqa bo'ladi, Marfa Ignatevna. Hali ham bo'lsa sizlarning shahringiz jannat, osoyishta, boshqa shaharlarni asti qo'yavering. U yerlarda xuddi qiyomat-a, qiyomat, xolajon. To'polon, ola-g'ovur, shovqin-suron! Xalq xuddi bo'zchining mokisidek u yoqdan bu yoqqa chopgani chopgan.

K a b a n o v a . Biz shoshilib nima ham qildik, shoshmasak ham kunimiz o'tadi, aylanay.

F e k l u s h a . Yo'q, xolajon, shahringizning osoyishta, tinch bo'lishiga boshqa sabab bor, sizga o'xshagan yaxshi kishilar ko'p bu yerda, ana o'shalar o'zlarining xudojo'y va saxiyliklari bilan shaharni guldek bezatib turadilar, mana shuning uchun ham butun ish asta-sekin, o'z maromida, tartib bilan olib boriladi. Bu yugurish-chopishlar, xolajon, bilasizmi? Hammasi behuda! Mana, Moskvani oling, odamlar xuddi yel quvganday u yoqdan bu yoqqa chopib yurishadi, nega bunaqaligini o'zлari ham bilishmaydi. Mana shuni aytadi-da, behuda ovoragarchilik deb. Odamlar ham hovliqishib qolgan, Marfa Ignatevna, yugurishgani yugurishgan. Go'yo u biror ishga ketayotganday chopadi, oshiqadi, aslida bechoralar bilmaydiki, bu bir xayol ekanini, keladiki, bo'm-bo'sh, hech narsa yo'q, birgina xayol! Shundan so'ng g'amga botadi. Boshqasi bo'lsa xuddi biror

tanishini quvib borayotganday shoshadi. Chetdan qarab turgan kishi hech kim yo‘qligini darrov payqaydi. U bo‘lsa, olatो‘polonda go‘yo yetib oladigandek oshiqqani oshiqqan. Bu olatо‘polon xuddi tumanaga o‘xshaydi-da, xolajon. Bu yerda bo‘lsa, mana shunaqa ajoyib kechalari, hatto eshik oldiga ham kamdan kam odam chiqib o‘tiradi. Moskvada-chi, hozir ola-g‘ovur, ko‘chalarda odamlar qaynaydi, shovqin-suron. Bilasizmi, Marfa Ignatevna, o‘tli ajdahoni ham aravaga qo‘shadigan bo‘lishibdi, bularning hammasi tez yurish uchun emish.

K a b a n o v a . Eshitdim, aylanay, eshitdim.

F e k l u s h a . Men, xolajon, o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim, boshqalar hovliqib qolib hech narsani ko‘rismaydi, ularning ko‘ziga mashina bo‘lib ko‘rinadi, ular unga «mashina» deb nom qo‘yishibdi, men uning panjalarini mana bunday (*panjalarini kerib*) qilganini ko‘rdim. Lekin uni o‘tli nafas olganini faqat xudojo‘y odamlargina payqaydi, xolos

K a b a n o v a . Har qanaqa nom qo‘yish mumkin, mashina desa ham bo‘ladi; ovom xalq hammasiga ishonaveradi. Ammo, mening us-timdan zar to‘ksang ham unga tushmayman.

F e k l u s h a . Nega kerak ekan-a, xola! Bunday balolardan o‘zing saqla xudoym! Yana bundan boshqa, xolajon, Moskvada ancha narsalarni ko‘rdim. Bir kun ertalab g‘ira-shirada ketib borar edim, qarasam, baland bir uyning tomida yuzlari qop-qora kimdir turibdi. Kimligini o‘zingiz bilasiz. U, go‘yo allanarsalarni sochayotganday, qo‘llarini qimirlatadi-yu, haqiqatda esa hech narsani sochmaydi. Keyin bunday o‘ylab qarasam, u yomonlik urug‘ini sepayapti, xalq farqiga bormay o‘tib ketayapti. Mana shuning uchun ham ular yugurishgani yugurishgan, shuning uchun ham xotinlarning hammasi ozg‘in, eti borib suyaklariga yopishgan, xuddi ular biror narsasini yo‘qtoganday, go‘yo biror narsasini izlayotgandek hovliqishadi, o‘zlari g‘amgin, kishining rahmi keladi ularga.

K a b a n o v a . Ajablanarli hech yeri yo‘q, bizning zamonamizda hammasi ham bo‘lishi mumkin!

F e k l u s h a . Oxir zamonlar kelayapti, Marfa Ignatevna, g‘alati zamonlar bo‘layapti. Odamlar bir-birini hurmat qilmay qo‘yishdi.

K a b a n o v a . Nega hurmat qilmas ekan?

F e k l u s h a . Albatta, bu olatо‘polonda, siz bilan biz sezmaymiz! Aqli, dono odamlar, hatto vaqtning qisqarib borayotganini ham

sezishadi. Yoz bilan qish biram cho‘zillardiki, qachon tugarkin, deb xunob bo‘larding kishi, endi bo‘lsa, o‘tib ketganini ham sezmaysan. Oy-kunlar hamon o‘sha-ku, axir, lekin, gunohlarimizning ko‘pligidan kundan kunga qisqaryapti. Aqlii kishilar mana shunaqa deyishyapti.

K a b a n o v a . Bundan ham battar bo‘ladi, aylanay, bundan ham battar.

F e k l u s h a . O‘sha kunlarni ko‘rsatmagin ilohim!

K a b a n o v a . Balkim ko‘rarmiz ham.

D i k o y kiradi.

## I K K I N C H I S A H N A

Avvalgilar va D i k o y .

K a b a n o v a . Qo‘shni, nega bemahalda sanqib yuribsan?

D i k o y . Kim man qilardi menga?

K a b a n o v a . «Kim man qilardi?» Kimga kerak?

D i k o y . Unday bo‘lsa, gapning ham hojati yo‘q. Yo mening biron xojayinim bormi? Senga kim qo‘yibdi meni tergashni, yalmog‘iz!..

K a b a n o v a . Sen ko‘p karillab kekirtagingni cho‘zaverma! So‘-kadigan odamingni topib so‘k, ha, menga tishing o‘tmaydi. Qayerdan kelgan bo‘lsang, o‘sha yoqqa bor, jo‘na! Yur, Feklusha, uyga kiramiz. (Turadi.)

D i k o y . To‘xta, qo‘shni, to‘xta! Achchig‘ing kelmasin. Uyingga ham kirarsan. Ana uying, qochib ketgani yo‘q.

K a b a n o v a . Agar ish bilan kelgan bo‘lsang, ko‘p o‘kirma, tuzukroq gapir.

D i k o y . Ish-pish yo‘q, mastman, bildingmi!

K a b a n o v a . Bu qilig‘ing uchun, yo seni maqtaylikmi?

D i k o y . Maqtamayam, so‘kmayam. Mast bo‘ldimmi, ish tamom. To uxlamagunimcha kayfim tarqamaydi.

K a b a n o v a . Unday bo‘lsa, bor, uxla!

D i k o y . Qayoqqa boraman!

K a b a n o v a . Uyingga. Bo‘lmasa qayoqqa borarding!

D i k o y . Uyga borishni istamasamchi?

K a b a n o v a . Nega endi, xo‘sh?

D i k o y . Uyimda urish bo‘layapti.

Kabanova. Kim urishayapti? Sendan bo'lak ham urishadigan bormi o'zi?

Dikoy. Urishqoq bo'lsam nima bo'pti? Nima bo'pti-a?

Kabanova. Nima bo'lardi? Hech nima. Umring xotinlar bilan urishib o'tadi, xo'sh, nima obro' orttirding. Qani?

Dikoy. Xotinlar menga itoat qilishi kerak. Men ularga itoat qilib bo'pman!

Kabanova. Anchadan beri hayronman senga, uyingda shuncha odamlar turib, bittasi ham ko'nglingni ko'tarisholmaydi.

Dikoy. Agar sen bo'lganiningda!

Kabanova. Xo'sh, mendan nima istaysan?

Dikoy. Yaxshi so'zlar bilan ko'nglimni ko'tar. Butun shaharda sendan bo'lak hech kim ko'nglimni ololmaydi.

Kabanova. Bor, Feklusha, ayt biror ovqat tayyorlashsin.

Feklusha ichkariga kiradi.

Yur, uygakiraylik!

Dikoy. Yo'q, uygakirmayman, uygakirsam battar bo'laman.

Kabanova. Nima deb seni xafa qilishdi?

Dikoy. Sahar mardonlab-a!

Kabanova. Balkim pul so'rashgandir.

Dikoy. La'natilar, xuddi maslahatlashgandek kuni bo'yi biri qo'yib, biri qistab keladi.

Kabanova. Qistashgan bo'lishsa kerakdir-da.

Dikoy. Tushunamanku-ya, axir fe'lim shunaqa bo'lsa, nima qilay, berish kerakligini bilib turibman. Ammo yaxshilik bilan berolmayman. Do'stim bo'lsa ham qistab kelsa, so'kib solaman. Berishgaku, beraman-a, ammo janjalsiz bermayman. Pul to'g'risida og'iz ochdingmi, yurak-bag'rimga o't tushadi, faqat ichim yonadi, shundan so'ng bekordan bekorga odamlarni so'kaman.

Kabanova. Tergaydiganing yo'q-da, shuning uchun ham hovliqasan.

Dikoy. Yo'q, qo'shni, unday emas! Sen qulq sol menga! Bir vaqt mana shunaqa voqeа ham bo'lgan edi. Bir mahal, ro'za kunlari xudo deb tavba-tazarru qilib yurgan kezlarim edi, qayerdan ham bir qalang'i kelib qolsa bo'ladimi, o'tin olib kelib bergen edi, pulini qistab kelibdi. Qayerdan keldi, bachchag'ar, rosa gunohga qoldim-da! Shu qadar gunohga qoldimki, toza so'kdim, og'zimga kelganini bo'g'zimga

yutmadir, oz bo'lsa urib anjir qilib tashlardim. Fe'llim qursin, mana shunaqa! Keyin uzr so'radim, tiz cho'kib afv so'radim, rost! To'g'ri aytyapman, haligi kishining oyog'iga yiqildim. Yuragim shunaqa bo'sh, hovlining o'zida, hammaning ko'z oldida loyga yiqilib, undan afv so'radim.

K a b a n o v a . Nega jo'rttaga qilasan? Yaxshi emas, qo'shni.

D i k o y . Nega jo'rttaga bo'lsin?

K a b a n o v a . Ko'rganman, bilaman. Ko'rasanki, sendan biror narsa so'rashmoqchi, darrov oldini olib, jo'rttaga o'z odamlaringdan birontasiga osilasan, keyin jahling chiqadi-yu, senga hech kim yaqin kelmaydi. Mana shunaqa qo'shni.

D i k o y . Xo'sh, nima bo'pti? Kim o'z moliga achinmaydi!

G l a s h a kiradi.

G l a s h a . Marfa Ignatevna, ovqat tayyor, marhamat qilinglar!

K a b a n o v a . Qani, qo'shni, kiraylik! Nasibangni yeb chiq!

D i k o y . Xo'p.

K a b a n o v a . Marhamat! (*Dikoyni oldinga o'tkazib, ichkari kirib ketadi.*)

G l a s h a qo'llarini qovushtirib eshik oldida turadi.

G l a s h a . Boris Grigorevich kelayapti deyman. Amakisini istab yurgandir? Yo o'zi aylanib yuribdimikin? O'zi shunday tomosha qilib yurgan bo'lsa kerak.

B o r i s kiradi.

## UCHINCHI SAHNA

G l a s h a , B o r i s , keyin K u l i g i n .

B o r i s . Amakim sizlarnikidami?

G l a s h a . Biznikida. Nima qilarding?

B o r i s . Uydagilar qayerda ekan, bilib kel, deb yuborishdi. Sizlarnikida bo'lsa, o'tiraversin, kimga ham kerak u, ketganiga uydagilar ham xursand.

G l a s h a . Agar bizning beka uning xotini bo'lgandami, uni jilovlab olardi. Men ahmoq, bu yerda sen bilan nima qilib turibman-a. Xayr. (*Ketadi.*)

B o r i s . Yo rabbim! Hech bo'lmasa, ko'z qiri bilan bo'lsa ham uni bir ko'rsam edi! Uyiga kirish mumkin emas, chaqirmagan yerga

kirib bo‘lmaydi, bu yerda. Shu ham hayot bo‘ldi-yu! Bir shaharda, hatto bir mahallada turamiz-u, bir haftada zo‘rg‘a bir marta uchrashamiz, bu ham bo‘lsa yo cherkovda, yo bo‘lmasa yo‘lda. Bu yerda erga tegish – qora yerga kirish bilan baravar. (*Jimlik.*) Asli uni hech ham ko‘rmaganimda yaxshi bo‘lardi. Goho ko‘rib qolasan-u, shunda ham go‘yo hamma senga tikilib turganday bo‘ladi. Faqat yuraging eziladi, xolos. Hatto, o‘z-o‘zing bilan murosa qilomaysan kishi. Aylanga-ni chiqsang, qanday qilib shu eshik oldiga kelib qolganingni ham bil-maysan. Nega bu yerga keldim-a? Uni ko‘rishning hech iloji yo‘q-ku, yana gap-so‘z bo‘lib, bechorani baloga qo‘ymay, xo‘b shaharga kelgan ekanman-da! (*Ketmoqchi bo‘ladi, shu vaqt qarshisidan Kuligin kiradi.*)

**Kuligin.** Xo‘s, taqsir, aylanib yuribsizmi?

**Boris.** Ha, aylanib yuribman, bugun havo juda yaxshi-da.

**Kuligin.** Shunaqa paytda aylanib yurish yaxshi-da, taqsir. Jim-jit, havo toza. Volganing naryog‘idagi o‘tloqlardan gul hidlari anqib turibdi, osmon tiniq...

*Cheksiz ko‘kda to‘lib-toshgan yulduzlar,  
Sanoqsiz yulduzlar – chaqnagan ko‘zlar.*

Yuring, taqsir, boqqa boraylik, u yerda hech kim yo‘q.

**Boris.** Yuring!

**Kuligin.** Taqsir, shaharimiz mana shunaqa! Bog‘ qilishdi-yu, sayr qilishmaydi. Faqat bayram kunlari aylanishadi, qayerda aylanishadi deysiz, yangi kiyimlarini ko‘z-ko‘z qilgani chiqishadi. Mayxonadan chiqib kelayotgan piyanista mirshabdan bo‘lak hech kimni uchratmaysiz. Kambag‘al-bechoralarga sayr qilib yurishga yo‘l bo‘lsin, ular kecha-yu kunduz ish bilan ovora. U bechoralar sutkasiga uch soatgina uplashadi, xolos. Boylar nima qilishadi deng? Ular aylanishni yo toza havo olishni istamaydilarmi? Unday emas. Ular eshiklarini allaqachon taqa-taq zanjirlashgan, itlarini ham qo‘yib yuborishgan... Siz ularni biror ish bilan yoki toat-ibodat bilan mashg‘ul deb o‘ylarsiz? Yo‘q, taqsir. Ular eshiklarini o‘g‘ridan qo‘rqanlaridan ham berkitishmaydi, yo‘q, ular uy ichlarining siqib suvini ichganlarini, odamlarning tiriklay xarob etganlarini boshqalar ko‘rib qolmasin uchun yashirinishadi. Mana shu darvozalar orqasida ne-ne yoshlar to‘kiladi! Bularning sizga aytib o‘tirishning ham hojati yo‘q, taqsir! Hammasi o‘zingizga ma’lum. Bu darvozalar orqasida iflos buzg‘unchiliklar to‘lib-toshib yotibdi! Hech

kim, hech narsa bilmaydi, yopiqlik qozon yopiqligicha qolaveradi – faqat birgina xudoning o‘ziga ayon! «Sen meni el ko‘zida, ko‘chada izzat qil, mening uy ichim bilan ishing bo‘lmasin, buning uchun mening qulfiim bor, dambam bor, qora itim bor. Oila – bu maxfiy, yashirin narsa!» deydi. Bilamiz qanaqa maxfiy gaplar bo‘lishini! Bu maxfiy ishlardan, taqsir, faqat uning o‘zигина xursand: qolganlar-chi, qolganlar o‘limiga rozi. Shu ham sir bo‘ldi-yu? Kim bilmaydi bu sirlarni deysiz! Qarindosh-urug’, jiyan, yetim-yesirlarni rosa tashadi, keyin uydagilarni chunon boplab savalashadiki, bechoralar bu haqda g‘ing deyishmaydi. Mana ularning maxfiy sirlari. Padariga ming la’nat o’shalarni! Bilasizmi, taqsir, shahrimizda kimlar aylangani chiqadi? O‘spirinlar bilan yosh qizlar. Ular o‘z uyqularini harom qilib, uyqulari hisobiga juft-juft bo‘lib aylanishadi. Ana bir jufti kelyapti.

Kudryash bilan Varvara ko‘rinadi. Ular o‘pishadi.

Boris. Bunaqa ishlardan kamchiligimiz yo‘q.

Kudryash ketadi. Varvara o‘z darvozasi oldiga borib Borisni imlab chaqiradi.  
Boris unga yaqinlashadi.

### TO‘RTINCHI SAHNA

Boris, Kuligin va Varvara.

Kuligin. Men, taqsir, boqqa ketdim. Sizga xalaqt berib nima qildim? O‘sha yerda kutib turaman.

Boris. Xo‘p, men hozir boraman.

Kuligin ketadi.

Varvara (*ro‘moliga burkanib*). Kabanovlar bog‘i orqasidagi jarlikni ko‘rganmisan?

Boris. Ko‘rganman.

Varvara. Kechqurun o‘sha yerga kel.

Boris. Nega?

Varvara. Jinnimisan! Kelaver, keyin bilasan negaligini. Xo‘p, tezroq bor, seni kutib turadi.

Boris ketadi.

Kim bilan uchrashishini bilmadi! Mayli, biroz boshi qotsin. Yaxshi bilamanki, Katerina chidolmay chopib chiqadi. (*Darvozaga kirib ketadi.*)

## IKKINCHI KO 'RINISH

Tun. Butalar qoplagan jarlik; balandda Kabanovlar bog'ining devori; devorda darcha, yuqorida so'qmoq yo'l.

### BIRINCHI SAHNA

Kudryash (*qo'lida gitara bilan kiradi*). Hech kim yo'q. Nima bo'ldi-a! Hay, kutib turay-chi. (*Toshga o'tiradi*.) Zerikib o'tirgandan ko'ra, ashula aytib turay. (*Kuylaydi*.)

*Donlik kazak otini sug'orishga opketti,  
Marhamatli qahramon darvozaga tez etti,  
Eshik yonida turib, boshladi o'y surishga,  
Yo'l izladi: xotinin azoblab o'ldirishga.  
Xotin bo'lsa eriga yolvordi-yu, yosh to'kdi,  
Ta'zim qilib shu zamon huzurida tiz cho'kdi:  
Sen-ku, axir qalbimdan sevgan suyukli jonio!  
Qo'y qiynama, o'ldirma, oqshomda to'kib qonim!  
Sen urgin va o'ldirgin meni yarim kechada!  
Qo'y uxlasin tinchib mening yosh bolalarim,  
Murg'akkina bolalar, barcha hamsoyalarim.*

Boris kiradi.

### IKKINCHI SAHNA

Kudryash bilan Boris.

Kudryash (*qo'shig'ini to'xtatib*). Obbo sen-ey! Yovvosh deb yursak, sen ham ish ko'rsatadiganga o'xshaysan.

Boris. Senmisan, Kudryash?

Kudryash. Men, Boris Grigorich!

Boris. Sen bu yerda nima qilib turibsan?

Kudryash. Menmi? Kerakdirki, turgandirman, Boris Grigorich, bo'lmasa kelarmidim. O'zingizga yo'l bo'lsin?

Boris (*atrofni ko'zdan kechirib*). Bilasanmi, Kudryash, men shu yerda turishim kerak, sen boshqa joyga borib tursang ham bo'lar deyman.

Kudryash. Yo'q, Boris Grigorich, sizni bu yerda birinchi marta ko'rib turibman, bu yer mening o'z joyim bo'lib qolgan, mana bu so'qmoqni ham o'zim ochganman. Taqsir, men sizni yaxshi ko'raman va sizning har qanday xizmatingizga tayyorman, ammo bu yo'lida

kechasi menga yo'liqa ko'rmang, xudo saqlasin, yana biror falokat yuz bermasin. Va'daga vafo kerak, ha.

Boris. Senga nima bo'ldi, Vanya?

Kudryash. Ha, nima, Vanya, Vanya emish! Bilaman Vanya-ligimni. Siz o'z yo'lingizdan qolmang, vassalom. Bittasi bilan va'dalashdingmi, o'sha bilan bo'l, sen bilan hech kimning ishi ham bo'lmaydi. Ammo boshqalarga ko'z olaytirma! Bunga bu yerda yo'l qo'yishmaydi, yigitlar oyog'ingni sindirib qo'yishadi. Men o'zimniki uchun... Ha-da, agar menikiga ilashadigan bo'lsang, naq kekirdagingni uzib olaman!

Boris. Bekorga achchig'ing kelayapti, sevganiningi yo'ldan urish xayolimga ham kelgani yo'q. Agar meni chaqirishmaganda, bu yerga kelmasdim ham.

Kudryash. Kim chaqirdi?

Boris. Qorong'i edi, yaxshi ajratolmadim. Bir qiz meni ko'chada to'xtatib, shu yerga – Kabanovlar bog'inining orqasidagi so'qmoqqa kel, deb tayinlagan edi.

Kudryash. Kim bo'ldi ekan?

Boris. Menga qara, Kudryash. Senga ishonsa bo'ladimi, og'zing bo'sh emasmi?!

Kudryash. Aytavering, qo'rwmang! Og'zim mahkam.

Boris. Men sizlarning urf-odat, tartiblariningizni bilmayman, men senga aytSAM, gap...

Kudryash. Yo, birontasini yaxshi ko'rib qoldingizmi?

Boris. Ha, Kudryash!

Kudryash. Nima bo'pti, yomon emas. Bu haqda bizda erkinlnk bor. Qizlar ham xohlaganlaricha o'ynab yuraveradi, ota-onalarining ishi ham bo'lmaydi. Faqat erlik xotinlargina ichkaridan chiqishmaydi.

Boris. Toza sho'rim qurir ekan-da, bo'lmasa.

Kudryash. Nahotki erlik xotinni yaxshi ko'rib qolgan bo'lsangiz?

Boris. Erlik xotinni, Kudryash.

Kudryash. Eh, Boris Grigorich, bu yo'ldan qaytish kerak.

Boris. Aytishga oson! Balkim senga baribirdir, biridan aynib ikkinchisini toparsan. Men bunday qilolmayman! Men yaxshi ko'rdimmi...

Kudryash. Axir siz uni butunlay halok qilasiz-ku, Boris Grigorich.

Boris. Xudo saqlasin! O'z panohingda asra meni xudoyim! Yo'q,

Kudryash, bu mumkin emas. Nahotki, men uning halok bo'lishini istasam! Qayerda bo'lsa ham, uni bir ko'rsam bas, boshqa hech narsa kerak emas menga.

K u d r y a s h . Kishi o'ziga qanday qilib ishonoladi, taqsir! Bu yerdagi odamlarning qanaqaligini o'zingiz bilasiz! Tiriklay g'ajib, tiriklay go'rga tiqishadi.

B o r i s . Oh, gapirma Kudryash, gapirma, bas, meni qo'rqtma!

K u d r y a s h . U sizni yaxshi ko'radimi?

B o r i s . Bilmayman.

K u d r y a s h . Biror marta bo'lsa ham ko'rishganmisiz?

B o r i s . Bir marta amakim bilan uylariga borgandim. Ibodatxonada va bog'da ko'rib turaman. Oh, Kudryash, qanday ibodatlar qiladi, bir ko'rsang edi! Yuzlaridagi pok malaklar kulgisi go'yo quyoshdek nur sochadi.

K u d r y a s h . Tag'in Kabanovlarning yosh kelini bo'lmasin-a?

B o r i s . Xuddi o'shaning o'zi, Kudryash!

K u d r y a s h . Shunaqa deng? Bo'lmasa tabrikasak bo'lar ekan-da!

B o r i s . Nima bilan?

K u d r y a s h . Nima bilan bo'lardi! Demak, sizni bu yerga chiqiribdimi, ishingiz joyida ekan.

B o r i s . Nahotki o'sha chaqirgan bo'lsa?

K u d r y a s h . Bo'lmasa kim bo'lardi?

B o r i s . Yo'q, sen hazillashayapsan! Bu mumkin emas! (*Boshini changallaydi*.)

K u d r y a s h . Sizga nima bo'ldi?

B o r i s . Xursandlikdan shoshib qoldim.

K u d r y a s h . Ana xolos! Rosa bo'lgan ekan-ku! Ehtiyot bo'ling – yana o'zingizga balo orttirib olmang, bechorani ham baloga qo'y mang! Uning eri ahmoq odam bo'lsa ham, ammo qaynanasidan hazir bo'ling.

Darchani ochib V a r v a r a chiqadi.

## UCHINCHI SAHNA

Avvalgilar, V a r v a r a keyin Katerina chiqadi.

V a r v a r a (*darcha oldida kuylaydi*).

*Shovqin daryo naryog 'ida*

*Vanyajon o'ynar,*

*Vanyajonim o'ynab yurib...*

K u d r y a s h (*davom ettirib*). Mol sotib olar.

V a r v a r a (*so'qmoq yo'ldan tushib keladi va ro'moli bilan yuzini to'sib, Boris oldiga boradi*). Sen, yigit, shu yerda kutib tur. Birovni kutib olasan. (*Kudryashga*) Yur, Volgaga tushamiz.

K u d r y a s h . Nega buncha hayallading? Hadeb kutaveramanmi?! O'zing bilasan, kutishni yomon ko'raman!

V a r v a r a bir qo'lini uning bo'yniga tashlaydi, keyin ikkalasi chiqib ketishadi.

B o r i s . Xuddi tush ko'rayotganga o'xshayman! Bu kecha ashulalar, uchrashuvlar kechasi! Ularning quchoqlashib yurishlari men uchun yangilik, xursandlik, xolos! Mana men ham nimanidir kutayapman! Nimani kutayotganimni o'zim ham bilmayman, xayolimga ham keltirolmayman, faqat yuragim o'ynayapti, iliklarim titrab ketayapti. Unga nima deyishimni ham bilmayman, nafasim bo'g'ilib, tizzalrim bukilib ketayapti! Yuragim bir o'ynamasin, keyin sira tinchitib bo'lmaydi. Ana, o'zi ham kelayapti.

Katerina oq shol ro'molga o'ranib, yerga qaraganicha, so'qmoq yo'ldan ohista tushib keladi.

B u s i z m i s i z , Katerina Petrovna?

Jimlik.

Sizga o'z minnatdorligimni qanday izhor qilishimni ham bilmayman.

Jimlik.

Men sizni naqadar yaxshi ko'raman, Katerina Petrovna! (*Qo'lini ushlar moqchi bo'ladi*)

K a t e r i n a (*cho'chib, ammo ko'zini yerdan uzmay*). Tegma, tegma menga! Oh, oh!

B o r i s . Achchig'lammang!

K a t e r i n a . Menga tegma! Menga yaqinlashma, ket! Bilasanmi, bu gunohimni men hech qachon, hech qachon yuvolmayman! Yuragimda toshdek tugun bo'lib qoladi.

B o r i s . Meni haydamang!

K a t e r i n a . Nega kelding? Nega kelding, meni halok qilish uchunmi? Axir mening erim bor-ku, o'la-o'lgunimcha erim bilan bo'lishim kerak...

B o r i s . O'zingiz chaqiripsiz-ku...

Katerina. Qulq sol menga, sen mening dushmanimmisan?!  
Aytidim-ku, o'la-o'lgunimcha deb!

Boris. Yaxshisi, sizni ko'rmasam bo'larkan!

Katerina (*hayajon bilan*). Men baloni o'zimga o'zim tilab olayapman. Mening joyim qayerda ekanini bilasanmi?

Boris. Tinchaning! (*Qo'lidan ushlab.*) O'tiring.

Katerina. Nega mening o'limimni istaysan?

Boris. Dunyoda birdan bir sizni sevsam-u, nahotki sizning o'limingizni istasam?

Katerina. Bas, bas endi! Boshimga yetding!

Boris. Men shunaqa yomon odammi?

Katerina (*boshini chayqab*). Yeding, halok qilding, o'ldirding!

Boris. Xudo saqlasin! Bundan ko'ra, o'zim halok bo'lganim yaxshi emasmi!

Katerina. Yarim kechada uyimni tashlab, sening oldingga chiqishim, bu halok qilganing emasmi!

Boris. Bu sizning ixtiyorингиз bilan bo'ldi-ku.

Katerina. Menda ixtiyor nima qilsin! Agar ixtiyorim o'zimda bo'lganda edi, sening oldingga chiqarmidim! (*Ko'zlarini yerdan olib Borisga qaraydi. Biroz jimlik cho'kadi.*) Endi mening ixtiyorim senda, tushunayapsanmi! (*Uning bo'yniga osiladi.*)

Boris (*Katerinani quchib*). Jonim!

Katerina. Bilasanmi, negadir shu topda birdan o'lishni istab qoldim!

Boris. Endi yaxshi yashamoqchi bo'lganimizda, nega o'lmoq kerak?

Katerina. Yo'q, mening hayotim tamom bo'ldi! Men endi ortiq yashamayman!

Boris. Bas, gapirma bu gaplaringni, yuragimni ezma...

Katerina. Senga oson, ixtiyor o'zingda, men-chi?!

Boris. Bizning sevishganimizni hech kim sezmaydi. Nahotki, senga mening rahmim kelmasa!

Katerina. Oh, nega rahming kelsin menga, hech kimda ayb yo'q, men o'z ixtiyorim bilan keldim. Rahm qilma, yo'q, yaxshisi meni halok et! Mayli, meniig bu sharmandaligimdan hamma ogoh bo'lsin, mayli! (*Borisni quchoqlaydi.*) Seni deb gunohdan qo'rqmaganimdan keyin, nega odamlarning ta'na-yu dashnomlaridan qo'rqay? Bu dunyoda dakki-yu dashnomlarga chidasang, oxiratda gunohlaring yengil bo'ladi deydilar.

Boris. Shunday saodatli damda bularni o'ylashning nima hojati bor!

Katerina. To'g'ri aytasan! Hali o'ylashga ham, yig'lashga ham fursat topiladi.

Boris. Meni haydar yuborasan deb qo'rqqan edim.

Katerina (*kulib*). Haydash! Mana shu yuragim bilan haydash qo'limdan kelarmikin! Agar sen kelmaganingda oldingga o'zim borar edim.

Boris. Men bu qadar sevishingni bilmas edim.

Katerina. Seni ko'pdan beri sevaman. Biznikiga kirganing boshimga balo bo'ldi. Seni ko'rdim-u, o'zimni bilmay qoldim. Agar ana o'shandayoq meni chaqirganingda, balkim ergashib ketar edim, dunyoning narigi burchagiga borsang ham, sen bilan ketar edim.

Boris. Ering ko'pga ketdими?

Katerina. Ikki haftaga.

Boris. O, unday bo'lsa rosa o'ynaymiz! Vaqt ko'p hali.

Katerina. O'ynaymiz. Undan keyin... (*O'ylanib*) Darchaga qulf soladilar. Ana unda mening o'lGANIM yaxshi! Mabodo qulf solmasalar, vaqt topib sen bilan uchrashib turarman!

Kudryash bilan Varvara kiradi.

## TO'R TINCHI SAHNA

Avvalgilar, Kudryash bilan Varvara.

Varvara. Qalay, murosaga keldilaringmi?

Katerina yuzini Borisning ko'kragiga yashiradi.

Boris. Ha.

Varvara. Bir aylanib kelsalaring bo'lardi, biz kutib turamiz. Kerak bo'lsa Vanya chaqiradi.

Boris bilan Katerina ketishadi. Kudryash bilan Varvara toshga o'tiradi.

Kudryash. Darchadan chiqishni zap topibsizlar-da. Bizdaqalar uchun juda qulay-da.

Varvara. Hammasini o'zim o'ylab topdim.

Kudryash. Sen qiz tushmagur, bo'sh kelmaysan. Onang bilib qolsa nima bo'ladi?

Varvara. Bilib bo'pti! Aqli bo'lsa biladi-da.

K u d r y a s h . Bordi-yu, falokat bosib bilib qolsa-chi?

V a r v a r a . Biram uyqusi qattiqki, to'p otib ham uyg'otolmaysan.  
Ertalabgacha dong qotib uxlaydi.

K u d r y a s h . Kim biladi, qo'qqis uyg'onib qolsa-chi?

V a r v a r a . Uyg'onsa nima qipti! Darchani bog' tomondan zanjir-lab qo'yanmiz, taqillatib-taqillatib ketaveradi. Uxlab qolibmiz, eshit-mabmiz deymiz. Ha, bundan tashqari, Glasha ham ko'z-quloq bo'lib turibdi; biror narsa bo'lsa Glasha xabar qiladi. Ehtiyot bo'lish kerak, xolos! Bo'lmasa, biror falokat bo'lsa baloga qolarmiz.

Kudryash gitarani bir necha bor chertib qo'yadi.

V a r v a r a K u d r y a s h n i n g yelkasiga boshini qo'yadi,  
u bo'lsa parvo qilmay ohista gitarani chertadi.

V a r v a r a (*esnab*). Soat necha bo'ldi ekan, bilish kerak edi.

K u d r y a s h . O'n ikkidan oshdi.

V a r v a r a . Qayerdan bilasan?

K u d r y a s h . Qorovul shaqildog'ini chaldi.

V a r v a r a (*esnab*). Ketaylik. Chaqir. Ertaga ertaroq chiqamiz, ko'proq o'tiramiz.

K u d r y a s h (*oldin hushtak chaladi, keyin baland ovoz bilan kuylaydi*).

*Hamma uyiga ketar,  
Men ketishni istamayman.*

B o r i s (*sahna ortidan*). Eshitdim!

V a r v a r a (*o'rnidan turib*). Xayr bo'lmasa! (*Esnaydi, keyin go'yo ko'pdan tanish odamday sovuqqina o'padi*). Ertaga sal ertaroq kelinglar. (*Boris bilan Katerina ketgan tomonga qaraydi*.) Bas, ko'p uzoq xayr-lashmanglar, ertaga ham kun bor. (*Esnaydi, kerishadi*.)

Oldin K a t e r i n a , orqasidan B o r i s kiradi.

## B E S H I N C H I S A H N A

Kudryash, Varvara, Boris va Katerina.

K a t e r i n a (*Varvaraga*). Yur, ketdik! (*So'qmoq yo'ldan ketishadi. Katerina orqasiga burilib*.) Xayr.

B o r i s . Ertagacha!

Katerina. Ertagacha xayr! Ko'rgan tushingni aytib berarsan!  
(*Darchaga boradi*.)

Boris. Albatta.

Kudryash (*gitara bilan kuylaydi*).

*Yoshligingda o'ynab qol,  
Shomgacha, to tonggacha!  
Hay-hay, uka, o'ynab qol,  
Shomgacha, to tonggacha:*

Varvara (*darcha oldida*).

*Hali yoshman o'ynayman,  
Quyosh chiqqunga qadar.  
Han-hay rosa o'ynayman  
Quyosh chiqqunga qadar.*

Kudryash.

*Tonggacha men o'ynadim,  
Keyin uyga jo'nadim...*





## TO‘RTINCHI PARDА

Birinchi planda buzila boshlagan gumbazli qadimiy binoning tor gallereyasi – yo‘lagi; u yer-bu yerda ko‘kat va daraxtlar, ark orqasidan qirg‘oq hamda Volga manzarasi ko‘rinib turadi.

### BIRINCHI SAHNA

Aylanib yurgan bir necha erkaklar bilan ayollar ark orqasidan o‘tishadi.

**Birinchi.** Yomg‘ir tomchilayapti, momaqaldiroq bo‘lmasa go‘rga edi.

**Ikkinchи.** Qara, bo‘ladi...

**Birinchi.** Yaxshiki, qochishga joy bor.

Hammasi gumbaz ostiga o‘tishadi.

**A y o l.** Bog‘da biram odam ko‘p. Bayram-da, hamma chiqqan! Boylarning xotinini aytmaysanmi, rosa yasanishibdi.

**Birinchi.** Hozir ular ham qochgani joy topolmay qoladi.

**Ikkinchи.** Ko‘rasan, hamma shu yoqqa keladi!

**Birinchi** (*devorlarni ko‘zdan kechirib*). Og‘ayni deyman, bir vaqtlar bu joylar juda naqshinkor bo‘lgan-da. Hozir ham oz-moz izi bor.

**Ikkinchи.** Bo‘lmasam-chi! Juda naqshinkor edi. Endi bo‘lsa bo‘m-bo‘sh, xarobaga aylangan, ko‘kat bosib ketibdi. Yong‘indan keyin tuzatishmadi. Sen yong‘in bo‘lganini bilmaysan, bunga rosa qirq yilcha bo‘ldi.

**Birinchi.** Bu yerda nimaning rasmi bor edi-a, og‘ayni? Bilinmay ketibdi.

**Ikkinchи.** Og‘zidan o‘t sochib turgan ajdahoning rasmi bor edi.

**Birinchi.** Shunaqa degin, og‘ayni!

**Ikkinchи.** Bu yerga turli-tuman odamlar kelishadi.

Birinchi. Endi tushundim.

Ikkinchi. Har xil mansabdag'i odamlar.

Birinchi. Zanjiylar hammi?

Ikkinchi. Zanjiylar ham.

Birinchi. Bu nima bo'ldi-a, og'ayni?

Ikkinchi. Bu Litvaning tor-mor qilinishi. Urush! Ko'r-mayapsanmi? Biznikilar bilan litvaliklar o'tasida bo'lgan jangning surati.

Birinchi. Litvang nimasi?

Ikkinchi. Litva – Litva-da.

Birinchi. Bu Litva, og'ayni, osmondan tushgan balo deyishadi, rostmi.

Ikkinchi. Osmondan tushganmi, yo'qmi, bunisini aytolmayman.

A y o l . Shunaqa! Osmondan tushganini hamma biladi, ularga qarshi qayerda jang bo'lgan bo'lsa, o'sha yerga yodgorlik uchun tepaliklar qurilgan.

Birinchi. Shunaqa, og'ayni! Bu juda to'g'ri.

Dikoy va uning orqasidan Kulig'in shapkasiz kiradi.

Hamma ta'zim qiladi va ehtirom ko'rsatadi.

## IKKINCHI SAHNA

Avvalgilar, Dikoy bilan Kulig'in.

Dikoy. Obbo la'nat-ey, toza ivitib yuboribdi-ku. (*Kuliginga.*) Yo'qol ko'zimdan! Yo'qol! (*G'azab bilan.*) Ahmoq!

Kulig'in. Savel Prokofich janoblari, axir bundan butun xalq uchun foyda bor-da.

Dikoy. Yo'qol deyman! Qanaqa foyda! Kimga kerak bu foydang?

Kulig'in. Hech bo'lmasa o'zingizga foydasi bor, Savel Prokofich janoblari. Mana, taqsir, bog'ning bahavo joyiga o'rnatilsa yaxshi bo'lardi. Qancha chiqim bo'lardi deysiz? Hech qancha ham chiqim bo'lmaydi: tosh ustun (*har bir aytgan narsasini qo'li bilan ko'rsatib gapiradi*), mana shunchagina yumaloq mis taxta-yu mana shunchagina to'g'ri, juda oddiy temir bo'lsa bas. (*Qo'li bilan ko'rsatadi.*) Hammasini o'zim boplayman, raqamlarini ham o'zim yozaman. Keyin, janobingizning o'zлari, yo bo'lmasa boshqa aylanib yurgan kishilar bunday kelib qarashadi-yu, soat nechaligini bilishadi-da. Shunday bahavo,

go'zal bir joy bo'sh turadimi? Bundan tashqari, janoblari, o'tkinchilar ham bo'lib turadi, ana o'shalar ham bunday tomosha qilishadi, har holda, el ko'zida yomon bo'lmaydi-da.

Dikoy. Bunaqa bo'limg'ur, bemaza gaplaring bilan g'ashimga tegma! Ehtimol, sen bilan gaplashishni istamasman. Sen ahmoq avval bilishing kerak edi, gaplaringga qulq solamanmi, yo'qmi? Men sening tengingmi?! Topgan gapini qarang-u! Kishini hol-joniga qo'ymaydi-ya!

Kuligin. Agar oldingizga o'z manfaatimni ko'zlab kelganimda edi, unda ayb menda bo'lardi. Axir men, janoblari, xalq foydasini ko'zlab keldim. Jamoat uchun o'n so'm xarjlansa nima qilibdi! Boshqa hech narsa darkor emas, taqsir.

Dikoy. Kim biladi seni, balkim o'g'irlab qocharsan!

Kuligin. O'z mehnatimni ayamay, hammasini tekinga qilmochiman-u, yana nimani o'g'irlab qochaman, janoblari? Bu yerda meni hamma biladi, mening to'g'rimda hech kim yomon gapirmaydi ham.

Dikoy. Bilsa bilar, menga nima, men seni bilishni ham istamayman.

Kuligin. Xo'sh, Savel Prokofich janoblari, vijdonli odamni xafa qilasiz-a?

Dikoy. Men senga hisob berishim kerakmi! Sendan kattarogg'iga ham hisob bergen emasman. Sening haqingda shu fikrdamanmi, o'z fikrimdan qaytmayman. Balkim boshqalar uchun insofli, vijdonli odamdirsan, ammo mening uchun qaroqchi, muttahamsan, gap tamom, vassalom! Mendan shu so'zlarni eshitmoqchimiding? Unday bo'lsa, qulq sol! Sen – qaroqchisan! Tamom! Yo men bilan qozilashmoqchimisan! Sen shuni bir bilib qo'y, sen chuvalchangsan, xohlayman rahm qilaman, xohlayman yanchib o'tib ketaman.

Kuligin. Ixtiyorингиз, Savel Prokofich! Men, taqsir, kichkina odamman, meni ranjitish qiyin emas. Lekin, janoblari, sizga shuni aytishim kerakki, «usti yirtiqlar ham sahovatl bo'ladilar».

Dikoy. Sen menga to'nglik qilma! Bilasanmi, to'nglik qilma!

Kuligin. Men sizga hech to'nglik qilayotganim yo'q, taqsir, faqatgina vaqt kelib shahar uchun biror foydali ish qilarsiz deb gapirayapman. Qurbingiz bo'lsa yetarli, janoblari, bunday saxovatli

ishlar uchun faqat ixlos bo'lsa bas. Misol uchun hozirni olsak, tez-tez momaqaldiroq bo'lib turibdi, lekin bunga qarshi biror chora ko'rganimiz yo'q.

Dikoy (*gerdayib*). Bularning hammasi behuda gap!

Kuligin. Nega behuda gap bo'lsin, tajriba qilib ko'rishgan-ku.

Dikoy. Momaqaldiroqqa qarshi qanaqa asbobing bor?

Kuligin. Po'latdan qilingan.

Dikoy (*g'azab bilan*). Xo'sh, tag'in nimang bor?

Kuligin. Po'lat ustunlar.

Dikoy (*borgan sari jahli chiqib*). Po'lat ustunlaringni eshitdim, jin urgur, tag'in nimang bor? Ustunlarni bo'lsa tuzatibsan! Xo'sh, tag'in-chi?

Kuligin. Boshqa hech narsa.

Dikoy. Seningcha momaqaldiroq o'zi nima? A? Qani gapir, nima?

Kuligin. Elektrichestvo.

Dikoy (*depsinib*). Qanaqa ilinrichistva! Shu gapingdan keyin, qanaqasiga endi muttaham emassan-a! Momaqaldiroqni xudo gunohlarimiz ko'paygani uchun yuboradi, sen bo'lsang, qandaydir temir xodalar, panskaxalar bilan momaqaldiroqni qaytarmoqchi bo'lasan, xudo yo'zing kechir! Nima, sen tatarmisan, a? Gapir, tatarmisan?

Kuligin. Savel Prokofich janoblari, Derjavik shunday degan edi:

*O'lganimda butun gavdam chirib ketajak,  
Lekin aqlim chaqmoqlarga amr etajak.*

Dikoy. Mana shu so'zlarining uchun seni hokim to'raga tutib berish kerak, sening adabingni o'sha beradi! Hoy, xaloyiq, eshitding-larmi, buning gaplarini!

Kuligin. Bunga itoat qilishdan bo'lak chora yo'q! Mening ham millionim bo'lgandan keyin gaplashaman! (*Qo'l siltab chiqib ketadi*.)

Dikoy. Qayerdan topasan, o'g'irlaysanmi? Ushlang uni! Obbo muttaham o'g'ri-yey! Bu xalq bilan muomala qilish uchun qanday odam bo'lish kerak, bilolmay qoldim. (*Xalqqa murojaat qilib*.) Hoy la'natilar, kimni gunohga botiryapsiz! Bugun o'zimni tutmoqchi edim,

u bo'lsa, jo'rttaga jahlimga tegib ketdi. Go'ringda to'ng'iz qo'pgur-ey.  
(*Zarda bilan.*) Yomg'ir tindimi o'zi?

Birinch'i. Tindi shekilli.

Dikoy. Tindi shekilli-ya! Sen ahmoq, bunday chiqib qara!  
Shekilli-ya.

Birinch'i (*gumbaz ostidan chiqib*). Tinibdi!

Dikoy chiqib ketadi, uning orqasidan boshqalar ham chiqib ketishadi. Sahna  
biroz bo'sh qoladi. Keyin Varvara shoshib gumbaz ostiga keladi, bekinib turib  
atrofni kuzatadi.

## UCHINCHI SAHNA

Varvara va keyin Boris kiradi.

Varvara. Boris shekilli.

Sahna ortida Boris ko'rindi.

Ts-s, Ts-s (*Boris u yoq-bu yoqqa qaraydi.*) Bu yoqqa kel. (*Qo'li  
bilan imo qiladi.*)

Boris kiradi.

Endi nima qildik? Ayt, nima qilamiz.

Boris. Nima bo'ldi?

Varvara. Xudo urdi! Eri kelib qoldi, bilmadingmi? Kutmaganda  
kelib qolsa bo'ladimi!

Boris. Yo'q, xabarim yo'q edi.

Varvara. Katerina nima qilishini bilmay boshi qotib qoldi.

Boris. Xayriyat, eri yo'qligida o'n kungina o'ynab qolgan ekan-  
man. Endi uni ko'rish ham amrimahol.

Varvara. Hali sen shunaqamisan! Quloq sol! Xuddi bezgak  
tutgandek titraydi; rangi oppoq, bir narsasini yo'qtgan odamday uyda  
izg'ib yuribdi. Ko'zlar bo'lsa chanog'idan chiqay-chiqay deydi! Bu-  
gun ertalab rosa uvvos solib yig'ladi. Ey xudoyim, nima qilishimni  
ham bilmayman.

Boris. Balkim yupanib qolar!

Varvara. Yupanmas-ov! Erining ko'ziga qarolmaydi. Onam  
buni payqab qoldi, endi xuddi ilonday poylab yuribdi, buni ko'rib  
u battar bo'layapti. Bechoraga rahmi keladi kishining! O'zim ham  
qo'rquyapman.

Boris. Sen nimadan qo'rqasan?

Varvara. Sen uni bilmaysan! U juda g'alati. Uning qo'lidan hamma ish keladi! Shunday qiladiki...

Boris. E Xudo! Nima qilish kerak-a? Sen unga yaxshilab gapir-sang bo'lardi. Nahotki gapga qulq solmasa?

Varvara. Gapirdim. Hech qulq solmaydi. Yaxshisi, indamaganing durust.

Boris. Seningcha u nima qilishi mumkin?

Varvara. Erining oyog'iga yiqiladi-yu, hammasini aytadi. Men mana shundan qo'rqiypman.

Boris (*cho'chib*). Nahotki shunday qilsa!

Varvara. Uning qo'lidan keladi.

Boris. Hozir qayerda?

Varvara. Hozir eri bilan boqqa chiqishdi, onam ham birga. Itsasang sen ham bor. Yo'q, yaxshisi, qo'y, borma, yana o'zini yo'qtib qo'ymasin tag'in.

Olisdan momaqaldiroq ovozi eshitiladi.

Momaqaldiroqmi? (*Qarab.*) Yomg'ir ham tomchilayapti. Hamma shu yoqqa kelayapti. Bo'l, biror joyga bekin, men shu yerda turay, yana ko'ngillariga biror narsa kelmasin.

Turli martabadagi bir necha erkak va ayollar kiradi.

## TO'R TINCHI SAHNA

Odamlar, keyin Kabanova, Kabanov, Katerina va Kuligin kiradi.

Birinchisi. Bu xotin juda qo'rqiayapti deyman, qochishini qara.

Ayol. Qochib nima qilardi, peshonasiga bitgani bo'ladi.

Katerina (*chopib kirib*). Oh, Varvara! (*Varvaraning bilagidan mahkam ushlaydi.*)

Varvara. Bas, senga nima bo'ldi!

Katerina. Ajalim yetdi!

Varvara. Og'zingdan shamol olsin! Esingni yig'!

Katerina. Yo'q! Choram yo'q. Qo'limdan hech narsa kelmaydi. Yuragim ezilib ketdi, yuragim.

Kabanova (*kirib*). Bandasi har qanday narsaga tayyor bo'lishi kerak, ana shunda qo'rquv degan narsani bilmaydi.

K a b a n o v . Uning qanaqa gunohi bo‘lsin, onajon, hammamizning gunohimizdek gunohi bor-da, uning ham, u faqat tabiatdan qo‘rqtyapti, xolos.

K a b a n o v a . Sen qayerdan bilasan? Birovning ko‘nglidagini bilib bo‘ladimi?

K a b a n o v (hazillashib). Yo men yo‘g‘imda biror narsa bo‘ldimi, borimda-ku, hech narsa bo‘lmagan edi.

K a b a n o v a . Ehtimol, sen yo‘g‘ingda...

K a b a n o v (hazillashib). Katya, agar biror gunoh qilgan bo‘lsang, yaxshisi tavba qilib qo‘yaqol. Baribir, mendan yashirolmaysan, bilib olaman! Hammasini bilib olaman!

K a t e r i n a (Kabanovning ko‘ziga tikilib). Jonim!

V a r v a r a . Nega bunga osilasan! Ko‘rmayapsanmi, shuning o‘zi ham unga yetar.

B o r i s odamlar orasidan chiqib keladi va K a b a n o v l a r bilan salomlashadi.

K a t e r i n a (qichqirib yuboradi). Voy!

K a b a n o v . Nega qo‘rqding! Yo begona deb o‘yladingmi? Tanishimiz-ku! Amakingiz yaxshimi?

B o r i s . Xudoga shukur!

K a t e r i n a (Varvaraga). Unga nima kerak yana mendan?.. Yo unga shuncha chekayotgan azoblarim yetmaydimi? (Varvaraning yelkasiga boshini qo‘yib yig‘laydi.)

V a r v a r a (onasi eshitsin uchun qattiq gapiradi). O‘zimiz nima qilishimizni bilmay turibmiz-u, yana bu begonalarning suqilganini! (Borisga imo qiladi, u eshik tomonga borib turadi.)

K u l i g i n (o‘rtaga chiqadi, odamlarga murojaat qilib). Xo‘sh, nimadan qo‘rqsizlar, qani aytinlar-chi?! Har bir giyoh, har bir gul xursand-ku, nega biz ofat kelgandan qo‘rqib qochamiz! Xuddi momaqaldiriq o‘ldirib qo‘yayotgandek! Bu momaqaldiriq emas, xudoning rahmati! Ha, rahmati! Sizlar bo‘lsa qo‘rqib qaltiraysizlar. Yoy-kamalak ko‘rinadi, tomosha qilish kerak; «qorong‘i mamlakatlarda tong otadi!» degan eskilarning so‘zi haqligiga iqror bo‘lish kerak! Sizlar bo‘lsa qo‘rqqaniningizdan bu yo urush keltiradi, yo bo‘lmasa ofat, deb vahima solasiz! Quyruqli yulduz tushib kelganda ham, men qochmas edim, naqadar go‘zal! Oddiy yulduzlarni bo‘lsa har kun ko‘ramiz, hechqanday yangilik yo‘q, bu-chi, yangilik, maza qilib tomosha qilar

edim! Sizlar bo'lsa shunchaki osmonga qarashga ham qo'rqib qaltiray-sizlar! Har narsadan vahimaga tushasizlar. Eh, attang! Mana men, hech qo'rqlayman. Qani ketdik, taqsir!

Boris. Ketdik! Bu yerda turish qo'rinchliroq!

Chiqib ketishadi.

## B E S H I N C H I   S A H N A

Boris va Kuligindan boshqa hammasi.

K a b a n o v a . Nasihatini qarang, bu fosiqni! Rosa vaysadi, nima ham deymiz! Xo'p g'alati zamonlar bo'lyapti-da, hali qarilar shunaqa desa, yoshlardan nima kutar edik!

A y o l . Osmanni rosa bulut bosdi-da, go'yo parda qopqoq bosib qo'yganday.

B i r i n c h i . Ana unga qara, og'ayni, xuddi joni bordek. Tepamizga bosib kelishini ko'r!

I k k i n c h i . Mening gaplarim esingda bo'lsin. Bu momaqaldiroq bejiz emas. Haq gapni aytayapman, bilaman. Yo biror kishini o'ldiradi, yo bo'lmasa uyni yondiradi, mana ko'rasan, rangini qara, hech bunaqasini ko'rmagan edik!

K a t e r i n a (*quloq solib*). Ular nima deyishyapti? Biror kishini o'ldiradi, deyishyapti-ku.

K a b a n o v . Ular shunaqa og'ziga kelgan bemaza gaplarni gapiraveradi.

K a b a n o v a . Sen o'zingdan kattaga til tegizma! Ular sendan ko'ra ko'proq bilishadi. Keksalar bilib gapiradi, ha. Keksa odam bekorga javramaydi.

K a t e r i n a (*eriga*). Tisha, men kimni o'ldirishini bilaman.

V a r v a r a (*Katerinaga ohista*). Og'zingni yum!

K a b a n o v . Sen qayerdan bilasan?

K a t e r i n a . Meni o'ldiradi. Meni duo qilinglar!

Xizmatkorlari bilan boy xotin kiradi.

K a t e r i n a qo'rqib baqiradi-da, yashirinadi.

## OLTINCHI SAHNA

Avvalgilari va boy xotin.

Bo'y xotin. Nega qochasan! Qochmay qo'yaqol! Qo'rqtyapsan-mi, o'lishni istamaysan-a! Yashashni istaysan-a! Nega yashashni istamas ekansan! Jamolingni qara! Xa-xa-xa! Chiroylisan! Xudoga sig'in, ibodat qil, seni husningdan mahrum qilsin! Chiroy boshga bir balo! O'zingni ham, boshqani ham xarob etasan! Ana o'shanda ko'rasan husningni! Ko'pgina odamlarni gunohga qo'ysan! Mana shu husn deb, ular bir-birini pichoqlashadi. Rosa qiziq bo'ladi-da! Keksalar ham, qarib-chirib, yo'lidan go'ri yaqin bo'lib qolgan bo'lsa ham, nomusini yutib, husn-chiroyga aldanishadi! Bularning gunohlari uchun kim javobgar? Bular uchun sen javob berasan, sen! Yaxshisi, bu husn bilan o'zingni daryoga ot! Tezroq bo'l, ha, tezroq!

Katerina o'zini bekitadi.

Qayerga qochasan, tentak! Xudodan qochib qutulolmaysan! Ham-mangiz do'zaxning olovida yonasiz!

Chiqib ketadi.

Katerina. Oh! O'laman!

Varvara. Nega o'zingni qiynaysan?! Bir chetga o'tib ibodat qilib ol, balki yengil tortarsan.

Katerina (*devor yoniga boradi va tiz cho'kadi, keyin birdan irg'ib turadi*). Oh! Do'zax! Jahannam! O'tli ajdaho!

Kabanov, Kabanova va Varvara uni o'rab olishadi.

Yuraklarim pora-pora bo'ldi! Ortiq toqatim qolmad! Onajon! Tixon! Men xudo oldida-yu sizlarning oldingizda gunohkorman! Sen yo'qligingda nomahramga nazar solmayman deb qasam ichganim esing-dami?! Esingdami, ayt, esingdami? Men sharmanda sensiz nima qilgan-nimni bilasanmi? Sen ketgan kuniyoq kechasi uydan chiqib ketdim...

Kabanov (*o'zini yo'qotib, ko'z yoshi qilarkan, Katerinaning yengidan tortadi*). Bas, bas! Gapirma! Senga nima bo'ldi! Onam shu yerda-ya.

Kabanova (*g'azab bilan*). Uchini chiqarib qo'yganiningdan keyin, gapir endi.

Katerina. O'n kun o'ynadim... (*Yig'laydi.*)

Kabanov uni quchoqlamoqchi bo'ladi.

Kabanova. Tegma unga! Kim bilan?

Varvara. Yolg'on, yolg'on aytayapti. Nima deyayotganini o'zi ham bilmaydi.

Kabanova. Jim tur sen! Senga nima? Xo'sh, kim bilan, ayt!

Katerina. Boris Grigorich bilan.

Momaqaldiroq guldiraydi

Oh! (*Erining qo 'liga hushsiz yiqiladi.*)

Kabanova. Xo'sh, o'g'lim! Bo'sh qo'yib berishning natijasini bilingmi endi? Men aytgandim-ku, quloq solmading! Ko'rgilgingni ko'r endi!



## BESHINCHI PARDА

Birinchi pardadagi dekoratsiya. Oqshom payti.

### BIRINCHI SAHNA

Kuligin skameykada o'tiribdi. Bog' tomonidan Kabanov o'tadi.

K u l i g i n . (*Kuylaydi.*)

*Tun zulmatida qoplandi osmon,  
Kishilar rohatda uxlaydilar shu on...*

(*Kabanovni ko'rib qolib.*) Assalomu alaykum, taqsir! Yo'l bo'lsin? K a b a n o v . Uyga. Bizning voqeamizni eshitdingmi, og'ayni?! Og'ayni, butun oila ostin-ustun bo'ldi.

K u l i g i n . Eshitdim, taqsir, eshitdim.

K a b a n o v . Moskvaga borganimni bilarmiding? Ketish oldidan onam rosa nasihat qildi, qani qulog'imga kirgan bo'lsa, ostonadan bir qadam chiqishim bilanoq rosa aysh qildim. Erkinlikka chiqqanimga xursand bo'lib toza o'zimni qo'yib yubordim. Yo'l bo'yi ichib ketdim, Moskvada ichganimni aytmaysanmi. Bir yilligini biryo'la o'ynab keldim-da. Uy-ichim sira esimga kelmasa. Bunday bo'lishi xayolimga ham kelmagandi. O'zing eshitdingmi?

K u l i g i n . Eshitdim, taqsir.

K a b a n o v . Baxtsiz odam ekanman, og'ayni! Bekordan bekorga halok bo'layapman.

K u l i g i n . Onangiz juda shaddot xotin-da.

K a b a n o v . Shunaqa. Hammasiga onam sababchi! Og'ayni, insof bilan ayt-chi, o'zing, menga bu nima ko'rgilik! Hozirgina Dikoyning oldiga kirdim, nima deysan, oz-moz ichib oldim ham, yuragimdan biroz nari ketarmikin deb o'ylagandim, yo'q, battar bo'ldi, Kuligin! Xotinim qilgan gunohni sira kechirib bo'lmaydi.

K u l i g i n . Shunaqa, qiyin, taqsir! Tushunish qiyin bunga.

K a b a n o v . Yo‘q, shoshma! Bundan yomon narsa bormi! Buning uchun uni o‘ldirsang ham ozlik qiladi. Onam bo‘lsa, uni tiriklay ko‘mish kerak, toki jazosini tortsin, deydi. Men uni yaxshi ko‘raman, hatto chertishga ham ko‘zim qiymaydi. Biroz urdim, buni ham onam o‘rgatdi. Sho‘rlikni ko‘rgan sari achinaman, Kuligin. Uni onam tiriklay g‘ajib tashlaydi, o‘zining ham so‘rrayib soyasi qoldi. Yig‘lagani yig‘lagan. Ahvoliga qarab ichim tuz sepganday achishadi.

K u l i g i n . Nima bo‘lsa ham, taqsir, ish yotig‘i bilan bo‘lgani durust edi! Kechirsangiz bo‘lardi, hadeb yuziga solish ham yaxshi emas. O‘zingiz ham juda pok emassiz-ku!

K a b a n o v . Nimasini aytasan!

K u l i g i n . Shunday bo‘lgandan keyin, hadeb ichib olib ko‘iyievermang-da! Xotin bo‘lsa shunchalik bo‘lar-da, taqsir.

K a b a n o v . Bilasanmi, Kuligin, menga qolsa-yu, bu hech gap emas edi-ya, onam qo‘ymayapti-da... Unga gap uqtirib bo‘ladimi!..

K u l i g i n . O‘z aqlingiz bilan ish tutadigan vaqtingiz, taqsir...

K a b a n o v . Nima qilay, o‘zimni o‘ldiraymi?! Seni hali aq-ling yo‘q deyishadi. Bundan chiqdi, umrbod birovning aqli bilan kun ko‘rishim kerak ekan-da. Mana bo‘lmasa deb, bor-yo‘g‘imni sovurib ichaman-da, ana o‘shanda ko‘radi, biram jinnilik qilayki, onam ko‘rib yoqasini ushlasin.

K u l i g i n . Ey, taqsir, ey, bo‘lar ish bo‘pti. Xo‘sh, taqsir, Boris Grigorichga nima bo‘ldi?

K a b a n o v . U iflosni amakisi xitoylarning Tyaxta degan yurtiga jo‘natyapti. U yerda amakisining bir tanish savdogar oshnasi bor ekan, o‘shaning oldiga uch yilga ketadi.

K u l i g i n . Xo‘sh, o‘zi nima deydikin, taqsir?

K a b a n o v . Lo‘lilik qilayapti, yig‘laydi xolos. Boya amakisi bilan uni rosa iskanjaga oldik, toza so‘kdik. Lom demaydi. Yovvoyi odamlarga o‘xhab qolibdi. Meni nima qilsanglar qilinglar-ku, uni qiy-namanglar, deydi! Uning ham Katerinaga rahmi keladi.

K u l i g i n . O‘zi yaxshi odam, taqsir.

K a b a n o v . Ketishiga hozirlik ko‘rilgan, otlar ham tayyor. Lekin juda xafa. Bilib turibmanki, Katerina bilan xayrlashishni istaydi. Xayrlashib bo‘pti! Bas! Axir u mening dushmanim, Kuligin! Uni tilka-pora qilib tashlasa ham oz.

K u l i g i n . Dushmaningiz bo‘lsa ham kechirishingiz kerak, taqsir!

K a b a n o v . Bor, shu gaplaringni onamga aytib ko'r-chi, onam nimalar derkin. Shunaqa, og'ayni oilamiz butunlay chok-chokidan so'kilib ketdi. Qarindosh-urug'lik u yoqda tursin, bir-biriga dushman-a, Varvarani ham onam hol-joniga qo'y may qiyagan qiyagan edi, nima qildi degin, uydan qochdi-ketdi.

K u l i g i n . Qayoqqa?

K a b a n o v . Kim biladi qayoqqa. Vanka Kudryash bilan qochib ketgan deyishyapti, u ham ko'rinmay qoldi. Senga rostini aytish kerak, Kuligin, bunga ham onam sababchi, chunki uni ham hech yerga chi-qarmasdan siqib suvini ichardi. «Bunday qilmang, yomon bo'ladi!» der edim. Mana aytganim bo'ldi. Endi men nima qilsam bo'ladi, qani ayt-chi! Yo'l-yo'riq ko'rsat, og'ayni! Uydan bo'lsa ko'nglim sovib ketdi, el ko'zidan uyalaman, biror ish qilay desam, qo'lim bormaydi. Mana, hozir uyg'a ketayapman-u, ammo yuragim dov bermaydi, ko'nglim g'ash.

G l a s h a kiradi.

G l a s h a . Sho'rim qursin, Tixon Ivanich!

K a b a n o v . Yana nima balo bo'ldi?

G l a s h a . Uy-ichi notinchroq bo'lib turibdi!

K a b a n o v . O'zing panoh ber! Kundan kun battar! Gapirsang-chi, nima bo'ldi!

G l a s h a . Sizning xotiningiz, bekam...

K a b a n o v . Nima bo'ldi? O'ldimi?

G l a s h a . Yo'q, qayergadir ketibdi, hech yerdan topolmadik. Qidirmagan joyimiz qolmadi.

K a b a n o v . Kuligin, og'ayni, tezroq borish kerak, qidirish kerak. Og'ayni, bilasanmi, men nimadan qo'rqaman? Yana alamiga chidamay, o'zini biror balo qilib qo'ymasin tag'in! Keyingi kunlarda uni qayg'u-alam yeb qo'ysi! Turib-turib yuragim achishadi. Nega qaramadilaring! Ko'p bo'ldimi ketganiga?

G l a s h a . Hozirgina. Ko'rmay qolibmiz, ayb bizda. Tokaygacha ham qo'riqlaysan, kishi.

K a b a n o v . Nega qarab turibsan, chop!

G l a s h a chiqib ketadi.

Yur, Kuligin, biz ham ketdik!

Chiqib ketishadi.

Sahna biroz bo'sh qoladi. Ikkinci tomondan bitta-bitta bosib

K a t e r i n a kiradi.

Katerina (*yolg'iz*)<sup>1</sup> Yo'q, hech yerda yo'q! U bechora endi nima qilyapti ekan? Faqat xayrlashib olsam ham mayli edi, undan keyin... Undan keyin o'lsam ham mayli! Nega uni balolarga giriftor qildim? Bundan menga ne foyda! Bir o'zim halok bo'lsam bo'lmasmidi! O'zimni ham, uni ham halok qildim, o'zimning sharmanda bo'lganim yetmay, uni ham ta'na-yu malomatlarga qo'ydim. Ha! O'zimni sharmanda-yu sharmisor qildim, uni ham ta'nalarga qo'ydim! (*Jimlik.*) Esimga solay-chi, u nimalar degan edi-ya? Naqadar menga rahmi kelardi uning? Qanday gaplar aytgan edi-ya? (*Boshini changallab.*) Esimda yo'q, hammasini unutibman. Tunlar, bu qorong'i tunlar mening uchun azobdan boshqa narsa emas! Hamma uxlaydi, men-chi? Men lahatga kirganday bo'laman. Buncha ham dahshat bo'lmasa bu qorong'i lahat! Avval qandaydir ola-g'ovur keladi, go'yo birovni dafn qilayotganday kuy ham eshitiladi... Yorug' jahonni ko'rishga oshiqasan kishi! Ammo turging kelmaydi, negaki, yana o'sha odamlar, yana o'sha gap-so'z, yana o'sha azob-u uqubat. Nega ular menga shunday qaraydilar-a? Nega o'ldirib qo'yaqolmaydilar-a? Nega bunday qilishdi? Ilgarigi vaqt-larda o'ldirishar edi, deydilar. Meni ham Volgaga tashlab yuborishsa bo'lmaydimi, jon derdim-a. «Seni o'ldirsalar, unda sen gunohingdan xalos bo'lasan, undan ko'ra tirik jasad bo'lib umring azob-uqubatlarda o'tsin» deydilar. Yetar, shuncha azob chekkanlarim! Yo hali bu chekkan azoblarim ozmi? Endi men yashab ham nima qildim, nima qildim? Endi menga hech narsa kerak emas, hech narsa, bu yorug' dunyodan ham bezdim! Oh, ajal tezroq kelsa edi! O'limni chaqirgan sayin, sendan nari qochadi-ya. Nimani ko'rmayin, nimani eshitmayin (*yuragini ko'rsatib*) faqat mana shu yerim tuz sepganday achishadi, u bilan yashasam, ehtimol, yaxshi kunlarni ham ko'rardim... Nima ham qildim, endi baribir, yuragim allaqachon xarob bo'lgan. Usiz endi men chidolmayman! Oh, usiz chidolmayman endi! O'zingni ko'rmaganimga yarasha, hech bo'lmasa arz-dodimni eshit! Oh! Sho'x shamollar, unga mening qayg'u-alam, yurak hasratlarimni yetkazingiz! Yo rabbiy, ezilib ado bo'ldim! (*Qirg'oqqa boradi va tovushining boricha.*) Quvonchim, hayotim, jonim, seni sevaman, seni! Javob bersang-chi! (*Yig'laydi.*)

Boris kiradi.

<sup>1</sup> Mana shu monologni va bundan keyingn so'zlarni cho'zib, takrorlab, o'ychan va goho o'zini yo'qotib gapiradi.

## UCHINCHI SAHNA

Katerina bilan Boris.

Boris (Katerinani ko'r may). Yo rabbiy! Bu uning ovozi-ku! O'zi qayerda ekan? (Atrosga qaraydi.)

Katerina (chopib borib bo'yniga osiladi). Seni ham ko'rар kun bor ekan-ku! (Uning ko'ksiga boshini qo'yib yig'laydi. Jimlik.)

Boris. Mana, birlagalashib yig'lab ham oldik.

Katerina. Meni unutmadingmi?

Boris. Nega unutay, senga nima bo'lди?!

Katerina. Oh, yo'q, yo'q, unday demoqchi emasdim. Xafa bo'ldingmi?

Boris. Nega xafa bo'lay?

Katerina. Unday bo'lsa kechir meni. Senga yomonlik qilish niyatim ham yo'q edi; o'z ixtiyorim o'zimda emas edi. Senga nima degan bo'lsam, nima qilgan bo'lsam, o'z erkimdan beixtiyor qildim.

Boris. Bas, gapirma endi, gapirma!

Katerina. O'zing-chi? O'zing nima qilasan endi?

Boris. Ketayapman.

Katerina. Qayoqqa ketayapsan?

Boris. Olisga, Katya, Sibirga.

Katerina. Meni ham birga olib ket!

Boris. Iloji yo'q, Katya. Men o'z ixtiyorim bilan ketayotganim yo'q, amakim jo'natayapti, otlar ham tayyor, bir zumga amakimdan so'rab chiqdim, hech bo'lmasa, sen bilan birga yurgan joylar bilan xayrslashmoqchi edim.

Katerina. Bor, xudoga topshirdim! Meni ko'p o'ylama. Avval sen bechoraga qiyin bo'ladi, keyin esingdan ham chiqib ketar.

Boris. Mening uchun ham g'am yema! Mening o'z erkim o'zimda. Sen nima qilasan, sen? Qaynanang nima deyapti?

Katerina. Siqib suvimi ichayapti, uydan eshikka chiqarmaydi. Hammaga, erimga ham, «bunga ishonma, bu ayyor» deydi. Hammasi meni kun bo'yi poylagani poylagan, mazax qilishadi. Har bir so'zi bilan chaqib olishadi.

Boris. Ering-chi?

Katerina. Goh yumshab qoladi, goh zahrini sochadi, siqib suvimi ichgani ichgan. O'lgudek ko'nglim qoldi undan ham, uning erkatalishlari go'yo toshdek botadi menga.

Boris. Qiyin ekan senga, Katya!

Katerina. Nimasini aytasan, bundan ko'ra o'lgan yaxshiroq!

Boris. Kim bilibdi deysan, sevgimizning bu qadar azob-uqubatga qolishini! Yaxshisi, ko'rinxasam bo'lar ekan!

Katerina. Seni ko'rdim-u, o'zimni baloga qo'ydim. Sevinchdan ko'ra azobni ko'proq tortdim! Bundan keyin ham tortaman! Nima bo'lishini o'ylab ham nima qildim endi. Seni ko'rdim-ku, shunga ham shukur, buni mendan ular tortib ololmaydilar, menga bundan bo'lak hech narsa kerak emas. Faqat seni ko'rsam bo'ldi menga! Mana endi ancha yengil tortdim, go'yo yelkamdan og'ir bir yuk tushganday bo'ldi. Seni mendan xafa, mendan rosa ranjigan bo'lsa kerak deb o'ylagan edim...

Boris. Qo'ysang-chi, shu gaplaringni.

Katerina. Yo'q, butunlay boshqa narsalarni gapi rayapman-a, men bunday demoqchi emasdim.

Boris. Yana bizni bu yerda birontasi ko'rib qolmasin!

Katerina. Shoshma, shoshma! Men senga bir narsa aytmoqchi edim! Unutib qo'ydim! Nima demoqchi edim-a? Xayollarim ham chal-kashib ketdi, esim qursin.

Boris. Vaqt bo'lib qoldi, Katya!

Katerina. Shoshmay tur, biroz to'xta!

Boris. Xo'sh, nima demoqchi eding?

Katerina. Hozir aytaman. (*O'ylanib.*) Ha! Yo'lda ketayotganningda uchragan gadoyga xayr-ehson qil, ularga tayinlaginki, mening gunohkor ruhimni duo qilishsin.

Boris. Oh, bu odamlar, sendan ajralishning naqadar qiyinligini bilishsa edi! Yo rabbiy, ilohim o'shalarning ham boshlariga xudo shu kunlarni solsin! Xayr endi, Katya! (*Quchoqlaydi va ketmoqchi bo'ladi.*) Rahmsizlar. Qotillar! Eh, kuchim bo'lganda edi!

Katerina. To'xta, to'xta! Kel so'nggi marta diydoringga bir to'yay! (*Uning ko'zlariga qaraydi.*) Bo'ldi, shunisi ham yetadi! Xudoga topshirdim, xayr. Mayli, bor, tezroq bor!

Boris (*bir necha qadam bosib to'xtaydi*). Katya, negadir xayolimga yomon o'ylar kelayapti. Yana biror narsa qilib qo'yimagin o'zingni? Yo'lda seni o'ylayverib qiyalmayin tag'in.

Katerina. Hechqisi yo'q! Xayr, xudoga topshirdim!

Boris unga yaqinlashmoqchi bo'ladi.

Kerak emas, kerak emas, bas!

Boris (*ho'ngrab*). O'zing bilasan! Faqat xudodan shuni so'rash kerakki, u tezroq qiyalmayroq o'lzin! Xayr. (*Ta'zim qiladi*.)

Katerina. Xayr!

Boris chiqib ketadi. Katerina uni ko'zi bilan kuzatib, biroz qotib turadi.

### TO'R TINCHI SAHNA

Katerina (*yolg'iz*). Endi qayoqqa bordim? Uyga boraymi? Yo'q, uyga borish – go'rga kirish bilan baravar. Ha, uyga borish nima-yu go'rga kirish nima!.. Go'rga kirish. Yaxshisi, go'rga... Qabring daraxt ostida... Qanday yaxshi-ya! Quyosh bo'lsa isitib, yomg'ir bo'lsa sug'orib turadi... Bahor kelishi bilan qabring ustini sabzalar qoplaydi, chiroyli gullar... Qushlar uchib kelib qabring ustidagi daraxtga qo'nadi, sayrashadi, inlar qo'yishadi, bola ochishadi, gullar ochiladi: sariq, qizil, noformon... Har xil (*o'ylanib*), har xil... Shu qadar osoyishta, shu qadar jimjit! Naqadar yaxshi! Menga ham yengil! Hayot to'g'risida o'ylaging ham kelmaydi. Hayot! Yo'q, yo'q, kerak emas... Bas! Odamlardan ham, uydan ham, hatto devorlardan ham ko'nglim qoldi. Bormayman! Yo'q, yo'q, bormayman! Oh, qorong'i ham tushib qoldi! Yana qayerdadir kuylashyapti! Nimani kuylashyaptikan? Tushunmaysan kishi... Endi hozir ajal kelsa ham mayli edi... Nimani kuylashyapti-a? O'z aja-ling bilan o'lasanmi yoki o'zing o'zingni... Ortiq yashab bo'lmaydi! Gunoh! Duo qilishmaydimi? Kim sevsə o'sha duo qiladi... Qo'llaringni qovushtiradi-yu... tobutga soladi. Shunday qiladi... Esimga keldi! Agar tutib olib, zo'rlab uyga olib ketsalar-chi... Oh, tezroq, tezroq bo'lish kerak! (*Qirg'oqqa boradi. Qattiq*.) Aziz do'stim! Quvonchim! Alvido! (*Ketadi*.)

Kabanova, Kabanov, Kuligin va xizmatchi qo'lida chirog' bilan kiradi.

### BESHINCHI SAHNA

Kabanov, Kabanova va Kuligin.

Kuligin. Shu yerda ko'rvvdik deyishyapti.

Kabanov. Rostmikin?

Kuligin. Xuddi o'zini ko'rdik deyishyapti.

Kabanov. Xudoga shukur, tirik ekan.

Kabanova. Sen bo'lsang kayfing uchib, yig'lab yuribsan! Zab topib yig'labsan-da... Xavotir olma, hali biz u bilan ko'p mashaqqat tortamiz.

Kabanov. Uni bu yerga keladi deb, kim o'ylabdi. Shunday serqatnov joy. Bu yerga berkinib oladi deb o'ylamagandim ham.

Kabanova. Ko'rdingmi nima qilayotganini? Shunday battolki! O'z so'zining ustidan chiqmoqchi!

Har tarafdan chirog' ko'targan odamlar keladi.

Xalqdan biri. Nima bo'lди, topdinglarmi?

Kabanova. Yo'q hali. Ochiq mozorga kirkanga o'xshaydi, battol!

Bir necha ovozlar. Ana xalos! Buni qara-ya! Qayerga ketardi deysiz!

Xalqdan biri. Topiladi!

Boshqasi. Topilmasin-chi!

Uchinchi biri. Ko'rasan, o'zi kirib keladi hali!

Sahna orqasidan «Hoy, qayiq» degan ovoz eshitiladi.

Kuligin (*qirg'oqdan*). Kim u baqirgan? Nima bo'lди? Ovoz: «bir xotin o'zini suvgaga tashlab yuboribdi!»

Kuligin va uning ketidan bir necha kishi chopib chiqib ketadilar.

## OLTINCHI SAHNA

Avvalgilar, Kuligin yo'q.

Kabanov. Sho'rim qursin, bu uning o'zi! (*Yugurmoqchi bo'ladi, onasi qo'lidan ushlab qoladi.*) Onajon, qo'yvoring, endi o'lGANIM yaxshi! Olib chiqay, bo'lmasa o'zimni ham... usiz endi qanday yashayman!

Kabanova. Ovora bo'lma, qo'ymayman! Uni deb o'zingni halok qilishingga arzimaydi! Bizni oz sharmanda qildimi, yana bunisi ortiqcha!

Kabanov. Qo'yvoring!

Kabanova. Sensiz ham olib chiqadilar. Agar borsang oq qila man.

Kabanov (*tiz cho'kib*). Aqalli bir ko'rib olay, bo'lmasam.

Kabanova. Olib chiqqanlaridan keyin ko'rasan.

Kabanov (*o'rnidan turib, xalqqa*). Xo'sh, og'aynilar, ko'rinxmayaptimi?

Birinchisi. Past juda qorong'i, hech narsa ko'rinxmaydi.

Sahna orqasida ola-g'ovur.

I k k i n c h i . Bir narsalar deb baqirishyapti-yu, lekin hech narsaga tushunib bo‘lmaydi.

B i r i n c h i . Bu Kuliginning tovushi.

I k k i n c h i . Ana, chirog‘ bilan qirg‘ oqda yurishibdi.

B i r i n c h i . Shu yoqqa kelishyapti. Uni olib kelishyapti.

Bir qancha odam kirib keladi.

Q a y t g a n l a r d a n b i r i . Barakalla Kuliging! Shu yerda, qirg‘oqqa yaqin yerda girdobda, ko‘ylagini ko‘rib qolsa bo‘ladimi, tortib oldi azamat!

K a b a n o v a . Tirikmi?

B o s h q a s i . Tirik joyi qolibdimi? Baland qirg‘oqdan tashlabdi: bu yer jar, undan tashqari langarga tekkan bo‘lsa kerak, bechora! O‘zi, og‘aynilar, xuddi tirikka o‘xshaydi! Faqat chekkasi biroz yorilipti-yu, bir tomchigina qon chiqibdi, atigi bir tomchigina-ya.

K a b a n o v chopib chiqmoqchi bo‘ladi, shu choq K u l i g i n odamlar bilan  
K a t e r i n a n i ko‘tarib olib keladi.

## Y E T T I N C H I S A H N A

Avvalgilar va K u l i g i n .

K u l i g i n . Mana, endi oling Katerinangizni. Nima istasangiz shuni qiling! Jasadi shu yerda, ammo endi ruhi sizniki emas, endi uning ruhi sizdan ko‘ra shafqatliroq, xudoning oldida! (*Katerinani erga qo‘yib chopib chiqib ketadi*)

K a b a n o v (*o‘zini Katerinaga tashlab*). Katya! Katya!

K a b a n o v a . Bas! Bunga yig‘lash ham gunoh!

K a b a n o v . Onajon, uning boshiga siz yetdingiz! Siz, siz, siz...

K a b a n o v a . Nima bo‘ldi senga? Yo aqlingni yedingmi! Kim bilan gaplashayotganining unutma!

K a b a n o v . Siz boshiga yetdingiz! Siz! Siz!

K a b a n o v a (*o‘g‘liga*). Sen bilan uyda gaplashaman. (*Xalqqa ta‘zim qilib*.) Xizmatlarining uchun rahmat azizlar!

Hamma ta‘zim qiladi.

K a b a n o v . Endi sen rohatdasan, Katya! Men nega tirik qoldim, bu dunyoda azob chekib o‘tish uchunmi? (*Katerinaning jasadi ustiga yiqiladi*.)

P A R D A

## MUNDARIJA

Serdaromad joy. S. Muhamedov va T. Xo'jayev tarjimasi .....	3
Kambag'allik ayb emas. O. Rahimiyy tarjimasi .....	85
Sepsiz qiz. A. Turdiyev va Mirtemir tarjimasi.....	145
Momaqaldiroq. Ma'ruf Hakim tarjimasi.....	231

---

## Rus adabiyoti durdonalari

---

*Adabiy-badiiy nashr*

*Aleksandr Nikolayevich Ostrovskiy*

## SEPSIZ QIZ

Pyesalar

Nashr uchun mas'ul *M. Bo'ronov*

To'plab, nashrga tayyorlovchi *N. Abdurahmonova*

Muharrir *N. Abdurahmonova*

Rassom *R. Zufarov*

Badiiy muharrir *B. Zufarov*

Texnik muharrir *T. Xaritonova*

Kichik muharrir *M. Salimova*

Musahhih *S. Saloxutdinova*

Kompyuterda sahifalovchi *F. Hasanova*

Nashriyot litsenziyasi AI №158, 14.08.2009. Bosishga 2020-yil 28-fevralda ruxsat etildi.

Bichimi 60×90<sup>1/16</sup>. Ofset qog'ozisi. «Times New Roman» garniturasida  
ofset usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 18,5. Nashr tabog'i 17,79.

Adadi 10 000 nusxa. Buyurtma № 19-746.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy  
kommunikatsiyalar agentligining «O'zbekiston» nashriyot-matbaa  
ijodiy uyi. 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

e-mail: [uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz](mailto:uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz)

[www.iptd-uzbekistan.uz](http://www.iptd-uzbekistan.uz)









A. N. Ostrovskiy

«O'ZBEKISTON»

ISBN 978-9943-25-933-1

A standard linear barcode representing the ISBN 978-9943-25-933-1.

9 7 8 9 9 4 3 2 5 9 3 3 1